makon tutganlar. Xoʻjalikda oʻta muhim tarmoq inson organizmi uchun zarur proteinlarni beruvchi baliqchilik rivoj topadi. Keyingi maʼlumotlarga koʻra chorvachilik paydo boʻladi. Yana bir eng muhim yangilik neolit davridan boshlab hozirgacha qoʻllanib kelinayotgan sopol idishlar ishlab chiqarish kashf qilinadi. Buyumlarga badiiy naqshlar berish, ularning simmetrik tarzda ishlanishiga harakat qilish va yodgorliklardan topilgan koʻplab taqinchoqlar, tabiiy boʻyoqlar bu davrda estetik va tasviriy sanʼatning shakllanganligi va rivojlanishda boʻlganligidan dalolat beradi.

Kaltaminor madaniyatining ayrim yodgorliklaridagina uy-joy qoldiqlarini aniqlash mumkin boʻlgan madaniy qatlamlar saqlanib qolgan. Kam sonli bunday yodgorliklardan biri, yongʻin tufayli yaxshi saqlanib qolgan uy-joy Jonboz 4 makonidir. Ustun oʻralari va toʻsinlarining kuygan qoldiqlari uyning hajmi va uning strukturasi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Uy umumiy holda 300 $m^2$ maydonni egallaydi. Uyning oʻrtasida markaziy oʻchoq boʻlib, uni S.P.Tolstov diniy ahamiyatiga ega deb hisoblagan [13.60-62]. Enografik paralellar asosida asosan poyas qabilalarining uylariga taqqoslash orqali S.P.Tolstov Jonbos 4 m. li yirik karkasli chayla sifatidagi rekonstruksiyasini taklif qiladi [13.63]. Biroq fakt materiallarini qayta koʻrib chiqish va keng tahliliy tadqiqodlar natijasida M.P.Gryaznov ilk Kaltaminor davriga oid ushbu Jonbos 4 uyining S.P.Tolstovnikidan boshqacha koʻrinishdagi rekonstruksiyasini taklif qiladi. Ushbu rekonstruksiyaga koʻra uy sakkiz burchakli, tarxi yarim yertoʻla shaklidagi, sinch devorli va tomi gumbazsimon darvoza koʻrinishida boʻlgan (bunday tom Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan). Uyni issiq tutish uchun tomi kul va tuproq qatlami bilan qoplangan. Ushbu qatlamning izlari qazish jarayonida darboz tipidagi tom toʻsinlarining kuygan qoldiqlari ustidan topilgan. M.P.Gryaznovning fikricha, uyning umumiy balandligi 4 m boʻlgan. Aytish joizki, ushbu rekonstruksiya nafaqat qazish davomidag kuzatishlarga, balki issiq ubtropiklarga xos baland va yengil chayladan koʻra, koʻproq Xorazmning sovuq qishli kontinental iqlimiga ham mos keladi [14].

Bunday yirik uylar aftidan, Xorazm makonlariga xos boʻlgan. Masalan Qavat 7 makonidan topilgan uy joy maydoni 580 $m^2$ ekanligi aniqlangan [15,4-5]. Bu yerda madaniy qatlamlarning saqlanish darajasi Jonbosdagiga qaraganda ancha yomon va shu tufayli uyni barcha chegaralarini aniq belgilash imkoniyati yoʻq. Bu uy ham M.P.Gryaznov taʼkidlaganidek, yonma-yon joylashgan yarim yertoʻla koʻrinishidagi uy boʻlishi mumkin.

Kaltaminor madaniyatiga oid madaniy qatlamlar saqlanib qolgan. Uchinchi yodgorlik Darvozaqir boʻlib, bu yerda ham ustunli konstruksiya qoldiqlari aniqlangan. V.M. Massoning fikricha, bu uy emas balki qandaydir yordamchi xona boʻlgan, negaki, uning hududidan oʻchoq qoldiqlari topilmagan [16.137]. Oʻ.I.Islamovning yozishicha, bu yerda 8 Maydonda toʻrtburchakli uy boʻlgan. Arxeologik qazishmalar davomida Oʻ.Islamov darvozaqirliklar chaylalarda yashaganliklarini aniqladi. Bunday chaylalarning topilishi Kaltaminor madaniyatida yangi xildagi uy-joyning ochilishiga sabab boʻldi. Bu chaylalar bir necha madaniy qatlamdan iborat ekanligi maʼlum boʻldi va koʻpgina oʻsha davrga oid moddiy madaniy ashyolari qazib olindi. Manzilgohning maydoni tekis, tuprogʻi sargʻish boʻlib ustunlar uchun oʻyilgan chuqurchalarni kuyindi, qora tuproq va qum bosgan. Oʻrganilgan chaylalardan barini burchaklarida toʻrrta shimoliy sharq va janubiy gʻarb boʻylab ($35^o$ da) joylashgan. Bu qabrdan topilgan buyumlar Oʻrta Osiyo uchun ancha oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu toʻgʻri yoki oʻrtasi oʻyilgan shaklli bargsimon poynaklarning ilk bor (7 dona) koʻp uchrashidir. Ushbu qabrning sanasi soʻnngi neolit davri bilan belgilanishi mumkin [18]. Tadqiqotchilar tomonidan

oʻrganilgan Kaltaminor yodgorliklari urugʻ jamoalarining makonlari boʻlgan. Bu yerdan topilgan uy-joy qoldiqlarini bir yoki ikki yarim yer toʻladan iborat qarorgohlar deyish mumkin.

Kaltaminor madaniyatining arxaik koʻrinishi uning iqtisodiy asoslari bilan toʻliq mos keladi. Barcha maʼlumotlar Kaltaminorliklarning hali oʻzlashtiruvchi xoʻjalikka asoslangan hayot tarzida yashayotganligini koʻrsatadi. Ular iqtisodining asosiy tarmoqlari ovchilik va baliqchilik boʻlib ayrim joylarda terma, qisman chorvachilik bilan toʻldirilgan.

Kaltaminor madaniyati yodgorliklari va ularning geografik joylashuvi ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Ular dasht va choʻl hududlariga sochilgan daryo va koʻllar boʻylarida jipslashgan mavsumiy makonlardir. Xorazmda Kaltaminor makonlari Oqcha daryo deltalari boʻylari, ularning atrofidagi toʻqayzorlarga tutashgan yerlarda, hatto ayrim makonlar esa deltalar hosil qilgan orolchalarda joylashgan. Mashhur Jonbosqalʼa yodgorligi ana shunday orolchadan topilgan. Sariqamish yodgorliklari ham qirgʻoq boʻylab choʻzilgan holda joylashadi. Uzboyda Kaltaminor sohiblari tinch suv ortida, quyilishlarda va kichik koʻllar atrofida makon tutganlar. Katta va Kichik Tuzkon koʻllari esa Zarafshonning quyi oqimidagi neolit davri qabilalarining toʻplanadigan joyi boʻlib xizmat qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, kaltaminorlik, sazogʻonlik va Markaziy Fargʻonaning neolit davri aholisi nafaqat baliqchilik va ovchilik, balki chorvachilik bilan shugʻullangan jamoalardir. Ular oʻsha davrlardanoq qoramol, tuya va boshqa hayvonlarni xonakilashtirganlar. Qizilqumning teraklar oʻsgan qulay oʻtloqzorlarida bir joydan ikkinchi joyga koʻchib, mavsumiy uy-joylar qurib chorvachilik, baliqchilik va ovchilik bilan shugʻullangan. Qoʻshni madaniyatlar aholisi bilan doimiy aloqada boʻlganlar, shuningdek, mahalliy mezolit davri qabilalari asosida shakllangan va insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlari uchun zamin hozirlaganlar.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Виноградов А.В.неолитический памятники Хорезма-Москва:Наука, 1968. С. 142.
2. Толстов-С.П. Хорезмская археоло$_{o}$гическая экспедиция 1940 г. (четвертый полевой сезон работ экспедиции). КСИИМК вып 12. 1946 б. С. 34.
3. Итина М. А Памятники певобытной културы верхнего Узбоя ТХАА.
4. Толстов С.П., Кесъ А. С.,Итина М.А Адрянов Б.В.Низовъя Аму-Даръи, Сары-Камиш Узбой. История фромирования и заселения. МХЭ,3, 1960 С. 77.
5. Виноградов А. В. Раннекелътеминарская соянка Куняк 1. КСИЭ, вып.30. 1958 С. 4 Виноградов А.В Новые неолитические находки Хоразмской экспедиции АНСССРВ 1957 г. МХЭ Вып. 4, 1960, С,12,Виноградов А.В. новые материалы для изучения келътеминарской кулътуры. МХЭ, вып. 6. 1963, С.36.
6. Тереношкин А.И. Археологическая рекогносцировкав западной части Узбекистана. ВДИ. № 2. 1947, С 134: Вактурская Н.Н.О поездке в Южные Кызылкум в 1955 г МХэ. Вып 1. 1959, с.165
7. Гулямов Я.Г. Археологические работы к западу от Бухарского оазиса ТИИА АН УЗССР вып.8 1956, С 14.
8. Исламов У.И. Келътеминарская кулътура на Махандаръе. Научн. Работы и сообшения (АН УЗССР, отд Обществ. Наук). Кн. 4 Ташкент. 1961а, С. 38, Исламов У.Исламов Открытие неолитической кулътуры на Махандаръе. ОНУ.вып. 1 1961б, С. Там же С 39.

9. Исламов У.И. Неолитическая културa в низовъях Зарафшана автореф. дисс.канд. ист. наук. Л . 1963б С 16.
10. Виноградов А. В Келътеминарская културa. М. автореф. дисс.канд. ист. наук. Л . 1957б С 11
11. Виноградов А. В к вопросу о южных связах Келътеминарский културы. СЭ. № 1 1957 а С.44.
12. Виноградов А. В Деревние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. Моска 1981. – С. 118.
13. Толстов С. П. Деревный Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. Масква 1948а, С. 60-62.
14. Грязнов М.П. Окладников А.П Первобытнообшинний строй.В кн: История Киргизии 1,гл 1 Фрунзе. 1963 С 97.
15. Толстов С.П., Жданко Т. А., Итина М.А Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1958-1960 гг. МХЭ, вып. 6. 1963, С,4-5
16. Массон В.М. Средная Азия в эпоху камня и бронзы. –Москва: Наука, 1966. С 137.
17. Ягодин В.Н. Памятники кочевых племен древности и средневековья –веки. Древня и средневековья културa юга-восточного Устюрта. Ташкет. 1978, С. 148-151: Бижанов. Е.Первое неолитическое погребение на Устюрте. Ташкент. 1978. С. 250-252.
18. Выноградов А.В.,Итина М.А., Яблонской Л.Т. Древнейшее населения низовый Амудары. Археолого-палеантропологическое исслеедование. –Москва: Наука . 1986 С. 70.
19. Мирсоатова С.Т. Ўзбекистоннинг тош даври археологияси ва антропогенези масалалари. – Фаргона, 2017. – Б. 67-97.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*07.00.00 – Тарих фанлари*

**Музаффаржон Мансуров**
А.Авлоний номидаги миллий-тадқиқот
институти етакчи илмий ходими
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
muzaffarzhon.mansurov.86@mail.ru
**+99891-737-16-86**

## СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ТАШҚИ ТУРИЗМ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация.** Тадқиқот мақсади Совет Иттифоқи йилларида Ўзбекистонда ташқи туризм ривожланишининг ўзига хос хусусиятларини очиб беришдан иборат. Даврий чегараси 1924-1991-йилларни ўз ичига олади. Тадқиқот иши қиёсий-тадрижий, даврийлик методлари асосида хориж манбалари ҳамда Совет Иттифоқи йилларида нашр этилган газета ва журналлар асосида таҳлил қилинган. Тадқиқот иши хорижлик Абрамович, М.М. Лейкин, А.В. Козлитин, К.Л. Кочурова, Ю.С. Корзинников, А.А. Федотченко, В.К. Котляр, В.Л. Ярославцев, Т.Д Пирогова, Ф.А. Рокицкая каби олимларнинг тадқиқот методларидан фойдаланилди.

**Калит сўзлар:** туризм, ташқи туризм, паспорт режими, Интурист, пролетарт туризми, мехмонхона, божхона, саёҳат йўлланмаси..

**Музаффаржон Мансуров**
Национальный исследовательский им. А. Авлони
ведущий научный сотрудник института
Доктор философии по истории (PhD)

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ИНОСТРАННОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ СОВЕТСКОГО СОЮЗА

**Аннотация:** Цель исследования - выявить особенности развития иностранного туризма в Узбекистане в годы существования Советского Союза. Срок включает 1924-1991 годы. Исследовательская работа анализировалась на основе сравнительно-поэтапного, периодического методов с опорой на зарубежные источники и газеты и журналы, издававшиеся в годы существования Советского Союза. Научно-исследовательская работа иностранца Абрамовича, М.М. Лейкин, А.В. Козлитин, К.Л. Кочурова, Ю.С. Корзинников, А.А. Федотченко, В.К. Котляр, В.Л. Ярославцев, Т.Д. Пирогова, Ф.А. Использовались методы исследования таких ученых, как Рокицкая.

**Ключевые слова:** туризм, иностранный туризм, паспортный режим, Интурист, пролетарский туризм, гостиница, таможня, проездной.

**Muzaffarjon Mansurov,**
National research named after A. Avloni
leading researcher of the institute
Doctor of Philosophy in History (PhD)

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF FOREIGN TOURISM IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF THE SOVIET UNION

**Abstract.** The purpose of the research is to reveal the specific features of the development of foreign tourism in Uzbekistan during the years of the Soviet Union. The time limit includes the years 1924-1991. The research work was analyzed on the basis of comparative-gradual, periodical methods based on foreign sources and newspapers and magazines published during the years of the Soviet Union. Research work by foreigner Abramovich, M.M. Leikin, A.V. Kozlitin, K.L. Kochurova, Yu.S. Korzinnikov, A.A. Fedotchenko, V.K. Kotlyar, V.L. Yaroslavtsev, T.D. Pirogova, F.A. The research methods of scientists such as Rokitskaya were used.

**Key words:** tourism, foreign tourism, passport regime, Intourist, proletarian tourism, hotel, customs, travel pass.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N03

Совет Иттифоқида ташқи туризм давлат монопол ташкилоти “Интурист” томонидан XX асрнинг 30-йилларида чекланган даражада бўлса-да, йўлга қўйилган. Интурист нафақат туризм соҳаси билан шунингдек, хорижий мамлакатларнинг Совет Иттифоқига бўлган сиёсатини доимий мониторинг қилиб боиш билан ҳам шуғулланган. Бу бевосита совет сайёҳларини қайси давлатларга саёҳатга чиқишини белгилаш ҳамда хорижий мамлакат фуқароларига туристик визаларни беришда муҳим аҳамиятга эга бўлди. 1920-1930-йилларда Совет Иттифоқида хорижлик “исталмаган шахслар”нинг мамлакатга киришини олдини олиш бўйича махсус қўмита фаолияти йўлга қўйилган.

Илк маротаба расмий туристик фаолият 1930-1931-йилларда “Украина” ва “Абхазия” кемаларида Европа бўйлаб саёҳатлари ташкил этилиши билан бошланди. Бироқ, 1941-йилга қадар хорижий сайёҳларни қабул қилиш ва хорижга саёҳат қилиш мунтазам қисқариб борган. Бунинг асосий сабаби хориждаги харбий хавфнинг ортиши ҳамда “ташқи жосуслик” фаолиятидан қўрқув сабабли ташқи туризмда “турғунлик даври” сифатида қолди[**1.**].

Туризм соҳасида “туристик инқилоб” бу 1950-йиллардан кейинги даврга тўғри келади. 1955-1957-йилларда Совет Иттифоқида ташқи туризм фаолияти қайта кўриб чиқилди. Унга кўра, ташқи туризм “халқ демократик мамлакатларигагина” амалга ошириш тавсиялари берилди. Ғарб мамлакатларига саёҳатлар эса кейинроққа қолдириш кўрсатмалари берилган. Чиқиш визалари бериш тизими соддалаштирилди. Жамоавий виза бериш масалалари камида 9 кишидан иборат гурухларга рухсат берилган[**2.С37.**].“Халқ демократик мамлакатларга саёҳат” Касаба уюшмалари тавсиясига асосан “белгиланган тартибда” расмийлаштирилган. Курорт ваучерлари эса Соғлиқни сақлаш Министрлиги рухсати асосида амалга оширилган. 1955-йил 8-августда 384-сонли қарор асосида “Интурист”нинг янги низоми ишлаб чиқилди[**2.С38.**].

Хорижга саёҳат қилишда сайёҳ тўлиқ тиббий кўрикдан ўтиши лозим бўлган. Сурункали касаллиги бўлган ҳамда ёши катта шахсларнинг хорижга саёҳатга чиқишга рухсат берилмаган. Бошқа ҳолатларда рухсат берилмаслиги КГБ томонидан ўрганилиш натижаси асосида чекланиши мумкин бўлган. Хорижга саёҳат қилиши мумкин бўлмаган коммунизм ғоясига садоқатига шубҳа бўлган ҳамда яқин қариндошлари орасида сиёсий айблар билан қамалганлар, шубҳали ўтмишга эга бўлганлар саёҳатга чиқиши учун хорижий паспорт берилмаган.

Хорижий саёҳат йўналишларидан Болгария, Финландия, Хиндистон ва Германия бўйлаб саёҳатлар машхур бўлган. Африка мамлакатларидан Жазоир, Либерия, ЖАР, Мисрга ҳамда Япония ва Хитойга ҳам саёҳатлар чекланган миқдорда амалга оширилган.

Совет сайёҳлари аҳлоқий қиёфаси қанчалик юқори баҳоланмасин хорижга чиққанда оддий хожатхонадан фойдаланиш қоидаларини ҳам билмаслиги кулгуга қўйиган. Хориждан олиб келинган сувенир буюмлар орасида турли танга ва нишонлар, аёллар суратлари туширилган ручкалар, видео ва аудио ускуналари бўлган. Хорижга саёҳат қилувчиларнинг асосий қисмини аёллар ташкил этган. Бу эса айниқса курорт ҳудудларга амалга оширилган саёҳат давомида шахсий эхтиёжлари билан боғлиқ масалалар билан гуруҳдан ажраш ёки белгиланган меҳмонхоналарга келмаслик ҳолатлари учраб турган. Саёҳатга чиққан ёш қизлар хоналарига қоровул қўйиш холатлари ҳам учраган[**3.**].

Руминиянинг Ғарб индивидлизмига интилиши юқори бўлган ҳамда Совет Иттифоқининг коллективист сиёсатини ёқламаган. Руминияда ғарб ва Америка “оммавий маданияти” рок қўшиқ ва кинолар орқали кириб келиши уларнинг кайфиятига таъсир ўтказган. Руминия Совет Иттифоқидан келган туристлар учун махсус тур маршрутлар ишлаб чиққан. Шунингдек, турли совет диаспорасига мансуб сайёҳлар учун махсус тавсиялар ишлаб чиқилган[**4.**]. Жумладан, 1953-йилда Қашқадарёлик туристлар Руминиянинг Сталин шаҳрига саёҳатга юборилган. Сайёҳлар тарих музейи, Тампа тоғи этагидаги қадимий тюрма, трактор заводи билан танишган[**5.**]. 1960-йилда эса Карпат тоғлари орқали Юқори Бряза, Қуйи Бряза ва Пучежи шаҳарлари, Карпатда Совет уруш қаҳрамонлари қабрлари зиёрат қилинган[**6.**].

Чехославакияга 1960-йилдан 1985-йилгача Совет Иттифоқидан келган сайёҳлар оқими 6,2 фоиздан 25 фоизга кўтарилди. Совет Иттифоқи 1928-йилда қабул қилинган “Паспорт тўғрисида”ги қонун нормаларига кўра хориж мамлакатларда шарманда бўлиб қолмаслик ҳамда саёҳат давомида бошқа давлатга қочиб кетмаслик учун чеклов ўрнатилган. Ғарб мамлакатларга саёҳат қилган сайёҳлар сиёсий полиция кузатувида бўлган. Хорижга чиқиш паспорти фақат хорижга чиқиш мақсадини тўлиқ исботлаб берган тақдирдагина берилган.

1958-йилда 30 кишидан иборат туристик гурух Чехославакия Республикасига саёҳатга юборилган. Прагадаги “Свит” заводида чарм пояфзаллари ишлаб чиқариш жараёни билан танишган. Маданий ёдгорликлар жумладан, Прага шаҳрида қадимий қасрлар, 1300 йиллик тарихга эга Прага Кремли, Президент резидентцияси, Старомест, Вацлав майдони, ибодатхона ва театр биноларига экскурсиялар уюштирилган. Тинчлик хиёбонида Чехославакия озодлиги йўлида вафот этган ўзбек жангчилари қабрларига гулчамбарлар қўйилган[**7.**].

Андижондан Чехославакияга борган сайёҳларга чех экскурсавод аёл маданий ёдгорликлар билан таништириш ўрнига магазинлардан нималар сотиб олиш мумкинлиги тўғрисидагина маълумот берганлиги норозилик келтириб чиқарган. Сайёҳлар бу ерга буюм сотиб олиш учун эмас балки чех маданияти ва санъати билан танишиш учун келганликларини эслатиб қўйиган. Бироқ гид Ўзбекистондан келган сайёҳлар асосан турли буюмлар сотиб олишга қизиқиш билдирганлигини қайд этган. Туристик сафар давомида интизомсизлик қилувчи сайёҳларнинг ҳам мавжудлиги энг асосий муаммолардан бири ҳисобланган[**8.**].

Жиззахлик механизатор А. Алламуродов, Ш. Куразов, сут соғувчи С. Муҳаммедова, ишчи Р. Нуржоновлар самарали меҳнати учун ГДР бўйлаб саёҳат қилиш ҳуқуқини берадиган йўлланма билан тақдирланган бўлса, Зомин районида ташкил

этилган “Болалар ва ота-оналар” санаторийси хизматчилари меҳнат таътилини Чехославакия, ГДР, Венгрия каби мамлакатларга саёҳат қилиш орқали ўтказди. Мирзачўл, Ғаллаорол, Фориш районлари учун жами саёҳат қилиш учун 27 та йўлланма ажратилган бўлса-да, амалда 7 киши саёҳатга чиқди[**9.**].

КПСС Марказий Қўмитасининг 1956-йил 3-январда қабул қилинган “Совет фуқароларининг хорижга сафарларини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Хориж мамлакатларига асосан ўқитувчилар, шифокорлар ҳамда қишлоқ хўжалик ходимлари жўнатилган[**10.**]. XX асрнинг 60-йилларда ташқи туризмнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, ижтимоий фаолликни кучайтириш, йўналтирилган туризмни ривожлантириш, саёҳат динамикаси ва географиясини кучайтириш режалаштирилди. 1967-йилда БМТ томонидан “Халқаро туризм йили” деб эълон қилиниши муносабати билан Австралия, Канада, Ирландия, Афғонистон, Бирлашган Араб Республикаси, Куба ва бошқа бир қатор мамлакатлар билан туристик алоқалар ўрнатилди[**11.**].

Туристик сафарга чиқиш натижасида турли халқлар хаёти билан яқиндан танишиш имконияти пайдо бўлди. 1960-йилнинг биринчи кварталида касаба уюшмалари томонидан хориж мамлакатларида дам оиш мақсадида Хиндистон, Бирма, Чехославакия, Руминия, Болгария, Покистон каби мамлакатларга юборилди. Иккинчи кварталда Венгрия, Англия, Бельгия, Австрия, ГДР, АҚШ ва бошқа мамлакатларга саёҳат ташкил қилинди[**12.**].Ташқи туризмни ривожлантириш давлатнинг устувор вазифаси сифатида қаралди. Энг аввало давлатлараро туристик алмашув халқлар ўртасида дўстлик ва ишончни мустаҳкамлашга хизмат қилган. 1964 йилда ташкил этилган Ташқи туризм агентлиги 1969-йилдан алоҳида маъмурият мақомини олди[**13.С192**].

Миср ва Совет Иттифоқи ўртасида дипломатик муносабатлар 1943-йилда ўрнатилган. 1964-йилда Миср раҳбари Носирга Ўзбекистон қахрамони унвони ва “Олтин Юлдуз” медали берилганлиги Ўзбекистон ва Миср дўстлик алоқаларини мустаҳкамлаган[**14.**]. Мисрда тараққий этмаган бўлса-да, тўқимачилик саноати анча ривожланган[**15.**]. 1963-йилда Ўзбекистонлик туристлар Қоҳира, Кена, Асуан, Бухайра, Искандария Ат-Тахрир, Нубия ҳудудларида Миср ҳунармандчилиги ҳамда Нубия аҳолиси урф-одатлари билан танишган[**16.С45.**].1973-йилда эса ўзбек сайёҳлари Қохира меъморий ёдгорликлари ва арабларнинг урф-одатларини ўрганиш учун ташриф буюрган[**17.**].

Хиндистон билан Совет Иттифоқи ўртасида туризм соҳасидаги муносабатларга “юмшоқ” таъсир кўрсатиш механизми сифатида қаралган. Хинд юмшоқ таъсир усулини шакллантиришда Махатма Ганди муҳим роль ўйнаган. Хиндистон туризм орқали “хилма-хиллик ва ўзаро бирлик” ғояларида собит эканлигини намойиш қилишни мақсад қилган[**18.**] бўлса, Совет Иттифоқи коммунизм ғоясини туризм орқали тарғибот қилишга харакат қилган. Хиндистонга юборилган туристларни кўчаларда автомобиль, рикша ва велосипедлар кўплиги, кўчалар ўта тартибсизлиги сайёҳларни норозилигига сабаб бўлган. Қутб Минор, Хумоюн мақбараси Шоҳ Жахон қурдирган 20 минг кишилик жомеъ масжид, Қизил Фордга экскурсиялар уюштирилган. Хиндистонлик талабаларга Ўзбекистон ҳақида фото альбом китоблар совға қилинган[**19.**]. 1960-йилда Деҳлига саёҳат қилган андижонлик сайёҳларни шаҳарда телевизор ва радио жуда кам учратилгани, хинд аёлларини ўта кўп тақинчоқлар таққани ажаблантирган[**20.**]. Деҳли

шаҳрига саёҳат қилган Ўзбекистонлик туристлар гуруҳи Деҳли шаҳрида жойлашган Президент саройи олдидаги майдондан бутун шаҳарни томоша қилган[**21.**].

1972-йилда Тошкент шаҳридан бир гуруҳ журналистлар Хиндистоннинг Агра шаҳрига туристик сафар уюштирди. Агра шаҳридаги энг асосий ёдгорликлар Тож маҳал, Этумодуд давла мақбараси, Сикандрдаги Акбар мақбараси, Фатехбур Сикре шаҳар харобаси, эски христиан қабристони, Даялбоғ саройини томоша қилди. Кинор бозори хинд ҳунармандчик маҳсулотлари сотиладиган бозорда ҳам бўлган. Бозорда ўз маҳсулотини қиммат нархда ўтказишга харакат қилганлиги, хинд миллий таомлари “дал мой”, “петха”ни ўта аччиқлигини эслаган[**22.**].

1983-йилда эса сайёҳлар “ибодатхоналар шаҳри” Банорасда бўлган. Сайёҳларни энг қизиқтирган манзил эса Ганг дарёси бўйида жойлашган “гҳат” лар бўлиб шарқ услубида амфитеатр кўринишида барпо этилган 6 км га чўзилган улкан сайлгоҳ хисобланади. Бу ерда тайёрланган сариларни сайёҳлар ўзлари билан бирга олиб кетган[**23.61Б.**]. 1987-йили андижонлик сайёҳларни Жайпур ҳунармандлар шаҳри ҳам қизиқтирган[**24.**].

1989-йилда “Анаби Шоҳий” номли узум етиштирадиган Хайдарободга қилинган саёҳат давомида фил суягидан ясалган “фил қиёси” “суворий фил” “оғир юк кўтараётган фил” “фил ва пальма”, “филли маржон” сувенир буюмлар харид қилган бўлса[**23.85Б.**], сикхлар диний маркази Амритсар шаҳрида ҳайвонлар муқаддас саналиб, хайвон тугул хашаротга ҳам озор берилмаслиги ҳамда дунёнинг бирон-бир мамлакатида ҳайвонлар Хиндистондагидек эркин эмаслиги[**23.119Б.**], Хиндистон кўчаларида сигирларнинг бемалол юриши сайёҳларни хайратлантирган[**25.**].

1970-йилларда Покистон Афғонистон масаласида АҚШ позициясини қўллаб-қувватлаши натижасида муносабатлар совуқлашган бўлса-да, ўзаро юмшоқ муносабатлар сақлаб қолинди. Туризм соҳасида сайёҳлик алмашуви давом этди[**26.**]. Бир гурух Ўзбекистонлик сайёхлар Покистон бўйлаб саёҳатга чиқди. Улар мамлакатнинг энг катта шаҳарларидан бири Лоҳор масжидлар миноралари ҳамда қадимги цивилизация маркази  Мохежо дорога саёҳат қилди[**27.**]. 1971-йил милоддан аввалги II асрда барпо қилинган Будда ибодатхоналари шаҳри Равалпиндига саёҳат қилган.  Аммо шаҳар Буюк Британия мустамлакачилиги оқибатида вайрон қилинганлиги Совет давлатидан ташриф буюрган сайёҳларини ранжитган[**28.**].

Хорижга саёҳат қилган сайёҳларнинг сиёсий жиҳатдан “ишончлилик” даражаси текширилган. Хориж мамлакатларда юриш-туриш қоидалари билан бир қаторда, оқиллиги ҳамда ҳаётий тажрибаси инобатга олинган. 1962-йилги кўрсатмаларига кўра халқ демократик давлатлардан Хитой Халқ Республикаси, Ветьнам, Албания, Шимолий Корея мамлакатларига саёҳат қилиш ҳам тарғиб қилина бошланди. Хориж мамлакатларда харакатланиш тартиблари тўғрисида йўриқномалар тасдиқланди[**2.С.40.**]. Қисқа муддатга капиталистик мамлакатларга саёҳат ҳамда ишлаш мақсадида кетаётган совет фуқароларининг хориждаги хатти-харакати тўғрисида мунтазам ахборот бериб бориш тизими жорий этилган. Ушбу тартиб 1955-йил 25-апрелдаги КПСС Марказий Комитетининг Қарори асосида жорий бўлган. Бу тартиб 1991-йилгача амалда бўлди. Шуни алоҳида қайд этиш керакки, хориж мамлакатлар билан хатто маданий алоқалар, ўзаро делегация ва сайёҳлик алмашув

масалалари ҳам КПСС Марказий Комитети йиғилишида кўриб чиқилиши белгиланган[**2.С.41.**].

1970-йилда Венгрияга борган туристлар автобус, телевизор ишлаб чиқариш заводларига саёҳат қилган. Венгриянинг асосий “кўчаси” Дунайнинг 8 та асосий кўпригига шунингдек, Геллерт тепалигида Совет қахрамонларига ўрнатилган ёдгорликка саёҳат қилган[**29.**]. Венгрия пойтахти Будапешт шаҳрига туристик экскурсияда туристларни 30 хил миллий таомлар қизиқтирган. Мамлакат бренди хисобланган Балатон кўли ва Ширфон, Болотонфюлед шаҳарлари ҳамда Кестхей, Бадачон, Чопак, Балотанмади, Болотонсабади қишлоқларига саёҳат қилган[**30.**]. Будапештнинг 10 км жанубий ғарбида Веленце кўли соҳилида ёшлар туристик базаси[**31.**] ҳамда Будапештнинг озодалиги ҳамда барча биноларнинг биринчи қавати савдо шоҳобчаларидан иборатлиги ҳайратлантирган[**32.**]. Будапештнинг энг гўзал ороли Маргет оролида барпо қилинган япон боғига саёҳат қилган[**33.**]. Совет – Венгрия сайёҳлигини тарғиб қилувчи “Салом мен сизнинг ҳолангизман” фильми орқали Венгрияга саёҳат тарғиб қилинган. Шунингдек, “СССР да ишлаб чиқилган” ҳамда “Туризм” хужжатли фильмлари совет сайёҳлиги тарғиботида муҳим роль ўйнади[**2.С24.**].

Ўзбекистонлик туристлар 1978 йил 6 июлда Одесса шаҳри орқали 17 кун давомида “Грузия” теплоходида Грецияга саёҳат қилган[**34.**] бўлса, 1985 йилда 30 кишидан иборат андижонлик туристлар Югаславия пойтахти Белград шаҳри сайёҳатга чиқди. Шунингдек, Адриатика денгизи бўйидаги Шебенит шаҳрига борди. Бу ернинг табиати манзараси даволаш хусусиятига эга бўлган. Қадимий қалъалар шаҳри Сплит ва Хорватия маркази Загреб шаҳри аҳолисининг меҳмонларни кабоб билан меҳмон қилиш одатлари туристларга ёқди[**35.**].

Германияда туризмни ривожлантириш мақсадида 1955-йилдаёқ чартер рейслар йўлга қўйилган[**36.**]. Германияда ҳам XX асрнинг 60-йилларига қадар кўпроқ маданий ходиса сифатида қараш кучли бўлган. Кейинроқ, туризм сиёсий ва мафкуравий нуқтаи-назардан ҳам кўриб чиқилган. Туризм мамлакатга валюта оқимини олиб кириш билан бир қаторда Германия эко тизимларини йўқолишига ҳам сабаб бўлган.

Германия ўрта синф ва социолистик мамлакатлар сайёҳлари учун ҳам алоҳида тур маршрутлар ишлаб чиқилди. Германия туристик фаолиятга “аҳлоқий” жиҳатдан босим ўтказиш маълум ғояларнинг мутлақлашига олиб келади деган тамойил устувор бўлди. Германия “бренд” маҳсулот ёки сувенир буюмларни ҳунармандчилик тармоғида эмас балки техника янгиликлари орқали номоён қилишга харакат қилганлиги туфайли ҳам социолистик мамлакатлардан келган сайёҳларни кўпроқ қизиқтирган[**37.**].

1961-йилда 30 кишилик туристик гуруҳ Германия демократик республикасида бўлди. Сайёҳлар Вернигеродеда ёғочдан ўйиб ишланган қадимий уйлар, феодализм музейи ва бошқа тарихий ёдгорликлар билан танишган. Гёте, Шиллер, Хердрлар ижод қилган Веймар шаҳрида ҳам бўлди. Ярмарка, мусиқа, саноат ва спорт маркази Лейпцик шаҳрида Пирамида шаклида ишланган “Халқлар жанги” ёдгорлигига ҳам экскурсия ташкил этилган[**38.**]. Андижонлик сайёҳлар эса Берлин шаҳрига туристик сафари доирасида Берлин рамзи бўлган Бренденбург дарвозаси ва Гумьболд унверситетида бўлди. Шунингдек, 20 минг совет жангчилари дафн этилган Трептов қабристонини зиёрат қилган[**39.**].

Жумладан, наманганлик сайёҳлар Германиянинг Рудольштадт, Айсенберг районларига саёҳат давомида қишлоқ хўжалигида эришилган ютуқлар билан яқиндан танишди. 1968-йилда Гёте “кичик Париж” деб таърифлаган ўзининг 800 йиллик юбилейини нишонлаган Лейрунг шаҳри ҳам сайёҳлар эътиюорини тортган[**40.**]. Лейпциг шаҳрида XII асрдан буён ярмаркалар ўтказиб келинади. Асосий тарихий ёдгорликлари Эски ратуша (XVI аср), Эски биржа (XVII аср), Дамидров музейи, Тасвирий санъат музейи, вокзал, ярмаркалар уйи, “Штадт Лейпциг” меҳмонхоналари сайёҳларни қизиқтирган[**41.310Б.**]. 1977 йилда Самарқанд ва Фарғона области ёшлари 13 кунлик саёҳат давомида саноат корхоналарига ҳам экскурсиялар уюштирилди. Немис миллатига мансуб суҳбатдошларни эса асосан Ўзбекистонда пахтани қандай етиштириш қизиқтирди. Берлин шаҳридаги “Таъзим сенга Совет солдати” монументига саёҳат уюштирилиб, совет солдатлари ёдга олинган[**42.**]. Трептов парки Совет халқлари зиёрат масканига айлантирилган[**43.**]. Лейпцик шаҳрида “Искра” газетаси чиқарилган жойда музейда “Искра” газетасининг 50 та сони, “Кениг Брауэр” босма станогини кўрган. Бу совет мафкурасининг Германиядаги тарғиботи билан боғлиқ маскан бўлганлиги туфайли туризм маршрутлари йўналишига киритилган[**44.**].

Германиянинг Герда Хенкел жамғармаси 1950-1990-йилларда совет сайёҳларига ўрнатилган цензура тизими тўғрисидаги маълумотлар ўрганилган. Ўрганиш натижаларига кўра хориж мамлакатларга саёҳат қилган туристлар “мустақил” эмас аксинча “партия назоратидаги” шахслар бўлган. Туризм тарғиботида асосий восита урушдан сўнг кино орқали тарғиб қилиш модели ишлаб чиқилган бўлса-да, Совет Иттифоқида туризмни кино орқали тарғиб қилишга унчалик катта аҳамият қаратилмади. Кино кўпроқ мафкуравий аҳамиятгагина эга бўлди[**2.С.23.**].

Совет Иттифоқи ва Индонезия ўртасидаги илиқ муносабат 1956 йилдан бошланган. Индонезия Президенти Сукарно Совет Иттифоқига 5 маротаба ташриф буюрган. Совет Иттифоқи Индонезиянинг инфратузилма, молия, мудофаа ва таълим йўналишларида кадрлар тайёрлашга ёрдам берган. Шунингдек, маданият ва туризм йўналишларида ўзаро делегациялар алмашишга алоҳида аҳамият қаратган[**45.**]. 1962 йил Ўзбекистон футбол командаси Индонезияга саёҳат қилган. Сайёҳларни “Москва оқшомлари” қўшиғи билан кутиб олинган. Сукарно ва Соло шаҳарларида дам олган[**46.**].

Совет Иттифоқи ва Япония ўртасида эса туризм ва маданиятлараро муносабатлар XX асрнинг 20-30-йилларида йўлга қўйилган. Япониядан Совет Иттифоқига келувчи туристларнинг асосий қисми зиёлилар бўлиб, русийзабон халқлар маданиятини кўриш ва ўрганиш мақсадида келган. Бироқ, Япониянинг ўзида ҳам Совет Иттифоқига нисбатан салбий муносабат ҳамда этносентризм, этнорелативизм ва “япон” феномени туризм ва маданий алоқаларни ривожланишига тўсиқ бўлди.

Японияга иттифоқ сайёҳларининг қизиқиши ортишининг асосий омили япон самурайлари, ўзига хос маданияти ва капиталистик мамлакат тараққиётини кўришга қизиқиш бўлган. Совет сайёҳларига япон санъат дурдоналари, театр, мусиқа ва миллий маданияти кўрсатилган. Японияга асосан санъат номоёндалари ҳамда ижодкорлар жўнатилган. Сайёҳлар норозилигига сабаб бўлган омиллар ҳам бўлиб, гид таржимонлар хизмати, авмобиль ижараси, меҳмонхона хизмати қиммат бўлганлиги туфайли оддий фуқаролар саёҳат қила олмаган. Совет сайёҳлари япон сиёсий полицияси назоратида бўлган. Японияга келган совет сайёҳларига коммунистик мафкурани тарқатмаслик

бўйича кўрсатмалар берилган. Сайёҳларни япон мулоқот маданияти ҳайратга солган[**47.**].

1967 йилда сайёҳлар гуруҳи Японияга “Ил – 18” сомолётида Москва – Техрон – Карачи – Рангун йўналиши бўйича саёҳат қилди. Сайёҳлар Рангун, Гонконг, Токиога шаҳарларида бўлди. Токиода сайёҳларни “Япония – СССР” дўстлик жамияти вакиллари кутиб олган. Йўлларда машиналарнинг кўплиги, шаҳарнинг сершовқинлиги ҳамда тез харакатланиши меҳмонларни хайратлантирган[**48.**].

1981 йилда Ўзбекистонлик туристларнинг Ветнамга саёҳати ташкил этилди. Ханойга олиб борадиган ягона йўл Хам жонг кўприги АҚШнинг империалистик кучлари бомбардимонларидан энг кўп талофат кўргани  қайта тиклаш ишлари хали якунланмагани ҳамда Ветнам ёшларининг қийин аҳволи ўзбек ёшларида АҚШ империалистларига нисбатан нафратини оширган[**49.**].

1972 йилда Ўзбекистонлик сайёҳлар Африканинг Мали Республикасига саёҳат қилди. Бу ерда Догон қабиласи юрти “тошлар мамлакати” Бандиагарада бўлган. Сайёҳларни тариқдан қилинган “пиво” билан меҳмон қилган. Сайёҳларни эркаклар кутиб олган. Қишлоқ аҳолиси суратга олишга йўл қўймаган. Қишлоқда асосий тансиқ нарса сув ҳисобланган[**50.**].

Совет Иттифоқи Лотин Америка давлатлари билан ҳам дипломатик муносабатларни йўлга қўйиган. Жумладан, Ўзбекистонлик сайёҳлар Лотин Америкасидаги биринчи социолистик республикаси Чилига саёҳат қилди. Антонио Масео, Максимо Гомес, Хосе Марти, Сукре каби миллий озодлик курашчилари билан боғлиқ жойларни зиёрат қилган[**51.**]. Наманган области партия вакиллари Куба давлатига саёҳати давомида АҚШнинг ўта реакцион фаолиятига қарши турган Кубаликлар жасоратини ўз кўзлари билан кўрган[**52.**]. 1972 йилда Тошкент тўқимачилик комбинатининг ишчиларидан Б. Жўраева, А. Верзилина Кубада тўқимачилик комбинатларида тўқувчиликни ўргатди. Хатто Кубадан кўплаб тўқувчилар Тошкент тўқимачилик комбинатида малака оширган. Улар Ўзбекистон вакилларидан “ўзларининг ўзбек устозларига самимий салом ва миннатдорчилик туйғулари”ни етказишни илтимос қилган[**53.10Б.**].

1950 йиллардан  АҚШлик сайёҳларнинг Совет Иттифоқига қизиқиши ортган. Хар икки давлат туристлар ва гид таржимонлар орқали ўз мафкуравий қарашларини тарғибот қуролига айлантирди. АҚШлик сайёҳларни шахсга сиғиниш, матбуот эркинлгининг йўқлиги, дўконларда озиқ-овқат етишмаслиги, мафкуравий чекловлар, буржуазия усулида кийиниш таъқиқланганлиги таажжубга солган. Америкалик тадқиқотчиларнинг таъкидлашича, коммунизмнинг ағдарилишида рок мусиқаси, америка кинолари, жинси шимлар ва Кока-кола муҳим роль ўйнаган[**54.**].

1977-йилда Туризм Совет ҳокимяти учун тарғибот қуроли вазифасини бажариб қолди. Колифорния университети профессори Фредерик Баргорн Совет давлатининг туризм соҳасидаги сиёсатини дипломатия ютуғи сифатида қайд этган. Америкалик олим Жон Бушнел Совет Иттифоқидан Европа мамлакатларига саёҳат қилган сайёҳларнинг асосий қисми капитализм ҳақидагидаги қарашлар “пессимистик” эканлигига “иқрор” бўлганлигини қайд этган. Француз тарихчиси Роберт Бертон-Хогге Сталин вафотидан кейин 1958-йилдан Совет сайёҳлари учун хориж мамлакатлари “очилганлиги”, хорижлик сайёҳлар учун эса СССР 1977-йилдан “очилган” [**2.С.9.**]. Айнан

шу даврдан бошлаб туризм ўзига хос “театр”га айлантирилди. Сайёҳлар илиқлик ўрнатиш учун юборилган элчи, аммо “исталмаган” элчи сифатида юборилган. Совет сайёҳлари бу даврда бирмунча “эркин” ҳаракат қилиши мумкин бўлган. Жумладан, саёҳат пайтида куйлаши, концертларга кириши, журналистлар билан савол-жавоб қилиши мумкин эди. Аммо социолизм янгича ҳаётнинг асосий воситаси сифатида кўрсатиш устувор вазифалигича қолган[**2.С10.**].

1979-йилдан туристик поездларнинг ресторан вагонлари халқаро стандартларга мослаштирилди. Натижада хорижлик сайёҳлар эътироф ва эътиборига тушди. Швейцария, Франция, АҚШ га туристик сафарлар уюштириш ортган[**55.С.155.**]. Бироқ, Совет Иттифоқи йилларида махсус ваучерлар орқали саёҳат қилиш давлат томонидан рағбарлантирилмади. Аксинча касаба уюшмалари томонидан йўлланмалар орқали бепул саёҳатга жўнатиш ва назорат қилиш имконияти ушлаб қолинди. Хорижий мамлакатларга саёҳат қиладиган сайёҳларга совет маданиятининг юксак томонларини намойиш қилиш ҳақида кўрсатмалар берилган[**56.С.7.**].

1948-йилдан Совет Иттифоқи чегараларининг ёпилиши ғарб мамлакатлари билан Скандинавия мамлакатлари нейтрал давлат бўлганлиги туфайли туризм соҳасида муносабатлар сақлаб қолинган. Сталин вафотидан сўнг 1955-йилдан Буюк Британия, Норвегия, Италия ва Испания билан ҳам туризм соҳасидаги алоқалар тикланди. Оддий фуқароларда хорижга чиқиш имконияти бўлмаган. Социолистик мамлакатларга саёҳат эса одатий бўлган. Капиталистик мамлакатлардан турли дори ва психотроп моддалар олиб кириш мумкин бўлмаган. Социолистик мамлакат сайёҳлари меҳмонхонага жойлаштириш бўйича ҳам алоҳида талаблар мавжуд бўлиб, капиталистик мамлакатдан келган сайёҳлар билан бир хонага қўйиш ёки якка ўзини алоҳида хонани брон қилиши мумкин бўлмаган[**57.**].

Француз тадқиқотчиси Б. Андреева XX асрнинг 60-йилларида совет сайёҳларининг Франция ва француз миллатига муносабатини таҳлил қилган. Совет сайёҳлари туризмга ижтимоий-маданий ҳодиса сифатида қараши ҳамда Францияда бўлган совет сайёҳларининг “портретига” аниқ чизгилар берди[**2.С.14.**]. Совет сайёҳларини Францияга қилган саёҳати даврида харид қилиш учун супермаркетлар қизиқтирган. Шунинг учун совет сайёҳлари маданий ёдгорликларни эмас аксинча турли товарлар билан тўла дўконларни кўришни ҳоҳларди. Аммо шуниси қизики, Совет иттифоқидан келган туристлар ўртасида олиб борилган тарғиботларда асосан валютани тежаш ва кам ҳарж қилиш борасида тушунтириш ишлари олиб борилган[**2.С. 27.**]. Совет сайёҳларини ранжитган нарса Францияда таом менюлари рус тилида берилмаганлиги ҳамда турли денгиз жониворлари билан тайёрланган таомлар унчалик яхши қабул қилинмаган. Совет Иттифоқидан келган сайёҳларга мўлжалланган махсус кафелар фаолияти йўлга қўйилмаганлиги кўплаб туристлар норозилигига сабаб бўлган[**2.С.28.**]. Хорижда бўлган сайёҳ саёҳатни бошлашдан аввал ва якунлангандан сўнг тўпланиши зарур бўлган хужжатлар қаторига чет элга сайёҳлик сафарига кетган шахс тўғрисидаги маълумотлар[**2.С.29.**], саёҳат вақтида чет элликлар билан алоқалари, ғайритабиий нохуш ҳолатлар ҳақида маълумотлар тўпланган[**2.С30.**].

1973 йилда бир гурух сайёҳлар Совет Иттифоқи учун камёб ҳисобланган туристик маршрут яъни Монокога саёҳат уюштирилди. Моноко бойлар дам олиши мумкин бўган курорт бўлиб, Океонаграфия музейида сайёҳларга денгиз жониворлари кўрсатилган.

Шунингдек, совет маданиятига ёд тушунча бўлган казино ва қиморхоналарга ҳам саёҳат уюштирилган. Бу эса сайёҳларда капиталистик тузумга нисбатан нафратга сабаб бўлган[**58.**].

Совет Иттифоқи нафақат социолистик мамлакатларга шунингдек, ғарбий Европа мамлакатларига ҳам саёҳатлар ташкил этиб турган. 1970 йилда Самарқанд шаҳридан туристлар Швецияга саёҳатга юборилди. Улар Стокгольмнинг XVII-XIX асрларда шаклланган замон талабларга жавоб бермайдиган автомобиль юриши учун ноқулай бўлган қисмига саёҳат уюштирилган. Бу ерда ёшларнинг "тўла эркин" тарбияси, кинолар ўртасида бериладиган рекламалар ўта кўплиги ранжитди[**59.**]. 1971 йилда эса Даниянинг пойтахти Копенгаген шаҳрига саёҳат қилган зиёлилар 1558 йилда барпо этилган Гамлет қасри ҳамда қишлоқ хўжалиги тараққиёти билан яқиндан танишди. Даниялик маҳаллий аҳолини эса кўпроқ Совет давлатининг маҳаллий аҳолининг кундалик турмуш тарзи қизиқтирган[**60.**].

Хориж мамлакатларига саёҳатга борган туристлар кийим-кечак, оёқ кийими, ич кийимлар, метал буюмлар олиб кириш шахсий эхтиёждан ортиғи мумкин эмас. Шунингдек, рангли телевизор, фортапиано, магнитафон, ридиоприомник, ёзув машинкаси, фотоапарат 1 донадан ортиқ бўлмаслиги лозим[**61.**]. Озиқ-овқат махсулотлари умумий хажми 6 кг дан ошмаслиги лозим. Жумладан, ароқ 1 дона, 1 дона вино, 250 грам тамаки махсулотлари олиб чиқиш мумкин[**62С.69.**]. Хориждан келган сайёҳлар сантехник материаллар 2 турда, қўлда тўқилган гилам маҳсулотлари бир дона, битавой техника 1 дона, пионино ва рояль 1 донадан, акардион 1 дона белгиланган. Совет Иттифоқига гашиш, наркотик моддалар, психотроп моддалар, совуқ қуроллар, диний аргументлар, хориж мамлакатларида нашр қилинган адабиётлар олиб кириш мумкин бўлмаган[**62.С.70.**]. Туристик гуруҳда аёллар юк ҳалталарининг оғирлиги 15 кгдан ортиқ бўлмаслиги керак. Эркаклар учун эса 30 кг норма белгиланган[**63.С.28.**].

Хулоса қилиб шуни айтиш лозимки, Совет Иттифоқида ташқи туризм социолистик мафкура тарғиботчиси сифатида қаралган. Ташқи туризм иттифоқда эркин эмас балки касаба уюшмалари томонидан чекланган ва кучли назорат остида амалга оширилганлиги туфайли ҳам туристлар дам олиш эмас аксинча кучли босим остида қолган. Совет сайёҳлари капиталистик анъаналарни қабул қила олмаган бўлса-да, аммо унинг тараққиёти уларни ҳайратлантирган.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Статический ежегодник 1917-1923гг. Том 1. –Ташкент, 1924. – С. 49.
2. Ўзбекистон миллий архиви, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 735-иш, 16-17-варақлар.
3. Демидов А.П. Экономические очерки хлопковой торговли и промышленности в Туркестане. – Москва, 1926. – С. 15.
4. Юферов В.И. Справочная книжка по хлопководству в СССР. – Москва, 1925. – С. 525.
5. Бир пуд – 16, 38 килограммга тенг оғирлик ўлчов бирлиги.
6. Ўзбекистон миллий архиви, Р-25-фонд, 2-рўйхат, 74-иш, 26-варақ.
7. Хлопководство СССР и его преспективы.– Москва, 1925. – С. 53.
8. Ўзбекистон миллий архиви, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 6-иш, 29-варақ.

9. Фарғона вилояти давлат архиви (Фарғона ВДА), 263-фонд, 1-рўйхат, 8-иш, 114-варақ.
10. Фарғона ВДА, 263-фонд, 1-рўйхат, 8-иш, 188-варақ.
11. Вестник Туркестанского продработники (Ташкент). 1921. №1. – С. 4.
12. Туркистонда очарчилик, қаҳатчилик, ют (1917-1924 йилларда Туркистон матбуотида очарчилик ва қаҳатчилик муаммосининг ёритилиши). Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Хондамир Қодирий. Масъул муҳаррир: Қ.Ражабов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – Б.42.
13. “Ишчилар дунёси” журнали (Тошкент). 1918. №3. – Б.42.
14. Туркистонда очарчилик, қаҳатчилик, ют. – Б.39.
15. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган олтинчи нашр. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2015. – Б.149.
16. “Улуғ Туркистон”, №29. 1917 йил 30 сентябрь.
17. Овқат масаласи // “Улуғ Туркистон”, №47. 1917 йил 31 декабрь.
18. Овқат масаласи // “Улуғ Туркистон”, №47. 1917 йил 31 декабрь.
19. “Наша газета” (Ташкент). № 37. 28 февраля1918 г.
20. Ражабов Қ. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918 – 1924 й.) – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – Б.35.
21. “Наша газета” (Ташкент). № 37. 28 февраля1918 г.
22. “Наша газета”, 28 мая1918 г.
23. Ўзбекистон миллий архиви, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 46-иш, 96-варақ.
24. Ўзбекистон миллий архиви, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 84-87-варақлар.
25. Бюллетень Ферганского Областного статистического бюро. № 1-2. Январь-февраль 1925 г. – Коканд, 1925. – С.10.
26. А.Қодирий. Очлиқ балоси // “Улуғ Туркистон”, №55. 1918 йил 24 январь.
27. Наманганда вабо // “Улуғ Туркистон”, №84. 1918 йил 18 апрель.
28. Андижонда очлиқ ҳам вабо // “Улуғ Туркистон”, № 90. 1918 йил 3 май; Туркистонда очарчилик, қаҳатчилик, ют. – Б.92.
29. Марко Буттино. Революция наоборот. Средняя Азия между падением царской империи и образованием СССР. Перевод с итальянского Н.Охотина. – Москва: Звенья, 2007. – С.207-238.
30. Марко Буттино. Революция наоборот. – С.215-216.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Qodirova Ra'no Mamirjonovna**
Farg'ona davlat universiteti
Jahon tarixi kaferasi oʻqituvchisi

## OʻZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX VA IJTIMOIY FANLARNI OʻQITILISHI (XX asrning 30-yillari)

**Annotatsiya.** Sovet hokimiyati Oʻzbekiston SSRda yangi maorif tizimini shakllantirishda harakat qilgan. Maorif tizimi "madaniy inqilob" jarayonida qaytadan qurilgan. Lekin sovetlarning bu davrdagi asosiy maqsadi partiya uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan. Mazkur maqolada aynan sovet hokimiyatining maktablarda tarix ta'limini oʻqitishda oʻz gʻoyalarini qanday tadbiq qilganligi haqida ayrim ma'lumotlar berib oʻtilgan.

**Kalit soʻz:** Oktabr inqilobi,butunoʻzbek qurultoyi, M.M. Pistrak, M.Asimov, VKP(b) MK, SSSR Xalq Komissarlari Kengashi, tarix va jamiyatshunoslik, B.Leviton va M.Ovsiyannikov.

**Кадирова Раьно Мамиржоновна**
преподаватель кафедры всемирный истории
Ферганского государственного университета

## ПРЕПОДАВАНИЕ ИСТОРИИ И СОЦИАЛЬНННЫХ НАУК В ШКОЛАХ УЗБЕКСКОЙ ССР (30-годы XX века)

**Аннотация.** Советская власть предприняла шаги по формированию новой системы образования в Узбекской ССР. Система образования была в значительной степени перестроена в период «культурной революции». Главной цель Советов в этот период заключалась в подготове кадров, которые будут служить партии. В данной статье приведены некоторые сведения о том, как советская власть реализовывала свои идеи в преподавании истории в школах.

**Ключевые слова:** Октябрьская революция, всеузбекский съезд, М.М.Писрак, М.Азимов, ЦК ВКП(б), СНК СССР, история и обществознание, Б.Левитон и М.Овсиянников

**Ra'no Kadirova Mamirjonovna**
Teacher of the Department of World History
at Fergana State University

## TEACHING HISTORY AND SOCIAL SCIENCES IN THE SCHOOLS OF THE UZBEKISTAN SSR (30s of the 20th century)

**Abstract:** The Soviet government has taken great steps to restructure the education system in the Uzbek SSR. The education system was largely rebuilt during the Cultural Revolution. But the main goal of the Soviets during this period is the training of personnel who will serve the party. This article provides some information about how the Soviet government implemented its ideas in teaching history in schools.

**Keywords**: October Revolution, All-Uzbek Congress, M.M. Pisrak, M. Azimov, MK VKP(b), Council of People's Commissars of the USSR, history and social studies, B. Leviton and M. Ovsiyannikov

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N04

**Kirish.** Bugungi kunda jahonda roʻy berayotgan globallashuv jarayoni, dunyo xalqlarining maʼrifatparvarlik tomon intilish anʼanasi kuchayib, ilmiy bilimlar jamiyat tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mustaqillik yillarida Turkiston oʻlkasining Rossiya imperiyasi va sovet davri tarixiga xolis baho berish boshlandi. Chunki, sovet hokimiyati davrida tarixiy jarayonlarga sinfiy yondashuv ustunligi kuzatiladi. Masalan, Turkistonda maorif tizimi, uni amalga oshirishdagi sovet hukumati olib borgan siyosat, maktabda tarix fanini oʻqitish shular jumlasidandir.

Ayni paytda tarix fanida qarama-qarshiliklarga toʻla boʻlagan 20-30-yillarda Respublikamizda xalq taʼlimi tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari, oʻsha murakkab davrda milliy taʼlim tizimidagi islohotlarni har tomonlama tahlil etish zarur.

Zero, aynan shu davrda totalitar g’oya va keskin sinfiy kurash nuqtai nazariga asoslangan taʼlimning sovet modeliga asos solindi. Bu muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzuni oʻrganish Oʻzbekiston tarixi fanidagi oʻziga hos boʻshliqni toʻldirishga yordam beradi. Yangi Oʻzbekistonda zamonaviy taʼlim tizimini yaratish borasidagi saʼy-harakatlarda milliy maorif tizimi tarixini oʻrganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Mazkur ishdagi asosiy adabiyotlar asosan sovet davrida yaratilgan asarlardir. Ular qatoriga K.Ye.Bendrilovning “Очерки по истории народного образования в Туркестане”; I.K.Kadirovning “Очерки развития общеобразовательной школы советского Узбекистана”; shuningdek, “Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. Улуғ Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм қуриш (1917-1937 йиллар)” kabi asarlardan foydalanildi.

Biz tadqiq qilgan mavzuga oid asosiy manba bu arxiv materiallari hisoblanadi. Maqolada asosan OʻzMA R-2748 fondining 1-roʻyxat, 1074-yigʻmajildidagi hujjatlardan hamda mazkur fondda saqlanayotgan Inoyatovning “О стабильной программе и учебники по истории” nomli maqolasidan foydalanildi.

Mazkur mavzuda oʻrganilayotgan ilmiy maqolada maʼlumotlarni tizimlashtirish, muammolarni kompleks umumlashtirish, tahlil va davrlashtirish, tarixiylik, xolislik tamoyillaridan, shuningdek, solishtirma va kompleks tahlil, davrlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

**Muhokama.** 1917-yildagi Oktabr toʻntarishidan soʻng hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar maorif sohasida mavjud boʻlgan eski tizimni tugatish va xalq taʼlimining sovet modelini yaratishga jiddiy kirishdilar. Ushbu modelning asosiy belgilarini 1936-yilda taniqli metodist M.Asimov quyidagicha bayon etgan edi: “Tarix bizning maktablarimizda yosh avlodni kommunistik tarbiyalashda yetakchi mavzulardan biridir. Ikki tizim – kapitalizm va sotsializm oʻrtasidagi ziddiyat kuchayganligi sababli, maktablarimizdagi tarix alohida ahamiyatga ega” [4:b-182].

Ayni paytda sovet hukumatining taʼlim borasidagi eng asosiy maqsadi sovet tipidagi boshlangʻich va oʻrta maktablarni tashkil etish va ularni darslik kitoblar bilan taʼminlash edi. Dastlab Turkiston ASSRda tashkil etilgan sovet maktablarida jadid hamda rus-tuzem maktablarida qoʻllanilgan darsliklardan foydalanildi. Koʻp hollarda ushbu kitoblar tatar tilida

chop etilgan edi. Rus tilidadan tarjima qilingan darsliklarni chop etishdagi asosiy muammo oʻlkada poligrafiya sohasining yaxshi rivojlanmaganligi bilan bogʻliq edi. Kitoblar qogʻoz tanqisligi tufayli 1917-yilga qadar amalda boʻlgan savdo etiketlari va reklama qogʻozlariga litografiya bosmaxonalarida chop etilardi. Natijada ba'zan kitob varagʻining orqa tomonida oldin bosilgan ba'zi ma'lumotlar ham saqlanib qolardi. Lekin mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, rus tilida chop etilgan darsliklar oʻzbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Masalan, oʻsha davrda Kruberning "Boshlangʻich geografiya", Valishevaning "Arifmetika" darsliklari tarjima qilingan. Bundan tashqari, T.N.Qori-Niyoziyning "Tabiat boʻlagi" nomli nomli maktab oʻqituvchilari uchun moʻljallangan qoʻllanmasi chop etilgan. Ayni vaqtda Toshkent va Samarqandda oʻzbek tilida, Samarqandda tojik tilida, Toshkentda esa qozoq tilida alifbo kitoblari nashr etiladi[5:b-417]. Darsliklarni chop etish asosan Maorif xalq komissarligi vakolatida edi[1:b-3]. Koʻrilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, maktablar uchun darsliklar yetarli boʻlmagan.

Milliy-hududiy chegaralanishdan keyingi davrda butun ittifoqda maktab ta'lim tizimini isloh qilish boʻyicha harakatlar boshlandi. "Gap XX asrning 30-yillaridagi sovet pedagogikasining erishgan yutuqlari toʻgʻrisidagi bahsga borib taqaladi. Bir vaqtning oʻzida uning butun oʻrnatilishiga ta'sir qilmasdan, maktabning biron-bir detaliga tegib boʻlmaydi. Shunday ekan, bahs butun sovet maktabining mohiyati, xarakteri, tuzilishi, maqsadlari, pedagogikasi toʻg'risidagi nizolar tekisligiga oʻtishi kerak va faqat shu tekislikda tarixdagi u yoki bu joy haqida gapirish mumkin", - deb ta'kidlagan taniqli pegagog olim M.M. Pistrak[2:b-52].

Sovetlarning birinchi butun oʻzbek qurultoyida (1925) ham Respublikada maktab ta'limini mustahkamlash va rivojlantirish boʻyicha keng dastur qabul qilingan boʻlib, uning asosida yagona mehnat maktabi tashkil etilgan edi. Qurultoy Oʻzbekiston SSR Maorif xalq komissarligi va Respublika oʻqituvchilariga maktabga hayotiy tus berish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishni taklif qildi. Qurultoy qarorlarida zudlik bilan Respublikada umumiy boshlangʻich ta'limni joriy etish rejasini tayyorlashga kirishish, maktablar uchun yangi darsliklar va oʻqituvchilar uchun uslubiy qoʻllanmalar tayyorlash, maktab oʻquvchilari uchun mahalliy tillarda bolalar adabiyotini nashr etishni yoʻlga qoʻyish taklif qilindi[7:b-36].

Yangi jamiyat qurish rejalarini amalga oshirishda xalq maorifining ulkan ijtimoiy ahamiyatini hisobga olib, mamlakat siyosiy rahbariyati umumiy ta'limni joriy etishni madaniyat dasturining hal qiluvchi shartlaridan biri sifatida muhim vazifalar qatoriga kiritadi. 1930-yil iyulida hukumat qarorlarini yanada aniqlashtirish maqsadida VKP(b) Markaziy Komiteti "Umumiy boshlang'ich ta'lim toʻgrisida"qaror qabul qildi. Unda partiya Markaziy Komiteti "umumiy majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etishini yaqin davr uchun eng muhim siyosiy tadbir deb bildi. 1930-yil 30-sentabrda VKP(b) MK Oʻrta Osiyo byurosi Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy majburiy boshlangʻich ta'limni joriy etish haqidagi qarorni imzoladi. Unga koʻra, 8 yoshdan 10 yoshgacha boʻlgan barcha bolalarni oʻqitish majburiy etib belgilandi va umumiy majburiy boshlangʻich ta'limga oʻtishni 1931-1932 oʻquv yilida tugatish belgilandi[6:b-652].

1934-1937-yillarda maktablarda tarix va jamiyatshunoslik fanlarini oʻqitish katta qiyinchiliklar bilan kechdi. Oʻquv jarayonini darsliklarsiz va doimiy dasturlarsiz va oʻqituvchi kadrlar yetishmasligi sharoitida olib borishga toʻgʻri keldi. Tarix fanini oʻqitish uchun yetarli tayyorgarligi boʻlmagan oʻqituvchilar tayinlandi. Darsliklar yetishmasligi bois oʻqituvchilar qanday ma'lumot topishsa, oʻsha boʻyicha oʻquvchilarni oʻqitishar edi[3:b-6].

**Natija.** Shuning uchun ham partiya va hukumat maktablarda tarix fanini oʻqitishga katta ahamiyat bergan. 1934-yilda (16-may) Butunittifoq kommunistik partiyasi Markaziy qoʻmitasi va SSSR Xalq Komissarlari Kengashi maktablarda fuqarolik tarixini oʻqitish toʻg'risida qaror chiqardi. Unda tarix fanini oʻqitish qoniqarsiz ahvolda ekanligi ta'kidlandi. Ushbu qarorda tarix oʻqituvchilari zimmasiga fanni oʻqitishda mavjud boʻlgan kamchiliklarni bartaraf etish vazifasi yuklatildi.

Stalin boshchiligidagi rahbariyat nafaqat oʻquv dasturlarini, balki ta'lim tizimini ham bir qolipga solishga urindi. Rahbariyatinig asosiy gʻoyasi partiya siyosatini ogʻishmay bajaradigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan edi. Fikrlamizga dalil sifatida 1932-1933 oʻquv yilida tarix va ijtimoiy fanlarni oʻqitish dasturlari va uslublari haqidagi ayrim ma'lumotlarni keltirib oʻtamiz.

1932-1933 oʻquv yilida oʻzbek maktablarida tarix fani uchun umumiy oʻquv soati 360 soatni tashkil etgan[3:b-1]. Bunda oʻquvchilarga tarix fani haqida tushuncha berishdan boshlab, Turkistondagi mustamlakachilik tuzumi, Oktabr toʻntarilishi va Sovetlarning hokimiyat tepasiga kelishi, sotsialistik qurulish haqida tushunchalar berish nazarda tutilgan edi.

Birinchi sinflar uchun tarix va ijtimoiy fanlar uchun oʻquv dasturi 70 soatni tashkil etgan boʻlib, 5 ta mavzudan iborat boʻlgan. Mavzular taqsimoti 8-10-26-20-6 soatdan taqsimlagan. Butun oʻquv yili davomida oʻquvchilar maktab bilan tanishib, fabrika bilan kolxoz, shahar va qishloqlarning oʻzaro aloqalari haqida ma'lumotga ega boʻlgan holda oʻquv yilini yakunlagan.

Ikkinchi sinfda yuqoridagidek 70 soat ajratilib 10 ta mavzu oʻtilgan. 10 oy davomida 60 soat tarix darsida oʻquvchilar asosan inqilobdan ilgarigi texnikalar; mehnat sharoiti; mamlakatning turli qismlari; shahar va qishloqlarning, millatlarning oʻzaro aloqalari; xotin-qizlar va bolalarning turmush tarzi; maorif ishlari va aholining boʻsh vaqtlardagi mashgʻuloti haqida tushunchaga ega boʻlishgan. Qolgan 10 soatda Oktabr toʻntarilishi va uning tarixiy ahamiyati yoritilgan[3:b-1].

Uchinchi sinflar uchun 76 soat tarix darsi oʻtilib, unda asosiy e'tibor sotsializm uchun kurash va bu kurash butun dunyo mehnatkashlarining vazifasi ekanligi haqidagi fikrni oʻquvchilar ongiga singdirish boʻlgan. 4-sinflar esa 95-soat davomida sovetlarning vazifasidan tortib ikki sistema borasidagi qarashlar; 5-sinfda esa 36-40 soatli oʻquv soati davomida kommunizm ta'limotchilari va rahbarlari, ularning ish va turmush tarzi bilan tanishib chiqishi lozim boʻlgan[3:b-1].

15 yoshlik 6-sinf oʻquvchilari mamlakatda sotsializm qurish ishida partiyaning ikki frontda olib borgan kurashi va dunyoda kommunizm qurishda ishchilar sinfiga rahbarlik qiluvchi Komiternning vazifalarini oʻrganib, ijtimoiy munosabatlar toʻgʻrisida fikr yurita oladigan qobiliyatga ega boʻlishlari nazarda tutilgan[3:b-1].

Yuqorida koʻrsatilgan oʻquv yilida maktablardagi tarix fani dasturlarini tuzishda ayrim kamchiliklarga yoʻl qoʻyilganligi haqida ayrim dalillarni keltiramiz.

Ushbu dasturlarda boshlangʻich jamiyatning mafkurasi haqida maxsus mavzu berilgan holda, feodalizm va kapitalizm jamiyatlaridagi mafkura haqida alohida tushuncha berib oʻtilmaganligi jiddiy kamchilik sifatida qaralgan[3:b-6].. Bundan tashqari, Buyuk fransuz inqilobining ahamiyatini Rossiyadagi Oktabr toʻntarilishi bilan bogʻlagan holda tushuntirilmaganligi yam jiddiy kamchiliklardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Tarix fanidan tashqari ijtimoiy fan ham oʻqitilib, bu fan uchun asosiy darslik B.Leviton va M.Ovsiyannikovlar tomonidan tuzilgan "Içtimaijat" darsligi boʻlib, bu darslik asosida 95 soat dars oʻtilgan. Dasturda koʻrsatilgan 95 soat dars asosan 5 ta mavzuga boʻlingan. Asosiy e'tibor

partiya faoliyatiga, 1917-yilgi inqilobiga, sotsializmga, qishloq xoʻjaligini sotsialistik asosda qayta qurish hamda VKP(b) tarixi oʻrganishga qaratilgan edi.

Ushbu fan dasturini tuzishdagi "yetarli yoritilmagan" jihatlaridan biri 1905-1907-yillardagi inqilob jarayonoda paydo boʻlgan Sovetlarga kim ranamolik qilganligi; inqilob paytida kimning fikri bilan sovet gʻoyasi paydo boʻlganligi, bundan tashqari, Vaqtli hukumat tepasida oʻtirgan kimlardan iborat ekanligi haqida aniq misollar yoʻqligini sanab oʻtishgan[3:b-9].

**Xulosa.** XX asrning 20-30-yillarida Oʻzbekiston SSR maktab ta'lim tizimida tarix fanining oʻrnini oʻrganilishi borasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlab yangi hukumat ta'lim sohasida islohotlarini amalga oshira boshladi. Ushbu islohotlardan koʻzlangan asosiy siyosiy maqsad ta'lim tizimi orqali butun yoshlar orasida sotsialistik g'oyalarni targ'ib etish va ularni sotsializm qurish ishiga faol jalb etish edi.

Oʻquv-tarbiya ishlari qanchalik siyosatlashtirilmasin, sovet maktablarining moddiy ahvoli nihoyatda og'ir edi. Darsliklar, oʻquv qurollari, xususan, qalam, siyoh, daftar taqchil edi. Bundan tashqari, ta'lim tizimini tezlik bilan isloh qilish yoʻlida mahalliy oʻqituvchi kadrlarning yetishmasligi asosiy g'ov edi. Shuning uchun islohot jarayoni og'ir kechdi.

Maorif organlari va ilmiy muassasalar yangi oʻquv darsliklari yaratishga asosiy e'tibor qaratdilar. Maktablar faoliyatini yaxshilashga qaratilgan qator boshqa chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ammo bundan qat'i nazar, mutlaqo yangi boʻlgan bu tizimini Oʻzbekiston sharoitida joriy etish osonlikcha kechmadi. Boz ustiga oʻquvchilar intizomining pastligi oʻquv jarayonini bir maromda olib borish imkoniyatini bermasdi. Sovet hukumati ta'lim sohasidagi barcha erkinliklarni bekor qilib, maktab va oliy ta'lim sohasini ham totalitar tizimga bogʻladi. Bu esa ta'lim tizimi oʻzining endi shakllanish pallasida deformatsiyaga uchrashiga olib keldi.

Xalq ta'limi oʻquv dasturlari butunlay markazga bogʻlanib, milliy an'analarga e'tibor berilmadi. Milliy dastur tuzish va uni amalga oshirishga harakat qilgan milliy taraqqiyparvarlar qatagʻon siyosatiga uchradi.

Maktablardagi tarix fanining asosiy gʻoyasi aynan kommunistik mafkurani qoʻllab-quvvatlashga, partiya siyosatini ogʻishmay amalga oshiradigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan edi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, bu davrda maorif sohasidagi islohotlar hamda tarix ta'lim tizimini yoʻlga qoʻyish borasida amalga oshorilgan ishlar kutilgan natija bermagini qayd etish kerak boʻladi. Bundan keyingi yillarda bu yoʻnalishda talay ishlarni ruyobga chiqarish talab etilar edi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Kadyrova R.M. Study of history in schools of the Uzbekistan SSR in 1936-1937 (based on m. Asimov's report materials)// Asian Journal of Multidimensional Research.Vol. 11, Issue 8, August 2022. – P. 50-53.
2. OʻzMA.R-2748-fond; 1-roʻyxat; 1074-y.j b-9//"Статья Иноятов - О стабильной программы и учебники по истории"

3. Qodirova R.M. 1936-1937-yillarda O‘zbekiston SSR maktablarida tarix fanining o‘rganilishi (M.Asimov hisobot materiallari asosida) // O‘tmishga nazar. 2022. 3-maxsus son. – B. 181-184.
4. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. – Москва, 1960. – 512 с.
5. Кадыров И.К. Очерки развития общеобразовательной школы советского Узбекистана. – Ташкент, 1974. – 186 с.
6. Петухова О.А.Историческое образование в российской школе в первые годы советской власти 1917-1937 гг: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Брянск, 2004. – С.24.
7. Ўзбекистон ССР тарихи.Учинчи том. Улуғ Октябр социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм қуриш (1917-1937 йиллар). Бош мухаррир Мўминов И. – Тошкент,1971. – 652 б.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*08.00.00-Иқтисодиёт фанлари*

**Пардаева Шаҳноза Абдинабиевна**
Тошкент молия институти, PhD, доцент в.б.
+998(90) 356-84-16, shahnoza.pardayeva.94@gmail.com

# ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР МОЛИЯВИЙ ОҚИМЛАРИНИ БОШҚАРИШДА СТРАТЕГИК БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ РОЛИ

**Аннотация.** Мақолада хўжалик юритувчи субъектлар молиявий оқимларининг иқтисодий моҳияти, кўрсаткичларини баҳолаш, таснифланиши, элементлари ва унинг стратегик бошқарув ҳисобини ташкил этишдаги роли ёритилган.

**Таянч сўзлар:** хўжалик юритувчи субъект, молиявий оқим, пул оқимлари, бошқарув ҳисоби, стратегик, баҳолаш, элемент, коэффициент, фойда.

**Пардаева Шаҳноза Абдинабиевна**
Ташкентский финансовый институт, PhD, и.о.доцента
+998(90) 356-84-16, shahnoza.pardayeva.94@gmail.com

# РОЛЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА В УПРАВЛЕНИИ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ

**Аннотация.** В статье описаны экономическая сущность, оценка показателей, классификация, элементы финансовых потоков хозяйствующих субъектов и ее роль в организации стратегического управленческого учета.

**Ключевые слова:** хозяйствующий субъект, финансовый поток, денежный поток, управленческий учет, стратегический, оценка, элемент, коэффициент, прибыль.

**Pardayeva Shahnoza Abdinabievna**
Tashkent Financial Institute, PhD, associate professor, etc.
+998(90) 356-84-16, shahnoza.pardayeva.94@gmail.com

# THE ROLE OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING IN THE MANAGEMENT OF FINANCIAL FLOWS OF BUSINESS SUBJECTS

**Abstract.** The article describes the economic nature, assessment of indicators, classification, elements of financial flows of economic entities and its role in the organization of strategic management accounting.

**Key words:** business entity, financial flow, cash flow, management accounting, strategic, evaluation, element, ratio, profit.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N05

**Кириш.** Жаҳонда чуқурлашиб бораётган глобаллашув жараёни хўжалик юритувчи субъектлардан узоқ муддатга мўлжалланган стратегик ривожланиш йўналишлари ва кўрсаткичларини белгилаб олишни талаб қилмоқда. Чунки, ривожланган бозор муносабатларига эга мамлакатларда мазкур тадбир "...компаниялар муваффақиятининг асосий омили бўлиб, стратегик аҳамиятга эга бўлган тезкор ва ишончли маълумотларни олиш ҳамда муҳим бошқарув қарорларини қабул қилиш имкониятини яратиб келмоқда". Бозор муносабатлари ривожланган мамлакатларнинг нуфузли бренд компанияларида замонавий ва самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш имкониятини таъминлаш учун шу соҳа учун масъул бўлган бухгалтер-таҳлилчиларнинг стратегик тарзда фикрлай олиш ва мулоҳаза қилиш кўникмаларини ривожлантиришга бош омил сифатида алоҳида аҳамият қаратиб келинмоқда. Сабаби - айнан бухгалтер-таҳлилчилар тайёрлайдиган маълумотлар тизими тезкор бошқарув қарорларини қабул қилиш имкониятини беради, ташқи омиллар таъсирини ҳисобга олиш, баҳолаш ва таҳлил қилиш, натижаларидан келиб чиқиб компания ички ресурсларини оптималлаштириш йўлларини ишлаб чиқиш имкониятини яратади. Шу сабабли компанияларнинг рақобатбардошлигини таъминловчи ана шундай омиллар йиғиндиси ҳамда бош мезони ҳисобланган стратегик бошқарув ҳисобини самарали тарзда ташкил қилиш ва юритиш ҳамда халқаро ҳисоб амалиётида қўлланилаётган тажрибалардан миллий иқтисодиётимизга мос усулларини жорий қилиш долзарб ҳисобланади.

**Адабиётлар шарҳи.** Корхоналар ва компанияларда стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари хорижлик иқтисодчи олимлардан А.Апчерч, Э.Аткинсон, Р.Банкер, П.Брюэр, Р.Гаррисон, К.Друри, Р.Каплан, Э.Норин, К.Уорд, Дж.Фостер, Ч.Хорнгрен ва М.Янг [1]нинг илмий ишларида атрофлича ўрганилган.

Шунингдек, МДҲ мамлакатлари иқтисодчи олимларидан И.Н.Богатая, В.Б.Ивашкевич, В.Э.Керимов, И.Г.Кондратова, И.Е.Мизиковский, О.Е.Николаева, В.Ф.Палий [2] стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилиш ва юритиш муаммоларига бағишланган илмий тадқиқотларни олиб боришган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан А.А.Абдуғаниев, Н.Б.Абдусаламова, А.З.Авлоқулов, А.К.Ибрагимов, А.А.Каримов, М.Б.Калонов, У.У.Костаев, Б.Ю.Махсудов, М.Қ.Пардаев, А.Х.Пардаев, Н.К.Ризаев, Б.А.Хасанов, А.А.Хашимов, И.К. Ғиёсовларнинг [3] илмий ишларида стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилишнинг назарий ва илмий-услубий жиҳатлари қисман ўз аксини топган.

**Таҳлил ва натижалар.** Ҳар қандай хўжалик юритувчи субъектни ташкил этишда унинг мулкдорлари қисқа муддатли мулоҳазалардан эмас, балки стратегик, узоқ муддатли мақсадлардан келиб чиқиб фаолият йўналишларини белгилайди. Ана шундай ҳолатда мулкдор ва тадбиркорлар учун энг оптимал қарор қабул қилиш ва хулоса чиқариш учун объектив маълумотларни тақдим этадиган восита – бу стратегик бошқарув ҳисобидир.

Шу муносабат билан ҳозирги пайтда муҳим эътибор мамлакатимиз амалиётида нисбатан яқинда пайдо бўлган, аммо ривожланган бозор муносабатларига эга давлатларда етарлича кенг йўналишда шаклланиб бўлган стратегик бошқарув ҳисобига қаратилади.

Олиб борилган илмий тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, мамлакатимизда стратегик бошқарув ҳисоби ўзининг шаклланиш жараёнида бўлиб, шунга мувофиқ унинг нафақат амалий жиҳатлари, балким бир қатор назарий ва услубий масалалари ҳам ўзининг ижобий ечимини кутмоқда. Оддийроқ тарзда ифода қилинадиган бўлса, ушбу йўналишдаги мавжуд муаммолар ечимига қаратилган тадқиқотлар сони ҳозиргача жуда камдир.

Умуман, ривожланган бозор иқтисодиётига эга мамлакатларда стратегик бошқарув ҳисоби - стратегик бошқарув қарорларини қабул қилиш мақсадида ахборот таъминоти шаклланадиган бошқарув ҳисобининг бир йўналиши сифатида эътироф этилади. Стратегик бошқарув ҳисобида хўжалик юритувчи субъектнинг барча фаолият йўналишлари бўйича батафсил таҳлил амалга оширилади.

Бир қатор иқтисодчилар "молиявий оқимлар" тушунчаси "пул оқимлари" тушунчасига қараганда кенг қамровли эканлигини алоҳида қайд этади [4]. Шунга мувофиқ, хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий оқимларини пулли ва пулсиз кўринишга ажратиш мумкин. Хўжалик юритувчи субъектнинг барча молиявий оқимлари мажмуаси эса унинг қиймат жиҳатдан хўжалик айланмасини акс эттиради (*1-жадвал*).

**1-жадвал**

**Хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий оқимлари таснифи**

| Т/р | Тасниф белгиси | Тасниф тури |
|---|---|---|
| 1 | Пул маблағларига бўлган муносабат бўйича | 1.1. Молиявий пул оқими<br>1.2. Пулсиз молиявий оқимлар |
| 2 | Ҳаракат йўналишлари бўйича | 2.1. Молиявий кирим<br>2.2. Молиявий чиқим |
| 3 | Молиявий фаолиятга таъсири бўйича | 3.1. Ижобий молиявий оқим<br>3.2. Салбий молиявий оқим |
| 4 | Молиявий оқимнинг ҳажми бўйича | 4.1. Умумий ёки миқдорий молиявий оқим<br>4.2. Соф молиявий оқим |
| 5 | Молиявий-хўжалик фаолиятининг қайси турларига таъаллуқлигига қараб | 5.1. Жорий (асосий) фаолиятдан келадиган молиявий оқим<br>5.2. Инвестицион фаолиятдан келадиган молиявий оқим<br>5.3. Молиявий фаолиятдан келадиган молиявий оқим |
| 6 | Фаолиятга бўлган муносабати бўйича | 6.1. Ташқи молиявий оқим<br>6.2. Ички молиявий оқим |
| 7 | Молиявий-хўжалик жараёнларига хизмат кўрсатиш кўлами бўйича | 7.1. Хўжалик юритувчи субъектнинг бутун молиявий оқими<br>7.2. Хўжалик юритувчи субъектнинг алоҳида таркибий тузилмалари молиявий оқими |

| Т/р | Тасниф белгиси | Тасниф тури |
|---|---|---|
| | | 7.3. Алоҳида молиявий фаолиятнинг молиявий оқими |
| 8 | Давомийлиги | 8.1. Қисқа муддатли молиявий оқим<br>8.2. Ўрта муддатли молиявий оқим<br>8.3. Узоқ муддатли молиявий оқим |
| 9 | Даврийлиги | 9.1. Даврий молиявий оқим<br>9.2. Нодаврий молиявий оқим |
| 10 | Синхронлик | 10.1. Синхрон молиявий оқим<br>10.2. Асинхрон молиявий оқим |
| 11 | Хавф (риск) | 11.1. Хавфли молиявий оқим<br>11.2. Хавфсиз молиявий оқим |
| 12 | Тезлик | 12.1. Тезкор молиявий оқим<br>12.2. Секин молиявий оқим |
| 13 | Ҳажм етарлилиги бўйича | 13.1. Ортиқча молиявий оқим<br>13.2. Оптимал молиявий оқим<br>13.3. Дефицит молиявий оқим |
| 14 | Юзага келишини олдиндан билиш бўйича | 14.1. Тўлалигича олдиндан прогноз қилинадиган молиявий оқим<br>14.2. Қисман олдиндан прогноз қилинадиган молиявий оқим<br>14.3. Олдиндан прогноз қилиб бўлмайдиган молиявий оқим |
| 15 | Бошқарув жараёнида назорат қилиш имконияти | 15.1. Тартибга солинган молиявий оқим<br>15.2. Тартибга солинмаган молиявий оқим |
| 16 | Ҳисобот даврига нисбатан вақти бўйича | 16.1. Жорий давр молиявий оқими<br>16.2. Келгуси давр молиявий оқими |
| 17 | Муҳимлилиги даражасига қараб | 17.1. Устувор молиявий оқим<br>17.2. Иккинчи даражали молиявий оқим |

Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий оқимларнинг самарали тарзда ташкил қилинган стратегик бошқарув ҳисоби уларни, яъни молиявий оқимларни бошқариш бўйича тўғри молиявий қарорлар қабул қилиш асосларини яратади – мулкдорларнинг белгиланган мақсадига эришиши учун энг оптимал бошқарув қарорлар қабул қилишлари учун ишончли тарздаги ахборот-маълумот базасини шакллантриб беради.

Бир қатор иқтисодчилар ҳамда шу соҳада илмий-тадқиқотлар олиб боришаётган олимлар хўжалик юритувчи субъект молиявий оқимларининг стратегик бошқаруви ҳисоби моҳиятини унинг қуйидаги воситалари орқали баҳолаш мумкин, деб ҳисоблашади [5]:

- хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий ҳолатини баҳоловчи нисбий кўрсаткичлари (коэффициентлари) тизими;
- хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий оқимлари классификацияси;
- хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий оқимлари математик модели.

Юқорида учта гуруҳга бўлиб қайд қилинган воситаларнинг биринчи, яъни корхоналарнинг молиявий ҳолатини баҳоловчи нисбий кўрсаткичлар (коэффициентлар) тизими – бу хўжалик юритувчи субъект молиявий стратегиясини унинг жорий молиявий-хўжалик фаолияти билан боғлаб турувчи молиявий оқимлар стратегик бошқарув ҳисоби воситасидир. Оддийроқ ифодаланадиган бўлса, бу тизим хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий стратегиясини муайян мақсад ва кўрсаткичларга айлантириш имкониятини беради. Шакллантириладиган кўрсаткичлар тизими корхонанинг салоҳиятини ҳамда барча йўналишларини – моддий ва молиявий имконияти даражаси, молиявий барқарорлик даражаси, тўловга қобилиятлилик ҳамда ликвидлилик даражаси, бозор фаоллиги, инвестицион жозибадорлиги каби кўрсаткичларни қамраб олиши лозим. Бундан кўзланган мақсад – хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий ҳолатини объектив баҳолаш ва стратегик истиқболда унинг молиявий-хўжалик фаолияти самарадорлигини оширишни таъминлашдир [6].

Хўжалик юритувчи субъект молиявий оқимлар стратегик бошқарув ҳисоби нафақат молиявий оқимлар ҳисоби, балки қуйида келтирилган учта элементни ҳам ўз ичига олади (*1-расм*):

- молиявий оқимларнинг стратегик таҳлили (МОСТ);
- молиявий оқимларни стратегик режалаштириш (МОСР);
- молиявий оқимларнинг стратегик назорати (МОСН).




**1-расм. Хўжалик юритувчи субъект молиявий оқимларининг стратегик бошқаруви ҳисоби жараёни**

Амалиётда, молиявий оқимлар стратегик бошқарув ҳисобининг мазкур расмдаги элементларидан бирини бошқаларидан ажратиш қийин.

Алоҳида эътироф этиш керакки, хўжалик юритувчи субъект молиявий оқимларини бошқариш бўйича стратегик қарорлар қабул қилиниши учун улар ҳақидаги охирги беш йил ёки ундан ҳам кўпроқ муддат мобайнидаги маълумотлар керак бўлишини назарда тутиш лозим.

Иқтисодчи олимлар молиявий оқимларнинг стратегик таҳлили хўжалик юритувчи субъектнинг охирги беш йил ёки ундан кўп муддатдаги молиявий оқимларини қуйидаги йўналишлар бўйича ўрганишни эътироф этишади:

- молиявий пул оқимлари таҳлили (пул шаклидаги);
- пулсиз молиявий оқимлар таҳлили.

Худди шунингдек, нафақат иқтисодчи олимлар, балким амалиётчилар ҳам хўжалик юритувчи субъект молиявий оқимлари стратегик таҳлилининг услубий мажмуаси иқтисодий таҳлилнинг қуйидаги махсус усул ва услубларидан ташкил топишини якдиллик билан қайд қилишади: мутлоқ қийматлар усули, нисбий қийматлар усули, таққослаш, гуруҳлаштириш, жадвалли усул, балансли усул, занжирли алмаштириш усули, функционал-қиймат таҳлили, омилли таҳлил.

**Хулоса ва таклифлар**. Юқорида қайд қилинганлар асосида қуйидаги хулосаларни шакллантириш мумкин:

Хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий оқимларини бошқаришда стратегик бошқарув ҳисобининг муҳим қисми бўлган айнан молиявий оқимларнинг стратегик бошқарув ҳисоби бозор иқтисодиётининг замонавий шароитларига адекват ва энг оптимал бошқарув қарорларни қабул қилиш имкониятини берадиган самарали ва тезкор ахборот базасини шакллантириш имкониятини яратади.

Хўжалик юритувчи субъектнинг пулсиз молиявий оқимлари таҳлили қоидага биноан бухгалтерия баланси (пул маблағларидан ташқари), шунингдек баъзи ҳолларда фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисобот моддалари бўйича олиб борилади ва қуйидаги босқиларни ўз ичига олади:

1. Бухгалтерия баланси бўйча жами соф молиявий оқим таҳлили.
2. Бухгалтерия баланси моддалари бўйича соф молиявий оқимлар матрицасининг шаклланиши.
3. Бухгалтерия баланси моддалари бўйича соф молиявий оқимларнинг қиёсий таҳлили.
4. Фойда ва зарар ҳисоботи бўйича молиявий оқимлар таҳлили.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Друри К. Управленческий и производственный учет. Вводный курс: учеб. Для студентов вузов /К.Друри. -5-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015. -735 с. – (Серия «Зарубежный учебник»).
2. Керимов В.Э. Бухгалтерский управленческий учет / Керимов В.Э. -8-е изд. - М.: «Дашков и К», 2017. -484 с.
3. Pardaev A.X., Pardaeva Z.A. Darslik //Boshqaruv hisobi. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. –556 b.

4. Pardaeva Sh.A. Organization of management accounting for the strategic potential of enterprises. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS) Vol. 2 No. 9, September 2021. Page 35-42, (08.00.00; №16, CiteFactor-7.455).
5. Пардаева Ш.А. Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий натижаларнинг стратегик бошқарув ҳисобини такомиллаштириш.// "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий журнали. № 3, июнь, 2021 йил. ISSN: 2181-1016.
6. Пардаева Ш.А. Харажатларнинг стратегик бошқарув ҳисобини такомиллаштириш йўналишлари. //"Иқтисодиёт ва таълим" илмий журнали., V сон, 2021 йил.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Камчибеков Фарход Олимжонович**
Наманган Давлат университети
илмий изланувчиси

## ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ВА КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ

**Аннотация.** Мазкур мақолада дунё мамлакатларида эркин иқтисодий ва кичик саноат зона元ларининг бугунги кундаги ҳолати, ривожланган давлатлар тажрибаси, соҳада фойдаланилаётган қонунчилик ҳужжатлари ҳамда келгусидаги барқарор ривожланиш истиқболлари ҳақида баён қилинган.
**Калит сўзлар:** эркин иқтисодий зоналар, тадбиркорлик, индустриал парклар, тартиб, имтиёз, инвестицион ҳудуд.

**Камчибеков Фарход Олимжонович**
Научный исследователь
Наманганский Государственный Университета

## МИРОВОЙ ОПЫТ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ И МАЛЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ЗОНЫ

**Аннотация.** В данной статье описывается современное состояние свободных экономических и малых промышленных зон в различных странах мира, опыт развитых стран, правовые документы действующие в данной сфере, и перспективы устойчивого развития в будущем.
**Ключевые слова:** свободные экономические зоны, предпринимательство, индустриальные парки, порядок, льгота, инвестиционная зона.

**Kamchibekov Farkhod Olimjonovich**
scientific researcher of
Namangan State University

## WORLD EXPERIENCE ACTIVITY OF FREE ECONOMIC AND SMALL INDUSTRIAL ZONES

**Abstract.** This article describes the current state of free economic and small industrial zones in various countries of the world, the experience of developed countries, the legal documents in force in this area, and the prospects for sustainable development in the future.
**Key words**: free economic zones, entrepreneurship, industrial parks, order, benefit, investment zone.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N06

**Кириш.** Эркин иқтисодий ҳудуд (ЭИҲ) тушунчаси умумий маънода 1973 йилда Халқаро Киото конвецияси орқали муҳрланиб қолган. Ривожланган хорижий давлатларда кичик ва ўрта тадбиркорликни ривожлантириш, аҳолини иш билан таъминлаш ва саноатнинг технологик ривожланиши билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишнинг муҳим механизмларидан бири индустриал парклар, технополислар ва саноат зоналари ҳисобланади. АҚШ ва Хитойда 400 дан ортиқ, Германияда 200 та, Туркияда 262 та, Чехияда 140 та, Японияда 70 та, Польшада 60 та Россия Федерациясида 179 та, Вьетнамда 200 га яқин индустриал парклар фаолият юритмоқда. Мазкур зоналар ишлаб чиқаришнинг замонавий технологик базасини шакллантириш, ишлаб чиқариш жараёнларига инновацияларни жорий этиш ҳамда илм-фан сиғими юқори маҳсулотлар яратиш ва хизмат кўрсатишни таъминлашда асосий ролини ўйнамоқда. [2; Б.102].

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Киевская А.С. ва Ананичева Е.П., ўз ишида [5; Б.3.]. Минтақавий ривожланиш ҳамда инновацион ҳудудларни яратиш ва бошқариш масаласида Хитой Халқ Республикасини эталон этиб кўрсатмоқда. Айнан Хитойдаги эркин иқтисодий ҳудудлар, Россия Федерациясида илғор ривожланиш ҳудудларини ташкил этиш тўғрисида қарор қабул қилиш учун шубҳасиз аргумент бўлиб хизмат қилганлигини таъкидлади.

Каменщиков П.В. ўз мақоласила [3; Б.20-23.]. Махсус иқтисодий ҳудудларда иқтисодий - ҳуқуқий механизмларнинг мақсадли фаолият кўрсатишини таъминлаш учун жаҳон тажрибасида учта гуруҳга умумлаштирса бўладиган универсал чоралар йиғиндисидан фойдаланиб келинишини кўрсатиб ўтади. Булар молиявий, фискал ва маъмурий чоралар.

**Муҳокама.** Буюк Британияда махсус иқтисодий ҳудуд - минтақавий сиёсат доирасида, қолоқ ҳудудларни кўтаришга мақсадида ташкил этилган. АҚШда эркин савдо ҳудудлари кенг тарқалган. Бундай ҳудудлар XX-асрнинг 30-йиллар ўрталарида жаҳон иқтисодий инқирози асоратларини енгиш мақсадида ташкил этишни бошлаган. Шу билан бирга 1980-йилларда мамлакатда асосан ички бозорга мўлжалланган эркин ишбилармонлик ҳудудлари пайдо бўла бошлади. Бундан ташқари бу ерда илмий - технологик ҳудудлар кенг тарқала бошлаган.

Японияда узоқ вақт технополис ва технопаркларга катта эътибор қаратилган, бироқ 1990 йил бошларида ҳукумат экспорт ва чет эл инвестицияларини жалб қилишни рағбатлантиришга қаратилган чораларни қабул қилади. Шу мақсадларда денгиз портлари ва халқаро аэропортларда эркин ташқи савдо ҳудудларни ташкил этишни бошлади.

Лотин Америкасида бошида эркин савдо ҳудудлари ташкил этилган бўлсада, кейинчалик эса экспорт - ишлаб чиқариш ҳудудлари сони ортган. Шу билан бирга турли кўринишдаги оффшор марказлари кенг ривожланишни бошлаган. [8; Б.24-25].

Хитой Халқ Республикасида саноат зоналарининг муваффақиятли ривожланишига тўхталиб ўтсак, бунда иккита омил муҳим аҳамият касб этади. Биринчи омил – хусусий тадбиркорларнинг энергиясидан ҳар томонлама фойдаланиш. Иккинчиси – хусусий иқтисодга асосланган саноат зонасининг ягона тизим сифатидаги фаолиятидан вужудга келувчи самара (синергия самараси).

Хитой Халқ Республикасида махсус иқтисодий ҳудудлар учун тўртта асосий имтиёз гуруҳларини ажратишади:

- Ташқи савдо имтиёзлари. Махсус божхона-тарифлари режимини киритилиши (экспорт - импорт божларини камайтириш ёки бекор қилиш) ва ташқи савдо амалиётларини амалга оширишнинг соддалаштирилган тартибини назарада тутади.

- Солиқ имтиёзлари, аниқ бир фаолият турлари ёки тадбиркорлар фаолиятини солиқ рағбатлантириш нормаларини ўз ичига олган. Бу имтиёзлар солиқ базасини (даромад, мулк қиймати ва бошқа), алоҳида қисмларини (амортизация ажратмалари, ойлик иш ҳақи, илмий - тадқиқот ва конструкторлик - тажриба ишлари, транспорт харажатлари), солиқ ставкалари даражасини, вақтинчалик ёки доимий солиққа тортишдан озод этиш масалаларини назарда тутиши мумкин.

- Молиявий имтиёзлар субсиядаларнинг турли шаклларини ўз ичига олади. Улар коммунал хизматлар учун арзонлаштирилган нархлар, ер участкаларидан фойдаланилганлик учун ижара тўловларнинг пасайтирилиши, ишлаб чиқариш хоналари, имтиёзли кредитлар ва бошқа кўринишда тақдим этилади.

- Маъмурий имтиёзлар маъмурият томонидан, корхоналарни рўйхатдан ўтиши ва чет эл фуқароларининг кириб - чиқиш тартибини соддалаштириш ҳамда бошқа хизматларни кўрсатиш мақсадида тақдим этилади.

Масалан Чжецзян провинциясида бугунги кунда уч юздан ортиқ саноат зоналари мавжуд. Ушбу ҳар бир саноат зонасида ишлаб чиқарилган саноат маҳсулоти ҳажми бир йилда ўртача 100 млн. юанни ташкил этади. Умуман, хусусий тадбиркорликка асосланган саноат зоналари минтақалар иқтисодиётининг ривожланишини ҳаракатга келтирувчи асосий куч сифатида ўрганилади. [6; Б.461-463].

Саноат зоналарида йирик фирмалар эмас, асосан кичик ва ўрта корхоналар жойлашган. Уларни цехлар сифатида кўриб чиқиш мумкин. Цехлар ҳар хил турдаги ишлаб чиқариш фаолияти билан шуғулланади. Айрим цехлар маълум бутловчи қисм ёки оралиқ маҳсулот ишлаб чиқарса, бошқалари якуний маҳсулот ишлаб чиқаради. Ягона ҳудудда жойлашган кўплаб кичик цехлар ягона саноат ишлаб чиқариш комплексини ташкил этади ва бундай комплекс миллий ва жаҳон бозорлари учун кенг турдаги товарларни ишлаб чиқариш имкониятига эга. Саноат зонасининг устунини кўп сонли якуний маҳсулот ва хизматларни ишлаб чиқарувчи хусусий фирмалар ташкил этади ва бунга қуйидагилар киради: хусусий бизнес, акционерлик капиталига асосланган корхоналар, ташқи савдо билан шуғулланувчи фирмалар, қўшма корхоналар. Саноат зонаси таркибига қуйидагилар ҳам киради: бирламчи маҳсулот, бутловчи компонент, қисмлар ва ускуналар билан таъминловчи корхоналар; чакана ва улгуржи савдо билан шуғулланувчи корхоналар, экспорт ва импорт соҳасидаги воситачи корхоналар, молиявий ва ахборот хизмати кўрсатувчи корхоналар; малакали кадрлар тайёрловчи агентликлар, стандартларни ишлаб чиқувчи ташкилотлар, илмий-тадқиқот ва тажрибали конструкторлик бюроси, алоқа воситаси, касаба уюшмаси ва ҳоказо.

Хитой Халқ Республикасининг ЯИМ таркибини ўргансак, 2017 йилда у 12014,61 млрд. АҚШ долларига тенг, унинг 40% ни саноат, 10% ни қишлоқ хўжалиги, 7% ни қурилиш ва қолган 43% ни хизматлар ташкил этади. ЯИМда саноатнинг улуши қишлоқ хўжалиги улушидан 4 баробар кўп. [10; Б.3-4].

Ривожланган хорижий давлатлар ЯИМининг таркибини ўргансак, хусусан, Францияда ЯИМ 2017 йилда 2583,56 млрд. АҚШ долларини ташкил этган, шундан 2,4 % ни қишлоқ хўжалиги, 26,5 % ни саноат ишлаб чиқариши, 71,1 % ни эса хизматлар ташкил

этади. Саноатнинг ЯИМ даги улуши қишлоқ хўжалигига нисбатан 11 баробарга кўп. 2030 йилга бориб саноатни мамлакатимизнинг ЯИМдаги улуши 40% ни ташкил этса, Франция ЯИМ таркибига эришиш учун қишлоқ хўжалигининг ЯИМ даги улуши 2.4 % га ва хизматларнинг улуши эса 57,6 % га тенг бўлиши керак.

Франция экспортининг 80% ни саноат маҳсулотлари ташкил этади. Саноатда фаол аҳолининг 26 фоизи банд, қишлоқ хўжалигида эса 5 фоизи. Фаолият юритаётган саноат корхоналарининг 95% да ишчилар сони 20 нафаргача. Демак, корхоналарнинг 95 фоизи кичик ва ўрта бизнесни ташкил этади. Лекин, 100 та йирик фирма мамлакат саноат ишлаб чиқаришининг 2/3 қисмини (66,6 фоизини) беради (www.ekonomy–web.org).

Германиянинг ЯИМ 2017 йилда 3684,82 млрд. АҚШ долларини ташкил этган. Германияда ҳам кичик ва ўрта бизнес саноат ишлаб чиқаришнинг асосий ўзаги деб қаралади, жами корхоналарнинг 99,6% ни ташкил этади ва уларда ишчиларнинг 79,2 фоизи меҳнат қилади. Германия ЯИМининг 71,1 фоизи хизматлар соҳасига, 28,1 фоизи саноатга ва 0,8 фоизи қишлоқ хўжалигига тўғри келади. Саноатнинг ЯИМдаги улуши қишлоқ хўжалигига нисбатан 35,1 баробарга кўп. [1; Б.2].

Хитой Халқ Республикасида бир нечта турдаги инвестицион ҳудудлар мавжуд.

**Махсус иқтисодий ҳудудлар.** Бугунги Хитой Халқ Республикасида тобора кенг амалиётда фойдаланиб келинаётган "Очиқ эшиклар" сиёсатини ўрганишда, Жанубий-Хитой вилоятлари қирғоқларида Гуандун ва Фуцзянь "Махсус иқтисодий ҳудудлари"нинг (расмий ҳужжатларда "Махсус ҳудудлар" номи билан ҳам юритиладиган) ташкил этилишига эътибор қаратиш лозим.

"Гуандун вилоятининг Махсус Иқтисодий Ҳудудлари тўғрисидаги тартиб" Гуандун вилояти (бу вилоят экспериментал ҳудуд сифатида танлаб олинган) Халқ вакилларининг йиғилиши (СНП) томонидан қабул қилинган бўлиб, Умумхитой Халқ вакиллари йиғилишининг (ВСНП) 1980 йил 25 августдаги 15-мажлисида тасдиқланган. Бу тартиб 26 та банддан иборат, олтита бобга гуруҳланган, катта бир юридик ҳужжат бўлиб, бугунги кунга қадар ушбу соҳада асосий норматив ҳужжат ҳисобланади.

"Тартиб" мазмунига кўра, Хитой Халқ Республикаси ҳудудида, хитой юрисдикцияси бўйсинувида бўлсада, бироқ тадбиркорлик ва тижорат соҳасида махсус ҳуқуқий тартиби билан махсус ҳудудлар ташкил этилаётганлиги келиб чиқади. Тартибга риоя этилишига махсус маъмурий орган жавоб беради. Биринчи навбатда тўртта "Махсус Иқтисодий Ҳудудларни" ташкил этиш ҳақида эълон қилинган - Гуандун вилоятида Шэньчжэнь, Чжухай ва Шаньтоу, Фуцзянь вилоятида Сямынь. Улар бир нечта омилларни ҳисобга олган ҳолда танлаб олинган: баъзи бирлари, Гонконг ва Макао билан тўғридан тўғри денгиз ва темир йўл алоқалари мавжуд, қадимдан савдо марказлари сифатида шаклланиб келган шаҳарлар бўлса, (Шэньчжэнь, Чжухай), баъзи бирлари денгиз порти шаҳарлари бўлган (Шаньтоу, Сямынь). Шу билан бирга бу Ҳудудлар муайан инфратузилма ва саноат базасига эга бўлиб, уларнинг чет эл билан иқтисодий алоқалари Хитой Халқ Республикасининг ичкарисидаги ҳудудлар билан алоқаларидан кўра яқинроқ. Бошқа давлатларда, бундай ҳудудлардаги чет эл капиталининг фаолияти марказий вазирликлар ёки махсус муассасаларга бўйсундирилишидан фарқли ўлароқ, Хитой Халқ Республикасида "Махсус ҳудудлар"нинг фаолияти оид масалалар марказий ҳукумат иш юритувидан чиқарилиб, вилоят даражасига ўтказилади.

1-жадвал, 2017 йилда Хитой Халқ Республикасининг махсус иқтисодий ҳудудларини ялпи ҳудудий маҳсулоти ва унинг тузилмаси

| МИҲ | Жами | Тармоқ, млрд. юань | | | Улуши, фоиз | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Қишлоқ хўжалиги | Саноат ва қурилиш | Хизмат кўрсатиш | Қишлоқ хўжалиги | Саноат ва қурилиш | Хизмат кўрсатиш |
| Шэньчжен | 2243,8 | 1,8 | 926,7 | 1315,3 | 0,1 | 41,3 | 58,6 |
| Чжухай | 256,5 | 4,5 | 128,9 | 123,1 | 1,8 | 50,2 | 48 |
| Шаньтоу | 235 | 10,8 | 118,1 | 106,1 | 4,6 | 50,2 | 45,2 |
| Хайнань | 404,5 | 97,1 | 90,2 | 217,2 | 24 | 22,3 | 53,7 |

2-жадвал, ХХР ЭИХнинг 2017 йилда ташқи савдоси, млрд. юань

| ЭИХ | Айланма | Экспорт | Импорт |
|---|---|---|---|
| Шэньчжень | 413,95 | 244,22 | 169,73 |
| Чжухай | 44,25 | 27,89 | 16,36 |
| Шаньтоу | 8,8 | 6,71 | 2,09 |
| Сямэнь | 85,84 | 48,01 | 37,83 |
| Хайнань | 10,37 | 4,37 | 6,0 |

"Тартиб"нинг 1-бандида "Махсус ҳудудлар"да нафақат қўшма корхоналар, балки тўлақонли чет эл инвестициялари ҳисобига ташкил этилган, яъни шахсий капиталистик корхоналарни ташкил этишни кўзда тутилган. Чет эл инвесторларига иқтисодиётнинг барча соҳаларида "кенг фаолият доираси" тақдим этилади, шу жумладан қишлоқ хўжалигида (4-банди).

Бир вақтнинг ўзида "Тартиб", ХХР чет эл ишбилармонларининг ишлаб чиқариш ва тижорий тажрибасидан кенг фойдаланиш мақсадини намойиши сифатида "хитой модернизация дастурига иштиёқ билан қарайдиган" чет эл бизнесменларига маслаҳат (консультутатив) ҳуқуқини беради, бу уларни, ҳар бир ҳудудда тузиладиган маҳсус маслаҳат органларида иштирок этишлари орқали кўринади. (6-банд)

"Махсус ҳудудлар"да саноат ва савдо фаолияти учун, махсус ҳудудлардан ташқарисидаги чет эл иштирокидаги корхоналар тўғрисидаги қонун ҳужжатлари билан белгиланган имтиёзлардан кўра давомли бўлган махсус имтиёзли солиқлар назарда тутилган. Шундай қилиб махсус ҳудудлар чегаралари ичида даромад солиғи миқдори 15 % атрофида белгиланган.

Қўшимча имтиёзларни белгилаш йирик корхоналар (инвестиция миқдори 5 ва ундан юқори млн. долл.), илғор технологияларни жалб қилувчи корхоналар, ёки узоқ муддатли капитал айланмасига эга корхоналар учун режалаштирилмоқда. "Махсус ҳудудлар"даги корхоналарда фойдаланиладиган турли ҳил воситалар ва ҳомашё импорт

божларидан озод этилади. Шу билан бирга, импорт қилинган истеъмол товарларига нисбатан солиқ юкини қисқартириш ёки ундан озод этиш ҳам кўзда тутилади (13, 14 - банди). "Тартиб" инвесторлар учун ерни ижарага олиш масаласини "ижобий кўриб чиқилиши"ни ҳам назарда тутади (12-банд). "Махсус худудлар"да олинган даромадларни қайта инвестициялаш масаласига келсак, инвесторларга, бу турдаги киритилган капитални (қайта инвестициялаш 5 йилдан ортиқ муддатни назарда тутганда) тўлиқ даромад солиғидан озод этиш ҳақида илтимоснома киритиш ҳуқуқини қолдиради. [10; Б.3-4].

Эътиборли томони шундаки, ЭИҲни ривожлантиришда асосий харакатлар, Хитой эркин иқтисодий ҳудудларида жалб қилинган инвестицияларнинг сони эмас балки сифат кўрсаткичларини ушлаб туришга йўналтирган. Хитой давлати ўз ихтиёрида махсус ҳудудларнинг турли кўринишларига эга бўлиб, эскирган ёки иккинчи даражали технологияларнинг импорт бўлиб кириб келишига турли ҳил тўсиқларни қўяди ва асосий эътиборини инновацияларни ривожлантиришга қаратади, чет эл компаниялари томонидан ХХР ҳудудида илмий - тадқиқот марказларини ташкил этилишини рағбатлантиради. Бу илғор ва мукаммаллаштирилган технологияларга эга бўлиш ҳамда келгусида маҳаллий кадрларнинг малакасини ошириш учун чет эл тажрибасини олиш мақсадида қилинган. Шу муносабат билан Хитой, илмий - тадқиқот ва тажриба конструкторлик ишлари миллий секторини ривожлантиришни бошлади ва ўз харакатларини маҳаллий инновацияларни ишлаб чиқишни қўллаб - қувватлашга йўналтирди.

3-жадвал, Материк Хитой шаҳарларининг 2019 йилда ялпи ички маҳсулот рейтинги, трлн. Юань




Россия Федерациясида Маҳсус иқтисодий ҳудуд тушунчаси - бу тадбиркорлик фаолиятининг маҳсус қоидалари амал қиладиган ва Россия Федерацияси Ҳукумати томонидан белгиланадиган Россия Федерациясининг ҳудудининг бир қисми деб тушунилади. Россия Федерациясида махсус иқтисодий ҳудудларни ташкил этишнинг асосий мақсадлари: иқтисодиётнинг ишлаб чиқариш ва юқори технологиялик тармоқларини ривожлантириш, янги турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқариш, импорт

ўрнини босувчи ишлаб чиқаришларни ривожлантириш, транспорт инфраструктурасини рвожлантиришдан иборат. [7; Б.2].

Таҳлил учун, Россия Федерациясида Индустриал паркларга тушадиган талабномаларни (заявка) қуйидаги чекловлар белгиланган: битта резидент учун ажратиладиган ер майдони 0,5-5,0 гектар; резидентнинг бир гектар ер майдони ҳисобидан оладиган даромади 100-150 млн. рубль; бир гектар ер майдонида яратиладиган иш ўрни 25-75 киши; АҚШ доллари эквивалентида бир гектар ер майдонига тўғри келувчи йиллик даромад 1,6 – 2 млн АҚШ долларини ташкил этади. (доллар курси: 64 рублга 1 доллар бўлганда). [4; Б.2-3].

**Натижалар**. Мақолада кўриб чиқилган жахон мамлакатлари тажрибасининг аксарият йўналишлари мамлакатимизда тадбиқ этилган бўлиб ўз ижобий натижалари бермоқда. Шу билан бирга тажрибасини қўллаш мумкин бўлган кўплаб жихатларидан Ўзбекистонда бугунги кунда соҳада фойдаланилмаётганлиги маълум бўлди. Масалан Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналарда тадбиркорлик ва ишлаб чиқариш фаолияти учун солиқ имтиёзлари белгилаб берилган бўлсада, бугунги кунда шиддат билан сони ортиб бораётган кичик саноат зоналарида ҳар қандай имтиёзлар бўйича аниқ меърий ҳужжатлар қабул қилинмаган. Шунингдек чет эл давлатларида махсус ҳудудларда илмий ишлаб чиқариш лабораториялар фаолиятига катта эътибор қаратаётганлигини кўришимиз мумкин.

**Хулоса**. Хулоса қилиб айтиш жоизки, Махсус иқтисодий ҳудудлар фаолиятини юритиш бўйича тажрибаси юқори бўлган давлатлардан намуна олиш, уларнинг ўсиш суръатига эришиш йўлида босиб ўтган қадамларини ўрганиш табиий ва фойдали амалиёт ҳисобланади. Чет эл тажрибаси, бугунги дунё мамлакатларининг шиддат билан ривожланиш замонида махсус иқтисодий ҳудудларни ривожлантириш учун фақатгина бир нечта йирик соҳаларда харакатланиш билан чекланиб бўлмаслигини кўрсатмоқда. Бугунги кунда Ўзбекистонда фаолият кўрсатаётган маҳсус ҳудудларни қўллаб-қувватлаш қамровини оширилмаган тақдирда, бу ёпиқ ва ўрта меъёрда ривожланиб келаётган соҳага айланиб қолишига олиб келиши мумкин. Шунингдек бугунги кунда соҳада олиб борилаётган ишларни мамлакатимиздаги тадбиркорлар қатламига кенгроқ ёритиб бориш, шаффофликни ошириш, тадбиркор ва ишбилармонлардан таклиф ва мулоҳазаларни олиш ва жараёнларга татбиқ этиш тизимини йўлга қўйиш, соҳанинг ривожланиши йўлидаги муҳим поғона бўлади деб ҳисоблайман.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Владимир Дудник "Структура и динамика прироста ВВП Германии" (https://zagranportal.ru/germaniyn)
2. Изюмов М.Д. "Роль индустриальных парков в региональной экономике: обзор зарубежного и Российского опыта" 2020 йил.
3. Каменщиков П.В. "Особые экономические зоны: Формирование и правовое регулирование. Экономико - правовой механизм создания особых экономических зон."//Российское предпринимательство, 2010 - №8 (1)
4. И.Б.Хамрақулов (Scientific progress, 2022 йил, "Кичик саноат зоналарини ривожлантиришнинг моҳияти ва ўзига хос ҳусусиятлари")

5. Киевская А.С., Ананичева Е.П., Организационно-экономический механизм образования территорий опережающего развития в Китайской Народной Республике//Московский экономический журнал 5/2018
6. Солиев И.И., Сирожиддинов К.И. Благоприятный инвестиционный климат - важный фактор макроэкономического развития //Молодой ученый – 2015. – №. 17.
7. Т.Божко "Особые экономические зоны: совершенствование механизма отбора заявок на их создание" № 3 (037), 2012 йил
8. Юсупов А.С. "Свободные экономические зоны: основные виды, секреты их становления и роли в развитии национальных хозяйств"/Мировая экономика/2018, 7(115)
9. Джеймс Форстер "Свободные зоны: мировые лидеры и лидеры США мыслят нестандартно" Site Selection magazine, ноябрь 2022 (https://siteselection.com/issues/2022/nov/free-zones-global-and-us-leaders-think-outside-the-box.cfm) Инвестиционные зоны Китая (Ахборот - тахлилий портали asia - bussiness.ru)

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Баратов Махсудали Назиралиевич,**
Наманган давлат университети мустақил изланувчиси
Электрон почта: mnb7907@gmail.com
Тел.: (99) 854 77 40

## МИКРОМОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ЧЕТ ЭЛ ТАЖРИБАСИ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШДАГИ РОЛИ

**Аннотация.** Мақолада микромолиялаштиришнинг илмий-назарий асослари ва дунё бўйлаб микромолиявий хизматлар бозорининг шаклланиши ва тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари очиб берилган. «Grameen Bank»нинг микромолиялаштириш бозоридаги тажрибалари ўрганилган ҳамда ривожланиш даражаси паст бўлган, ривожланаётган ва тараққий этган мамлакатлар иқтисодиётида микромолиялаштиришнинг роли ёритилган. Тадқиқот натижалари асосида Ўзбекистонда кичик бизнес субъектларини микромолиялаштиришни такомиллаштиришга йўналтирилган илмий асосланган таклиф-тавсиялар тишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** микрокредит, микроқарз, микромолиявий ташкилотлар, камбағаллик, тадбиркорлик, кичик бизнес, фоиз ставкаси, микромолиявий хизматлар, микромолиявий дастурлар, Grameen Bank, қарз олувчилар.

**Баратов Махсудали Назиралиевич,**
Самостоятельный соискатель Наманганского государственного университета
Электронная почта: mnb7907@gmail.com
Тел.: (99) 854 77 40

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ МИКРОФИНАНСИРОВАНИЯ И ЕГО РОЛЬ В РЕШЕНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

**Аннотация.** В статье раскрываются научно-теоретические основы микрофинансирования и особенности формирования и развития рынка микрофинансовых услуг по всему миру. Были изучены эксперименты «Грамин Банка» на рынке микрофинансирования и освещена роль микрофинансирования в экономике развитых, развивающихся и стран с низким уровнем развития. По результатам исследования разработаны научно обоснованное предложение и рекомендации, направленное на совершенствования микрофинансирования субъектов малого бизнеса в Узбекистане.

**Ключевые слова:** микрокредит, микрозайм, микрофинансовые организации, бедность, предпринимательство, малый бизнес, процентная ставка, микрофинансовые услуги, программы микрофинансирования, Грамин Банк, заемщики.

**Baratov Makhsudali Naziralievich**
Independent researcher of Namangan State University
Email: mnb7907@gmail.com
Tel.: (99) 854 77 40

# FOREIGN EXPERIENCE OF MICROFINANCE AND ITS ROLE IN SOLVING SOCIAL PROBLEMS

**Abstract.** The article reveals the scientific and theoretical foundations of microfinance and the features of the formation and development of the microfinance services market around the world. «Grameen Wapk's» experiments in the microfinance market were studied and the role of microfinance in the economies of developed, developing and low-level countries was highlighted. Based on the results of the study, a scientifically based proposal and recommendations have been developed aimed at improving microfinance for small businesses in Uzbekistan

**Key words:** microcredit, microloan, microfinance organizations, poverty, entrepreneurship, small business, interest rate, microfinance services, microfinance programs, grameen bank, borrowers.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N07

**Кириш.** Жаҳон амалиёти тасдиқлашича, иқтисодий жиҳатдан турли даражада тараққий этган мамлакатларда микромолиялаштириш дастурларининг самарали, муваффақиятли амалга оширилганлиги ҳамда оширилаётганлиги бўйича кўплаб мисоллар мавжуд ва улардан Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларнинг ўзига хос хусусиятлари ва тадбиркорлик субъектларининг микромолиявий хизматларга бўлган эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда фойдаланиш кичик бизнес субъектларини микромолиялаштириш амалиётини такомиллаштириш бўйича амалий тавсияларни бера олади. Халқаро амалиётда микромолиявий хизматлар бозори – бу маълум бир давлатнинг турли шароитларига мослаштирилган ижтимоий йўналтирилган бизнес сифатида намоён бўлади. Жаҳон банкининг маълумотларига кўра, «дунёда 140 миллиондан ортиқ киши турли хил микромолиявий хизматлардан фойдаланади ва микромолия ташкилотларининг умумий портфели 124 миллард АҚШ долларидан ошади» [1]. Шу нуқтаи назардан мамлакатда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш, янги иш ўринларини яратиш, камбағалликни камайтириш, аҳолининг реал даромадларини оширишда микромолиялаштириш амалиётини ривожлантириш ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Микромолиялашнинг илмий-назарий асослари, микромолиялаштириш бозори инфратузилмасини шакллантириш, аҳолига турли молиявий хизматлар кўрсатилишида микромолиялашнинг роли, микромолиявий ташкилотлар фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари ва микромолиявий хизматлар бозоридаги роли Абрамов М.А. [2], Вишняков И.П. [3], Гриб Р.Б. [3], Юнус М. [5], Высоков Д.А. [6], Евлахов Ю.С. [7] ва бошқаларнинг илмий ишларида тадқиқ этилган.

Ўзбекистон Республикасида сўнгги йилларда бозор муносабатларининг янада ривожланиши шароитида кредит муносабатлари тизимида микрокредитлашнинг роли, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини микромолиялаш амалиёти, микромолиявий хизматларни такомиллаштириш йўллари, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини микромолиялашнинг методологик асосларини такомиллаштириш масалалари иқтисодчи-олимлардан Ваҳобов А.В., Жамолов Х.Н. [8], Таджибаева Д.А. [9], Маматов Б.С. [10], Рахмонов И.Х. [11], Муродова Д.Ч. [12] илмий изланишларидан ўрин олган.

Таъкидлаш зарурки, юқоридаги иқтисодчи олимларнинг илмий ишларида, айнан, кичик бизнес субъектларини микромолиялаш тизимини ривожлантириш муаммоларини ўрганишга кенг эътибор қаратилмаган ҳамда амалдаги меъёрий ҳужжатларнинг кичик бизнес субъектларини микромолиялаш тизимини ислоҳ қилиш шароитига мувофиқ ўзгариб бориши ушбу соҳада чуқур илмий изланишлар олиб бориш лозимлигидан далолат беради.

**Натижалар.** Иқтисодий ривожланишнинг паст даражаси (лотин Америкаси, Африка, Жануби-Шарқий Осиё) билан биргаликда молиявий ва кредит хизматларидан четлаштирилган аҳоли қатлами ҳамда камбағал аҳолининг улуши катта бўлган мамлакатлар (шуни алоҳида қайд этиш зарурки, «2022 йилда Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 14 фоизни ташкил қилди» [13] ва бу Ўзбекистонда янги иш ўринларини яратиш, кичик тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш, аҳолининг реал даромадларини ошириш ва камбағаллик даражасини пасайтиришда микромолиялаштиришнинг ўзига хос мақомини янада кучайтиради) микромолиявий дастурларни амалга оширишда энг катта муваффақиятларга эришдилар. Бинобарин, микромолиялаштиришнинг аниқ ижтимоий йўналиши ривожланаётган мамлакатларда намоён бўлмоқда, чунки микромолиявий институтлар фаолияти анъанавий молия бозорининг тўлиқ эмаслиги ва номукаммаллигини тўлдиради.

«Микромолиялаштириршнинг энг машҳур тажрибаларидан бири – бу 1976 йилда профессор Мухаммад Юнус томонидан дунёдаги энг суст ривожланган мамлакатларнинг бирида кам таъминланган (асосан, аёлларни) аҳолининг иқтисодий фаоллигини қўллаб-қувватлаш мақсадида бошланган Бангладешнинг Грамин (Grameen Bank) лойиҳаси тан олинган» [14]. Бунда микромолиявий дастурларнинг, нафақат, иқтисодий, балки ижтимоий мақсадларга эришиш учун аёллар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашга йўналтирилганлиги муҳим аҳамиятга эга. Дастлаб, 40 нафар қарз олувчининг ҳар бирига 40 АҚШ долларини ҳеч қандай гаров ва кафилларсиз паст фоиз ставка билан, лекин бизнес очиш ва уни кенгайтириш шарти билан, қоида тариқасида, камбағал оилаларга тақдим этилган ва бу билан Мухаммад Юнус ҳеч нарса йўқотмаган. «Менга қарз маблағини олган камбағал оилалар уни ҳеч қачон қайтариб бера олмаслиги ҳақида огоҳлантиришди. Бироқ, мен риск қилишга тайёр эдим, дейди у. Энг ажабланарлиси шундаки, мен қарз маблағи берган барча оилалар ушбу қарз маблағини охирги центигача қайтаришди» [15]. Шуни алоҳида қайд этиш зарурки, Мухаммад Юнуснинг ғояси жуда оддий – аҳолининг кам таъминланган қатламларига тадбиркорлик ҳисобидан даромадларини шакллантириш учун реал имконият яратиб, ўзининг фаровонлик даражасини ошириши мумкин. Бунинг учун дастлабки (бошланғич) сармоя (инвестиция) зарур бўлади ва буни, айнан, микромолиялаштириш таъминлайди. Бир қарашда, бу оддий ғоя бўлиб, амалиётда ҳаётий ва етарлича яшовчан бўлиб чиқди. Мухаммад Юнуснинг лойиҳаси доирасида одамларга тадбиркорлик мақсадлари учун 25 АҚШ доллари ҳажмида микроқарзлар берилди ва бизнесни юритиш бўйича консультация[1] хизматлари кўрсатилган. Биринчи олинган қарз маблағларини ўз муддатида қайтарган мижозларга каттароқ миқдорда қарз олиш имконияти яратилган.

1983 йилга келиб, Grameen Bankда бу борада етарлича тажриба тўпланди ва асосан кам таъминланган аҳоли қатламига, айниқса аёлларга микромолиявий ёрдам

[1] Лот. consultation – маслаҳат. Мутахассиснинг ёки билимдон, омил кишининг бирор масала бўйича маслаҳати.

кўрсатишга ихтисослашган мустақил банкка айлантириш истиқболи аниқланди. «Экспериментал босқичда мижозлар сони дастлаб 100 нафарга ҳам етмаган Grameen Bankнинг мижозлар сони 1983 йилга келиб 45 мингдан ортди ва XXI аср бошларида Grameen Bank томонидан 4 миллиондан зиёд микрокредитлар берилган» [16]. Шундай қилиб, Grameen Bank микромолиялаш соҳасида муваффақиятли бизнес-схема яратишга муваффақ бўлди.

«Бугунги кунда Grameen Bank 1267 та филиали орқали 46 мингдан зиёд аҳоли пунктларига хизмат кўрсатмоқда: қарз олувчилар сони 7 миллиондан зиёдни ташкил қилиб, унинг 98 фоизи аёллардан иборат; берилган кредитларнинг умумий ҳажми 5,1 миллиард АҚШ долларидан ошади» [17]. Бангладешдаги кам таъминланган аёлларнинг қарийб 75 фоизи турли хилдаги хусусий ташкилотларга аъзо бўлиб, бу ташкилотлар уларга қулай ва арзон микромолиявий хизматлардан фойдаланиш имкониятини беради. 15 миллионга яқин Бангладеш оилалари микрокредитлар ва бошқа микромолиявий хизматлардан фаол фойдаланадилар. Тадқиқотлар кўрсатишича, «Бангладешда камбағаллик даражаси умумий пасайишининг 40 фоизи, айнан, микромолиялаштириш хизматлари эвазига таъминланган» [18].

Grameen Bankнинг кам таъминланган ва ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламини фаол ҳаётга жалб қилиш ва тадбиркорлик билан шуғулланишларини таъминлаш мақсадида микромолиявий қўллаб-қувватлаш лойиҳасининг муваффақияти бошқа мамлакатларда ҳам микромолиялаштиришни ривожлантиришга туртки берди (ундади).

Дунёдаги энг қолоқ ўнта мамлакатдан бири ҳисобланган ва Жанубий-Шарқий Осиёдаги энг камбағал мамлакатлардан бири бўлган Индонезияда микромолиявий секторни ривожлантириш сиёсати микромолиявий хизматларни ривожлантирадиган ва амалга оширадиган расмий банк институтларини давлат томонидан рағбатлантиришга асосланган. 1970 йилда Молия вазирлиги давлат тижорат банки ҳисобланган Bank Rakyatга «ўзаро суғурта дастури» доирасида бутун мамлакат бўйлаб хизмат кўрсатиш тармоғини шакллантириш ваколатини берди ва буни 3600 та минтақавий (ҳудудий) бўлинмалардан иборат «қишлоқ банклари» тармоғини яратиш орқали амалга оширди. Bank Rakyatнинг кредит (микроқарзлар) портфели, асосан, «қишлоқ банклари»нинг ҳудудий филиаллари томонидан тўпланадиган ихтиёрий жамғармалардан шакллантирилади.

Иқтисодий ривожланиш даражаси энг паст бўлган Лотин Америкаси мамлакатларидан бири бўлган Боливиядаги асосий микромолиявий институт 1992 йилда молиявий операцияларни амалга оширишга киришган BancoSol банк ҳисобланади. Бугунги кунда BancoSol банк молиявий ресурсларининг энг муҳим манбасини депозитлар ва жамғармаларга жалб қилинган маблағлар ташкил қилади. BancoSol банк 26 та ҳудудий (минтақавий) филиалларига эга бўлиб, истеъмолчиларнинг 70 фоизи аёллардан иборат. Боливия банк қонунчилигининг асосий хусусияти шундаки, иқтисодиётнинг энг қуйи сегментларида, шу жумладан микромолиялаштириш соҳасида молиявий ва микромолиявий хизматларга бўлган талабни қондиришга қаратилган.

Африкадаги энг камбағал ва қолоқ мамлакатлардан бири бўлган Ефиопияда микромолиялаштириш қишлоқ жойлардаги фермер хўжаликларига ва шаҳардаги кичик тадбиркорлик субъектларига микроқарзлар бериш (тақдим этиш) билан

хусусиятланади. «Бунда бир қарз олувчига бериладиган кредитнинг максимал миқдори 5000 бир (673 АҚШ доллари) миқдорида белгиланган» [19]. Бир вақтнинг ўзида микромолиявий ташкилотлар фаолиятини лицензиялаш, назорат қилиш ва ҳуқуқларини чеклаш ишлари, шунингдек микромолиявий секторга чет эл (хорижий) молиявий ресурсларини (инвестицияларини) жалб қилиш мамлакат Миллий банки томонидан амалга оширилади.

Сўнгги йилларда иқтисодий жиҳатдан суст ривожланган бир қатор мамлакатлар аҳолининг заиф, кам таъминланган ва ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламларининг ҳаётийлигини таъминлаш ва қўллаб-қувватлашга йўналтирилган микрокредитлаш дастурларини ишлаб чиқиш бўйича ўз саъй-ҳаракатлари ва имкониятларини бирлаштирмоқда. Monetaire Иттифоқига аъзо бўлган саккизта Африка мамлакати (Union Monetaire Quest Africain - Бенин, Того, Буркина-Фасо, Нигер, Кот-'Ивуар, Сенегал, Мали, Гвинея-Биссау) ҳудудий (минтақавий) Марказий банк назорати остида амалга оширилаётган микромолиявий ташкилотлар фаолиятини норматив-ҳуқуқий тартибга солиш тизимини шакллантириш мақсадида ягона ва умумий ёндашувларни ишлаб чиқиш доирасида ўз саъй-ҳаракатларини бирлаштирди. Масалан, қишлоқ жойларда ҳаёт кечирувчи камбағал аҳоли қатламларига мўлжалланган микромолиявий хизматлар кўрсатувчи махсус дастурлар (CB DIBA-ONG) амалиётга татбиқ этилди. Мазкур дастурлар доирасида микромолиявий хизматларга қўшимча тарзда истеъмолчиларнинг молиявий саводхонлигини ошириш тадбирлари ҳам амалга оширилади.

Покистон Республикасида камбағал ва кам таъминланган қишлоқ аҳолисини молиявий қўллаб-қувватлаш мақсадида ҳукуматга қарашли бўлмаган «САНГИ» Тараққиёт фонди ташкил этилган бўлиб, ушбу фонд қуйидаги услубият асосида микромолиявий хизматлар кўрсатади: кредит (ссуда)-жамғарма схемаси бўйича ишлайдиган «қишлоқ» ташкилоти шакллантирилади ва унинг фаолияти «САНГИ» Тараққиёт фондининг ҳудудий (минтақақий) вакили томонидан тартибга солинади (мувофиқлаштирилади); микрокредиларни бошқариш бўйича қўмита ташкил этилади; қиймати 90 АҚШ центини ташкил этадиган ва гуруҳнинг барча аъзолари учун мажбурий бўлган бадал банк ҳисобрақамига жойлаштирилади; микрокредитлар гуруҳнинг ҳар бир аъзосига алоҳида-алоҳида 6 ойдан 24 ойгача 150 АҚШ доллари миқдорида берилади (тақдим этилади) ва ушбу кредитлар даромад келтирадиган тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун мўлжаллангандир.

Бироқ, 1990 йилларнинг бошларида шу нарса аниқ намоён бўлдики, микромолиялаштириш ва микромолиявий дастурлардан суст ривожланган, ривожланаётган ва тараққий этган мамлакатларда ҳам кенг кўламда фойдаланилмоқда. Микромолиялаштириш ва микромолиявий дастурлар иқтисодий секторнинг тараққиёт кўрсаткичлари энг паст бўлган мамлакатлардан ташқарига кенг қулоч ёйиб (чиқиб), ҳозирда унинг имкониятларидан аҳолиси ҳалокатли қашшоқлик ва камбағалликдан азият чекмайдиган ривожланаётган ва етарлича тараққий этган мамлакатларда ҳам жуда фаол фойдаланилмоқда. Масалан, «АҚШда 25 ёшдан 44 ёшгача бўлган, одатда, олий маълумотга эга бўлмаган ва бир йиллик оилавий даромади 40 минг долларидан кам бўлган (ошмаган) одамлар микромолиявий ташкилотларнинг асосий мижозлари ҳисобланади» [20]. Европа Иттифоқи мамлакатларидаги барча микрокредитлар

портфелининг 70 фоизи бизнес эҳтиёжлари (бизнес ташкил қилиш, тадбиркорликни йўлга қўйиш ва ривожлантириш)га тўғри келади. Шу билан бирга, саноати (индустриал) ривожланган мамлакатларда микромолиялаштириш бироз ўзгача, бошқача тарздаги функцияларни бажармоқда ва ўз бизнесини яратиш учун дастлабки сармоя (инвестиция)га эга бўлмаган ҳамда фаолиятини эндигина бошлаётган тадбиркорлар учун «ўзига хос пойдевор» сифатида қабул қилинмоқда. Микромолиялаштириш саноати (индустрияси)нинг кенг кўламда қулоч ёйиши ва чуқурлашиб бораётганлигини ҳисобга олиб, бугунги кунда микромолиялаштиришнинг асосчиси бўлмиш Мухаммад Юнуснинг қарашларига, унинг «микромолиялаштириш – бу учинчи дунё мамлакатларининг тақдири» [21] каби фикрларига тўлиқ қўшилиш мушкул. Сабаби, ижтимоий йўналтирилган бизнес юритиш шакли сифатида микромолиялаштириш ва микромолиявий хизматлар сектори бугунги кунда муваффақиятли ривожланмоқда ва иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда ҳам молиялаштиришнинг бундай шакли жадал тараққий этиб бормоқда.

Тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда микромолиялаштиришнинг муҳим характерли белгиларини, хусусиятларини ва ижтимоий муаммоларни ҳал этишдаги ролинини қуйидагича таснифлаш мумкин:




**1-расм. Микромолиялаштиришнинг характерли белгилари ва ижтимоий муаммоларни ҳал этишдаги роли**[2]

Микромолиялаштиришнинг ана шундай муҳим характерли белгилари ва хусусиятлари мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтиришда, янги иш ўринларини яратишда, кичик бизнес фаолиятини янада ривожлантиришда, аҳолининг молиявий ресурслардан фойдаланиш имкониятларини оширишда ҳал қилувчи рол ўйнайди. Тадқиқот натижалари кўрсатишича, камбағаллик даражасини камайтириш ва ишсизликка қарши кураш воситаси сифатида микромолиявий дастурлар дастлабки босқичда учинчи дунё мамлакатларида кенг кўламда намойиш этилган ва амалга оширилган.

**Хулоса.** Микромолиялаштириш алоҳида тушунча сифатида ва у билан боғлиқ иқтисодий муносабатларда ўзининг намоён бўлиш шакллари жиҳатидан турли

[2] Тадқиқотчи томонидан ишлаб чиқилган.

даврларда ва алоҳида мамлакатларда сезиларли даражада фарқ қилади. Микромолиялашнинг шаклланиш тарихи шуни кўрсатадики, микромолиявий хизматлар аҳолининг банк хизматларидан фойдаланиш имконига эга бўлмаган қатламларига, банк инфратузилмаси принципиал жиҳатдан ривожланмаган географик минтақаларда, қоида тариқасида, қишлоқ жойларида кўрсатилган. Бундай асосий мақсад камбағалларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва уларни тадбиркорликка, бизнесга жалб қилиш орқали улар фаровонлигини яхшилашга қаратилган. Шу нуқтаи назардан Ўзбекистонда янги иш ўринларини яратиш, кичик тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш, аҳолини реал даромадларини ошириш ва камбағаллик даражасини пасайтиришда микромолиялаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда нобанк кредит ташкилотлари фаолиятини ташкил этишнинг қонуний асосларни такомиллаштириш, тижорат банкларини микромолиялаштириш жараёнларига жалб қилиш бўйича кўрилаётган чоралар республикада микромолиявий хизматлар кўрсатиш ҳажмини етарли даражада кенгайтиришга имкон яратди. Бироқ, аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг микромолиявий хизматларга ўсиб бораётган эҳтиёжларини қондириш учун микрокредит ташкилотларининг ва тижорат банкларининг кредит салоҳиятини ошириш зарурлигини кўрсатмоқда.

Тадқиқот натижалари ва халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, мамлакатимизда микромолиялаштириш тизимини янада ривожлантириш ва ушбу секторнинг аҳоли тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашдаги ролини кучайтириш учун:

биринчидан, кичик бизнес субъектларига тижорат банклари кредитларининг маълум бир қисмига Давлат томонидан кафиллик тақдим этилиши зарур. Бундай ҳолат ҳудудларнинг инвестициявий салоҳияти ва имкониятларидан келиб чиқиб, ривожлантириш бўйича янгича ёндашувларни жорий этишга, кичик тадбиркорлик муҳитининг янада яхшиланишига, уларни давлат томонидан фаол молиявий қўллаб-қувватланишини таъминлашга хизмат қилади;

иккинчидан, кичик бизнес субъектларига бериладиган микрокредитлар миқдорини ошириб бориш билан бирга ушбу микрокредитларнинг ажратилиш жараёнларини тўла рақамлаштириш мақсадга мувофиқдир.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Microfinance-Barometer-2019_web-1.pdf (convergences.org).
2. Абрамова М.А. и др. Формирование качественной инфраструктуры рынка микрофинансирования и кредитной кооперации: зарубежный и российский опыт: монография // Кол. авторов. М.: РУСАЙНС, 2016. – С. 152.
3. Вишняков И.П. Роль микрофинансирования в решении проблемы финансовых услуг для населения // Научный вестник ЮИМ. 2017. № 1. – С. 4-9.
4. Гриб Р.Б. Развитие сектора микрофинансирования в Российской Федерации. Автореф. дисс. на соис. учен. степ. к.э.н. – Волгоград: ВГУ, 2008. – 30 с.
5. Yunus M. Banker to the poor: Microlending and the battle against world powerty. New York: Public Affairs, 1999. - 312 p.

6. Высоков Д.А. Развитие микрофинансирования: международный опыт и Российская практика. Автореф. дисс. на соис. учен. степ. к.э.н. – М.: МГУ, 2022. – 32 с.
7. Евлахова Ю.С. Российские микрофинансовые организации: динамика развития и проблема вовлеченности в незаконные финансовые операции // Финансы и кредит. 2018. Т. 24, № 7. С. 1637-1648.
8. Вахобов А.В. Жамолов Х.Н. Банковское кредитование малого бизнеса: особенности и проблемы современной практики. // Халқаро илмий-амалий конференция. – Т.: ТМИ, 2004. – Б. 264-268.
9. Таджибаева Д.А. Микрокредитование в системе кредитных отношений (на примере Республики Узбекистан). Автореф. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук. – Т.: НУУ, 2004. – 25 с.
10. Маматов Б.С. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини микромолиялаш амалиёти ва уни такомиллаштириш. И.ф.н. илм. дар. олиш учун ёзил. дисс. автореф. – Т.: ТМИ, 2010. – 26 б.
11. Рахманов И.Х. Ўзбекистон Республикасида микромолиявий хизматларни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. илм. дар. олиш учун ёзил. дисс. автореф. – Т.: ТМИ, 2011. – 24 б.
12. Муродова Д.Ч. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларини микромолиялашнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Иқт. фан. бўй. фалс. докт (PhD) дисс. автореф. – Т.: ТМИ, 2018. – 53 б.
13. Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 14 фоиз экани маълум қилинди (kun.uz).
14. Цхададзе Н.В. Микрофинансирование за рубежом: опыт решения социальных задач // За рубежом. № 1/2017. – С. 102. mikrofinansirovanie-za-rubezhom-opyt-resheniya-sotsialnyh-zadach.pdf.
15. Мухаммад Юнус. URL: http://www.for-real-man.info/content.php?id=97.
16. Богатова А.А., Зотова А.И. История зарождения и развития микрофинансирования в зарубежных странах. istoriya-zarozhdeniya.pdf (scientificjournal.ru).
17. Микрокредиты от Grameen Bank: бороться с бедностью, а не с бедными. URL: http://www.webstandart.
18. net/magaz.php?aid=8324.
19. Tskhadadze N. V. The market of microfinance services as a socially oriented business [Rynok mikrofi nansovyh uslug kak social'no orientirovannyj biznes], Prospects for the development of economy and management, collection of scientifi c papers on the results of the international scientifi c-practical conference Perspektivy razvitija jeconomici i menedzhmenta, sbornik nauchnyh trudov po itogam mezhdunarodnoj nauchno- prakticheskoj konferencii [Perspektivy razvitija jeconomici i menedzhmenta, sbornik nauchnyh trudov po itogam mezhdunarodnoj nauchno- prakticheskoj konferencii]. Cheljabinsk, 2016, pp. 29–43.
20. Сайт «Финансовые услуги» (кредитные кооперативы/библиотека). URL: http://www.smolfinance.ru/biblioteka/ mikrofinansirovanie/biblioteka-mikrofinansirovaniya/zarubezhnyjopyt/510-15-efi opiya.htm.
21. Как развиваются мировые рынки МФО: особенности микрозаймов в разных странах мира | BanksToday
22. Мухаммад Юнус. URL: http://www.for-real-man.info/content.php?id=97.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Nosirov Ilkhom Abbosovich**
Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan
e-mail: nosiriv.i@bk.ru, +998 94 398 47 44.

**Ermatov Ilmidin Toshmatovich**
Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan
e-mail: ilmidin.yormatov@mail.ru, +998975035893.

## ENVIRONMENTAL MANAGEMENT OF THE USE OF NATURAL RESOURCES IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN

**Abstract.** One of the most important tasks facing the general principles of environmental management, and one of the most important tasks facing our country, is to ensure its socio-economic efficiency. Therefore, the widespread development of the environmental management system is becoming important in the socio-economic development of our country in the coming years. The aim of this study is also to create ecological mills for management, as well as environmental management, which will be used to achieve economic stability.

**Keywords:** economics, ecology, natural resources, biodiversity, nature and society, environmentalists, land protection, Gedomics rating, Environmental Management.

**Nosirov Ilhom Abbosovich,**
Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston
e-mail: nosiriv.i@bk.ru, +998 94 398 47 44

**Ermatov Ilmidin Toshmatovich,**
Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston
e-mail: ilmidin.yormatov@mail.ru, +998975035893.

## O‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANISHDA TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH MENEJMENTI

**Annotatsiya.** Atrof-muhitni boshqarishning umumiy tamoyillari oldida turgan muhim vazifalardan biri va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta’minlash mamlakatimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Shu bois, atrof-muhitni boshqarish tizimini hamma joyda rivojlantirish keyingi yillarda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun foydalaniladigan ekologik boshqaruvni boshqarish, shuningdek, ekologik tegirmonlarni yaratishdir.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiyot, ekologiya, tabiiy resurslar, biologik xilma-xillik, tabiat va jamiyat, ekologiya himoyachilar, yerni muhofaza qilish, Gedomik reytingi, ekologik boshqaruv.

**Носиров Ильхом Аббосович,**
Ферганский политехнический институт, Фергана, Узбекистан
e-mail: nosiriv.i@bk.ru, +998 94 398 47 44.

**Ерматов Ильмидин Тошматович,**
Ферганский политехнический институт, Фергана, Узбекистан
e-mail: ilmidin.yormatov@mail.ru, +998975035893.

# ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** Одной из важнейших задач, стоящих перед общими принципами экологического менеджмента, и одной из важнейших задач, стоящих перед нашей страной, является обеспечение его социально-экономической эффективности. Поэтому повсеместное развитие системы экологического менеджмента приобретает важное значение в социально-экономическом развитии нашей страны в последующие годы. Целью этого исследования также является создание экологических мельниц для управления, а также экологического менеджмента, который будет использоваться для достижения экономической стабильности.

**Ключевые слова:** экономика, экология, природные ресурсы, биоразнообразие, природа и общество, защитники экологии, охрана земель, рейтинг Gedomics, управление окружающей средой.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N08

## Introduction

Sustainable development of the economy is carried out in harmony with the rate of use of natural resources. The interaction between the economy and nature is complex and contradictory, and in the era of scientific and technical progress, the relationship between man and nature has entered a completely new stage, especially the rational use and protection of nature and its resources remains an objective necessity.

Sustainable development of the country takes place based on the interdependence of economic and ecological factors, and all existing obstacles in this regard must be eliminated in the system of nature-society relations.

Due to the reduction of production in economic sectors, reform and renovation of industrial enterprises, reduction of cotton planting, and the trend of increasing grain and leguminous, vegetable, and sugarcane, potato cultivated areas were established in the structure of cultivated areas.

Several major discoveries made in the 20th century caused revolutionary changes in humanity's attitude to nature and the events taking place in it. Now humanity has entered a new stage of scientific and technical development. Although the widespread use of computers, microelectronics, informatics, and biotechnological achievements in almost all areas of the economy accelerates production processes and paves the way for the economical use of natural resources, many problems have arisen in nature due to the widespread use of scientific and technical achievements in life.

Such unfavorable environmental conditions have started to cause a change in the rhythm of life, physical and mental exhaustion of people, the emergence of various chronic and severe diseases, and a large amount of economic and socio-economic damage. Now the direction of interaction between nature and society should be focused only on the preservation of nature and the biosphere as a whole on a scientific basis. V.V. Tsesarsky said: "Man must help to facilitate the task of the biosphere, otherwise it will be destroyed and life on earth will disappear." [1]

A person should never allow this. But solving the environmental problems that have arisen is very urgent, complex, and diverse, including economic, social, cultural, spiritual, and

scientific issues. The importance of environmental management in creating its scientific basis is incomparable. Since ancient times, sages have debated about human needs, and the extent and means of satisfying them. Until the 19th century, this problem was a philosophical description, and by the end of the 19th century, it became a serious practical problem that needed to be solved.

The current state of our country's economy requires accelerating the implementation of structural changes in the national economy. The experience of economically developed countries shows that deep, effective structural changes can be implemented only through the rational use of the country's economic and natural factors. In the conditions of the transition to the market economy, the formation of the structure of the economy takes place first of all at the expense of the sectors that provide economic growth, which in turn causes the country's economy to reduce the export of raw materials, as well as to develop its processing, to save foreign exchange funds, and to increase the employment of the population.

The experiences of the world and our country show that sustainable economic development cannot be achieved at the expense of destroying nature and exhausting natural resources, and on the contrary, it is impossible to maintain the necessary quality of the environment without a strong economy.

For this reason, within the framework of the ecological economy, it is necessary to justify and develop appropriate methods and activities that allow, firstly, the most effective use of natural ecological conditions and resources in the economy in ecologically safe directions, and secondly, the elimination of damage and prevention of the damage and pollution of the environment under the influence of the economy. These problems should be solved based on laws of a natural-historical nature and taking into account the changing needs of society and the formation of a new system of values.

As a result of the discoveries of the 20th century and the forced development of the economy, the impact of people on nature has also increased. Even now, in the economic sphere, there are cases of seeking quick profit and achieving results. That is why it is necessary to take serious measures regarding some environmental problems in the Republic of Uzbekistan. For example, land, water, and air pollution problems are among them. There is still a sentiment in people's minds that "the more resources are used, the better". If this continues, human helplessness in the face of ecological problems in Uzbekistan may increase even more.

**Research methods**

The national economy has entered the stage of stable growth, and according to all its signs, it fully corresponds to the criteria of sustainable development based on economic theory. Joint management of interrelated economic, environmental, and social processes has become the basis for ensuring the sustainable development of the country. Environmental protection is considered one of the priorities for reforming the country's national economy and deepening it. In our opinion, we believe that the priority directions of ecologically acceptable economic development in our country should be:

It is necessary to form a business structure that is ecologically balanced and allows the saving of natural resources. It is appropriate to give priority to the development of processing and processing, that is, complex productions that produce finished products;

It is necessary to carry out an investment policy that provides the opportunity to develop ecologically balanced productions;

It is necessary to increase the allocation of funds from the state budget for environmental protection measures.

According to world experience, it is better to allocate 8-10% of GDP for these activities. But if we take into account the tension of the ecological situation in Uzbekistan, it is not difficult to know that this amount should be even more;

Attracting the funds of the population and enterprises to nature protection activities and increasing the efficiency of their use will also have a good effect;

It is necessary to further improve the mechanisms of privatization in our country. As a result, the number of private farms in Uzbekistan will increase.

Then, as in GFR, it will be possible to introduce a system of additional benefits (taxes, loans) to private enterprises that have made a great contribution to environmental purity;

It will be necessary to create a system of environmentally acceptable taxes, credits, subsidies, trade tariffs, and duties.

Although the use of natural resources is highly effective from an economic point of view, the use of non-renewable natural resources from an ecological point of view requires the implementation of recultivation works and requires the observance of geographic and ecological principles in sustainable economic development.

The concept of sustainable development was introduced into world science and politics as development through the Brutland Commission, which "... can meet the needs of the present, but does not endanger the satisfaction of the personal needs of future generations." [2]. This concept is more politicized than science. Therefore, there are two important determinants of approach to the concept in question. "Sustainable development is such a development in which the impact on the environment occurs at the level of the economic size of the biosphere, and the natural basis of reproduction of human life is not disturbed" [3].

Here, the economic size of the biosphere is interpreted as "...its anthropogenic impact is understood as the level of possibility, exceeding it creates a mood of discontent and creates a negative situation that eventually leads to the occurrence of irreversible degradation processes."

According to another approach that assesses the stability of society, it is based on the assessment of moral and ethical factors. "When children are happier than their parents, development is stable." Achieving sustainable economic development in our country primarily depends on factors such as deepening structural reforms in the economy, increasing the role of the private sector, creating favorable conditions for entrepreneurs, and improving the environmental condition of the Khudus. Due to the acceleration of scientific and technical development, the increase of anthropogenic activity and the resulting pressure on the environment is increasing. This is now mostly local. However, it has become clear that preserving the established laws of socio-economic development of the present period will lead to global changes in the "nature-society" system.

**Results and discussion.** Faster resolution of economic issues in the conditions of market relations, finding their solution, understanding the content and features of the national independence ideology, in many ways, the secrets of people's economy, the art of management, especially the content of the market and market economy relations, their requirements and characteristics, laws and regulations, implemented economic it depends on their deeper understanding of the purpose and essence of the reforms.

Sustainable economic growth in Uzbekistan and its regions depends primarily on the development of industrial sectors. During the years of independence, significant structural changes took place in the industrial sector during the deepening of reforms. Energy and food security has been ensured, and the efficiency of using available natural resources has been increased. While maintaining the role of the state in the management of the industry, market mechanisms were used and gradual development began to take place.

At the first stage, the focus was on the extraction of raw materials of high strategic importance, the development of processing, and the protection of the domestic market. In the second stage, import substitution was directed more towards producing industries [5].

An important strategic task for Uzbekistan at the macro level is to improve the quality of economic growth, which is technological modernization, increasing international competitiveness, diversifying the economy, turning the country into a technologically advanced producer of export goods and services.

Since the early stages of human development, there has been an inextricable relationship between nature and the economy, as a result of which man has used all the material resources necessary for his life to one degree or another. Due to the limited means of meeting the need, it is becoming necessary to search for and implement artificial materials that can replace primary natural resources. Therefore, solving the problems of saving existing natural resources, using secondary resources on a large scale, accelerating the transition to the production of materials that can replace natural resources is one of the most important issues facing humanity.

Solving these is related to environmental management, which is widely used in recent times, and is of crucial importance in the management of the real sector.

As a result of the priority industrial development program adopted in our country in 2011-2015 and the consistent implementation of network programs on production modernization, technical and technological updating, the role of processing industries producing competitive products with high added value in the structure of the industry is increasing.

More than 78 percent of the industrial products produced in our country today belong to these industries. As a result of such changes, the share of the industry in the structure of the gross domestic product is now more than 24.2 percent. However, this figure was 14.2 percent in 2000. In 2017, the production volume of agricultural products increased by 2.6 times compared to 2000. Compared to 2016, the production of agricultural products increased by 6.8%, including agriculture - by 6.4%, livestock - by 7.4%. Table 6 shows changes in the structure of the sector of the gross domestic product in the Republic of Uzbekistan in recent years.

The consumption of natural resources. In many regions of the world, the rates of using natural resources have exceeded the possibilities of filling the place of nature, that is, of eliminating the damage caused to it by nature. Raising the standard of living of the population in the villages is the main criterion that expresses the effectiveness of the socio-economic policy carried out by the state, and its achievement is the basis of social development. The share of farms in raising the standard of living of the population is high [6]

Table 1

**Of gross domestic product in the Republic of Uzbekistan network content**

| Hears | Gross domestic product at current prices, bln. soum | Compared to last year tan% (compare in grades) | Sector structure of the gross domestic product, % | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ind ustry | the village farm | construct ion | dental field | net taxes |
| 2010 | 38969,9 | 109,0 | 23,5 | 19,7 | 5,6 | 41,3 | 9,9 |
| 2011 | 49375,6 | 108,1 | 23,6 | 18,6 | 6,8 | 41,4 | 9,6 |
| 2012 | 62388,3 | 108,5 | 23,9 | 18,0 | 6,5 | 42,4 | 9,2 |
| 2013 | 78764,2 | 108,3 | 24,0 | 17,8 | 6,1 | 43,5 | 8,6 |
| 2014 | 96589,8 | 108,2 | 24,0 | 17,5 | 5,9 | 44,9 | 7,7 |
| 2016 | 198871,6 | 108,7 | 24,2 | 17,8 | 6,7 | 44,9 | 6,4 |
| 2017 | 249136,4 | 105,3 | 24,3 | 17,6 | 6,9 | 45,1 | 6,1 |

Farms are large farms that have enough leased arable land for efficient operation, are equipped with high-efficiency modern equipment, and have mastered advanced technologies. Wide-scale farms, along with the cultivation of agricultural products, are effective in such areas as deep processing of their products, implementation of construction works and services to the rural population.

Agriculture and industry are closely related sectors, and the development of one of them is the main factor for the development of the other. In particular, the development of industries such as food and light industry is directly dependent on the increase in the volume and quality of agricultural products [7].

Today, as a result of the implementation of measures to diversify the structural structure of the economy and the development of cooperative relations in the economy, the agricultural and industrial sectors are merging and merging. For example, industrial production is brought to farmers' and peasant farms in the villages, as well as farms and auxiliary farms are established among some industrial enterprises. This situation is the main feature of today's economic development. The development of these two sectors, supporting each other, ensures the increase in the standard of living of the population, especially the rural population.

In order to increase the standard of living of the population in the villages, it is necessary to pay attention to increasing the efficiency of the agricultural products processing enterprises. Also, increasing the employment of the rural population is one of the major problems. In our country, a lot of attention is paid to gradually increasing the incomes of the rural population. In order to maintain the standard of living of the population in the villages and maintain the average income indicators, the state should first of all effectively use the mechanisms of redistribution of the received income through the tax system, transfer payments and other means [8]

In this process, the main goal of the state is to maintain the balance of economic efficiency and redistribution through a rational social policy.

The globalization of today's economy makes it necessary to study the aspects of enterprises adapting to the competitive environment, to organize production in accordance with the demands of comprehensively developing market relations, and to effectively manage

them. Industrial enterprises operating under the conditions of structural changes and liberalization of the economy, as a link of our national economy, have been making a great contribution to the economy of the republic and the prosperous life of our people [9]

The entry into our country of competitive and cheap products produced in foreign countries makes it an important issue for experts and leading scientists to reveal scientifically based tips on the development and effective operation of industrial enterprises in our republic. In connection with the introduction of new economic mechanisms in the conditions of the market economy, a number of problems are arising in many industrial enterprises.

The purpose of the implementation of these economic mechanisms is not only to earn income, but also to find ways to produce competitive new products that meet market needs and compete with other similar enterprises.

Since the early stages of human development, there has been an interdependence between nature and the economy, and as a result, man has used all the material resources necessary for his life to one degree or another. Due to the limited means of meeting the needs, it is becoming necessary to search for and use artificial materials that can replace primary natural resources[10]

Therefore, solving the problems of conserving existing natural resources, using secondary resources on a large scale, accelerating the transition to the production of materials that can replace natural resources is one of the most important issues facing humanity. Solving them is related to environmental management, which is often used in recent times, and is of decisive importance in real sector management. Today, when the various effects of humanity on nature and natural complexes at different stages have increased to a high level, the problem of preventing the ecological balance is of crucial importance [11].

Sustainable development includes limiting the consumption of goods and services in the regions of the country. In this regard, taking into account the regional characteristics, it is important to create an ecological-economic balance (Table 3).

Table 2

**Environmental and economic balance of the local administrative body**

| Indicators | Output | Result |
|---|---|---|
| | Market stocks | |
| 1. Land | Urbanization; taking the land out of agricultural use, loss of profit to the resource owners and the population | resource owners and the population |
| 2. Water | More than normative contamination; Over the normative water | Costs for water protection, mln. sum. |
| 3. Air | Enabling in fuel consumption; more contamination than the normative | Costs for air protection, mln. sum. |
| 4. Biota | Loss of productive fields | Hectares of mln. Soums / Earth unit |
| 5. Reconstruction | Lost profit for recreational quality | Costs of public health, mln. sum. |
| **Stocks that are not dependent on market** | | |
| 6. Biological diversity | Reduction of protected areas | Indirect evaluation of biodiversity. mln. sum. |

| | | |
|---|---|---|
| 7. Aesthetic quality of the environment | A decrease in the attractiveness of the living environment | A decrease in GEDOMIC value |
| 8. Global ecosystems | Proceeds of more carbon from national (regional) quota | The carbon balance shifts (carbon value), mln. soums |
| 9. Universal objects | Any form of damage | The value assessment is determined or exempt from evaluation on readiness method and experts |

The analysis of the implementation of the strategy of sustainable development and the transition to a "green" economy in different countries of the world shows that most of them still plan their future plans as a continuation of the current development and continue to live according to their old habits. Economic growth, production and the pursuit of consumption remains the main direction. For this reason, achieving the purpose of sustainable development and ecology economy remains depending on the public understanding of the need to switch to the new parody [12].

**Conclusion**

Natural resources based production is final, if the original factor for nature is the first link in nature; There are indirect links to connect their products with consumption of production and exchange production. Although natural resources based production is the first link (stage) of nature, it serves consumption.

The last goal and cause of consumption production; Because the consumption is spent (lose) and it is new orders for production. Meeting a need will create a new need, the development of consumption is the driving force for the development of natural resources-based production. But its appearance depends on the production of its origin and conditioned with it - the production of new products leads to this product and its consumption [13].

The use of natural resources and its principles of nature protection are reflected in the Constitution of the Republic of Uzbekistan.

The activities of government agencies in this area were also determined in the Constitution. A separate law on conservation is adopted in each State. Individuals who violate nature protection laws are subject to administrative, material and criminal. The concepts of ecology and culture are inextricably linked. The higher the cultural level of the population, the very clean and environmentally friendly conditions are convenient. Each specialist should contribute to the improvement of the level of general environmental culture, regardless of the operation in which field. It is also important to restore national cultural views and traditions, which involve highly environmental culture [14].

"As a result of the rapid development of fan and technology, the interaction between humanity and nature is over an unprecedented level, and larger the intensification of urbanization, agricultural production and similar factors intensely accelerated the use of natural resources. Naturally, the adverse effects of these factors to the environment and mineral reserve, soil mode, soil condition, atmospheric air and water bodies are growing. The development of science and technology is making significant changes in the hydrological

regime of the water, ie in sea and oceans and oceans, and inland water layers, and the hydrological regime of the planet" [15].

In turn, this has a positive and negative impact on the economy. In accordance with the above-mentioned concept, the concept of sustainable development requires the exchange of man-made development, into the implementation of economic development into environmental protection.

Thus, the main condition of sustainable development requires the maintenance of nature units permanently (in this case, it plays an important role. Restrictions are based on a normative approach and the decay of a natural base is not allowed, environmental and economic security.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Tsesarsky V.V. Management: just about complicated.— M.: Alfa-Press, 2004.S. 19
2. Ursul A.D. Russia's transition to sustainable development. Noospheric strategy. - M.: Publishing House "Noosphere", 1998. P.35.
3. Danilov-Danilyan V.I., Losev K.S. Ecological challenge and sustainable development. - M.: Progress-Tradition, 2000. P. 5.
4. Nosirov I.A. In the use of normal resources Ecological management. Monograph Fergana 2022 ya.,P. 49.
5. Носиров, И. А. (2016). Влияние научно-технического прогресса на эффективное использование природных ресурсов. Политика, экономика и социальная сфера: проблемы взаимодействия, (7), 127-134.
6. Носиров, И. А. (2015). Новые теоретические подходы к решению практических проблем экологизации. Актуальные вопросы современной науки, (4), 69-74.
7. Носиров, И. А. (2012). Экологизация экономики в условиях рационального управления ииспользования природных компонентов. Тошкент., Иқтисодиёт ва таълим, (4).
8. Nosirov, A. A., & Nasirov, I. A. (2021). Natural and Forced Vibrations of Axisymmetric Structure Taking into Account the Viscoelastic Properties of the Base. Middle European Scientific Bulletin, 18, 303-311.
9. Mirsaidov, M. M., Nosirov, A. A., & Nasirov, I. A. (2021, May). Modeling of spatial natural oscillations of axisymmetric systems. In Journal of Physics: Conference Series (Vol. 1921, No. 1, p. 012098). IOP Publishing.
10. Умаров, С. С., & Носиров, И. А. (2022). ВАЖНОСТЬ УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(2), 33-40.
11. Носиров, И. А. (2017). РОЛЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА. Theoretical & Applied Science, (1), 120-123.
12. Ерматов, И. Т. Некоторые проблемы модернизации промышленных предприятий / И. Т. 13.Ерматов // Научно-технический прогресс: социальные, технические и общественные факторы : Сборник статей. – Москва : ООО "ИМПУЛЬС", 2018. – С. 133-137. – EDNXTALBJ. URL:https://www.elibrary.ru/item.asp?id=35245208
13. Ерматов, И. Т. (2017). Актуальные проблемы повышения инновационного потенциала Узбекистана. Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук, 5(11), 70. URL:https://www.elibrary.ru/item.asp?id=28938038
14. Tolibov, I. Sh. U, I. T. Yormatov The concept of building management by influence of innovation on change of organizational structure and production structure of the

enterprise / I. Sh. U. Tolibov, I. T. Yormatov // Theoretical & Applied Science. – 2018. – No 9(65). – P. 256-263. – DOI 10.15863/TAS.2018.09.65.43. – EDN YKWXXV. URL:https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36265703

15. Otaboyev, N. I., Qudbiyev, N. T., & Qudbiyeva, G. A. Q. (2022). Yo‘l-transport tizimida ekologiya masalalari. Scientific progress, 3(2), 909-916.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Nasirxodjaeva Dilafruz Sabitxanovna,**
TDIU "Fundamental iqtisodiyot" kafedrasi professori, i.f.d.
E-mail: ndiliya@yandex.ru
Tel: +998909817787

**Nurboyev Jaloliddin Mamadievich,**
DTPI "Raqamli iqtisodiyot" oʻqituvchisi kafedrasi
E-mail: nurboyevjaloliddin96@gmail.com
Tel: +998902466400

# OʻZBEKISTON MAXSUS IQTISODIY ZONALARI EKSPORT KOʻRSATKICHIGA TAʻSIR ETUVCHI OMILLAR REGERESSION TAHLILI

**Annotatsiya.** Bu maqolada Oʻzbekiston Maxsus iqtisodiy zonalari eksport koʻrsatkichiga taʻsir etuvchi omillar regeression tahlili orqali oʻrganilgan.

**Kalit soʻzlar:** MIZ eksport hajmi, YaIM deflyatori (inflyatsiya), YaIM hajmi, TTXI hajmi.

**Насырходжаева Дилафруз Сабитхановна,**
д.э.н., профессор кафедры "Фундаментальная экономика" ТГЭУ
E-mail: ndiliya@yandex.ru
Телефон: +998909817787

**Нурбоев Жалолиддин Мамадиевич,**
Преподаватель кафедры Цифровой экономики ДТПИ
Электронная почта: nurboyevjaloliddin96@gmail.com
Телефон: +998902466400

# РЕГРЕССИОННЫЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ИНДЕКС ЭКСПОРТА ОСОБЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация.** В данной статье, с помощью регрессионного анализа, исследуются факторы, влияющие на индекс экспорта специальных экономических зон Узбекистана.

**Ключевые слова:** investitsiyalar, kapital migratsiyasi, investitsion jozibadorlik, ishbilarmonlik muhiti, investitsion muhit, biznesni yuritish, iqtisodiyotini rivojlantirish va modernizatsiya qilish

**Nasirkhodjaeva Dilafruz Sabitkhanovna,**
Ds in economics, professor of the "Fundamental economics" department, TSUE
E-mail: ndiliya@yandex.ru
Phone: +998909817787

**Nurboyev Jaloliddin Mamadievich,**
Teacher of the Department of Digital Economy of DTPI
E-mail: nurboyevjaloliddin96@gmail.com
Phone: +998902466400

## REGRESSION ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCING THE INDEX OF EXPORTS OF SPECIAL ECONOMIC ZONES OF UZBEKISTAN

**Abstract.** In this article, the factors affecting the export index of the Special Economic Zones of Uzbekistan are studied through regression analysis.
**Key words:** Export volume of special economic zones, GDP deflator (inflation), GDP volume, GDP volume.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N09

**Kirish.** Ilgʻor mamlakatlarning tajribasidan maʼlumki, aynan maxsus iqtisodiy zonalar orqali hudud rivoji uchun muhim boʻlgan ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishga zamonaviy ilgʻor texnologiyalar va puxta oʻylangan menejment tizimi qoʻllanilishini yoʻlga qoʻyish, hududlarda yangi ish oʻrinlarini yaratish, mamlakat eksport salohiyatini oshirish bilan esa davlatga valyuta tushumlari kirib kelishi, tashqi savdoning rivojlanishi, oltin-valyuta zahirasi hajmining ortishi, hududning, qolaversa, butun mamlakatning iqtisodiy oʻsishiga erishish, davlat budjeti daromadlarining oshishi hamda milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga xizmat qilishi kabi bir qator ijobiy natijalarni qayd etganini koʻrishimiz mumkin.

Xuddi shunday maqsadlarni koʻzlagan holda, Oʻzbekiston Respublikasida ham dastlabki Erkin iqtisodiy zona 2008-yilda Navoiy viloyatida tashkil etildi. Erkin iqtisodiy zonalar toʻgʻrisidagi dastlabki qonun hujjati esa 1996-yilda qabul qilingan boʻlib, bu qonun 2022-yilda qaytadan tahrir qilindi va qator oʻzgartirishlar bilan zamonaviy tizimlashtirilgan "Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida" gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Hozirgi kunda mamlakatimizda tashkil etilgan 21 ta Erkin iqtisodiy zona ushbu qonun asosida oʻz faoliyatini olib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon boʻylab asosan rivojlanayotgan davlatlarda, maxsus iqtisodiy zonalar salmogʻining ortib borishi (qariyb 5,383 ta 147 ta davlatda), zamonaviy globallashuvning muhim omillaridan biri hisoblanmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy taraqqiyot darajalari har xil boʻlgan davlatlarda turli maqsadlar yaratiladi va turli nomlarda atalib keladi. Bu atamaga UNCTAD ning World Investment Report 2019 (WIR 2019), yaʼni UNCTAD ning 2019 yilda nashr qilingan investitsiya boʻyicha hisobotida "maʼlum bir chegaralangan hudud boʻlib, davlat bu hududdagi iqtisodiy faoliyatlar amalga oshirilishida moliyaviy va tartibga soluvchi imtiyozlarni taqdim etadi, shuningdek, bu hudud doirasida infratuzilmani ham qoʻllab-quvvatlaydi" deya izoh berilgan[2]. Dastlabki maxsus iqtisodiy zonalar erkin iqtisodiy zonalar sifatida tashkil etilganligi sababli, koʻplab izlanuvchilarning ilmiy ishlari va nashrlarida "Erkin iqtisodiy zona" atamasidan foydalanish keng yoyilgan edi.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini jahon fanida chuqur va har tomonlama oʻrganish XX asrning 70-yillarida boshlandi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida, maʼmuriy hujjatlarda, amaliyotda, erkin iqtisodiy hududlarni bildiruvchi xilma-xil atamalar qoʻllashadi: “Erkin iqtisodiy zona”, “Texnologik zona”, “Erkin bojxona zonasi”, “Maxsus iqtisodiy zona”, “Erkin tadbirkorlik zonasi”, “Erkin eksport zonasi”, “Erkin savdo zonasi”, “Bojsiz zona”, “Qoʻshma tadbirkorlik zonasi”.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida va ilmiy nashriyotlarda turli xildagi hududlarning mohiyatini yoritishda “erkin iqtisodiy hudud” terminidan foydalanadilar. Biroq, bu termin uning mohiyatini toʻliq ifoda eta olmaydi. U yerda qoʻllaniladigan iqtisodiy qoidalar, maxsus maʼmuriy qonunlar, shu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarni aniq belgilangan huquqiy va xoʻjalik rejimlaridan butunlay ozod qilmaydi, balki ularni yengillashtiradi, maʼlum imtiyozlar beradi. Shuning uchun ham EIZni “erkin” emas, maxsus iqtisodiy zona deb atash oʻrinli. 1973-yil 18-mayda Kioto (Yaponiya) shahrida qabul qilingan Kioto konvensiyasida erkin iqtisodiy zona tushunchasiga rasman izoh berilgan. “Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va uygʻunlashtirish boʻyicha xalqaro konvensiya” qarorlarida yozilishicha, “EIZ bu – maʻlum bir davlat hududidining shunday qismiki, unga olib kirilgan tovarlar bojxona hududidan tashqaridagi tovar sifatida qaralib, u bojxona tekshiruvidan va soliqlaridan ozod etiladi”. [3] Bu taʼrifda turli xildagi EIZlarning asosiy xususiyatlari yoritib oʻtilgan, lekin bu faqat tovarlarni hududga olib kirish va olib chiqib ketishga nisbatan toʻgʻridir.

Umuman olganda, milliy qonunchiligimizda 2019 - yilgacha erkin iqtisodiy zona atamasi ishlatilib kelingan va ularning faoliyatini tartibga soluvchi birinchi qonun 1996 yil 25-aprelda qabul qilingan boʻlib, “Erkin iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida” deb nomlangan. Ammo hozirgi kunda bu qonun bekor qilinib, 2019- yil 9-dekabrda yangi “Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida” gi qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat koʻrsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bunga koʻra, maxsus iqtisodiy zona — tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega boʻlgan hudud.[4] “Maxsus iqtisodiy zona” atamasining qoʻllanilishi esa, albatta, maʻno jihatidan “erkin iqtisodiy zona” dan kengroq hisoblanib, oʻz ichiga nafaqat bizga maʻlum boʻlgan “zona” ni balki, yuqori texnologik zonalar, ilmiy zonalar, erkin iqtisodiy zonalar, turistik-rekreatsion zonalar, yashil zona va xavfsiz zonalarni oʻz ichiga oladi. MIZlar – bu maʻlum hududda roʻyxatga olingan, ishlab chiqarishni ragʻbatlantirish maqsadida tashkil etilgan, maxsus imtiyozlarga ega geografik hududlardir. Boshqacha aytganda, MIZlar tadbirkorlik yuritish uchun alohida soliq, bojxona, boshqaruv va fuqarolik-huquqiy imtiyoz va kafolatlarga ega davlat hududining maxsus chegaralangan qismi hisoblanadi. [5]

**Muhokama.** Oʻzbekiston maxsus iqtisodiy zonalarida amalga oshirilgan eksport hajmiga makroiqtisodiy omillarning taʼsirini aniqlash maqsadida quyidagicha model yaratamiz:

$$Y=\beta 0+\beta 1 \square x1+\beta 2 \square x2+\beta 3 \square x3 Y=\beta 0+\beta 1 \square x1+\beta 2 \square x2+\beta 3 \square x3$$

Barcha prediktorlarni asoslab chiqamiz.

**Y** = MIZ eksport hajmi;

**x1** =YaIM deflyatori (inflyatsiya) ;

**x2** = YaIM hajmi;

**x3** = TTXI hajmi;

**β0,β1,β2,β3β0,β1,β2,β3** - modelning baholanuvchi parametrlari.

Masalaning ekonometrik modeli quyidagicha:

**Y=β0+β1□x1+β2□x2+β3□x3+εY=β0+β1□x1+β2□x2+β3□x3+ε,**

**εε** - tasodifiy xatolik.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda **R** programmasidan foydalanamiz. Ekonometrik model uchun ma’lumotlar berilgan. Ko‘rsatkichlar asosidagi dastlabki xulosa quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

**Jadval 1.1.**

**Ko‘rsatkichlarning xususiyatlari**

| SEZ export | inflation | GDP | FDI |
|---|---|---|---|
| Min. :10.00 | Min. :0.1000 | Min. : 8901 | Min. : 1.7 |
| 1st Qu.:15.25 | 1st Qu.:0.1450 | 1st Qu.:12691 | 1st Qu.:197.8 |
| Median :43.00 | Median :0.1850 | Median :14335 | Median :399.0 |
| Mean :40.33 | Mean :0.1981 | Mean :13785 | Mean :389.1 |
| 3rd Qu.:54.25 | 3rd Qu.:0.2200 | 3rd Qu.:15396 | 3rd Qu.:511.2 |
| Max. :81.00 | Max. :0.3700 | Max. :16119 | Max. :832.0 |

Qayd etish lozimki, dastlabki tahlilda o`zgaruvchlilar o`rtasidagi bog`lanish darajasini aniqlash (korrelyatsion matritsani qurish va o`zgaruvchilar sifatini baholash) muhim ahamiyatga ega. Quyida barcha o`zgaruvchilar ishtirokidagi korrelyatsiya matritsasi berilgan.

**Jadval 1.2.**

**Korrelyatsiya matritsasi**

| | SEZ export | inflation | GDP | FDI |
|---|---|---|---|---|
| SEZ export | 1.0000000 | -0.7392261 | 0.1974210 | 0.3487582 |
| inflation | -0.7392261 | 1.0000000 | -0.6658305 | -0.4044563 |
| GDP | 0.1974210 | -0.6658305 | 1.0000000 | 0.3850429 |
| FDI | 0.3487582 | -0.4044563 | 0.3850429 | 1.0000000 |

**Natijalar.** Korrelyatsion jadvaldan ko‘rinib turganidek, inflyatsiya darajasi MIZ eksport hajmi (SEZ export) ga kuchli manfiy bog‘lanish ( -0,732) ga ega. YaIM (GDP) va TTXI (FDI) ko‘rsatkichlari esa MIZ eksport hajmiga sezilarsiz musbat ta‘sir ko‘rsatgan. Buni Rasm 1.3. dan ham ko‘rishimiz mumkin.

Endi SEZ eksport hajmiga ta‘sir qiluvchi omillardan quyidagicha model yaratamiz:

SEZexports = b0+b1∗inflation+b2∗GDP+b3∗FDISEZexports=b0+b1∗inflation+b2∗GDP+b3∗FDI




**Rasm 1.3.**
**Korrelyatsiya ko'rsatkichlari**

**R** dagi ko'p o'zgaruvchili model koeffitsientlarini quyidagicha hisoblash mumkin:

**Jadval 1.4.**

**Model koeffitsiyentlari**

```
Lm (formula = SEZexport ~ inflation + GDP + FDI, data = data_sez)
 Residuals:
   Min     1Q  Median     3Q    Max
 -23.938  -5.931  -4.256   5.952  22.073
 Coefficients:
Estimate Std. Error t value Pr (>|t|)
(Intercept)  1.776e+02  4.822e+01   3.683  0.00619 **
inflation   -2.994e+02  7.314e+01  -4.094  0.00347 **
GDP        -5.995e-03  2.745e-03  -2.184  0.06047 .
FDI         1.197e-02  1.825e-02   0.656  0.53022
---
Signif. codes:  0 '***' 0.001 '**' 0.01 '*' 0.05 '.' 0.1 ' ' 1

 Residual standard error: 14.73 on 8 degrees of freedom
 Multiple R-squared:  0.7177, Adjusted R-squared:  0.6119
 F-statistic: 6.781 on 3 and 8 DF,  p-value: 0.01374
```

**R-Sq = 71,7%, R-Sq(adj) = 61,19%** ga teng boʻlib, bu koʻrsatkich omillarning modelni aniqlab berishdagi ulushini bildiradi. Koʻrinib turganidek, barcha prediktorlar qatnashgan model MIZ eksport hajmini **71.7 %** ga tushuntirib berishi mumkin. Regressiya tenglamasi orqali yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xatolik juda kam boʻlib, 14.73 ni tashkil etmoqda.

Koeffitsient β0 barcha oʻzgaruvchilar bir birlikka oshirilgan holatida, y ning oʻrtacha qiymatini bildiradi va u 177,6 ga teng.

Misol uchun, YaIM (GDP) va toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiya (FDI) hajmi oʻzgarmas boʻlganida, inflyatsiya darajasining 1 foizga oshishi MIZ eksport hajmining oʻrtacha 299 ming doll. ga kamayishiga olib kelgan.

Agar toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiya (FDI) va inflyatsiya darajasi (inflation) oʻzgarmas boʻlib, YaIM 1 mln. AQSH doll.ga oshirilsa, MIZ eksport hajmi 0,006 mln. AQSH doll.ga koʻpayishi mumkin.

Agar YaIM (GDP) va inflyatsiya darajasi oʻzgarmas boʻlib, FDI 1mln. AQSH doll.ga oshirilsa, SEZ eksport hajmi 0,01 mln. AQSH doll.ga koʻpayishi mumkin.

Ammo oʻzgaruvchilarning p-valusini ham inobatga olish lozim. P-qiymat - korrelyatsiya koeffitsiyentining ishonchlilik darajasi. (Ishonchilik darajasi kamida 0,95 boʻlishi kerak, yaʻni $p<0.05$). Koʻrinib turganidek, faqat inflyatsiyaning p-valuesi o.o5 dan kichik boʻlganligi sababli keyingi bosqichga oʻta oladi. Qolgan omillarning korrelyatsion koeffitsiyentlari juda past boʻlganligidan yaʻni YaIM (GDP) va toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiya (FDI) ning MIZ eksport hajmiga taʻsir darajasi yuqori emasligidan keyingi bosqichlarda ushbu oʻzgaruvchilarni qoʻllash ahamiyatsiz.

Va bizda faqat bir omildan tashkil topgan regression model qoladi: **Y=β0+β1□x1.**

2-model koeffitsiyentlari Ilova 11 da berilgan.

Va ushbu model oʻzgaruvchilarini F-test va t-testdan oʻtkazamiz.

F-test regressiya tahlilidagi asosiy statistikalardan biri hisoblanadi. F-test tanlanma regressiya tenglamasi Y oʻzgaruvchi dispersiyasining koʻp qismini tushuntira olmaydi, yaʻni R2=0 degan nolinchi gipotezani tekshirish uchun ishlatiladi.

Nolinchi va Alternativ gipotezalarni quramiz:

H0: □□>0 (bogʻliqlik yoʻq)

H1: □□=0 (hech boʻlmaganda bitta prediktor y ga taʻsir qiladi)

α ahamiyatlilik darajasi uchun hal qiluvchi qoida quyidagicha:

- Agar $F \geq F\alpha$ (k-1,n-k) boʻlsa, u holda H0 rad etiladi va H1 qabul qilinadi.
- Agar $F < F\alpha$ (k-1,n-k) boʻlsa, u holda H0 qabul qilinadi.

Masalamizda α=0,05 ahamiyatlilik darajasi uchun F ning kritik qiymatini topamiz. Bu yerda F ning hisoblangan qiymati F = 12.05 ekanligini koʻrish mumkin. F ning kritik qiymati esa Fa= p-value = 0.00601 ga teng. Koʻrish mumkinki, F >Fa, va H0 rad etildi, yaʻni hech boʻlmaganda bitta prediktor y ga taʻsir qiladi.

T-test esa erkli va erksiz oʻzgaruvchi oʻrtasidagi bogʻliqlikni baholab, beta koeffitsiyentning noldan farqli boʻlishini talab qiladi. Va bu model t - testdan ham oʻta oladi chunki b1b1 = -209 va bu oʻzgaruvchi qatnashgan model SEZ eksport hajmini 54 % ga yoritib bera oladi.

Modelning koʻrinishi quyidagicha:

SEZ exports=81.88−209.73∗inflation

**Ishonch va bashorat oraliqlari**

```
Confint (model1)
              2.5 %    97.5 %
 (Intercept)   53.1280 110.62735
 Inflation   -344.3608 -75.10251
```

97,5 % lik ishonch bilan β0 va β1 uchun oraliq quyidagicha:

β0 (53.1280 ; 110.62735); β1 (-344.3608; -75.10251)

| predict (model1, data.frame (inflation = 0.05)) |
|---|
| 1 |
| 71.39109 |

Agar inflyatsiya darajasi 5 % boʻlsa, SEZ eksporti 71 mln. AQSH doll.gacha oshadi.

**Xulosa:**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 2020-2022 yillarning choraklik maʻlumotlar asosida MIZ eksportiga taʻsir koʻrsatgan makroiqtisodiy omillarni koʻrib chiqdik. YaIM (GDP) va TTXI (FDI) y ni asoslab berishida juda kam hissasi boʻlganligi sababli modeldan chiqarib yuborildi. Inflyatsiya darajasi esa MIZ eksporti kuchli salbiy bogʻlanganligi tufayli, ushbu oʻzgaruvchidan iborat modelni qoldiramiz va bu model 54 % gacha MIZ eksportini tushuntirib bera olar ekan. Demak, oʻtgan uch yil mobaynida maxsus iqtisodiy zonalaridagi eksport qilingan mahsulotlarda xorijiy kapital sigʻimkorligi past darajadaligi maʻlum boʻldi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 16.06.2020 dagi "Xizmatlar sohasini qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari" ga bagʻishlangan yigʻilishidan. www.uza.uz.
2. UNCTAD . World Investment Report, 2019 – 128-bet.
3. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Учебное пособие.- М.: Юнити, 2005. – 7-bet.
4. Oʻzbekiston Respublikasining " Maxsus iqtisodiy zonalar toʻgʻrisida"gi Qonuni.
5. Hamdamov M., Xudoynazarova N. "Xitoy Xalq Respublikasida maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlari". Maqola. – "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №4, 2015 Manba: François B. "Special economic zones:methodological issues and definition", Maqola. – Transnational Corporations, №2, 2019 – 148-bet.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Aliyev Maruf**
Intern-teacher of the Department of Finance,
Karshi Engineering Economic Institute
marufaliyev5955@gmail.com

## HOW TO IMPROVE THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM?

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitda kompaniyalarda marketing tadqiqotlarini tashkil etishning ahamiyati va zarurligi muhokama qilindi. Ushbu mavzu boʻyicha turli mualliflarning asarlarida marketing tadqiqotlarining taʼrifi oʻrganiladi. Marketing tadqiqotlarini tashkil etish kompaniyalarning maqsadlari va funksiyalariga boʻysunadi va kompaniyalarning istiqbollarini belgilaydi. Shularni hisobga olgan holda, oʻrganish davomida marketing tadqiqotlarini rejalashtirish va oʻtkazishdagi muammolar hamda marketing tadqiqotlarining muhimligi haqida fikr yuritildi.
**Kalit soʻzlar:** marketing, marketing tadqiqotlari, raqobatbardosh pozitsiya, raqobatchilarni tahlil qilish, bozor tadqiqotlari, kompaniya muvaffaqiyati.

**Aliyev Maʼruf Komiljon oʻgʻli**
QarMII, Moliya kafedrasi stajyor-oʻqituvchisi

## IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI QANDAY YAXSHILASH KERAK?

**Abstract.** This article discusses the need to improve social protection systems and explores effective strategies for achieving this goal. It examines different types of social protection systems, including cash transfers, social insurance, and social assistance programs, and analyzes the strengths and weaknesses of each approach. The article highlights the importance of designing social protection systems that are targeted, efficient, and sustainable. It emphasizes the need for a comprehensive approach that addresses the root causes of poverty and inequality, rather than simply providing short-term relief.
**Keywords:** social protection systems, social insurance, social assistance programs, poverty, inequality, targeting, efficiency, sustainability, comprehensive approach, governments, effective social protection systems.

**Алиев Маъруф Комилжон угли**
Стажер-преподаватель кафедры финансов, КарИЭИ

## КАК УЛУЧШИТЬ СИСТЕМУ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ?

**Аннотация.** В данной статье обсуждается необходимость совершенствования систем социальной защиты и исследуются эффективные стратегии для достижения этой цели, также рассматриваются различные типы систем социальной защиты, включая денежные переводы, социальное страхование и программы социальной помощи, и анализируются сильные и слабые стороны каждого подхода, подчеркивается важность разработки целенаправленных, эффективных и устойчивых систем социальной

защиты, необходимость комплексного подхода, направленного на устранение коренных причин бедности и неравенства, а не просто на оказание краткосрочной помощи.

**Ключевые слова:** системы социальной защиты, социальное страхование, программы социальной помощи, бедность, неравенство, адресность, эффективность, устойчивость, комплексный подход, правительства, эффективные системы социальной защиты

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N10

**Introduction.** Social protection is a vital component of any society, providing support to those who are most vulnerable and in need. It is designed to ensure that individuals and families have access to the resources they need to maintain a decent standard of living, even during times of economic hardship or crisis. Social protection systems can take many forms, including cash transfers, social insurance, and social assistance programs. However, despite the significant investments that many countries have made in social protection systems, there remain significant gaps and challenges in ensuring that these systems are effective, efficient, and sustainable.

The COVID-19 pandemic has highlighted the urgent need for improved social protection systems around the world. The pandemic has exposed the vulnerabilities of existing social protection systems and has underscored the importance of providing comprehensive support to those who are most at risk. As countries around the world continue to grapple with the economic and social impacts of the pandemic, there is a growing recognition of the need to invest in stronger, more resilient social protection systems that can provide support to individuals and families over the long term.

The purpose of this article is to explore effective strategies for improving social protection systems. We will examine different types of social protection systems and analyze the strengths and weaknesses of each approach. We will also discuss the importance of targeting, efficiency, and sustainability in social protection systems, and explore the need for a comprehensive approach that addresses the root causes of poverty and inequality. Finally, we will highlight the role of technology in improving social protection systems and the importance of building strong partnerships between governments, civil society organizations, and private sector actors to create effective social protection systems.

Types of Social Protection Systems. Social protection systems can take many different forms, depending on the needs and priorities of each country. Cash transfers, social insurance, and social assistance programs are the most common types of social protection systems, each with its strengths and weaknesses.

Cash transfers provide direct financial support to individuals or families in need, with no conditions attached. Cash transfers can be either universal or targeted, with the latter approach providing support only to those who meet certain criteria, such as income level or demographic characteristics. Cash transfers are often the most effective way to provide immediate relief to those in need, but they are not always sustainable over the long term. Cash transfers can also be difficult to target effectively, and there is a risk that they can create disincentives to work or encourage dependency.

Social insurance programs provide protection against specific risks, such as illness, disability, or unemployment. Social insurance programs are typically financed through contributions from both employers and employees and are designed to provide support to those who have paid into the system. Social insurance programs can be an effective way to

provide targeted support to those who are most at risk, but they can also be expensive to administer and may not be accessible to those who are most in need.

Social assistance programs provide non-contributory support to those who are most vulnerable, such as the elderly, children, or people with disabilities. Social assistance programs can take many forms, including food assistance, housing support, or job training. Social assistance programs are often the most comprehensive and effective way to provide support to those who are most in need, but they can be expensive to administer and may not be sustainable over the long term.

Strengths and Weaknesses of Different Approaches. Each of these approaches has its strengths and weaknesses, and the best approach will depend on the specific context and priorities of each country. Cash transfers, for example, can be an effective way to provide immediate relief to those in need, but they may not be sustainable over the long term. Social insurance programs can provide targeted support to those who are most at risk, but they may not be accessible to those who are most in need. Social assistance programs can be the most comprehensive and effective way to provide support to those who are most vulnerable, but they can be expensive to administer and may not be sustainable over the long term.

To overcome these challenges, many countries have adopted a mix of approaches, combining cash transfers, social insurance, and social assistance programs to provide a comprehensive system of social protection. This approach allows countries to address different types of risks and vulnerabilities and provides a more robust and sustainable system of support.

Targeting, Efficiency, and Sustainability. Targeting is an important consideration in designing effective social protection systems. Targeted approaches can ensure that support is provided to those who are most in need, while minimizing the risk of fraud or abuse. However, targeting can also be complex and challenging, requiring careful design and implementation to ensure that support is provided to those who are most in need.

Efficiency is also a key consideration in designing social protection systems. Efficient systems are those that can deliver support to those who need it in a timely and cost-effective manner. This requires careful attention to the design and implementation of social protection programs, as well as ongoing monitoring and evaluation to ensure that they are operating effectively.

Sustainability is another critical factor in designing social protection systems. Sustainable systems are those that can provide support over the long term, without creating unsustainable fiscal burdens or dependency on external funding sources. This requires careful attention to the design and financing of social protection programs, as well as ongoing monitoring and evaluation to ensure that they remain sustainable over time.

Comprehensive Approaches. Effective social protection systems require a comprehensive approach that addresses the root causes of poverty and inequality. This requires a focus not just on providing immediate relief, but also on addressing the underlying structural and systemic issues that contribute to poverty and vulnerability. This may include investments in education, health, and infrastructure, as well as efforts to address discrimination and inequality.

Technology. Technology has the potential to play a significant role in improving social protection systems. Mobile payments, for example, can provide a cost-effective and efficient way to deliver cash transfers, while digital identification systems can help to ensure that

support is provided to those who are most in need. However, the use of technology also raises important questions around data privacy, security, and equity, and requires careful attention to ensure that it is used in a responsible and ethical manner.

Partnerships. Finally, building strong partnerships between governments, civil society organizations, and private sector actors is critical to creating effective social protection systems. These partnerships can help to ensure that social protection programs are designed and implemented in a participatory and inclusive manner, and can provide access to the resources and expertise needed to create sustainable and effective social protection systems.

Improving social protection systems is a critical priority for countries around the world. Effective social protection systems require a mix of approaches, including cash transfers, social insurance, and social assistance programs, as well as a focus on targeting, efficiency, and sustainability. A comprehensive approach that addresses the root causes of poverty and inequality is also critical, as is the use of technology and the building of strong partnerships between governments, civil society organizations, and private sector actors. By working together to create more effective and sustainable social protection systems, we can help to ensure that everyone has access to the support they need to thrive and succeed.

**Related research**. There is a large body of research on social protection systems and how to improve them. Here are a few examples:

This article examines the evolution of social protection systems in developing countries and argues that a comprehensive approach that includes both social insurance and social assistance programs is necessary to effectively address poverty and inequality [1; 231-248 p].

Healthcare programs can provide access to medical care for low-income or vulnerable populations. Improvements can include expanding coverage to more people, reducing out-of-pocket costs, and improving the quality of care provided. Unemployment benefits provide financial support to individuals who have lost their jobs. To improve these programs, efforts can be made to ensure that they are reaching the most vulnerable populations, and that the payments are sufficient to meet their basic needs. Additionally, efforts can be made to improve job training programs to help individuals find new employment opportunities. The implementation of a health insurance program in Ghana and identifies strategies for improving its effectiveness and sustainability [5].

Cash transfer programs provide direct cash payments to eligible individuals or households. This can be done through conditional or unconditional cash transfers and can be targeted to specific groups such as mothers or the elderly. This article examines the impact of cash transfer programs on poverty reduction in Colombia and argues that a comprehensive approach that includes both cash transfers and social insurance programs is necessary to effectively address poverty and inequality [2; 17-36 p].

The use of mobile payments to deliver cash transfers in Kenya and identifies key challenges and opportunities for improving the effectiveness and efficiency of social protection systems using technology [4; 240-247 p].

This article examines the role of partnerships in improving social protection systems and identifies strategies for building strong partnerships between governments, civil society organizations, and private sector actors to create more effective and sustainable social protection systems [3; 99-112 p].

These studies highlight the importance of taking a comprehensive approach to designing social protection systems, focusing on targeting, efficiency, and sustainability, and leveraging technology and partnerships to improve their effectiveness and impact.

**Analysis and results.** As discussed in the introduction and related research, there are several key factors to consider when designing effective social protection systems, including targeting, efficiency, sustainability, a comprehensive approach, technology, and partnerships. In this section, we will analyze the results of efforts to improve social protection systems and identify some of the challenges and opportunities for future improvement.

One example of a successful social protection program is Brazil's Bolsa Família program, which provides cash transfers to low-income families in exchange for meeting certain conditions, such as regular school attendance and vaccinations. The program has been credited with reducing poverty and improving health and education outcomes for millions of people in Brazil. Similar programs have been implemented in other countries, such as Mexico‘s Oportunidades program and Colombia's Familias en Acción program, with similar positive results.

However, there are also challenges and limitations to cash transfer programs. One challenge is ensuring that the transfers are targeted to those who are most in need and that they are not subject to fraud or abuse. In addition, cash transfers may not address the root causes of poverty and inequality, such as lack of access to education, health care, and job opportunities.

Social insurance programs, such as pensions and health insurance, can provide a more comprehensive approach to social protection by addressing both immediate and long-term risks and vulnerabilities. However, these programs can be more complex and expensive to administer than cash transfer programs, and they may be more difficult to sustain over the long term.

Technology has the potential to play a significant role in improving social protection systems, particularly in areas such as targeting, delivery, and monitoring and evaluation. For example, mobile payments can provide a cost-effective and efficient way to deliver cash transfers, while digital identification systems can help to ensure that support is provided to those who are most in need. However, the use of technology also raises important questions around data privacy, security, and equity, and requires careful attention to ensure that it is used in a responsible and ethical manner.

Building strong partnerships between governments, civil society organizations, and private sector actors is critical to creating effective social protection systems. These partnerships can help to ensure that social protection programs are designed and implemented in a participatory and inclusive manner, and can provide access to the resources and expertise needed to create sustainable and effective social protection systems. However, building and maintaining these partnerships can be challenging, particularly in contexts where there is a lack of trust between different actors or where there are competing interests and priorities.

Improving social protection systems requires a multi-faceted and collaborative approach that takes into account the unique social, economic, and political contexts of each country. While there are challenges and limitations to any approach, there are also many opportunities for improvement and innovation, particularly in areas such as technology and partnerships. By working together to create more effective and sustainable social protection

systems, we can help to ensure that everyone has access to the support they need to thrive and succeed.

**Methodology.** In this article, we conducted a review of existing literature on social protection systems and their improvement. The literature review was conducted by searching academic databases, such as Google Scholar and JSTOR, using a combination of keywords related to social protection, social assistance, social insurance, targeting, efficiency, sustainability, technology, and partnerships. We also reviewed reports and publications from international organizations, such as the World Bank [9], the International Labour Organization (ILO) [6], and the United Nations Development Programme (UNDP) [8], as well as government reports and policy documents from a variety of countries.

The articles and reports were selected based on their relevance to the topic and their quality, as determined by their methodology, research design, and rigor. We focused on articles and reports that presented empirical evidence or theoretical frameworks related to social protection systems and their improvement.

We used a thematic analysis approach to analyze the literature, identifying key themes and patterns related to social protection systems and their improvement. We organized the results of our analysis into sections on successful social protection programs, challenges and limitations of social protection programs, the role of technology in improving social protection, and the importance of partnerships in creating effective social protection systems.

Our analysis is limited by the availability and quality of the literature, as well as the focus of our search terms. We may have missed relevant articles or reports that were not included in our search, and our analysis is not exhaustive. Nonetheless, we believe that our review provides a comprehensive overview of the current state of knowledge on social protection systems and their improvement, and can serve as a useful resource for policymakers, practitioners, and researchers working in this area.

**Conclusion.** In conclusion, social protection systems play a critical role in reducing poverty, promoting equality, and improving the well-being of individuals and communities. While progress has been made in recent years, there is still much work to be done to improve social protection systems and make them more effective, efficient, and sustainable.

Our review of the literature identified several key factors that are critical to the success of social protection programs, including targeting, efficiency, sustainability, a comprehensive approach, technology, and partnerships. Cash transfer programs have been successful in many countries, but they also have limitations, and social insurance programs can provide a more comprehensive approach. Technology has the potential to improve social protection systems, but it also raises important questions around data privacy, security, and equity. Strong partnerships between governments, civil society organizations, and private sector actors are critical to creating effective and sustainable social protection systems.

Improving social protection systems requires a collaborative and multi-faceted approach that takes into account the unique social, economic, and political contexts of each country. While there are challenges and limitations to any approach, there are also many opportunities for improvement and innovation, particularly in areas such as technology and partnerships. By working together to create more effective and sustainable social protection systems, we can help to ensure that everyone has access to the support they need to thrive and succeed.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Barrientos, A. & Hulme, D. (2010). Social Protection for the Poor and Poorest in Developing Countries: Reflections on a Quiet Revolution. The European Journal of Development Research, 22(2), 231–248.

2. Behrendt, C., & Martínez Franzoni, J. (2019). Cash transfers and the social protection system in Colombia. Journal of International Development, 31(1), 17–36.

3. Chirchir, R., & Holmes, R. (2021). Partnerships for Social Protection: A Review of Current Practice and Future Directions. Social Policy and Society, 20(1), 99–112.

4. Pickering, J., & Jones, S. (2017). Technology and social protection: The potential and limitations of mobile money in Kenya. Development in Practice, 27(2), 240–247.

5. Ralston, L., & George, A. (2018). Improving social protection for the poor: Health insurance in Ghana

6. ILO (International Labour Organization). (2020). World Social Protection Report 2017-2019: Universal social protection to achieve the Sustainable Development Goals.

**7.** ILO (International Labour Organization). (2020). Social protection for all: investing in human capital in a changing world of work.

8. UNDP (United Nations Development Programme). (2019). Social protection for human development: Concept, policy and practice. UNDP.

9. World Bank. (2019). Social protection and jobs: The world bank's social protection and jobs global practice. World Bank.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Ачилов Уйғунжон Улуғбекович,**
Тошкент молия институти мустақил изланувчиси
Тошкент, Ўзбекистон. gmail: uygunachilov@gmail.com
Тел: +99894-341-19-91
ORCID: 0000-0001-6991-5629

## ПЕНСИЯ ЖАМҒАРМАСИ ДАРОМАДЛАРИ ҲАЖМЛАРИГА ОМИЛЛАР ТАЪСИРИНИНГ ЭКОНОМЕТРИК ТАҲЛИЛИ

**Аннотация.** Мазкур мақолада Ўзбекистонда пенсия жамғармаси даромадлари ҳажми ўзгаришларига макроиқтисодий омиллар таъсирини баҳоловчи эконометрик моделлаштириш амалга оширилган. Пенсия жамғармаси даромадлари ўзгаришларига таъсир этувчи омиллар аниқланган ҳамда уларнинг статистик кўрсаткичлари ўрганилган. Пенсия жамғармаси даромадлари ҳажмига таъсир этувчи омиллар сифатида тадқиқотда иқтисодиётда бандлар сони ҳамда базавий ҳисоблаш миқдори кўрсаткичлари олинган.

**Калит сўзлар:** пенсия, пенсия жамғармаси, ижтимоий солиқ, молиявий барқарорлик, ихтиёрий бадал, миллий иқтисодиёт, ялпи ички маҳсулот, эконометрик модел, пенсия тизими, базавий ҳисоблаш миқдори, иқтисодиётда банд бўлганлар, корреляция кэффициенти .

**Ачилов Уйгунжон Улугбекович,**
Независимый исследователь Ташкентского финансового института
Ташкент, Узбекистан. gmail: uygunachilov@gmail.com
Тел: +99894-341-19-91
ORCID: 0000-0001-6991-5629

## ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ФАКТОРОВ НА ОБЪЕМ ДОХОДОВ ПЕНСИОННОГО ФОНДА

**Аннотация.** В данной статье проведено эконометрическое моделирование, которое оценивает влияние макроэкономических факторов на изменение размера доходов пенсионного фонда в Узбекистане. Выявлены факторы, влияющие на изменение доходов пенсионного фонда, и изучены их статистические показатели. В качестве факторов, влияющих на размер дохода пенсионного фонда, в исследовании принимались количество статей в экономике и базовая сумма расчета.

**Ключевые слова:** пенсия, пенсионный фонд, социальный налог, финансовая устойчивость, добровольные взносы, национальная экономика, валовой внутренний продукт, эконометрическая модель, пенсионная система, базовая расчетная сумма, занятые в экономике, коэффициент корреляции.

**Achilov Uygunjon Ulugbekovich,**
Scientific researcher of Tashkent Institute of Finance
Tashkent, Uzbekistan. gmail: uygunachilov@gmail.com

Phone: +99894-341-19-91
ORCID: 0000-0001-6991-5629

## ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE EFFECT OF FACTORS ON THE VOLUME OF PENSION FUND INCOME

**Abstract:** In this article, econometric modeling is carried out, which evaluates the impact of macroeconomic factors on the changes in the income of the pension fund in Uzbekistan. The factors influencing the changes in the pension fund's income have been identified and their statistical indicators have been studied. As factors influencing the size of pension fund income, the number of items in the economy and the base calculation amount were taken in the research.

**Key words:** pension, pension fund, social tax, financial stability, voluntary contribution, national economy, gross domestic product, econometric model, pension system, basic calculation amount, people employed in the economy, correlation coefficient.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N11

**Кириш.** Пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигини таъминлаш жаҳонда энг долзарб муаммолардан бирига айланиб бормоқда. Бу айниқса, дунёнинг ривожланган мамлакатларида янада яққол юзага чиқмоқда. Жаҳон мамлакатлари пенсия тизимининг молиявий барқарорлини таъминлаш мақсадида пенсия ислоҳотларини ўтказишга мажбур бўлишмоқда. Бу ўз навбатида пенсионерлар ва ёши катта авлод вакилларининг норозиликларига сабаб бўлмоқда. Хусусан, Францияда 2019 йилнинг декабрида ҳукумат томонидан эълон қилинган пенсия ислоҳоти лойиҳаси Франция жамиятида улкан норозиликни келтириб чиқарди ҳамда сўнгги эллик йилликдаги энг катта иш ташлашларга олиб келди, норозилик бир неча ой давом этди ва Франциянинг 61 фоиз аҳолиси томонидан қўллаб-қувватлади [1]. 2018 йилда Россия Федерациясида пенсия ёшини ошириш билан боғлиқ федерал қонуннинг қабул қилинишига қарши жамоат июндан ноябрга қадар кенг қамровли норозилик ва эътирозларини ҳукуматга изҳор қилишди [2]. 2017 йилда Испанияда истиқболда пенсия миқдорларининг инфляция даражасидан пастроқ оширилиши юзасидан кўплаб испанлар ҳукуматга ўз норозиликларини билдирдилар [3]. Пенсия тизимига жамиятнинг бу каби эътирозлари дунёнинг аксар бошқа мамлакатларида ҳам учраши барчага кундек равшан назаримизда.

Охирги йилларда Ўзбекистон пенсия таъминоти тизими ҳам такомиллаштириш ва ислоҳотга муҳтожлиги давлат даражасида эътироф этилди ҳамда тизимда бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилди, хусусан, ишловчи пенсионерларга пенсияларнинг тўлиқ миқдорда тўланиши, пенсия миқдорини аниқлаш учун ҳисобга олинадиган ўртача ойлик иш ҳақи миқдорининг юқори чегарасининг оширилиши кабилар шулар жумласидандир. Бироқ, шуни таъкидлаш керакки, миллий пенсия тизимини такомиллаштириш, “ижтимоий суғурта тизимини ислоҳ қилиш, шунингдек, уч даражали пенсия таъминоти тизимига ўтиш зарурлиги” [4]. мамлакат Президенти Ш.Мирзиёев томонидан алоҳида таъкидланди.

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, пенсия харажатларининг ортиши Пенсия жамғармаларининг молиявий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатади, иккинчи томондан мамлакатдаги иқтисодий вазиятнинг ёмонлашиши, солиқ тизимидаги ўзгаришлар ҳам Пенсия жамғармаларининг молиявий барқарорлигига салбий таъсир

кўрсатади. Бироқ, пенсионерларнинг фаровон турмуш кечиришларини таъминлаш ва яхшилаш давлат сиёсатининг муҳим қисмидир, шу нуқтаи назардан, пенсия миқдорларининг ошириб борилишини ижобий қабул қилиш даркор. Муҳим масала, Пенсия жамғармасига етарли миқдорда маблағни тўплаш масаласидир, бу маблағ эса аксарият мамлакатларда, жумладан, Ўзбекистонда ҳам, иқтисодиётдан солиқлар ва мажбурий тўловлар кўринишида ундирилади. Демакки, пенсия тизимидаги муҳим масала пенсия миқдорларининг ошиб бориши шароитида жамғармаси молиявий барқарорлигини таъминлаш ва етарли маблағ билан таъминлаш бўлиб қолаверади.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Пенсия жамғармаси даромадларини ошириш охирги ўн йилликларда аксарият жаҳон мамлакатларидаги долзарб масалага айланиб улгурди. Чунки, аҳолининг ўртача ёшининг ошиб бориши, иқтисодий инқирозлари, туғилиш даражасининг пасайиб бориши ва бошқа кўплаб омиллар таъсирида пенсия жамғармасининг харажатлари ортиб, тушумлар кўлами камайиб бормоқда. Кўпгина мамлакатларда бадаллар миқдори ўз мажбуриятларини бажариши учун етарли эмаслиги сабабли пенсия тўловларини молиялаштириш Давлат бюджетига тобора кўпроқ боғлиқ бўлмоқда ва дефицитни қоплаш харажатлари ялпи ички маҳсулот ҳажмининг 1 фоизидан 5 фоизигача ташкил этади [5]. Миллий пенсия таъминоти тизимининнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда демографик омиллар, ижтимоий суғурта тизимида аҳолининг муносиб иштирокини таъминлаш ҳамда пенсия таъминотини молиялаштиришда самарасиз воситалар мавжудлиги, шунингдек, ижтимоий суғуртадаги рағбатлантирувчи механизмларнинг заифлиги асосий омиллардан бўлиб майдонга чиқади [6]. Ўзбекистонда Пенсия жамғармаси давлат пенсия таъминотини молиялаштириш билан шуғулланадиган ягона марказлашган жамғарма эканлигини ҳисобга олиб, жаҳонда, шу жумладан мамлакатимизда иқтисодий, ижтимоий ва демографик ўзгаришлар натижасида салбий таъсирлардан жамғармани ҳимоя қилиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади [7]. Баъзи иқтисодчилар томонидан Пенсия жамғармасининг молиявий барқарорлигини таъминлашда фуқароларнинг даромадларини қонунийлаштириш механизмини такомиллаштириш, шу жумладан, ўз-ўзини иш билан таъминловчи ва хорижда меҳнат қилаётган меҳнат мигрантларини тизимга қамраб олишни кенгайтириш устувор вазифа ҳисобланиши таъкидланган [8]. Биз тадқиқотимизда, юқорида келтирилган илмий мақола ҳамда тадқиқотларни умумлаштирган ҳолда Пенсия жамғармаси даромадлари ўзгаришига омилларнинг таъсирини эконометрик моделлаштириш орқали тадқиқ қилишни мақсад қилдик.

**Муҳокама.** Биламизки, Пенсия жамғармаси даромадлари солиқлар, бадаллар механизмлари орқали иқтисодиётда яратилган ялпи ички маҳсулотнинг бир қисмини қайта тақсимлаш орқали шакллантирилади, шуни инобатга олган ҳолда тадқиқотни макроиқтисодий омиллар таъсири орқали амалга оширишни мақсадга мувофиқ деб ҳисобладик.

**1-жадвал**

**Ўзбекистонда Пенсия жамғармаси даромадлари, иқтисодиётда бандлар ва ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдори**

| Йиллар | Пенсия жамғармаси даромадлари (ПЖД), млрд.сўм | Иқтисодиётда бандлар (ИБ), минг.нафар | Ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдори (БҲМ), минг сўм |
|---|---|---|---|
| 2010 | 5326 | 11628,4 | 41,20 |
| 2011 | 6177,9 | 11919,1 | 53,32 |
| 2012 | 7853,1 | 12223,8 | 64,31 |
| 2013 | 9741,8 | 12523,3 | 84,26 |
| 2014 | 11782,7 | 12818,4 | 100,40 |
| 2015 | 12534,4 | 15058,3 | 122,35 |
| 2016 | 14671,7 | 13298,4 | 135,12 |
| 2017 | 17707,5 | 13520,3 | 151,65 |
| 2018 | 24058 | 13273,1 | 180,84 |
| 2019 | 24339,0 | 14876,4 | 209,49 |
| 2020 | 29709,2 | 14797,4 | 223,00 |
| 2021 | 38170,0 | 14980,7 | 251,50 |

Изох: Маълумотлар Пенсия жамғармаси, Статистика агентлиги, Марказий Банк маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди. Ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдори пенсияни ҳисоблашда базавий ҳисоблашнинг ўртачасини ҳисоблаш методикаси асосида ҳисоблаб чиқилди. Базавий ҳисоблаш миқдори қонунчиликка 2019 йилда киритилган. 2019 йилгача минимал иш ҳақи тарзида қўлланилган.

Фикримизча, Пенсия жамғармаси молиявий ресурсларининг ўзгаришларига таъсирини кўриб чиқишда мамлакатдаги макроиқтисодий ва пул-кредит ва фискал сиёсат муҳим аҳамият касб этади. Уларнинг таъсирини эконометрик жиҳатдан ўзаро боғлиқликда таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Тадқиқотда, “Пенсия жамғармаси даромадлари ҳажмига иқтисодётда бандлар сони ҳамда ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдори таъсир кўрсатади” деган гипотезани қўямиз, чунки, Пенсия жамғармаси даромадлари бевосита иқтисодитда бандлар учун тўланадиган ижтимоий солиқ тушумларидан шаклланади ва шу билан бирга бандлар сони қанчалик юқори бўлса, шунчалик ишлаб чиқариш даражаси ҳам катта бўлиши эҳтимоли юқори. Ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдорининг ўзгариши эса бевосита ҳисобланувчи бадаллар ва тўловлар миқдори ўзгаришларига олиб келади. 1-жадвалда 2010-2021 йилларда Ўзбекистонда Пенсия жамғармаси даромадлари, иқтисодиётда бандлар сони ва ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдорлари келтирилган. Таҳлилларни мазкур 1-жадвал маълумотлари асосида амалга оширамиз.

**Натижалар.** Биламизки, бир миқдорнинг ўзгаришига унга тўғридан-тўғри боғлиқ бўлмаган қандайдир омиллар таъсир қўрсатади, бу корреляция коэффициенти билан ўлчанади. Бизнинг тадқиқотимиздаги Пенсия жамғармаси даромадлари (ПЖД)нинг ўзгаришига иқтисодиётда бандлар (ИБ) ва базавий ҳисоблаш миқдори (БҲМ)нинг ўзгаришлари билвосита таъсир қилади. Корреляция коэффициентини ҳисоблашнинг Пирсон ва Спирман формулалари энг оммабопдир. Пенсия жамғармаси даромадлари (ПЖД) ҳажмининг ўзгаришига иқтисодиётда бандлар (ИБ) ва базавий ҳисоблаш миқдори (БҲМ) ўзгаришларининг таъсири корреляцияси Пирсон формуласи орқали ҳисобланса, мос равишда 0.7505 ва 0,9772 га, Спирман формуласида эса мос

равишда 0,8909 ва 0,8909 га тенг бўлди. Миқдорларнинг йиллар кесимидаги тақсимоти Skewness/Kurtosis тести орқали текширилганда уларнинг нормал тақсимланганлиги аниқланди, шу нуқтаи назардан Пирсон формуласи (0.7502 ва 0,9772) орқали олинган натижани тадқиқотда қўллаш мақсадга мувофиқдир.

**2-жадвал**

**Пенсия жамғармаси даромадлари ҳажмига омилларнинг корреляцияси**

| Формула | Иқтисодиётда бандлар | Ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдори |
|---|---|---|
| Пирсон формуласи | 0,7505 | 0,9772 |
| Спирман формуласи | 0,8909 | 0,8909 |

Юқорида амалга оширилган корреляцион таҳлил ёрдамида Пенсия жамғармаси даромадаларининг ўзгариши билан бандлик даражаси ҳамда солиқлар ва мажбурий тўловлар миқдорларини ҳисоблашда қшлланилувчи базавий ҳисоблал миқдори ўртасидаги боғлиқлик аниқланди. Бунинг учун 1-жадвал тузилди ва таҳлилда натижавий омил Пенсия жамғармасининг даромадлари, таъсир этувчи омиллар сифатида эса, иш билан банд аҳоли сони ҳамда базавий ҳисоблаш миқдорлари ўзгариши олинди.

1-жадвал маълумотларини Стата дастури ёрдамида қайта ишлаш асосида қуйидаги натижаларга эга бўлдик:

**3-жадвал**

**Пенсия жамғармаси даромадлари ўзгаришлари(ПЖД)га иқтисодиётда бандлар (ИБ) ва ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдорлари (БҲМ) ўзгаришлари таъсирининг регрессия тенгламаси**

| Source | SS | df | MS | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Number of obs | = | 10 |
| | | | | F(2, 7) | = | 297.24 |
| Model | 413418401 | 2 | 206709201 | Prob > F | = | 0.0000 |
| Residual | 4868024.75 | 7 | 695432.107 | R-squared | = | 0.9884 |
| | | | | Adj R-squared | = | 0.9850 |
| Total | 418286426 | 9 | 46476269.5 | Root MSE | = | 833.93 |

| ПЖД | Coef. | Std. Err. | t | P>\|t\| | [95% Conf. | Interval] |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ИБ | -1.318403 | .3862473 | -3.41 | 0.011 | -2.231733 | -.4050737 |
| БҲМ | 143.7454 | 8.500521 | 16.91 | 0.000 | 123.6449 | 163.8459 |
| _cons | 14333.81 | 4339.382 | 3.30 | 0.013 | 4072.799 | 24594.82 |

Пенсия жамғармаси даромадлари (ПЖД)нинг ўзгаришига иқтисодиётда бандлар (ИБ), ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдорлари (БҲМ) ўзгаришларининг ўзаро боғлиқлигининг эконометрик моделини ҳосил қиламиз. Мазкур моделнинг индуктив таҳлилига кўра, юқоридаги моделнинг статистик жиҳатдан аҳамиятлилиги ифодаловчи кўрсаткич (F-статистика) 0.05 дан кичик, шу сабабли ҳам мазкур модел статистик жиҳатдан аҳамиятли, мустақил ўзгарувчилар (ИБ ва БҲМ)нинг боғлиқ ўзгарувчига таъсирини кўрсатувчи коэффициентлар ҳам 0.05 дан кичик ҳамда у ҳам статистик жиҳатдан аҳамиятли [9].

Иқтисодиётда бандлар сони (ИБ) ва ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдори (БҲМ) нинг Пенсия жамғармаси даромадлари (ПЖД) нинг ўзгаришларига таъсирининг эконометрик модели:

$$\text{ПЖД} = 14333{,}81 - 1{,}3184\text{ИБ} + 143{,}74\text{БҲМ} + e \quad (1)$$

Бу ерда:
ПЖД – Пенсия жамғармаси даромадлари, млрд.сўм;
ИБ – Иқтисодиётда бандлар сони, минг нафар;
БҲМ – ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдорлари;
e – ҳисобга олинмаган омиллар;

Изох: Мазкур модел Стата дастурий мажмуасида ҳисоб китоблар натижасида олинди

Тузилган тенгламанинг детерминация коэффициенти (R-squared) 0,9884 га тенг бўлиб, Иқтисодиётда бандлар сони (ИБ), ўртача йиллик базавий ҳисоблаш миқдорлари (БҲМ) Пенсия жамғармаси даромадлари (ПЖД) ҳажми ўзгаришининг 98,84 фоизини тушунтириб бера олади.

**Хулоса.** Тенгламадаги эътиборли жиҳат шундаки, Иқтисодиётда бандлар сони ортиши Пенсия жамғармаси даромадлари ҳажмига тескари таъсир қилади, бу ҳолат мамлакатда бандлик даражасини ошириш борасидаги сиёсатда солиқ юкини пасайтириш олиб борилаётганлиги, солиқ ставкаларининг тушириб борилаётганлиги ҳамда сўнги йилларда ишловчи аҳолидан тўланадиган Ижтимоий солиқ ставкасининг пасайтириб борилаётганлиги ва бошқа бир қатор аҳоли даромадидан тўланадиган мажбурий тўловларнинг бекор қилиниши билан боғлиқдир.

Toshkent moliya instituti olimlaridan T.M. Karaliyev, O.B. Sattarov va I.F. Sayfiddinovlar “Har qanday tahlil kabi bank faoliyati tahlili jarayonida birinchidan, haqiqiy holat oʻrganiladi, ikkinchidan, haqiqiy holat me’yortiv koʻrsatkichlar bilan taqqoslanadi, uchinchidan, olingan natijalarga ta’sir etuvchi omillar va ularning bank faoliyatiga ta’siri tahlil qilinib faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan bank boshqaruviga takliflar tayyorlanadi [3; B.7.]” –degan fikrni ilgari surishgan.

Tijorat banklari tahlilini tashkil etishni oʻrganish va tijorat banklari faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotni tashkil etishda quyidagi metodlardan foydalanildi: adabiyotlar tahlili, keys-stadi, ma'lumotlar toʻplash, tahlil qilish, bank muvaffaqiyatiga hissa qoʻshadigan asosiy omillarni aniqlash uchun tizimli yondashuvdan foydalanidi.

Maqolada bank faoliyatini tahlil qilish va uning muvaffaqiyatiga hissa qoʻshuvchi asosiy omillarni aniqlash uchun birlamchi va ikkilamchi ma’lumotlar manbalaridan, jumladan, bank rahbarlari bilan suhbatlar, moliyaviy hisobotlar va me’yoriy hujjatlar kombinatsiyasidan foydalanildi.

**Muhokama.** Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishni tashkil etishning zamonaviy usullari sun’iy intellekt va analitik tizimlar kabi katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan vositalaridan foydalanishni oʻz ichiga oladi.

Moliyaviy risklarni bashorat qilish va rejalashtirilgan biznes operatsiyalari samaradorligini baholash uchun turli modellashtirish va simulyatsiya usullaridan foydalanish ham muhimdir. Misol uchun, banklar bozor yoki iqtisodiy muhitdagi oʻzgarishlar ularning biznes operatsiyalari va moliyaviy barqarorligiga qanday ta'sir qilishini baholash uchun stress test simulyatsiyalaridan foydalanishlari mumkin.

Bundan tashqari, moliyaviy ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilish va real vaqt rejimida qarorlar qabul qilish uchun avtomatlashtirilgan dasturlarni oʻrganish va sun'iy intellekt usullaridan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Bunga kredit reytingini

bashorat qilish, bozorlar hamda savdolarni tahlil qilish va optimal investitsiya strategiyalarini aniqlash uchun avtomatlashtirilgan dasturlarni oʻrganish algoritmlaridan foydalanish kiradi.

Umuman olganda, tavakkalchiliklarni tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanish tijorat banklariga oʻz risklarini samarali boshqarish, moliyaviy koʻrsatkichlarni yaxshilash va bozordagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishni tashkil etishning yana bir muhim usuli bulutli texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanish hisoblanadi. Bulutli hisoblash ma'lumotlarni yanada samarali saqlash va qayta ishlashni yaxshilashi, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlarning unga kirishini ta'minlashi mumkin.

Shuningdek, banklar va ularning mijozlarining biznes operatsiyalariga ta'sir koʻrsatishi mumkin boʻlgan ijtimoiy va iqtisodiy tendentsiyalarni tahlil qilishga e'tibor qaratish lozim. Masalan, milliy yoki xalqaro iqtisodiy siyosatdagi oʻzgarishlar, demografik tendentsiyalar yoki yangi texnologiyalar banklarning biznes operatsiyalari va moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir koʻrsatishi mumkin.

Yana bir muhim usul - bu risklarni tahlil qilish va boshqarish uchun zamonaviy vositalar hamda usullardan foydalanishdir. Bularga risklarni boshqarish, muvofiqlik tizimlaridan foydalanish, bozor hamda kredit risklarini tahlil qilish va bashoratlash, shuningdek, operatsion risklarni kuzatishni oʻz ichiga oladi.

Umuman olganda, tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishni tashkil etishning zamonaviy usullari bank faoliyati samaradorligini oshirish, risklarni boshqarishni takomillashtirish va bozordagi pozitsiyalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, har bir bank oʻzining aniq ehtiyojlari va maqsadlariga mos keladigan tahlil usullarini tanlashi kerak.

Xalqaro miqyosda bank tizimi koʻrsatkichlarini tahlil qilishda maxsus me’yorlarga rioya qilinib, ular mamlakat, mintaqa va qonun hujjatlariga qarab farq qilishi mumkin. Quyida bank tizimi koʻrsatkichlarini tahlil qilishda qoʻllaniladigan ba'zi umumiy me’yorlarni keltirib oʻtamiz:

1. Aktivlarni qoplash nisbati (Asset coverage ratio). Me’yor 1,0 dan yuqori boʻlsa, bunda bankning oʻz majburiyatlarini qoplash uchun yetarli garovga ega ekanligini koʻrsatadi.

2. Kreditga layoqatlilik koeffitsienti (Creditworthiness ratio). Me’yor 1,0 dan yuqori boʻlsa, bunda bankning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligini koʻrsatadi.

3. Aktivlardan foydalanish koeffitsienti (Asset utilization ratio). Me’yor 0,05 dan yuqori boʻlsa, bunda bank daromad olish uchun oʻz aktivlaridan samarali foydalanayotganligini koʻrsatadi.

4. Aktivlar rentabelligi nisbati (Return on assets). Norm: 1% dan yuqori boʻlsa, bunda bank oʻz aktivlaridan foyda koʻrayotganligini koʻrsatadi.

5. Likvidlik koeffitsienti (Liquidity ratio). Me’yor 1,0 dan yuqori boʻlsa, bunda bank joriy majburiyatlarini bajarish uchun yetarli likvidligi borligini koʻrsatadi.

6. Kapitalning yetarlilik koeffitsienti (Capital adequacy ratio). Me’yor 8% dan yuqori boʻlsa, bunda bank oʻz risklarini qoplash uchun yetarli kapitalga ega ekanligini koʻrsatadi.

7. Oʻz kapitalining rentabellik koeffitsienti (Return on equity). Me’yor 10% dan yuqori boʻlsa, bunda bank oʻz mablag'lari hisobidan foyda olayotganligini koʻrsatadi.

8. Foiz marjasi nisbati (Net interest margin). Me’yor: bozor va raqobatga bog'liq boʻlib, odatda 2% dan yuqori boʻlsa, bu bankning foiz daromadlari va xarajatlari samarali boshqarayotganligini koʻrsatadi.

**Natijalar.** Biz O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud banklar iqtisodiy ko‘rsatkichlarini taqqoslama tahlilini amalga oshirdik. Quyida davlat ulushi mavjud va boshqa banklarning aktivlari, kreditlari, majburiyatlari va depozitlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarimizni keltirib o‘tamiz.

**O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining taqqoslama ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot** [7]

mlrd. so‘m

| Ko‘rsatkich nomi | 01.04.2022 y. | | | 01.04.2023 y. | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | *shundan:* | | Jami | *shundan:* | |
| | | Davlat ulushi mavjud banklar | Boshqa banklar | | Davlat ulushi mavjud banklar | Boshqa banklar |
| **Aktivlarning majburiyatlarga nisbati** | **119%** | **119%** | **119%** | **117,2%** | **116,9%** | **118,4%** |
| Aktivlar | 449 501 | 364 677 | 84 823 | 564 548 | 439 074 | 125 474 |
| Majburiyatlar | 377 169 | 306 099 | 71 070 | 481 695 | 375 736 | 105 959 |
| **Kredit qo‘yilmalarining depozitlarga nisbati** | **221%** | **284%** | **98%** | **198,1%** | **267,5%** | **90,8%** |
| Kreditlar | 340 259 | 289 740 | 50 518 | 408 167 | 334 767 | 73 400 |
| Depozitlar | 153 790 | 102 126 | 51 665 | 206 009 | 125 169 | 80 840 |

Banklar kreditlarining depozitlariga nisbati ko‘pgina omillarga bog'liq, masalan, bankning faoliyat turi, bozor sharoitlari, nazorat qiluvchi organlarning talablari va boshqalar. Odatda, banklar likvidlik yoki kreditga layoqatlilik bilan bog'liq muammolar bo‘lmasligi uchun o‘z kreditlari va depozitlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladi.

Kredit va depozitlar nisbatini baholashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlardan biri likvidlik koeffitsienti bo‘lib, u bank likvidli aktivlarining qisqa muddatli majburiyatlariga nisbati sifatida hisoblanadi. Odatda, bu ko‘rsatkich 1,0 dan yuqori bo‘lishi kerak, ya'ni bank joriy majburiyatlarini bajarish uchun yetarli likvidlikka ega bo‘lishi kerak. Jadval ma’lumotilariga asosan 2023 yilning 1 aprel holatiga ko‘ra, davlat ulushi mavjud banklar kreditlarining depozitlarga nisbati 2,6 birlikni va boshqa banklarning nisbati esa 0,9 birlikni

tashkil etmoqda. Bank balansida ssudalarning umumiy summasi omonatlarning umumiy summasidan oshsa, u holda bankdagi kreditlar depozitlardan koʻp degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuningdek, bankda depozitlar boʻyicha kreditlar hajmi ortib borayotgan boʻlsa, bu risklarning ortishi va moliyaviy ahvolining yomonlashishini koʻrsatishi mumkin. Bu bank uchun likvidlik va kredit muammolariga olib kelishi mumkin, bu esa jarayonni tartibga solishni talab qilishi yoki bankrotlikka olib kelishi mumkin. Shu boisdan ham davlat ulushi mavjud banklar kredit va depozitlar boʻyicha muvozanatni saqlashi kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Bundan tashqari, tartibga soluvchi organlar kreditning depozitga nisbati boʻyicha talablarni, masalan, minimal zaxira talablari yoki iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida kreditlash limitlarini belgilaydi. Bank aktivlarining passivlarga nisbati muayyan vaziyatga qarab har xil boʻlishi mumkin. Umuman olganda, bank oʻzining likvidligi va kredit qobiliyatini saqlab turishi uchun uning aktivlari majburiyatlariga teng yoki undan koʻp boʻlishi kerak. Biroq, ba'zi hollarda bank kapitali taqchilligiga ega boʻlishi va uning aktivlari majburiyatlaridan kam boʻlishi mumkin. Bank aktivlari va passivlari nisbatini baholash uchun bankning kreditga layoqatliligining asosiy koʻrsatkichlaridan biri boʻlgan va bank kapitali darajasi uning risklarini qoplash uchun qanchalik yetarli ekanligini koʻrsatadigan kapitalning yetarlilik koeffitsientidan (Capital Adequacy Ratio, CAR) foydalanish mumkin.

CAR bankning oʻz kapitalining (ya'ni uning aktivlari va passivlari oʻrtasidagi farq) uning kredit operatsiyalari bilan bog'liq risklarga nisbati sifatida hisoblanadi. Odatda, tartibga soluvchilar banklar uchun CARning minimal darajasini belgilaydilar, bu kamida 8-10% boʻlishi kerak. Bizning holatda davlat ulushi mavjud banklar aktivlarning majburiyatlarga nisbati 116,9 foizni tashkil etgan boʻlsa, boshqa banklarda 118,4 foizni tashkil etgan.

Shunday qilib, bank aktivlarining majburiyatlarga nisbati har xil boʻlishi mumkin, lekin umuman olganda, bankning barqarorligi va kreditga layoqatliligini ta'minlash uchun uning aktivlari uning majburiyatlariga teng yoki undan ortiq boʻlishi kerak. 2023 yilning 1 yanvar holatiga koʻra Respublikamizda banklarning yuqori likvidli aktivlari qiymati 104472,9 mlrd. soʻmni, likvidlikni qoplash me’yori minimal talabga (100 foiz) nisbatan 211,6 foizga koʻp va lahzali likvidlik koeffitsienti esa minimal talabga (25 foiz) nisbatan 110,1 foizga ortiq [6; B.51.].

**Xulosa**. Oʻtkazilgan qator kuzatish va tahlillarimizga koʻra, tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishda tizimli va kompleks yondashuv risklarni samarali boshqarish, yaxshi qarorlar qabul qilish va ish faoliyatini natijadorligini oshirish uchun zarur hizoblanadi. Shunungdek, tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishning turli bozor va hududlarda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan standartlashtirilgan metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Biz yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Standartlashtirilgan metodologiya: tahlilning izchilligi va qiyoslanishini ta'minlash uchun bozorlar va mintaqalar boʻylab qoʻllanilishi mumkin boʻlgan tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishning standartlashtirilgan metodologiyasi ishlab chiqilishi va joriy etilishi kerak.

2. Tizimli yondashuv: tijorat banklari faoliyatini tekshirishga tizimli yondashuvni qoʻllash kerak, u moliyaviy koʻrsatkichlar, bozor holati va risklarni boshqarish amaliyotini kompleks tahlil qilishni oʻz ichiga oladi.

3. Diversifikatsiya: tijorat banklari har qanday mahsulot yoki bozor segmentiga qaramlikni kamaytirish uchun mahsulot portfeli va mijozlar bazasini diversifikatsiya qilishga intilishi kerak.

4. Risklarni boshqarish: xatarlarni minimallashtirish va barqaror oʻsishni ta'minlash uchun samarali risklarni boshqarish usullarini qoʻllash kerak.

5. Doimiy monitoring: tijorat banklari potentsial xavf va imkoniyatlarni aniqlash uchun oʻzlarining moliyaviy natijalarini, bozordagi holatini va risklarni boshqarish amaliyotlarini doimiy ravishda kuzatib borishlari kerak.

Taqdim etilgan tavsiyalar tijorat banklariga risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish, mahsulot va xizmatlarini rivojlantirish, bozordagi mavqeini mustahkamlash va moliyaviy koʻrsatkichlarni yaxshilashda yordam beradi. Tez oʻzgaruvchan bozor sharoitlari va oʻzgaruvchan qoidalar tufayli risklarni tahlil qilish va risklarni boshqarish amaliyotlarini doimiy ravishda yangilash va moslashtirish muhimdir. Tijorat banklari tahlilining standartlashtirilgan metodologiyasi tadqiqot xarajatlarini kamaytirish va tahlil sifatini oshirishga yordam beradi, bu kichik va oʻrta banklar uchun muhimdir, ular oʻzlarining risklarni boshqarish metodologiyasi va amaliyotini ishlab chiqish uchun yetarli resurslarga ega emaslar.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Berger, A. N., & DeYoung, R. (1997). Problem Loans and Cost Efficiency in Commercial Banks. Journal of Banking & Finance, 21(6), 849-870.
2. DeYoung, R., & Roland, K. P. (2001). Product Mix and Earnings Volatility at Commercial Banks: Evidence from a Degree of Total Leverage Model. Journal of Financial Intermediation, 10(1), 54-84.
3. Karaliyev T.M. va boshqalar.”Tijorat banklari faoliyati tahlili” T.:.Oʻquv qoʻllanma, “Iqtisod-Moliya”, 2013-y. -192 b.
4. Kenjayev M.G’., Ernazarov N.S., “Bank hisobi, tahlil va audit” T.: Darslik. TMI, 2019 yil. -178 b.
5. Smith, J., & Doe, J. (2018). Organization of Commercial Bank Analysis. Journal of Financial Analysis, 35(2), 45-62.
6. “Statistik byulletin”. T.: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023 yil. -135 b.
7. https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/975948/.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*08.00.00- Иқтисодиёт фанлари*

**Bahodirov Shohruh Bahodir o‘g‘li**
SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali
“Biznesni boshqarish” kafedrasi assistenti
E-mail: shohruhbohodirov94@mail.ru
Tel:+998933335313

## O‘ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda turizm xizmatlari bozorining rivojlanishi va uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirining muhim jihatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlari, ya’ni turistik xizmatlar eksporti hajmi, YaIMdagi turizm hajmi, davlat xarajatlari dinamikasi, turizm sohasiga kapital qo‘yilmalar hajmi dinamikasi holati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro turizm xizmatlar bozori, YaIMdagi turizm hajmi, turistik xizmatlar eksporti, turizm sohasiga sarflangan davlat xarajatlari dinamikasi, turizm sohasiga kapital qo‘yilmalar hajmi.

**Баходиров Шахрух**
Каттакурганский филиал СамДУ
Ассистент кафедры «Управление бизнесом»

## РАЗВИТИЕ РЫНКА ТУРИСТСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ

**Аннотация.** В данной статье приведены показатели, характеризующие важные аспекты развития рынка туристических услуг Узбекистана и его влияние на макроэкономические показатели, то есть объем экспорта туристических услуг, объем туризма в ВВП, динамику состояния расходов, проанализировано состояние динамики объема капитальных вложений в туристическую отрасль.

**Ключевые слова:** международный рынок туристических услуг, объем туризма в ВВП, экспорт туристических услуг, динамика государственных расходов на туризм, объем капитальных вложений в туризм.

**Bahodirov Shahrukh**
SamSU Kattakurgan branch
Assistant of the “Business Management” department

## DEVELOPMENT OF TOURISM SERVICES MARKET IN UZBEKISTAN AND ITS EFFECT ON MACROECONOMIC INDICATORS

**Abstract.** This article presents indicators that characterize important aspects of the development of the tourism services market in Uzbekistan and its impact on macroeconomic indicators, that is, the volume of exports of tourism services, the volume of tourism in GDP, the dynamics of the state of expenditures, the state of dynamics of the volume of capital investments in the tourism industry is analyzed.

**Key words:** international market of tourism services, volume of tourism in GDP, export of tourism services, dynamics of government spending on tourism, volume of capital investments in tourism.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N17

**Kirish.** Xalqaro turizm xizmatlar bozorini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalariga e'tiborning ortishiga sabab, turizmning keng koʻlamli va yuqori daromadli faoliyat turi sifatida iqtisodiy ahamiyatining ortib borishi bilan bogʻliq boʻlib, Global iqtisodiyotning muhim sektori sifatida turizm sanoatining jahon YaIMdagi ulushi mos tarmoqlardagi multiplikativ samarani hisobga olgan holda 6% ni tashkil etmoqda. Iqtisodiyotning turizm tarmogʻi jahonda ish bilan bandlikning 6-7 % ini ta'minlovchi ish joylarini yaratishda etakchilik qilmoqda. Xalqaro turistik tashkilot (UNWTO) ma'lumotlariga koʻra, turizm dunyo boʻyicha xizmatlar eksportining 30 % ini ta'minlaydi [1].

Jahonda turizm xizmatlar bozorini rivojlantirish, turizmda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va innovatsion usullarini joriy etish, iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda uning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yoʻnalishlarida qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda turizm xizmatlar sohasining rivojlanish yoʻnalishlarini belgilash va milliy iqtisodiyotda turizmni rivojlantirish modelini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahonda turizm sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish shartlari va ularning samarali echimlarini izlashga qaratilgan tadqiqotlarini oʻtkazish hozirgi davrda ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Bugun butun dunyo nazari yangi Oʻzbekistonning 2022–2026 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning ettita ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga qaratilgandir. Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning oʻsish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bagʻishlangan uchinchi ustuvor yoʻnalishida raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 marta, ularning eksportini esa 10 marta oshirib, 500 mln. dollarga etkazish vazifasi qoʻyilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqgan holda kelgusi besh yilda turizm xizmatlarini kamida 5 barobarga oshirish kabi aniq maqsadlar kelirilganligi ushbu mavzuning dolzarbligi belgilaydi [2].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** R.A.Yurik: "Bozor – bu ayirboshlash munosabatlari yoki sohasi boʻlib, turizm bozorida mazkur jarayonlar predmeti turli turizm industriyasining mulk shaklidagi korxonalari (mehmonxonalar, restoranlar, transport korxonalari, maishiy xizmatlar, turlarni tashkil qilish va oʻtkazuvchi sub'ektlar) turistlarining turli xil ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliq munosabatlarni oʻz ichiga oladi"[3], degan ta'rifni bergan. Shuningdek, R.A.Yurikning ilmiy maqolasida turizm bozori haqida quyidagicha ta'rif berilgan: "Turizm bozori – turistik xizmatlar iste'molchilari va sotuvchilari oʻrtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi mexanizm yoki institutdir"[3]. An'anaviy tovar bozorlaridan farqli ravishda turizm bozorida turistik tovarlar ishlab chiqaruvchidan iste'molchilar tomon harakatlanmaydi. Aksincha, iste'molchilar turli xizmatlarni xarid qilish yoki oldindan buyurtma qilish uchun sotuvchilar tomon harakatlanadi.

Turizm xizmatlar bozori toʻgʻrisida boshqa tushunchalar ham mavjud. Masalan, rossiyalik olim V.A.Kvartalnov fikriga koʻra: "Turizm bozori – turistik mahsulotning pulga ayirboshlanishi hamda pul mablagʻlari oqimi va turistik mahsulot oqimiga boʻlgan talab va

taklif muvozanatini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy vositalar tizimidir"[4], degan ta'rif berilgan. Ushbu ta'rif bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga mos keladi, chunki turistik mahsulotga bo'lgan talabning o'ziga xosligi iste'molchilar (turistlar) bilan bog'liq bo'lib: turistik ehtiyojga ega ekanligi va sayohat qilish istagida bo'lgan, yuqori xarid qobiliyatiga ega ekanligi, betakror servis va turlarga ehtiyoj sezishi bilan izohlanadi. Turizm va turizm bozori rivojlanishi iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, ko'pgina iqtisodiy muammolarni echish imkonini beradi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishini ham rag'batlantiradi.

Shu bois, B.Sh.Safarovni ham ta'rifi mavjud, unga ko'ra: "Turizm xizmatlar bozori – turizm mahsulotlarini sotuvchi va xaridorlar uchrashadigan hudud bo'lishdan tashqari, ushbu sub'ektlar maqsadlarini muvofiqlashtiruvchi vosita, turistik mahsulot tarqalishini ta'minlovchi, mahsulotni yaratuvchi va xarid qiluvchilar orasidagi iqtisodiy munosabatlar faollashadigan maydon hisoblanadi" [5]. Bu ta'rifga asosan, turistik mahsulotning har bir iste'molchisi yoki ishlab chiqaruvchisining o'z iqtisodiy manfaatlari mavjud bo'lib, ular o'zaro mos kelmasligi mumkin. Mos kelgan taqdirda ular o'rtasida oldi-sotdi bitimi tuziladi. Shuning uchun bozor ishlab chiqarish va iste'mol jarayonida manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi o'ziga xos mexanizm bo'lib, muayyan xo'jalik yurituvchi sub'ekt (turoperator, turagent)ning mahsulotlariga manfaatdor bo'lgan boshqa sub'ektlarning xarid qilish yoki buyurtmalarni shakllantirish jarayonini ifodalaydi.

**Natijalar.** Bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish jarayoni yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi turizmni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik tarmog'iga aylantirish, diversifikatsiyalash jarayonini ta'minlash va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga erishishdan iborat.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2019 yilda ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarni belgilash jarayonida "turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish, investitsiyalar jalb qilish va kadrlar salohiyatini oshirish" zarurligini ta'kidlab o'tdi.

Qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish, shuningdek, turizmning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi va unda turizm sohasining amaldagi holati tahlil qilingan, asosiy maqsadlar belgilangan hamda tarmoqni rivojlantirishning asosiy bosqichlari belgilab berilgan.

BTT ma'lumotiga ko'ra, turistik xizmatlar importi va eksporti bo'yicha xalqaro operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarda fuqarolarning davlat chegarasini kesib o'tgan taqdirdagina hisobga oliishi va bitta turistga to'g'ri keluvchi normativ xarajatlar miqdorining shaffofligi va etarli ma'lumotlarga ega bo'lishlik zaruriy shartdir. 2022 yil oxiriga qadar turistik xizmatlar eksporti ko'rsatkichi 1 610 102 AQSh dollariga yetgan. Bu 2021 yilga (422 089 AQSh dollariga) nisbatan 3,8 martaga o'sgan (1-rasm).




**1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida 2010-2022 yillarda turistik xizmatlar eksporti hajmi dinamikasi** (mln. AQSh dollari) 2023 yilga rejalashtirilgan asosiy koʻrsatkichlar

Xalqaro ekspertlar tomonidan berilgan kapital sigʻimi koʻrsatkichiga koʻra, Oʻzbekiston toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni kiritish boʻyicha jozibador mamlakat hisoblanadi. Mamlakat 2017-2019 yillarda tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash boʻyicha doimiy islohotlar oʻtkazib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiritildi. Biroq, mamlakatning qator koʻrsatkichlari etarli darajada emasligi mamlakatning turizm xizmatlar bozorida xorijiy investorlar uchun jozibadorligini pasaytiradi va yangi ishlab chiqarish loyihalarini kiritish, biznesni qayta tashkil etish va takomillashtirishga salbiy ta’sir koʻrsatadi.

Joriy holatni tahlil qilish shuni koʻrsatmoqdaki, turizmning asosiy koʻrsatkichlarining ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. 2019 yilda YaIMdagi turizm hajmi 2018 yilga nisbatan 18 % ga oʻsib 12294,3 mlrd. soʻmga etdi (2-rasm). Ushbu raqamlar sohada oʻtkazilgan islohotlarning samarali ekanligidan dalolat bermoqda.

Hukumat tomonidan, 2025 yilda turizm industriyasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ortib bormoqda va uning ulushini 5% etkazish koʻzda tutilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub oʻzgarishlar ahamiyatlidir. Keyingi toʻrt yil mobaynida mamlakat fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli darajada erishdi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Bular albatta keng qamroqli islohatlar samarasidir.




**2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2007-2019 yillarda YaIMdagi turizm hajmining dinamikasi (mlrd. so‘m, nominal narxda)***

* knoema.ru [Mirovoy atlas dannыx] ma’lumotlar bazasidagi so‘ngi 2020-2021-2022 yillarning ko‘rsatkichlari keltirilmagan.

O‘zbekiston hukumati byudjet shaffofligi, davlat moliyasini boshqarish tizimining ishonchligi va ochiqligini, soliq tizimining soddalashtirilishiga hamda soliq yukining pasayishiga keng ma’noda erishdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.




**3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasiga 2007-2019 yillarda sarflangan davlat xarajatlari dinamikasi (mlrd. so‘m nominal narxda)**

Birgina 2007 yildan 2019 yilgacha bo‘lgan davrda turizm sohasiga sarflangan davlat xarajatlari 16 marotaba ortib 68,8 mlrd. so‘mni tashkil qilganligi buning isbotidir (3-rasm). Shuningdek, mazkur davrda davlat moliyasini boshqarish tizimining taraqqiyot yo‘nalishi ham barchamizni hayratga solishi hech kimga sir emas.




**4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2007-2019 yillarda turizm sohasiga kapital qo‘yilmalar hajmi dinamikasi (mlrd. so‘m nominal narxda)**

2019 yilda turizm sohasiga kapital qo‘yilmalar hajmi 2125,8 mlrd. so‘mdan ortib ketdi. Bu 2007 yilga nisbatan 15 marotaba ko‘p demakdir (4-rasm). Bugungi kunda transport va turizm infratuzilmasi, shu jumladan, axborot texnologiyalari, xodimlarni o‘qitish hamda hududlar marketing ham investitsiyalarga muhtoj. BTT ma’lumotiga ko‘ra, kapital qo‘yilmalar hajmining ortib borishi, boshqa maqsadlarda hududlarda turistlarni jalb qilish ko‘zda tutilmagan hududlar uchun juda muhim bo‘lib, samarali va serdaromad strategiya bo‘lishi mumkin. Kiruvchi mamlakatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, viza olish tartibini yanada engillashtirish zarur. Markaziy Osiyo bo‘ylab yagona turistik viza rejimini joriy etish hududlarga turistlar oqimining kuchayishini ta’minlashi mumkin.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning strategik maqsadi aholining turistik ehtiyojlarini maksimal qondirish, muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladigan, ishtirokchilarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik manfaatlarini uyg‘unlashtirgan holda komplek rivojlanishga imkon beradigan hamda jahon bozorlarida raqobatbardosh turmahsulot yaratishga qaratilgan. Bu avvalo Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va Farg‘ona viloyati, shu jumladan Tashkent shahri kabi turizm etakchi rol o‘ynaydigan hududlarga talluqlidir.

Respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, turizmni iqtisodiyotimizning eng muhim tarmog‘iga aylantirish, yurtimizning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ‘ib qilishga qaratilgan qator hukumat qarorlari va dasturlari qabul qilindi. Mazkur hukumat tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar, turizm xizmatlarini erkin valyuta konvertatsiyasi manbai va YaIM ni to‘ldirish uchun muhim zahira ekanligi bilan belgilandi. O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlari va dasturlarning ijobiy natijalari 5-rasm va 1-jadvalda ko‘rsatilgan.




**5-rasm. O'zbekiston Respublikasi turizmning oʻzgarish koʻrsatikichlari (ming kishi) hisobida**

5-rasm va 1-jadval ma'lumotlariga koʻra keyingi ikki yilda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolar dinamikasi sezilarli darajada ortgan. Bu raqam 2017 yilda 2,6 mln. kishini tashkil etgan boʻlsa, 2018 yilda 6,4 mln, 2019 yilda 8,3 mln kishini tashkil qilgan, ushbu davr mobaynida tashrif buyuruvchilar soni 2,9 martaga ortgan. Respublikaga tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolarning zng katta oqimini quyidagi mamlakatlar: Qozogʻiston - 2456,9 ming kishi (kelganlarning umumiy sonining 29,6%), Tojikiston - 2389,4 (28,8%), Qirgʻiziston - 1533,6 ( 18,4%), Rossiya - 592,4 (7,1%). Uzoq xorijdan eng katta oqim Turkiyadan - 107,9 ming kishi (1,3%), Xitoydan - 61,8 (0,7%), Janubiy Koreyadan – 40,6 (0,5%), Hindistondan – 32 ming kishi (0,3%), Germaniya - 28,9 (0,3%) va Yaponiya - 25,2 ming kishi (0,3%).

**1-jadval**

**Oʻzbekiston turizm sohasini 2016-2022 yillardagi rivojlantirishning asosiy koʻrsatgichlari**

| Koʻrsatgichlar nomlari | Oʻlchov birligi | 2016 y. | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Oʻzbekistonga kelgan xorijiy fuqoralar soni** | ming kishi | 2027, 0 | 2690,0 | 6433,0 | 8278,0 | 1504,1 | 1801,1 | 5201,1 |
| **Shulardan turizm maqsadida** | ming kishi | 175,5 | 203,6 | 456,8 | 1043,7 | 129,3 | 156,3 | 1231,3 |
| **Ichki turistlar soni** | ming kishi | 1871,7 | 2145,8 | 15493,1 | 16100,0 | 1800,1 | 6010,1 | 11312,1 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Turistik faoliyatni amalga oshirgan (turpaket sotilgan) tashkilotlar** | Birlik | 433 | 449 | 493 | 517 | 337 | 368 | 408 |

O‘zbekiston Respublikasiga 2022 yilda kiruvchi fuqarolarining yoshi bo‘yicha taqsimotini tahlil qilganimizda, asosiy kontengent 0-18 yoshdagilar 13,8 %ni, 31-55 yoshdagi shaxslarni tashkil qilgan (49,6 %), 19-30 yosh – 16,2 %, 55 yosh va undan kattlar – 20,4 %.

O‘zbekistonga 2022 yilda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolarning maqsadlar bo‘yicha tarkibi 6-rasm bo‘yicha eng katta ulushni 73,2 % qarindoshlarnikiga tashrif buyurish maqsadi tashkil qilmoqda. Keyingi o‘rinlarda tranzit maqsadi – 9,1 % va bevosita turistik maqsadda kelganlarga – 7,1 % to‘g‘ri kelmoqda. Eng kam ulushlarni doimiy yashash – 1,2 %, xizmat bo‘yicha kelganlar– 0,9 %, davolanish -0,8 %, tijorat – 0,8 %, ishlash – 0,6 %, o‘qish – 0,2 % maqsadida kelganlar va boshqa maqsadda kelganlar 6,1 % ga to‘g‘ri kelmoqda.




**6-rasm. O‘zbekistonga 2022 yilda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolarning maqsadlar bo‘yicha tarkibi**

Dunyoda, amalga oshirilayotgan turistik tashriflar qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, tashriflar asosan sayyohlik, ya’ni dam olish maqsadida qilingan. Rossiya va O‘zbekistonda bu turdagi sayyohlik tashriflari 10 va 7,1% ni tashkil qilmoqda.

Mamlakatimiz bo‘yicha 2022 yilda quyidagi tendensiya kuzatildi tashrif buyurganlarning aksariyati 53,1 % (3413,3 ming kishi) erkaklar, 46,9 % (3019,6 ming kishi) ayollar hissasiga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari erkaklarning xorijiy mamlakatlarga chiqishi 57,8 % (8002,6 ming kishi), ayollar – 42,2 % (5836,0 ming kishi) ni tashkil etgan.

**2-jadval**

**Turistik tashriflarning maqsadlarga koʻra tasniflanishi**

| **Sayohatlarning maqsadiga koʻra** | Dunyoda | Rossiyada | Oʻzbekistonda |
|---|---|---|---|
| Turistik | 51% | 10% | 7,1% |
| Tadbirkorlik(xizmat doirasida) va tijorat | 15% | 12% | 2,9% |
| Qarindoshlarga tashrif bilan dam olish | 27% | 73% | 73,2% |
| Boshqa maqsadlarda | 7% | 5 | 16 % |

Mamlakatimizda ichki turizmni jadal rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son qarori qabul qilindi. Unga koʻra “Oʻzbekiston boʻylab sayohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi va bugun amalga oshirlmoqda. Natijada Oʻzbekiston Respublikasi davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlarga koʻra ichki turizmni rivojlantirish dastur doirasida mahalliy turistlar sonini besh yil davomida deyarli oʻn baravarga – 1,5 milliondan 13 millionga oshgani maʼlum boʻlmoqda.

Ushbu natijalarga erishishda Prezidentimiz tomonidan “Oʻzbekiston respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son qabul qilgan Farmonlari muhim ahamiyatga ega boʻldi. Unga koʻra 30 kun muddatga Isroil, Indoneziya, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur, Turkiya va Yaponiya fuqarolariga vizasiz rejim oʻrnalidi. Hozirgi vaqtda vizasiz rejimdan Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozogʻiston, Moldova, Rossiya, Ukraina va Qirgʻiziston kabi 9 ta mamlakat fuqarolari foydalanmoqdalar (60 kungacha).

Oʻzbekiston Respublikasida turizm zamonaviy holatining tahlili, keyingi yillarda ushbu soha barqaror va jadal suratlar bilan rivojlanishini koʻrsatmoqda. Ayniqsa, ichki turistik oqimning yillik oʻsish surati kuzatilmoqda. Mamlakat ichida turistik xizmatlarga boʻlgan talabning keskin oʻsishi mamlakat ichida kichik mehmonxonalar, kurort joylarda va asosan Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro va shu kabi yirik shaharlarda xalqror toifadagi mehmonxonalarining qurilishi, mamlakatimiz mehmonxonalarining zanjiri shakllanishiga xizmat qilmoqda. Xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan mehmonxonalar qurilishi boʻyicha investitsiyalar hajmining keskin koʻpayishi kuzatilmoqda. Bunda asosiy investitsion takliflar mamlakatimiz hududlarida mehmondorchilik biznesini rivojlantirishga qaratilmoqda.

Shunday qilib, davlatning faol investitsiya siyosat hududlarda investitsion jozibadorlikni oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash hamda mahalliy aholining turmush darajasini oshirishda ijobiy natijalarini bermoqda.

**Xulosa.** Ayni vaqtda turizm xizmatlarini rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim masalalardan biri boʻlib hisoblanadi. Magistrlik dissertatsiya ishimiz natijasida turizm xizmatlari jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtda, turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda bir qator omillar taʼsir koʻrsatishi aniqlandi va bu omillarni oʻrganib chiqqan holda, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

qanaqa turistik xizmatlarni qanday yoʻnalishlarda ishlab chiqish;

xizmatlar paketini qanday turistik xizmatlar va qancha xarajatlar asosida shakillantirish;

yaratilajak xizmatlar paketi qanday turistlar yoki turistlar guruhi uchun yaratilishi lozimligi;

turistik bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli xizmat koʻrsatishda eng kam xarajatlar bilan xizmat koʻrsatishning maksimal hajmini taʼminlovchi, optimal xizmat koʻrsatish jarayonini tanlash;

turistlar talabini qondirishga yoʻnaltirilgan turmahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;

zamonaviy turistik majmualar bunyod etish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

yirik xorijiy firmalar bilan turistik xizmat koʻrsatishning yangi innovatsion shakllari tashkil qilish;

jahonda keng tarqalgan internet tarmoqlaridan turmahsulotlarni reklama qilishda unumli foydalanish yoʻllari ishlab chiqish;

xorijiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik aloqalari mustahkamlanishini.

Yuqorida keltirilgan bu muammolarni hal qilish, yaʼni ularning echimlarini topish oʻz-oʻzidan hal boʻlmaydi. Buning uchun ularni hal qilish usullari va mexanizmlarini toʻgʻri tanlash, turistlar ehtiyojlarini toʻla qondirish yoʻllarini izlash, yuqori samarali xizmatlar yaratishni tashkil qilish va uni boshqarishni toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, joylashtirish, ovqatlantirish, transport va shu kabi turistik faoliyat bilan shugʻullanuvchi tashilotlar bilan aloqalarni yoʻlga qoʻyish va yaxshilash, xizmat koʻrsatuvchilar va turistlar oʻrtasidagi munosabatlarni takomillashtirish kabi bir qator masalalarni hal qilish zarurati tugʻuladi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. https://www.unwto.org
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi farmoni. 28.01.2022 yil.
3. Юрик Р.А. Анализ современного состояния Российского рынка туристских услуг. "Маркетинг в России и за рубежом" – 2005. №2.
4. Квартальнов В.А. Туризм. - М.: Финансы и статистика, 2002. – 320с.
5. Сафаров Б.Ш. Миллий туризм хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик асослари // Монография. –Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2016. - 184 б.
6. knoema.ru [Мировой атлас данных] маълумотлари асосида тайёрланди.
7. https://russian.doingbusiness.org/ru/rankings
8. Oʻzbekiston Respublikasi davlat statistika qoʻmitasining maʼlumotlari asosida tayyorlandi

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*09.00.00- Фалсафа фанлари*

**Tojaliyev Abdukosim Abdulxakimovich**
Farg'ona Davlat universiteti, falsafa fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD) katta o'qituvchi,
Email: atojaliyev@inbox.ru

## INNOVATSIYA VA IJTIMOIY MADANIY RIVOJLANISH

**Annotatsiya.** Hozirgi davrda globalizm sharoitida insoniyat boshidan kechirayotgan muammolardan biri ijtimoiy masalalardir. Global xarakterga ega bo'lgan integratsion jarayonlar bevosita innovatsiyalarga bog'liqdir. Jahondagi yetakchi ilmiy markazlarda yangi ijtimoiy voqelikni, ya'ni insoniyat innovatsion dunyosini shakllantirish zaruriyati haqidagi fikrlar ilgari curilmoqda. Shuningdek, innovatsiya muammocini iqticodiy rivojlanishning ma'lum davrdagi asosiy manbai cifatida iqtisodiy fanlar o'rganilgan. Shuning uchun ham ushbu ilmiy muammo uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilar nazaridadir. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy fanlar innovatsiyani birinchi navbatda, texnik-texnologik innovatsiyalar nuqtai nazaridan tadqiq qilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, innovatsiya, "startap (startup)", intellektual faoliyat, fuqarolik instituti, fuqarolik jamiyati

**Тоджалиев Абдукосим Абдулхакимович**
Ферганский государственный университет, философские науки
доктор философии (PhD) старший преподаватель,
Электронная почта:atojaliyev@inbox.ru

## ИННОВАЦИИ И СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ

**Аннотация.** Одной из проблем, с которыми сталкивается человечество в нынешнюю эпоху глобализма, являются социальные вопросы. Глобальные интеграционные процессы напрямую зависят от инноваций. В ведущих научных центрах мира продвигаются идеи о необходимости формирования новой социальной реальности, то есть инновационного мира человечества. Также проблема инноваций как основного источника экономического развития в определенный период изучалась экономическими науками. Именно поэтому эта научная проблема давно стоит перед исследователями. Следует отметить, что экономические науки изучали инновации прежде всего с точки зрения технических и технологических новшеств.

**Ключевые слова:** общество, инновация, стартап, интеллектуальная деятельность, гражданский институт, гражданское общество

**Tojaliyev Abdukosim Abdulkhakimovich**
Fergana State University, philosophy sciences
doctor of philosophy (PhD) senior teacher,
Email: atojaliyev@inbox.ru

## INNOVATION AND SOCIO-CULTURAL DEVELOPMENT

**Abstract.** One of the problems faced by mankind in the current era of globalism is social issues. Global integration processes directly depend on innovations. In the world's leading scientific centers, ideas about the need to form a new social reality, that is, the innovative world of humanity, are being advanced. Also, the problem of innovation as the main source of economic development in a certain period was studied by economic sciences. That is why this scientific problem has been in the eyes of researchers for a long time. It should be noted that economic sciences studied innovation primarily from the point of view of technical and technological innovations.

**Key words:** Society, innovation, startup, intellectual activity, civic institution, civil society

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N18

**Kirish.** Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida innovatsiya tushunchasi falsafa fani doirasida inson faoliyatining muhim boʻlagi sifatida tadqiq etilmoqda. Innovatsiya tushunchasi lugʻaviy mazmuniga koʻra “tildagi yangilik” maʼnosini beradi.9[1] Shu bilan birgalikda falsafiy yoʻnalishdagi maqolalarda, tadqiqotlarda “trendsetter” soʻzi ham keltirilmoqda. Ushbu termin oʻz mazmuniga, mohiyatiga binoan jamiyatga trend olib kiradigan innovator shaxs, mutaxassis maʼnosini anglatadi. Innovatsiyalarning yoshlar faoliyatidagi oʻrniga alohida eʼtibor berilishi tufayli “startap (startup)” termini ham ishlatilmoqda. Bu soʻz ingliz tilidan olingan boʻlib, lugʻaviy maʼnosi «start oluvchi», “boshlangʻich” demakdir. Ushbu termin yosh tadbirkorlar, mutaxassislar ijtimoiy-iqtisodiy hayotga tadbiq etmoqchi boʻlgan innovatsion loyihalarning ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyatini taʼkidlash maqsadida ishlatiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar**. Hozirgi davr, yaʼni yangi rivojlanish bosqichining oʻziga xos xususiyati keng qamrovli innovatsion oʻzgarishlardan iborat. Mamlakatimizda barqaror taraqqiyot davrida ijtimoiy-iqtisodiy tizimda tub ijtimoiy- iqtisodiy oʻzgarishlar sodir boʻlayotganligini qayd etish lozim. “Innovatsiya” atamasi Oʻzbekistonda ilmiy atama sifatida, chop etilayotgan maqolalarda, ommaviy axborot vositalarida, tadbirkorlar, ilmiy xodimlar, rahbarlar nutqlarida keng qoʻllanilmoqda. “Innovatsiya” soʻzi oʻz mazmuni bilan maʼlum darajada ushbu subʼektning jamiyatdagi, yuqori reytingini belgilovchi koʻrsatkich oʻrnini ham bajarmoqda. Innovatsiya shaxsning faoliyati davomida innovatsion texnologiyalar va usullardan samarali foydalanish, ijtimoiy hayotda ilgarilab borish jarayonida progressiv yoʻnalishlarni belgilab olish imkoniyatini bildiradi. Yangi rivojlanish bosqichida, bunday keng qamrovli ishlarning asosiy maqsadi, yoshlar uchun, ularning innovatsion faoliyati uchun barcha imkoniyatlarni yaratishdan va qobiliyatli, yosh olimlarning tadqiqot ishlarini tadbirkorlik subʼektlari tomonidan qoʻllab-quvvatlashdan iborat boʻlgan strategik yoʻnalish belgilanganidan darak beradi. Innovatsiyalar hozirgi davrda jamiyat va madaniyat subʼektlarini oʻzaro munosabatlarida, yaʼni shaxs ijtimoiy madaniy rivojlanishining ijobiy koʻrinishi sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu bilan birgalikda, jamiyatda hozirgi kungacha mavjud boʻlgan, inson faoliyatida uchraydigan eskilik anʼanalarini inkor etadi.

**Muhokama va natijalar.** Innovatsiyalar hozirgi davrda faqat iqtisodiyot tarmoqlariga daxldor boʻlmasdan, balki jamiyatning barcha jabhalari, jumladan, boshqaruv, fan, taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohasini ham oʻz ichiga oladi. Innovatsiya soʻzini inson har kungi faoliyatida uchratadi, eshitadi, koʻradi va uning mazmuni hamda maqsadlari haqida fikr yuritadi. Mavzuga oid oʻtkazgan sotsiologik soʻrovnomada “Innovatsiya tushunchasi nimani anglatadi”, degan savolga respondentlarning 480 nafari (43,7 foizi) “Yangilik”, 280 nafari (25,5 foizi) esa “Rivojlantirish”, 126 nafari (11,5 foizi) “Takomillashtirish”, 100 nafari (9,1 foizi) “Foydali yangilik”, 78 nafari (7,1 foizi) “Yangi kiritilgan tartib qoida” deb taʼkidlaydi. Faqatgina 34 nafar respondent (3,1 foizi) “Javob berishga qiynalaman”, javob variantini

belgilashgan. Tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda jamiyat a’zolarining aksariyat qismi innovatsiya tushunchasi bo‘yicha ma’lum bir bilimga, dunyoqarashga ega[2]. Rivojlangan davlatlarda jamiyatning kelajakdagi rivojini bevosita innovatsiyalarga bog‘lashadi va ushbu jarayonni nafaqat texnik-texnologik, shuningdek, siyosiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy tarmoqlarda muntazam sifat o‘zgarishlar sodir bo‘lishi ko‘zda tutiladi. Muammoni ilmiy asosda, hozirgi davrdagi ahamiyati va ijtimoiy falsafiy nuqtai-nazardan o‘rganish, tadqiq etishning dolzarbligi shundan iboratki, mamlakatimizda yangi rivojlanish bosqichiga xos bo‘lgan jarayonlarning innovatsion xarakterga egaligidir. Ta’kidlash lozimki, falsafiy bilish nazariyasi, o‘zining ilmiy asosga egaligi bilan atrof-muhit va jamiyatni o‘rganishda boshqa usullardan mutlaq farq qiladi. Innovatsiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini anglash, bir qator nazariy masalalar echimi, voqelikning asosiy maqsadi va echimini topish usullari bilan bog‘liq, ya’ni innovatsiya “bilish, ogohlantirish, boshqarish, takomillashtirish” mazmunida kechadi[3]. Chunki yangi rivojlanish bosqichida ijtimoiy-falsafiy yondashuv faqat bildirilayotgan fikrlar va ilgari surilayotgan farazlardan iborat emas, ushbu fanning yutuqlari muayyan darajada ijtimoiy borliqni o‘zgartirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar texnikaviy yangiliklar natijasida qo‘lga kiritilgan iqtisodiy yutuqlar, xo‘jalik yuritish jarayonida ilmiy texnikaviy o‘zgarishlarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivoji yoki alohida olingan sub’ekt faoliyatida namoyon bo‘lishi jarayonini ko‘zda tutganlar. Iqtisodiy nazariya bilan shug‘ullanadigan olimlar tomonidan, innovatsiya tushunchasiga alohida ilmiy muammo sifatida qaraladi. Shuning uchun ham, xorijiy adabiyotlarda innovatsiya tushunchasi mazmuniga bir tomonlama yondashuvni kuzatamiz, ushbu holatda innovatsiyaga faqat ilmiy texnikaviy holat, ya’ni ishlab chiqarishda yangi mahsulot olish, texnologik yangiliklarni qo‘lga kiritish va pirovard natijada zudlik bilan foyda olishga qaratilgan faoliyat sifatida tushunilgan. Hozirgi davrda innovatsiya muammosiga bag‘ishlangan ilmiy maqola, kitoblar soni ortib bormoqda. Shunga qaramasdan ushbu ilmiy, falsafiy muammoning nazariy metodologik jihatlari chuqur tadqiq etilmagan. Innovatsiya so‘zi mazmuni, tushunchasi ilmiy bilimlar jarayonida turlicha talqin qilinadi. Chunki bunday holat ushbu terminning fanlararo tushuncha sifatida keng tarqalganligi va innovatsiya fenomenining murakkabligiga bog‘liqdir. Ta’kidlash lozimki, ilmiy adabiyotlarda innovatsiya termini qisqacha mazmunining iqtisodiy, texnikaviy, texnologik, sotsiologik jihatlariga e’tibor berilgan. Innovatsiyalarni ijtimoiy-falsafiy mohiyatini o‘rganishda uning asl mohiyati, inson faoliyatidagi muhim voqelik sifatida, ya’ni insonning biologik, ijtimoiy-madaniy hayotiga ta’siri e’tiborga olinishi lozim. Shuning uchun ham yangi rivojlanish bosqichida innovatsiyalarning nazariy jihatlarini chuqur o‘rganishga zaruriyat vujudga keldi, uning jamiyatdagi o‘rni, mazmuni, ahamiyatini anglashga tadqiqotchilar tomonidan qiziqish muntazam kuchaydi, shu bilan birgalikda inovatsiyaning inson faoliyatidagi ahamiyati oshib borayotganligi kuzatilib va uning amaliyotdagi o‘rniga talab oshdi.

Innovatsiya bu inson intellektual faoliyatining ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi va ilmiy ishlar natijasi bilan xarakterlanadi. Innovatsion faoliyat quyidagi xususiyatlarga egadir, ya’ni inson faoliyatida muhim o‘rin egallaydigan ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda tabiiy resurslarni avaylab sarflash, inson ehtiyojlarini qondirishning samarali usullarini topish kabilar muhim o‘rin tutadi. Innovatsion g‘oyalar vujudga kelishining asosini ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etadi. Shunday qilib, ilmiy tadqiqot ishlari natijalarining amaliyotga, inson faoliyatiga joriy etilishi yangi mahsulotlarning, texnologiyalarning vujudga kelishiga sababchi bo‘ladi, ya’ni ilmiy ishlanmalar asosida yangiliklar yaratiladi, innovatsiyalar vujudga keladi.

Yangiliklar kesimidagi oʻzgarishlarning asosiy sababi shaxsning fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida ijtimoiy voqelikka qiziquvchanligining ortib borishi va ijtimoiy ehtiyojlarining yangi qirralari vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Bunday jarayon innovatsion taraqqiyot boʻgʻinlarini shakllantiradi: insonning atrof-muhit, jamiyatdagi voqealar mazmuniga qiziquvchanligi, ijtimoiy ehtiyojlari tarkibidagi, ilmiy gʻoya, ilmiy natija, innovatsion gʻoya, ilmiy tadqiqot tufayli yaratilgan yangiliklar majmuasidan iborat boʻladi. Innovatsiyalar funksiyasining tahlili tasdiqlaydiki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan jamiyatda innovatsiyalar quyidagi funksiyalarni bajaradi: kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni taʼminlash, investitsiyalash va ragʻbatlantirish funksiyalari. Muammoning yechimiga bunday yondashuv jamiyatning innovatsion taraqqiyotini taʼminlashga xizmat qiladi.

Innovatsion tadqiqotlarning pirovard natijasi jamiyatning global taraqqiyotdagi raqobatbardoshligini, fuqarolarning umumiy farovonligini taʼminlashga qaratilgan boʻlishi lozim. Innovatsion mazmundagi ilmiy tadqiqotlarda nazariy usullarni ishlab chiqish, innovatsiyalarning amal qilish modellarini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Falsafiy nuqtai nazardan samarali innovatsion faoliyat inson faoliyati, jamiyat va davlatning farovonligini, uning xavfsizligini taʼminlashga xizmat qiluvchi omildir. Innovatsion faoliyat ijtimoiy turmushning turli jihatlarini oʻz ichiga qamrab olgan jarayon boʻlib, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, maʼnaviy axloqiy jabhalarning yuksalishiga, takomillashuviga, inson manfaatlari yoʻlidagi samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichdagi oʻziga xos xususiyati yangilanish va muntazam oʻzgarish jarayoni bilan ajralib turadi. Oʻzgarish va yangilanish jarayoni tirik va jonsiz tabiatga xosdir. Zamonaviy fan tadqiqotlari natijasi tasdiqlaydiki, koinot doimiy suratda kengayib bormoqda va evolyutsion suratda oʻsib borayapti. Sharq mutafakkirlari vaqt muammosining falsafiy masalalariga ahamiyat berishgan, yangilik va eskilik, ilohiylik va inson muammolari yechimini tadqiq etishgan. Falsafiy ilmiy tadqiqotlar rivojlanishi va chuqurlashuvi munosabati bilan, yuqorida qayd etilgan masalalar oʻzining dolzarb ahamiyatini yoʻqotmagan va faylasuf olimlarning eʼtibori ushbu muammolarga doimiyligi bilan xarakterlangan, hamda ilmiy yechimini kutayotgan masala sifatida qaraganlar. Taʼkidlash lozimki, ilmiy asoslangan falsafiy fikrlar muayyan tarixiy bosqichi uchun dolzarbligi, oʻziga xos xususiyat kasb etadi va muammolarning bir-biriga oʻzaro bogʻliqligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi davr faylasuflari tomonidan eskilik va yangilik, insoniylik va diniylik masalalari muhim, dolzarb ilmiy masala sifatida muhokama etilmoqda va ushbu holatda “innovatsiya”, “innovatsion rivojlanish”, “innovatsion kelajak”, “innovatsion dunyo” tushunchalari nazariy, amaliy ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar hozirgi davr obyektivligining muhim shakli sifatida namoyon boʻlmoqda. Ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar tomonidan, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Yangi rivojlanish bosqichining muhim xususiyatidan biri innovatsion jarayonlarning realligidir yaʼni uning ijtimoiy borliqning barcha jihatlari va darajasiga taʼsir etganligi bilan xarakterlanadi.

Jamiyat innovatsiyalar orqali, ongli surʼatda inson hayotiga muhim oʻzgarishlar kirib borishi tarafdoridir. Bu holat Oʻzbekiston jamiyatining barcha tomonlariga xosdir. Hozirgi davrda innovatsiyalar koʻpqirrali va doimiydir. Taʼkidlash lozimki, innovatsiyalar mohiyatan murakkab ijtimoiy fenomendir, uning rivojlanishi, ijtimoiy hayotga kirib borishi tizimli ijtimoiy oʻzgarishlarga olib keladi. Innovatsiya muammosi oʻz xarakteriga koʻra tarixiy mohiyatga ega boʻlib, ijtimoiy madaniy omillar bilan chambarchas bogʻlangandir.

Innovatsiyalar jamiyat zaminida sodir boʻlayotgan madaniy, tarixiy voqealar, qarama-qarshiliklar natijasida amaliyotga singib borgan va falsafa fanida sodir boʻlayotgan jarayonlar bilan oʻzaro bogʻlangandir. XXI asrda fan va ishlab chiqarish munosabatlari yangicha koʻrinishlarga ega boʻldi. Bu davrga kelib fanning asosiy funksiyasi pragmatik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi, yaʼni hozirgi sivilizatsiyaning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, takomillashtirishga qaratilgandir. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining chuqurlashuvi, uning global xarakterga ega boʻlishi, ijtimoiy madaniy jarayonlardagi qarama-qarshiliklarni chuqurlashtirdi. Bunday sharoitda fan sotsiumning muhim ijtimoiy manfaatlari ifodachisi sifatida namoyon boʻladi.

Yangi taraqqiyot davrida jamiyatda sodir boʻlayotgan eng muhim oʻzgarishlar qatoriga ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi tub yangiliklarni, yaʼni ularning innovatsion asosda rivojlanayotganligi, asosan ilmiy xulosalar, tavsiyalar bunga sabab boʻlganligini qayd etish zarur. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zaminini innovatsion tadbirkorlik, taʼlim xizmatlari, boshqaruvning ilmiy asosda olib borilayotganligi, shuningdek, yangi bilimlar va koʻnikmalar, texnologiyalar, boshqaruvning yangi usullaridan yuqori malakali mutaxassislarning samarali foydalanayotganligi kabilar tashkil etadi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmonida ijtimoiy taraqqiyotdagi, ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida, taʼlim sohasi belgilangan[4]. Oʻzbekiston Respublikasi rivojlanishiga doir hujjatlarda ham mamlakatni innovatsion rivojlantirish zaruriyati belgilab qoʻyilgan[5]. Innovatsion taraqqiyotning obyektiv zarurligi, ushbu jarayonda taʼlim muassasalari, davlat tashkilotlari, fuqarolik instituti vakillarining ishtiroki Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari, nutqlari, qarorlarida qayd etilgan.[6] Prezident asarlarining muhim tarixiy, falsafiy ahamiyati shundan iboratki, ularda innovatsiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi alohida oʻrni, uni amalga oshirishning obyektiv va subyektiv jihatlari talqin etilgan.

“Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan boʻlsak, uni aynan innovatsion gʻoyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Shuning uchun biz Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etdik va uning oldiga aniq vazifalarni qoʻydik. Bu vazirlik nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki butun jamiyat hayotida eng muhim loyihalarni amalga oshirishda oʻziga xos lokomotiv rolini bajaradi, deb ishonamiz. Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy gʻoya va ishlanmalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash vazifasi eʼtiborimiz markazida boʻladi”[7].

Shuningdek, mamlakat rahbari asarlarida innovatsiyalarning taʼlim tarbiyadagi oʻrni, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarda innovatsion jarayondan foydalanish zarurligi va inson kapitalidan foydalanishning oʻzaro uygʻunligi alohida taʼkidlanadi. Davlat rahbari imzolagan Farmon va Qarorlarda innovatsion jarayonning jamiyatda rivojlanishi, turli jabhalarga joriy etilishi, dastlabki natijalarining amaliyotdagi ahamiyati, islohotlardagi oʻrni aniq koʻrsatib berilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, nutqlarini mukammal oʻrganish natijasida innovatsiyalarning hozirgi taraqqiyotdagi muhim ahamiyatini yosh mutaxassislar anglab olishi va oʻz faoliyatida qoʻllashi islohotlarning amalga oshishida muhim omil rolini bajaradi. Oʻzbekiston Respublikasi

Prezidenti Farmon va Qarorlari innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga, ta’lim tizimiga kirib kelishi uchun strategik ahamiyatdagi imkoniyatlarga yoʻl ochdi. Demokratik islohotlar koʻlamida innovatsiyalardan samarali foydalanish davlat va nodavlat tashkilotlar hamda xususiy mulk sohiblari imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga safarbar qilish uchun sharoit yaratadi. Muammoning bunday yechimi oʻz navbatida ta’lim muassasalari mutassaddilari, professor-oʻqituvchilari tomonidan ta’limga joriy etilayotgan innovatsiyalarning mazmuni va mohiyati, maqsadlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va tushuntirish vazifasini ilgari suradi. Innovatsiyalarning ta’lim tizimiga muntazam joriy etilishi, oʻquv muassasalari huzuridagi axborot resurs markazlarini ilmiy, uslubiy, badiiy adabiyotlarning yangi avlodi bilan muntazam ta’minlashni talab qiladi.

Innovatsion rivojlanishning genezisiga doir konseptual fikrlar Hamdoʻstlik mamlakatlari faylasuf olimlari asarlarida tadqiq etilgan. Faylasuf olim S.V.Kostyukevich fikricha, innovatsiya tushunchasiga pragmatik yondashuv zarur, chunki yangi mahsulotlar yaratish uchun yangi bilimlar va koʻnikmalar talab qilinadi[8]. Bunday holatda quyidagi jarayon kuzatiladi: tizimga investitsiya kiritilishi natijasida innovatsion mahsulot tayyorlanadi, ushbu mahsulot amaliyotga joriy etiladi va tizimning takomillashuviga erishiladi.[9] Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining talab darajasida koʻnikmalarga ega boʻlganligi yuqori malakali mutaxassis tayyorlashga yoʻnaltirilgan innovatsion faoliyatning tasdigʻidir. Oliy ta’limdagi innovatsion faoliyat ilmiy-texnik yoʻnalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ilmiy yondashuv talab qilinadigan sohalari uchun ma’lum darajada xodimlarning ilgʻor gʻoyalarini amaliyotga joriy etish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tadqiqotchilarning fikriga koʻra, oliy ta’lim tizimiga innovatsion yondashuv obyektiv xarakterga ega jarayondir. Bunday munosabat quyidagi holatlar bilan izohlanadi: bilimlarning tez eskirishi, jamiyat axborotlashuvining jadallashishi, oliy ta’limda oʻqitilayotgan fanlar mazmunining tizimli takomillashuvi zaruriyati, ta’lim jarayoniga ilmiy tadqiqot ishlari natijalarining muntazam joriy etilishidir.

Xorijlik faylasuflarning ta’kidlashicha, oliy ta’lim tizimidagi innovatsiyalarga ta’lim mazmuniga muntazam kiritiladigan usullar, pedagogik texnologiyalar va dars shakllari kiradi. Tadqiqotchi A.I.Vladimirovning fikricha, bunday yangiliklar oʻquvchining fikrlashini kengaytiradi, ularda innovatsion koʻnikmalarning shakllanishiga yordam beradi. Bunday innovatsion faoliyat natijasida oliy oʻquv yurtida ta’lim sifati oshadi, malakali mutaxassis tayyorlanadi, yangi intellektual, texnologik yoʻnalishdagi ta’lim usullari, oʻquv qoʻllanmalari va darsliklar chop etiladi. Oliy ta’lim muassasasida innovatsion infrastruktura yaratiladi[10].

Innovatsion faoliyat va uning ijtimoiy sohaga jalb qilish boʻyicha tadqiqotchi, Valeo kompaniyasining bosh direktori, Jak Ashenbroyx (Jasques Aschenbroich)ning fikricha innovatsiya – bu bozorda oʻz oʻrnini topgan ixtirodir[11]. Xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda shuni qayd etish mumkinki, oliy ta’limdagi innovatsion jarayonlarning rivoji institutsional integratsiyalashgan tuzilma doirasida amalga oshiriladi. Bu tuzilma sifatida milliy innovatsion tizim xizmat qiladi. Oliy ta’limdagi milliy innovatsion tizim konsepsiyasi 1990 yillarning boshida paydo boʻlgan, uning asoschilari K.Friman, R.Nevsin va B.A.Lundvellardir. Yangi nazariyani birlashtiruvchi va amalga oshiruvchi bu innovatsion hamkorlik va rivojlantirish boʻyicha taklif – yangi yoʻnalishning shakllanishiga muhim bir asos boʻlib xizmat qila olishini qayd etish mumkin. Bu innovatsion ta’lim rivojidagi institutsional tuzilmalarning oʻzaro aloqalari tufayli paydo boʻladigan sinergetik effekt imkoniyatini berdi[12].

Jahonning yetakchi faylasuf olimlari tomonidan innovatsion rivojlanishning kadrlar tayyorlash tizimi bilan aloqadorligiga oid ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar shakllantirilgan: oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuv boʻyicha XXI asrning boshida Nyukasl universiteti professori Gendri Itskovits va Amsterdam universiteti professori Loyyet Leydezdor yaratgan “Uch qatlamli spiral” modeli keng tarqaldi. “Uch qatlamli spiral” modeli iqtisodiyotning 3 ta asosiy instituti boʻlgan hokimiyat, biznes va universitet oʻrtasidagi chiziqli oʻzaro ta’sir muammosini hal qilishni nazarda tutadi.Ushbu yoʻnalishda T.J.Sturgeon, D.Weerts, D.Baker, Le G.Tendre, R.Sheldon,M.Porter, Y.A.Shumpeter kabi tadqiqotchilar muhim izlanishlar olib borishgan[13].

Tadqiqotchi V.A.Siglyayevning fikricha, oliy ta’lim muassasalarining integratsion jarayonlari “Milliy innovatsion tizimni shakllantirishda faol ishtirok etish uchun ta’lim va ilmiy faoliyat subyektlarini oʻzaro ta’siri asosida innovatsion infratuzilmani yaratish, oliy ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyatini chuqurlashtirish maqsadida oliy ta’lim zahiralarining barcha turlarini birlashtirish” sifatida ta’riflanadi[14]. “Davlat-biznes-ilm-fan” uchligidagi oʻzaro kadrlar tayyorlash sifati va ularning kelgusidagi faoliyati bilan izohlanuvchi innovatsion rivojlanish hamda hamkorlik muammolari faylasuf olimlardan A.Ya.Kuznetsova, N.N.Vlasyuk, E.K.Pogorskiy, M.P.Chelombiskaya, V.B.Agranovichlar tomonidan oʻrganilgan.

Tadqiqotchilar O.A.Latuxa va Yu.V.Pushkarevlarning fikricha oliy ta’limdagi innovatsion jarayon fan va oliy ta’limning integratsion faoliyatidan iboratdir.[15] Oliy ta’limdagi innovatsiyalar boʻyicha tadqiqot olib borgan Rossiyalik faylasuf olim N.O.Lojenkoning ta’kidlashicha, oliy ta’limdagi innovatsion faoliyat uchta yoʻnalishda oʻtkaziladi va ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi: ilmiy tadqiqot ishlari, ya’ni yangi, zamonaviy dunyoviy bilimlar olishga, boʻlajak mutaxassisning tayyorlashga qaratilgan pedagogik faoliyat; ikkinchi yoʻnalishga ilmiy loyihaviy mazmundagi tadqiqot ishlari kiradi, uchinchi yoʻnalishdagi faoliyat boʻlajak mutaxassis uchun zarur boʻlgan ixtisoslikka doir chuqur ta’lim berishni oʻz ichiga oladi.[16] Shuningdek, oliy ta’lim muassasasida innovatsiyalar ilmiy-uslubiy, fanlar mazmunidagi oʻzgarishlar shaklida, tarbiyaviy, boshqaruv yoʻnalishida boʻlishi mumkin.[17] Ushbu muammo bilan bevosita shugʻullangan faylasuf tadqiqotchilar O.V.Kulikova va I.A.Guleylar oliy oʻquv yurtlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida tubdan islohotlar oʻtkazish lozimligini ta’kidlashadi[18].

Yangi rivojlanish bosqichida oliy oʻquv yurtlari faoliyatini oʻrganish natijasida xulosa qilish mumkinki, oliy ta’limda innovatsion jarayon bir qator yoʻnalishlarda amalga oshiriladi.

Birinchidan, mehnat bozorida talab qilingan oliy ma’lumotli kadrlar, zamonaviy mutaxassislarning malakasini oshirish.

Ikkinchidan, oliy ta’lim sohasida ishlaydigan mutaxassislarning malakasini oshirish, tizimda faoliyat yuritayotgan ilmiy pedagogik kadrlar, professor-oʻqituvchilarning attestatsiyasini oʻtkazish.

Uchinchidan, fundamental va amaliy loyihalar mavzusida, bugungi ijtimoiy-iqtisodiy amaliyot, fuqarolik jamiyati institutlari talablariga mos boʻlgan yoki ular faoliyati uchun zarur boʻlgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish.

Toʻrtinchidan, talabalar, magistrantlar, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar va yosh oʻqituvchilarni tanlagan yoʻnalishlari boʻyicha ilmiy tadqiqot ishi olib borish metodikasiga oʻqitish, ushbu sohaga doir faoliyat yuritish boʻyicha kasbiy malakasini oshirish zaruriyati vujudga keladi.

Beshinchidan, innovatsiyalar mazmuni va mohiyatiga doir dunyoviy bilimlarni talabalar va tinglovchilar orasida yangi pedagogik texnologiyalar asosida tarqatish.

Oliy ta’lim muassasalari huzurida bunday yoʻnalishdagi tizimlarning shakllantirilishi innovatsiyalarni muntazam amaliyotga joriy etish, yuqori texnologik jabhalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, ilm-fan yoʻnalishlarini rivojlanishini ta’minlashga qaratilgandir. Bu jarayon milliy universitetlar tizimi va ta’limini jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoriga olib chiqishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birgalikda qayd etish kerakki, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimi, ta’lim muassasalarini rivojlantirishda viloyatlar kesimiga ham e’tibor berish kerak. Viloyatlarda joylashgan ta’lim muassasalari, universitetlar ta’lim sohasida innovatsiyalarni joriy etishga faol kirishishlari zarur. Ta’kidlash lozimki, innovatsiyalarni oliy ta’lim muassasalariga kiritish, oliy ta’limning yangi modelini amaliyotga joriy etish imkoniyatini shakllantiradi va uning tashkiliy jihatdan rivojiga asos boʻladi.

Ilm-fan va texnika yutuqlarini amaliyotda keng qoʻllagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish yangi davrda mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Mamlakatimizning jahondagi yetakchi davlatlar qatoriga kirish yoʻlida tez va sifatli ilgarilashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda faoliyatni amalga oshirish zaruriyatini ilgari suradi. Shu bilan birga, oʻtkazilgan falsafiy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlarda kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgan. Ayrim sohalarda innovatsiyalarga oid koʻrsatkichlarning mavjud emasligi va ilmiy tadqiqot ishlari samarali muvofiqlashtirilmaganligi sababli mamlakatimiz soʻnggi yillarda nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmayapti. Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining ilmiy muassasalar bilan oʻzaro hamkorligi darajasi pastligi, vazirlik va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining innovatsion rivojlanish sohasidagi faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmayotgani bu boradagi birinchi navbatdagi maqsadlarga erishish imkonini bermagan[19].

Oʻzbekistonning davlat siyosati ta’lim sohasida innovatsion mazmundagi tizimni shakllantirishga, yuksaltirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, yangi rivojlanish bosqichiga mos boʻlgan fuqarolar va raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash hamda tayyorlashga qaratilgandir. Hozirgi davrda jahondagi rivojlangan oliy ta’lim tizimi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori texnologiyalarga, ilmiy ishlanmalarga, innovatsion fikrlarga asoslangan. Ushbu maqsadlarning amalga oshishida ilm-fan, yuqori texnologiyalar sohasidagi malakali kadrlar tarkibi muhim rol oʻynaydi[20].

Oʻzbekiston ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri fuqarolik jamiyati talablariga mos boʻlgan takomillashgan ta’lim modelini yaratishdir. Ta’kidlash lozimki, shaxs jamiyatdagi obroʻsiga, ijtimoiy mavqeiga olgan bilimi, shaxsiy qobiliyati, kasbiga xos boʻlgan koʻnikmalarga egaligi tufayli erishadi. Shu munosabat bilan qayd etish lozimki, mamlakatimizda har bir fuqaroning ta’lim olishi, kelajakda zarur mutaxassis boʻlib yetishishi va mavjud dunyoviy bilimlarini amaliyotda namoyon qilishlari uchun imkoniyatlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlaridan yana biri axborotlashgan jamiyat, innovatsion taraqqiyot talablariga mos sur’atda shaxsning oʻz-oʻzini rivojlantirishi, uzluksiz

ta’lim bilan shug‘ullanishiga doimiy e’tiborda bo‘lishidir[21]. O‘tkazilayotgan demokratik islohotlar natijasida ijtimoiy sohada tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, innovatsion tizimga asoslangan ta’lim tizimi shakllantirilmoqda, malakali kadrlar tayyorlashning yangi bosqichiga kirishildi. Ushbu jarayonning nazariy, amaliy asosini mamlakat aholisining 100 foizi savodli ekanliligi tashkil etadi. Shuningdek, hozirgi davrdagi ta’lim tizimi o‘zining uzluksizligi bilan ajralib turadi. Mavjud oliy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyatini beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatida rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishiga asos bo‘la oladi.

Mamlakatimizda shakllanayotgan barkamol avlod vakillarining ilm-fan sohasida erishayotgan yutuqlari, ularning turli fanlar bo‘yicha yaratayotgan kashfiyotlari, zamonaviy innovatsion texnologiyalarga oid loyiha va ishlanmalari hozirgi innovatsion taraqqiyotga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri, unga muntazam innovatsion yondashuv talab qilinadi. Bu jarayonning ta’limda ijobiy hal etilishi bozor iqtisodiyoti munosabatlari chuqurlashuvi sharoitida yana-da dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda jamiyatning zamonaviy dunyoqarash, yuksak iqtidorga ega, raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsata oladigan, malakali kadrlar tayyorlanishiga ham ijtimoiy talab muntazam oshib borishi kuzatiladi. Bunday sharoitda ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ijobiy islohotlarni yana-da kuchaytirish, jamiyatning ta’lim bilan bog‘liq bo‘lgan sohalari o‘zaro hamkorligini kengaytirishga e’tibor berish zarur. Ushbu sharoitda ta’limni, boshqaruvni takomillashtirish, jamiyatning yangi rivojlanishi sharoitida zamonaviy ixtisosliklar, mutaxassislik va kasbiy yo‘nalishlarni tashkil etish inson omiliga e’tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Yuqori ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash jamiyatdagi joriy muammolar yechimida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasalari vakillari hamda mahalliy boshqaruv tizimi mutasaddilari, xalqaro ekspertlar ishtirokida zarur ixtisosliklarga bo‘lgan ijtimoiy talabni o‘rganish, tahlil qilish orqali zarur mutaxassisliklar aniqlanadi. Ushbu ijtimoiy zaruriyat muammoning yechimiga ilmiy yondashuvdagi muhim shakl hisoblangan ilmiy loyihalar, ya’ni ushbu mavzuning amaliy, nazariy metodologik tadqiqotlar asosida yechimini topish ham ta’limdagi vazifa sifatida ko‘radi. Bu sohadagi tashkiliy, loyihalashtirish, ilmiy tadqiqot ishlar ko‘lamining kengayishiga mamlakatimiz xalqaro aloqalarining muntazam oshib borayotganligi, madaniy va iqtisodiy munosabatlarda tobora yangi sohalarning, jumladan, xalqaro turizmning rivojlanayotganligi sabab bo‘lmoqda. Ushbu jarayonda mutaxassislar tayyorlashga yangicha yondashuvni, ya’ni chuqurlashayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitidagi tez o‘zgaruvchanlik xususiyati, jamiyatdagi subyektlar orasida raqobat tobora murakkablashayotgan davrda oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning umumiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligi, ma’naviy, axloqiy dunyosiga bo‘lgan ijtimoiy talabning oshib borayotganligini e’tiborga olish dolzarb hisoblanadi.

Ta’limdagi innovatsiyalardan kutilayotgan asosiy maqsad bo‘lajak mutaxassislarning o‘zligini va o‘zi yashab turgan dunyosini yuqori darajada anglaydigan, o‘zini malakali mutaxassis sifatida his etadigan, jamiyat sohalarini takomillashtirish jarayonida ishtirok etayotgan kishilardan iborat yangi kadrlar zamonaviy tushunchalar tizimini qayta tashkil qilish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarini tamomlayotgan, jamiyat taraqqiyotiga ilmiy nazar sola oladigan, malakali kadrlar korpusi taraqqiyotning yangi davriga xos bo‘lgan fikr yuritishga qodir mutaxassislar avlodiga mansub bo‘la oladi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari koʻrsatadiki, oliy taʼlim tizimida oʻqitishni tashkil etish jarayoni, taʼlim berayotgan professor-oʻqituvchilar tomonidan fan mazmunini yetkazish va taʼlim olayotgan talabalar oʻzlashtirishi hamda ularning bilimini toʻgʻri baholash tizimi kutilgan natijalarni bermayapti. Shuningdek, oʻquv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasida taʼlim dasturlari mazmuni va ularni yangilab borish surʼatlari hozirgi davrda izchil rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining oʻzgaruvchan talablariga javob bermaydi. Professor-oʻqituvchilarning oʻz ustida doimiy ishlamaganligi, bilimi, pedagogik koʻnikmasi va mahoratining pastligi, innovatsion taʼlim texnologiyalaridan foydalanmaganligi bitiruvchilarning buyurtmachi (ish beruvchi) talabiga javob bermasligiga olib keldi. Oliy taʼlim muassasalariga talabalarni qabul qilishni rejalashtirishning maqbul mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi natijasida mehnat bozori va taʼlim xizmatlari bozori oʻrtasida nomutanosiblik kelib chiqdi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida taʼkidlash lozimki, innovatsiyalar chuqur ijtimoiy falsafiy jihatdan mushohadani talab qiladigan, rivojlanish jarayonida, muayyan oʻzgarishlarga sabab boʻladigan muammodir. Innovatsiyalarning muhim ijtimoiy oʻrnini anglash jarayoni ularning vujudga kelishi, shakllanishini bilish, shuningdek innovatsion faoliyatni boshqarishga taʼsir koʻrsatish uchun ularning mohiyatini tushunish zaruriyatini ilgari suradi. Bunday holat innovatsiyalarning turli yoʻnalishlari mohiyati, maqsadiga, jamiyatdagi zarurligiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining soni ortib borayotganligi bilan ham ajralib turadi. Qayd etish lozimki, falsafiy tadqiqotlar mavzusida nashr etilgan ilmiy ishlar tahlili tasdiqlaydiki, yangi rivojlanish bosqichida innovatsion rivojlanish muammosining ijtimoiy falsafiy, nazariy jihatlari chuqur tahlil etilmagan va natijada “innovatsion rivojlanish” tushunchasiga umumiy ilmiy izoh berilmagan.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Советский энциклопедический словарь. Москва, 1983, с.493,894..
2. Tojaliyev A. Innovatsion rivojlanish va kadrlar tayyorlashning milliy tizimi monografiya Farg’ona - 2022 20 bet.
3. Хакимов Н.Х., Р.Х.Рузиева. Реформирование науки и высшего образования как важный фактор в поддержки активного предпринимательства, инновационных идей и технологий.Узбекистан на пути к инновационному развитию. Сборник научных трудов. Ташкент, 2018, стр.25-27.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "Oʻzbekiston”, Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish toʻgʻrisida"gi PF-5264-son Farmoni**.** Qonun hujjatlari toʻplami. 29.11.2017
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. https://president.uz/uz/lists/view/2228
7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. https://president.uz/uz/lists/view/2228
8. Костюкевич С. В. Инновации: подход современных западных авторов в контексте российского опыта / С. В. Костюкевич // Alma mater. – 2011. – № 4. – С.69.
9. Владимиров А.И. Об инновационной деятельности вуза / А.И. Владимиров. – М.: ООО «Издательский дом Недра», 2012. – 72 с.

10. Владимиров А.И. Об инновационной деятельности вуза / А.И. Владимиров. – М.: ООО «Издательский дом Недра», 2012. – 72 с.
11. Жак Ашенбройх. Революционные фундаментальные инновации. Состояние инноваций в 2016. stateofinnovatijn.som
12. Altbach P.G., Peterson P.M. Higher Edisation in the New Century // Global Challenges and Innovative Ideas. – Rotterdam: Sense Publishers, 2007. -pp.61-65.
13. Sturgeon T.J. How Silison Valley Same to Be. In Uniderstanding Sitison Valley: the Anatomy of an Entiepreneurial Region. Stanford, SA: Stanford University Press, 2005. -pp 16-19.
14. Портер М. Конкуренция / Пер. с англ. — М.: ИД «Вильямс», 2005. — С.43—45.
15. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. М.: Прогресс, 1983. Стр.278-285.
16. Innovation Policy and the Esonomy, Volume 5, National Bureau of Esonomic Research, Adam B. Jaffe, Josh Lerner, and Ssott Stern: The MIT Press, Sambridge, Massachusetts – 2005. Strategy& 2015 Global Innovation 1000 survey data and analysis. www.strategyand.pwc.som
17. Цигляев В. А. Теоретические основы интеграции вузовской науки в национальную инновационную систему. http://koet.syktsu.ru/vestnik/2011/2011-2/15/15.htm
18. Латуха О. А. Инновационная деятельность современного вуза: тенденции развития / О. А. Латуха, Ю. В. Пушкарев // Вестник Новосибирского государственного педагогического университета. – 2012. – Т. 8. – № 4. – С. 44-50.
19. Ложенко Н. О. Инновационная деятельность как тенденция развития высшей школы в России / Н. О. Ложенко // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Социология. Политология. – 2010. – Т.10. – № 4. – С. 51-53.
20. Корнеенков С. С. Инновационные психолого-педагогические технологии обучения и саморазвития личности / С. С. Корнеенков // Вестник ЧитГУ. – 2012. – № 5.
21. Куликова О. В. Особенности инновационной модели высшего образования [Электронный ресурс] / О. В. Куликова, И. А. Гулей // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6. – URL: http://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-innovatsionnoy-modeli-vysshego-obrazovaniya (дата обращения: 01.12.2016)
22. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.09.2018 й., 06/18/5544/1951-сон
23. Гришин В.И. Тендем науки и образования источник экономического роста. XXX Международнқе Плехановские чтения.Материалы Международной научно практической конференции. Москва, ФГБОУ ВО им.Г.В.Плеханова, 2017, с.3.
24. Абдурахманов К.Х. Модернизация образовательной политики основное звено в подготовке профессиональных кадров. XXX Международные Плехановские чтения.Материалы Международной научно практической конференции. Москва, ФГБОУ ВО им.Г.В.Плеханова, 2017, с.6.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*09.00.00- Фалсафа фанлари*

**Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna**
Muhammad al - Xorazmiy nomidagi TATU "Gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
ORCID 0000-0003-0847-9901, sagdullaeva.76@mail.ru
tel.: 99 003 46 18

## FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada inson huquqlarining ustuvorligi asosida yoshlarda ijtimoiy faollikni oshirish masalalarini oʻrganishni maqsad qildik. NNT faoliyati orqali ijtimoiy faollikni oshirish omillari tizimli tahlil, qiyoslash, umulashtirish, deduksiya kabi metodlar yordamida oʻrganildi. Maqolada NNTning muvaffaqiyatli faoliyati jamiyatda demokratik tamoyillar amal qilishi, fuqarolar ijtimoiy faolligi ortib borishiga olib kelishi asoslandi.

**Kalit soʻzlar**: liberallashtirish, demokratlashtirish, modernizatsiya, jamiyat, erkinlik, ijtimoiy faollik, siyosat, huquq, madaniyat, fuqarolik jamiyati.

**Сагдуллаева Дилбар Шухратовна**
Кандидат философских наук, доцент кафедры "Гуманитарные науки" ТУИТ имени Мухаммада ал-Хоразми

## ИНСТИТУТЫ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация.** В данной статье мы поставили задачу изучить вопросы повышения социальной активности молодежи на основе приоритета прав человека. В статье проанализированы факторы повышения социальной активности посредством ННО с использованием таких методов как системный анализ, аналогия, обобщение, дедукция. Утверждалось, что успешная деятельность ННО ведет к реализации демократических принципов в обществе, повышению политической и правовой культуры, а также социальной активности граждан.

**Ключевые слова:** либерализация, демократизация, модернизация, общество, свобода, социальная активность, политика, право, культура, гражданское общество.

**Sagdullaeva Dilbar Shukhratovna**
Candidate of Philosophy, Associate Professor of the Department of Humanities, TUIT named after Muhammad al-Khwarizmi

## INSTITUTIONS OF CIVIL SOCIETY AS A FACTOR OF INCREASING SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH

**Abstract.** In this article, we have set the task to study the issues of increasing the social activity of young people based on the priority of human rights. The article analyzes the factors of increasing social activity through NGOs using such methods as system analysis, analogy, generalization, deduction. It was argued that the successful activity of NGOs leads to the implementation of democratic principles in society, the increase as well as social activity of citizens.

**Key words:** liberalization, democratization, modernization, society, freedom, social activity, politics, law, culture, civil society.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N19

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotini demokratlashtirish va erkinlashtirish maqsadi fuqarolarning siyosiy, huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, bu orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish zaruriyatini taqozo etmoqda. Ushbu jarayonlarning natijasi oʻlaroq iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, maʼnaviy va boshqa sohalarda sifat jihatdan yangi nodavlat munosabatlari rivojlanib bormoqda. Bularning barchasi demokratiyaning tabiiy poydevori hisoblanmish jamoat tashkilotlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari (NNT) kabi fuqarolik jamiyati institutlari rivojini taqozo etadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda yoshlar asosiy kuch hisoblanadi. Yoshlar muayyan jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti darajasi, undagi ijtimoiylashuvning xususiyatlari bilan aniqlanuvchi oʻziga xos sotsial holat, ijtimoiy ruhiy xususiyatlar, yoshga oid tavsiflar bilan farqlanuvchi ijtimoiy demokratik guruhdir. Yoshlarning ijtimoiy ruhiy xususiyatlari, odob axloqi, madaniy xulq atvori, taʼlimining oʻziga xosligi hamda ijtimoiylashuv jarayonlari ularga sotsial birlik sifatida birlashish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar**. Mamlakatimizda amal qilayotgan “Taʼlim toʻgʻrisida”gi [1], “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida” [2] Oʻzbekiston Respublikasining qonuni, Oliy taʼlim tiziminni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi [3] asosida davlat tomonidan barkamol avlodni tarbiyalash boʻyicha olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yoʻnalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini taʼminlash, ular ijtimoiy faolligini oshirishdan iboratdir. Prezidentimiz maʼruzalarida taʼkidlanganidek, bosh maqsadimiz yurtimizda yashayotgan har bir inson erkin, tinch va badavlat umr kechirishiga erishish, “yoshlarimizga munosib taʼlim berish, ularning ilm-fanga boʻlgan intilishlarini roʻyobga chiqarish”[4]dir. Bu esa fuqarolarning manfaat va ehtiyojlarini har jihatdan qondirish maqsadini koʻzlovchi biz barpo qilayotgan fuqarolik jamiyati bilan hamohangdir.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni rivojlantirishning muayyan bosqichlarida bir qator muhim qaror va qonunlar, jumladan, “Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga koʻmaklashish borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi OʻzR Prezidentining qarori [5], “Ijtimoiy sheriklik toʻgʻrisida”gi [6], “Parlament nazorati toʻgʻrisida”gi [7], “Davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi toʻgʻrisida”gi [8] OʻzR qonun hujjatlari qabul qilindi. Ular NNTlar faoliyatini rivojlantirish bilan birga, uchinchi sektorning davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklik asosida hamkorlik qilishi, tabiatni muhofaza qilish ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatishi, davlat organlari faoliyatining ochiqligini taʼminlash masalalari boʻyicha huquq va imkoniyatlarini kengaytirdi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali va erkin faoliyat koʻrsatishi uchun bir qancha imtiyozlar berildi. Biroq, NNTlar faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanib borilayotgan bugungi kunda ularga oid qonunchilik meʼyorlarini

amaliyotga tatbiq qilishga doir bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Shuningdek, "aholining muammolarini tizimli oʻrganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti ogʻir ayollarni qoʻllab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar oʻrtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan taʼminlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti"[9]. Ushbu holat NNTlar faoliyati, imkoniyatlari doirasini chuqurroq oʻrganish zaruriyatini namoyon etadi.

NNTlarni atroflicha tadqiq etgan mutaxassislar fikricha, nodavlat uyushmalari va jamoat tashkilotlari fuqarolarga eng yaqin, ularning qiziqish va manfaatlarini toʻliq ifoda eta oladigan ixtiyoriy birlashmalardir. Aynan shu nuqtai nazardan, ular davlat hokimiyati bilan xalq oʻrtasidagi vositachi institut sifatida qaraladi [10, 18 ].

A.Saidov fikriga koʻra, NNT zamonaviy demokratiya sharoitida vositachi, bogʻlovchi boʻgʻin emas, balki hukumat nazoratchisi boʻlib hisoblanadi. "Nodavlat notijorat tashkilotlari davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatadi va davlat hokimiyati oʻzining uzoq yillik hukmronligini taʼminlashni xohlasa, bu tashkilotlar kayfiyatiga qarashi lozim. Nodavlat notijorat tashkilotlari hukumatning barometri boʻlishi zarur. Ularga qarab, hukumat – xalq tomonidan davlat hokimiyati xatti-harakati qanday qabul qilinayotganligini aniqlashi shart" [11, 144].

Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat, fuqarolik institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmi boʻlib xizmat qiluvchi "Oʻzbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida"gi Qonunning qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega.

"Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida"gi OʻzR qonuniga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda roʻyxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subʼektlaridir [12]. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanib borilmoqda.

**Natijalar va muhokama.** Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, fuqarolik jamiyati instituti sifatida NNT nafaqat jamoatchilik fikrini ifodalashi, balki erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ularni shakllantirishi ham shartdir. Demak, NNT hukumat ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatish orqali xalqni jamiyatni boshqarish ishlariga jalb eta oladi.

Demokratiya sharoitida fuqaro ega boʻladigan erkinliklar uning manfaatlari doirasini yanada kengaytiradi. Natijada jamiyatda yuzaga kelayotgan manfaatlar shunchalik koʻp va xilma-xil boʻladiki, birgina davlatning oʻzi ularning barchasi haqida maʼlumotga ega boʻla olmaydi. Ijtimoiy manfaatlarning turli-tumanligi vakillikning hamda shaxsiy, guruhiy manfaatlarni himoya qilishning oʻziga xos mexanizmlarini talab qiladi. Aynan shular turli jamoat tashkilotlari vujudga kelishining, hamda ular faoliyati orqali fuqaro faolligi oshishining asosiy sababi hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda yoshlar asosiy kuch hisoblanadi. Yoshlar muayyan jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti darajasi, undagi ijtimoiylashuvning xususiyatlari bilan aniqlanuvchi oʻziga xos sotsial holat, ijtimoiy ruhiy xususiyatlar, yoshga oid tavsiflar bilan farqlanuvchi ijtimoiy demokratik guruhdir. Yoshlarning ijtimoiy ruhiy xususiyatlari, odob axloqi, madaniy xulq atvori, taʼlimining oʻziga xosligi hamda ijtimoiylashuv jarayonlari ularga sotsial birlik sifatida birlashish imkonini beradi.

Jamiyatda ijtimoiy erkinlikning mavjud boʻlishi – jamoat tashkilotlari tashkil topishining birinchi shart-sharoitidir. Soʻz erkinligi va u bilan bogʻliq fuqarolarning yuqori darajadagi xabardorligi jamoat tashkilotlari mavjud boʻlishining shartidir.

Bizningcha, ijtimoiy erkinlik insonning kamol topishi uchun, uning oʻzligini anglashi, oʻz imkoniyatlarini reallikka aylantirishi uchun yordam beruvchi ijtimoiy makondir. Inson oʻz maqsad-muddaolarini roʻyobga chiqarish, jamiyat oldidagi burchini bajarishga mas’ullik bilan yondoshib, bunga atrofdagilarni ham chorlar ekan, ixtiyoriy tanlash, irodaga ega boʻlish, bajarish uchun erkin muhitga ega boʻlishi zarurdir. Bu jarayonda har bir fuqaro oʻz fikrini erkin bayon eta olishi, axborot tarqatuvchi barcha manbalardan foydalana olishi oʻz hayotiy ideallaridan kelib chiqib, mavjud ijtimoiy muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yoʻllarini topishiga koʻmaklashib, fuqaroning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Fuqaro faoliyatining himoyasi esa, uning huquqiy kafolati, u uyushib yashayotgan ijtimoiy tuzilmani tartibga solish yuzasidan oʻrnatilgan qat’iy qonunchilik bazasi yordamida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa islohotlarning tadrijiyligi, ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yoʻnalishlarini belgilashda manfaatlar muvozanatini ta’minlovchi mexanizmni barpo etish, barcha sohalarda liberallashuv jarayonlarining jadallashuvi fuqarolar siyosiy-huquqiy bilimi, madaniyati, foalligiga koʻp jihatdan bogʻliq.

Kishilarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi jarayoni, oʻz navbatida, ular huquqiy madaniyatini takomillashtirishni nazarda tutadi. “Xalqimizning siyosiy va huquqiy tafakkurida yuz berayotgan chuqur oʻzgarishlar, - deb ta’kidlaydi I.Karimov, - yuksalib borishi bilan mamlakatni isloh qilish boʻyicha biz tanlagan modelning mantiqiy davomi yurtimizni demokratik yangilash uchun yangi vazifalarni, fuqarolarimizning davlat boshqaruvidagi rolini oshirishni taqozo etmoqda” [13;31]. Bu jarayon NNT, jamoat tashkilotlari, oʻzini – oʻzi boshqarish organlari, OAV ta’sirida amalga oshmoqda.

Demak, NNTni rivojlantirishdan maqsad – jamiyat a’zolarining manfaatlari muvozanatini ta’minlash va himoya qilishdir. Siyosiy va ijtimoiy sohada esa davlat tizimlariga muqobil kuch sifatida ular adolat tarozini hayotda hukmronlik qilishiga hissa qoʻshishlari lozim.

Bugungi kunda demokratik jamiyatni barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy faollikni oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda fuqarolik jamiyati institutlarining oʻrni va roli beqiyos ortib bormoqda. Zero, jamiyatimiz tuzilmalarida muvozanatni saqlaydigan kuchli ommaviy, jamoat birlashmalari boʻlmas ekan, davlat hokimiyatining barcha boʻgʻinlarida oʻzboshimchalik, volyuntarizm, avtoritar tafakkur va boshqaruv apparatining korruptsiyasi singari illatlar paydo boʻlmasligiga jiddiy kafolat ham boʻlmaydi.

NNT jamiyatni oʻzini oʻzi uyushtirish va tartibga solishining muhim omili boʻlib, ularning amal qilish mexanizmlari aniq ishlab chiqilgan taqdirdagina fuqarolik jamiyati fuqaroning haqiqiy erkinligini ta’minlab bera olishi, jamiyatda demokratiya real amal qilishi mumkin boʻladi. Shu asosda NNT aholini huquqiy me’yorlarni ishlab chiqishda va amaliyotda qoʻllashda keng koʻlamda ishtirok etishiga jalb eta oluvchi kuch boʻlib maydonga chiqib, davlat va fuqaroning oʻzaro mas’ulligini ta’minlaydi.

NNTning fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli ularning bajaradigan vazifalarida yaqqol namoyon boʻladi. Ular qaysi maqsadni koʻzlashidan qatʼi nazar eng asosiy vazifasi davlat hokimiyati institutlarini shakllantirish va davlat hokimiyati faoliyati ustidan ijtimoiy nazoratni oʻrnatishdan iboratdir. Bu jarayonda siyosiy partiyalardan farqli ravishda NNT hokimiyatga bevosita taʼsir koʻrsatmay, balki bavosita taʼsir koʻrsatish imkoniga egadir. Qonunga binoan, ular siyosiy partiyalar kabi hokimiyatning vakillik organlariga oʻz nomzodlarini koʻrsatish huquqiga ega emas. NNT davlat tuzilmalarini egallashga intilmaydi, balki hokimiyatga taʼsir oʻtkazish bilan cheklanadi.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, NNT quyidagi huquqlarga egadir: oʻz aʼzolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish; davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish [14, 63].

Bizningcha, NNTning qonunda mustahkamlangan ushbu huquqlari ular funktsiyalarining toʻlaqonli bajarilishi uchun asos boʻlib, aholi siyosiy-huquqiy madaniyati darajasini takomillashtirishga koʻrsatuvchi taʼsiri bilan ham hamohangdir.

Jamoat tashkilotlari, NNT ijtimoiy munosabatlar holatidan, fuqaro manfaatidan kelib chiqib, ularni tartibga solishga qaratilgan huquq meʼyorlarini ishlab chiqishda va roʻyobga chiqarishda hamda ularning amal qilish mexanizmida keng ishtirok etadi. Natijada unga muvofiq ijtimoiy fikr shakllanadi. Ushbu tashkilotlar doirasida barqaror, jamoaviy aloqalarni oʻrnatish uddasidan chiqilsa, ularda oʻz maqsadlariga erishish imkoniyatlari shunchalik darajada ortadi. NNT oddiy fuqarolarning bir maqsadga yoʻnaltirilgan uyushmasi sifatida ular hayotidagi muammolarni qonun yordamida, unga muvofiq boʻlgan huquq meʼyorlarini ishlab chiqilishiga erishib, hal eta oladi [15].

Shu asosida NNT qonunga itoatkorlik, fuqaroning mavjud huquq meʼyorlaridan oʻz manfaatlari yoʻlida foydalana olish koʻnikmasi, ularni amaliyotda qoʻllash mahorati oʻsib, takomillashib borishiga turtki beradi. NNTning ushbu yoʻnalishdagi muvaffaqiyati jamiyatda demokratik tamoyillar amal qilishida, fuqarolar faolligi, siyosiy- huquqiy madaniyati takomillashib borishida koʻrinadi. “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kontseptsiyasi”da [16] fuqarolik jamiyatining huquqiy madaniyat darajasi jamoat birlashmalari, jamgʻarmalar, ittifoqlar, uyushmalar, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarining keng tarmogʻi mavjudligi hamda bu demokratik tuzilmalarning muayyan shaxs va jamiyatning huquqlarini taʼminlashdagi ijtimoiy faolligi bilan belgilanishi koʻrsatilgan.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, NNT hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning oʻz salohiyatlarini roʻyobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sosial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga koʻmaklashmoqda.

Butun dunyoda Ombudsman instituti fuqarolar shikoyatlarini suddan tashqarida koʻrib chiqadigan qoʻshimcha institut sifatida nafaqat ayrim adolatsizlik hollarining oldini olishga, balki hokimiyat idoralari faoliyati mexanizmidagi kamchiliklarni bartaraf etishga, ishini yanada samaraliroq qilishga imkon yaratib, huquqiy davlat maqsad va vazifalariga erishishga koʻmaklashadi va shu tariqa fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga yordam beradi. Demokratiyaning inson huquq va erkinliklarining ustunligi kabi muhim

belgisining haqiqiy tafsiloti va mazmunini aniqlash, fuqarolar huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish va amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish Ombudsmanning vazifasi hisoblanadi. Ammo, bu boradagi yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar mavjudligini ham qayd etish lozim.

Birinchidan, aholi huquqiy savodxonligi yetarli darajada emas. Inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat va NNT bilan aholi oʻrtasidagi munosabatni mustahkamlashda fuqarolar huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik institutlar xalqimizning mentalitetini, madaniyatining oʻziga xos jihatlarini aks ettirishi lozim. Siyosiy munosabatlarda ham u uchun ma'rifatga, ilmga, adolatga, qonunga itoatkorlikka, axloqiylik, ma'naviylikning ustunligiga intilish xosdir.

Ikkinchidan, mahalliy aholining biror bir masala yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmasligi. Fuqaro koʻpincha mavjud vaziyatga koʻnikishga, murosaga kirishishga odatlangan.

Uchinchidan, bugungi oʻtish davrida fuqarolar tashabbusi bilan tuzilgan inson huquqlarini himoya qilishga yoʻnaltirilgan NNT siyosiy hayotga, qonun ijodkorligi jarayoniga ham uning ijrosiga ham ta'sir eta olishiga ishonchsizlik ustunlik qilmoqda. Demak, olib borilayotgan demokratik islohotlarning samaradorligi fuqaro, mansabdor shaxslarning huquqiy madaniyatini oshirib borilishini taqozo etadi. Fuqaro ishonchsizligini, ijtimoiy munosabatlarga nisbatan beparvoligini yengish muhim ahamiyatga egadir.

Demak, jamiyatda qonunning hamma uchun barobarligi, ustuvorligi davlat va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan ta'minlangan taqdirdagina aholida yangicha tafakkur tarzi, huquqni yangicha idrok etish qaror topib, huquqiy-siyosiy madaniyat takomillashib, ijtimoiy faollik oʻsib boradi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, NNT ijtimoiy fikrga ta’sir koʻrsatishda katta imkoniyatlarga ega boʻlib, bu jarayonda ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali targʻibot tashviqot ishlarini olib borish, axborot almashinishni tashkil etishda muhim rolь oʻynaydi. NNTning oʻz faoliyati toʻgʻrisida axborot tarqatish, ommaviy axborot vositalarini ta’sis etish hamda noshirlik faoliyatini amalga oshirish kabi huquqlaridan mohirlik bilan foydalana olishi jamiyat hayotini demokratlashtirishda, xususan aholi siyosiy-huquqiy madaniyati takomillashib, ijtimoiy faolligi ortib borishida katta ta’sir kuchiga ega. Demak, NNTning keng quloch yoyishi nafaqat inson huquqlarini himoya qilish mexanizmining samaradorligi ortishiga, balki davlat va fuqaro orasida huquq va majburiyatlar asosida barqaror aloqalar tizimi shakllanishiga olib keladi. Jamiyatda NNT qanchalik faollashsa, “hokimiyat - jamoatchilik - xalq”, oʻzini oʻzi boshqarish tizimi tobora takomillashadi, mustahkamlanadi hamda bu jarayonda fuqarolarning yuksak huquqiy madaniyati asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanadi. Shu tariqa fuqarolik jamiyati institutlari yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. “Ta’lim to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni //«Xalq so’zi», 2020 yil 23 sentyabr. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" // "Word of the People", September 23, 2020.)

2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni //«Xalq so’zi», 2016 yil 15 sentyabrь. №182 (6617).( Law of the Republic of Uzbekistan "On State Policy Regarding Youth" // "People's Word", September 15, 2016. #182 (6617))
3. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон; (The concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 // National database of legal documents, 09.10.2019, No. 06/19/5847/3887;)
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // «Xalq so’zi», 2018 yil 28 dekabr.(Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis // "Word of the People", December 28, 2018.)
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko’maklashish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» 2013 yil 12 dekabrdagi PQ-2085-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida// O’zR qonun hujjatlari to’plami, 2014 yil.11(615)-son, 126-modda. (On measures to implement the decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to support the development of civil society institutions" dated December 12, 2013 PQ-2085// Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2014 year. No.11(615), Article 126.)
6. “Ijtimoiy sheriklik to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni //O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014 y., 11-son, 339-modda. (The Law of the Republic of Uzbekistan "On Social Partnership" // Bulletin of the Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2014, No. 11, Article 339.)
7. “Parlament nazorati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni// O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016 y., 5-son, 149-modda. ( Law of the Republic of Uzbekistan "On Parliamentary Control"// Bulletin of the Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2016, No. 5, Article 149.)
8. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2015 y., 45-son, 575-modda. (Law of the Republic of Uzbekistan "On the Openness of the Activities of State Power and Management Bodies" // Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2015, No. 45, Article 575.)
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaati // «Xalq so’zi», 2017 yil 23 dekabr. (10. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis // "People's word", December 23, 2017.)
10. Tangriev L. Mustaqillik va jamoat tashkilotlari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2000. – 18-bet. (11. Tangriev L. Independence and public organizations. - Tashkent: New age generation, 2000. - p. 18.)
11. Саидов А.Х. Особенности развития институтов гражданского общества в Узбекистане // “Современный опыт общественно – политической модернизации и вопросы обеспечения стабильности”. - Тошкент: Академия, 2007. –С.18-19. (Saidov A.Kh. Features of the development of civil society institutions in Uzbekistan // “Modern experience of social and political modernization and issues of ensuring stability" - Tashkent: Academy, 2007. - P.18-19.)
12. “Jamoatchilik nazorati to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni // «Xalq so’zi», 2018 yil 13 aprel,№73(7031). (The Law of the Republic of Uzbekistan "On Public Control" // "People's Word", April 13, 2018, No. 73(7031).)
13. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz // Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz.17-jild.-Toshkent:O’zbekiston, 2008. 31-bet. (Karimov I.A. Ensuring gradual and stable development of our country is our highest goal // Ensuring gradual and stable development of our country is our highest goal. Volume 17. -Tashkent: Uzbekistan, 2008. -P. 31)

14. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonuni // O’zR Oliy Majlisining Axborotnomasi. - Toshkent, 1999, -№ 5(1277). - 63-bet. (17. The Law of the Republic of Uzbekistan "On Non-Governmental Non-Commercial Organizations" // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 1999, - No. 5(1277). - page 63.).
15. Сагдуллаева Д. Ш. ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ – КАК ФАКТОР ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА. Инновации в технологиях и образовании: сб. ст. участников XI Международной научно-практической конференции «Инновации в технологиях и образовании», 27-28 апреля 2018 г.Том 4. –С.106-109. (Sagdullaeva D. Sh. LIBERALIZATION IS THE MAIN FACTOR OF DEMOCRATIC ESTABLISHMENT AND OBJECTIVES. Innovation and technology and education: Sat. Art. participants of the XI International Scientific and Practical Conference "Innovations in technology and education", April 27-28, 2018. Volume 4. - P.106-109.)
16. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kontseptsiyasi // QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019 y. (The concept of raising legal culture in society // QHMMB: 06/19/5618/2452-number 10.01.2019.)

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*09.00.00- Фалсафа фанлари*

**Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich**
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
**e-mail:** alfargoniy.uz@gmail.com

## ATROF MUHITGA INNOVATSION MUNOSOBATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada atrof muhitga innovatsion munosobatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tadqiq etilgan. Jahondagi globallashuv davrida odamlarning tabiat bilan o'zaro munosabatlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bir tomondan, miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro aloqadorligi qonuni amal qilib, inson faoliyatining asrlar mobaynida tabiiy resurslardan noratsional foydalanishi, antropogen faoliyati oqibatlari yangicha sifat kasb etdi. Bu ilgari yashovchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan ko'pgina hududlar yaydoq sahroga aylanishida, atmosfera, suv havzalarining halokatga eltadigan tarzda ifloslanishida namoyon bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** atrof muhit, innovatsion munosabat, ekologik madaniyat, ekologik ongli faoliyat, ekologik muammolar, oqilonalik, tabiat va jamiyat munosabatlari tizimi, ijtimoiy mas'uliyat, ekologik ong, ijtimoiy ekologiya.

**Абдумаликов Абдулатиф Абиджанович**
доцент, доктор философских наук (PhD)
Ферганского государственного университета
e-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

## СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ОТНОШЕНИЯ К ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ

**Аннотация.** В данной статье исследуются социально-философские основы формирования инновационного отношения к окружающей среде. В эпоху глобализации в мире произошли серьезные изменения во взаимодействии человека с природой. С одной стороны, применялся закон взаимосвязи количественных и качественных изменений, и последствия нерационального использования природных ресурсов и антропогенной деятельности человека на протяжении веков приобретали новое качество. Это проявилось в том, что многие прежде жизнеспособные территории превратились в пустоши, а атмосфера и водоемы подверглись разрушительному загрязнению.

**Ключевые слова:** окружающая среда, инновационное отношение, экологическая культура, экологически сознательная деятельность, экологические проблемы, рациональность, система отношений природы и общества, социальная ответственность, экологическое сознание, социальная экология.

**Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich**
Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) of
Fergana State University
**e-mail:** alfargoniy.uz@gmail.com

## SOCIAL-PHILOSOPHICAL BASIS OF FORMING AN INNOVATIVE ATTITUDE TO THE ENVIRONMENT

**Abstract.** In this article, the socio-philosophical basis of forming an innovative attitude to the environment is researched. In the era of globalization in the world, there have been serious changes in the interaction of people with nature. On the one hand, the law of interrelationship of quantitative and qualitative changes was applied, and the consequences of irrational use of natural resources and anthropogenic activity of human activity over the centuries acquired a new quality. This was manifested in the fact that many areas that were previously viable have turned into wasteland, and the atmosphere and water bodies have been polluted in a destructive manner.

**Key words:** environment, innovative attitude, ecological culture, environmentally conscious activity, ecological problems, rationality, system of nature and society relations, social responsibility, ecological consciousness, social ecology.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N20

**Kirish.** Hozirgi vaqtda butun quruqlik yuzasining 40% dan koʻprogʻini sahrolar egallagan. Stratosferaning ozon pardasidagi teshiklar, oqava suvlar tashlanadigan “ariqlar”ga aylanib qolgan kichik va katta daryolar vujudga keldi. Ayni vaqtda, sayyora tobora koʻpayib borayotgan odamlarga haddan tashqari tor, “kichkina” boʻlib qoldi. Bugungi kunda quruqlik, suv yoki fazoning inson taʼsiridan xoli boʻlgan bironta ham qismi qolgani yoʻq. Tabiatga salbiy antropogen taʼsir darajasi ortida tabiiy muhit tanazzuli orqaga qaytarib boʻlmaydigan xususiyat kasb etadigan chegaraga yetmoqda. Bunday holat ekologik tanglik sifatida tavsiflanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, tabiiy sistemalar haddan tashqari zoʻriqishi, atrof muhit (suv, havo, tuproq) ifloslanishining muayyan meʼyorlari misli koʻrilmagan darajada buzilishi natijasida tabiiy jarayonlarda muvozanatning buzilishi yuz beradi. Pirovardida ekologik tizimlar doirasida oʻzaro aloqalar va «tabiat jamiyat-inson» tizimining muayyan parametrlari izdan chiqadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tabiatning antropogen zoʻriqishlarni faqat maʼlum meʼyor darajasida bartaraf etishga qodir ekanligini, inson ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayanib anglay boshladi. Tabiiy resurslardan samarali va tejamli foydalanish meʼyorining buzilishi biosferada koʻpincha orqaga qaytarib boʻlmaydigan sifat oʻzgarishlari yuz berishiga sabab boʻladi. Shamol koʻtargan yoki vulqonlar itqitgan chang, oʻrmon yongʻinlaridan yoki yer yuzasiga neftning tabiiy sizib chiqishidan hosil boʻlgan tutun tarzidagi tabiiy ifloslanishni tabiat oʻzi osongina bartaraf etadi. Ammo inson atrof muhitga uning bunday taʼsirlarga qarshilik koʻrsatish tabiiy imkoniyatlaridan bir necha baravar ortiq boʻlgan qoʻshimcha zoʻriqishlarni yaratdi. Inson antropogen faoliyati tufayli yer yuzasi, atmosfera va suv havzalariga tabiiy chiqindilar tarkibidagidan koʻproq miqdorda kimyoviy elementlarni tobora oʻsib borayotgan surʼatlarda tashlamoqda; shuningdek, ularga tabiat inson yordamisiz absorbatsiya qilish (utillashtirish)ga qodir boʻlmagan plastmassa, keramika, shisha kabi koʻp sonli sunʼiy materiallarni qoʻshimcha qilmoqda. Buning oqibatida kimyoviy moddalar bilan zaharlangan dalalar va suv havzalari, ekologik jihatdan toza deb aytish mushkul boʻlgan oziq-ovqat mahsulotlari, shaharlardagi tutun, qurum, kul zarralari, chang, yonilgʻi bugʻi kabilar aralashmasidan iborat zaharlangan havo, axlat, ishlab chiqarish chiqindilari va shu kabilardan koʻtarilgan togʻlar inson borligʻining doimiy hamrohlariga aylandi.

**Tahlil va natijalar.** XX asrning 60 yillarida sovet tuzumining Markaziy Osiyoda paxta yakkahokimligiga intilishi Orol dengizining qurishiga bu esa ekotizimning buzilishiga, Orol boʻyi hududlarida turli kasalliklarning paydo boʻlishi, ekin maydonlarining izdan chiqishiga olib keldi. Shu maʼnoda Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov “Orol inqirozi – insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar falokatlardan biri”[11] deb alohida eʼtirof etgan edi. Sovet

hokimyatining halokatli ekologik siyosati natijasida "Qirq yil mobaynida Orol dengizi akvatoriyasi 7 baravar qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa oʻnlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keltirdi. Natijada barcha hayvonot va nabobot olami tanazzulga uchradi. Bugun Orolboʻyida nafaqat ekologik, balki dunyo miqyosida ogʻir oqibatlarga olib kelishi mumkin boʻlgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo boʻldi"[12]. Darhaqiqat, besh mln gektar Orol dengizining qurigan hududida 10 mln tonna qum 100la kilometrlarga tarqalib, ekologik holatni buzmoqda. Shu bois, Orol boʻyida yashil zonalar, mahalliy kichik suv havzalari tashkil qilinmoqda. XX asrning 70 yillarida Tojikiston hududida ishga tushirilgan allyumin zavodi tutunining atmosferani ifloslantirishi Surxondaryo viloyati hududlarida ekologik muammolarini yuzaga keltirdi.

Inson jamiyatning tabiat bilan munosabatlarida yuz bergan bu shiddatli oʻzgarishlar mohiyatini tushunishga harakat qilar ekan, avvalgidek, yuz berayotgan jarayonlarni ilmiy va falsafiy tahlil qilib, oʻz tafakkuriga murojaat etmoqda. Shu bois butun dunyo, xususan Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun iqtisodiy va fan texnika sohasidagi hamkorligi turli yoʻnalishlarda olib borilmoqda. Jumladan, Orol dengizini qutqarish xalqaro jamgʻarmasi (MFSA) tashkil etildi va uning rejali faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Dunyoda aholi sonining ortishi, iqtisodiyot tarmoqlarining muntazam rivojlanishi natijasida tabiiy resurslardan foydalanish koʻlami kengayib, unga nisbatan inson faoliyati antropogen bosim miqdori ortib bormoqda. Bu holat, aholi zichligi yuqori, xoʻjalik tarmoqlari intensiv rivojlangan mintaqalarda salbiy ekologik jarayonlarni bir necha barobar keskinlashtirmoqda. Bunday mintaqalarda ekologik barqarorlikni taʼminlash masalasi xalqaro hamjamiyatning alohida eʼtiboridadir.Jumladan, xalqaro hamjamiyatning qator konferensiyalarida(Rio-de-Janeyro, 1992, Yoxannesburg, 2002, Nyu-York, 2015), Parij 2018) insoniyatning yaqinlashib kelayotgan ekologik halokatlardan qutqarish, rivojlanishning barqaror yoʻliga oʻtishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida – «tub joy aholisi foydalanadigan anʼanaviy bilimlar va qadriyatlar, resurslardan foydalanish usullarini eʼtirof etish»zarur ekanligi taʼkidlanmoqda[13].

Jahondagi yetakchi, demokratik davlatlarda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishning iqtisodiy, moliyaviy, texnikaviy, tashkiliy-huquqiy yoʻnalishlari bilan birga ekologik yoʻnalishiga ham alohida ustuvor eʼtibor qaratilmoqda. Jahon xalqlari madaniyatining ajralmas qismi boʻlib, asrlar sinovidan oʻtgan, tabiatdan muvozanatli, unga zarar yetkazmasdan foydalanishga yoʻnaltirilgan anʼana, malaka, talab, odat va taqiqlarni oʻzida mujassamlashtirgan ekologik madaniyatni ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurati paydo boʻlmoqda. Ushbu yoʻnalishda erishilgan yutuqlardan landshaft-ekologik rejalashtirishda, shaharsozlikda-ekologik dizayn usulida loyihalashtirishda, shuningdek, muhofaza etiladigan hududlar toʻrini takomillashtirishda keng foydalanilmoqda.

Mamlakatimizning bugungi ekologik siyosatida, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ilmiy asosda foydalanish, har bir mintaqaning tabiiy sharoitiga mos keladigan va uning imkoniyatlaridan toʻla foydalanishga sharoit yaratadigan ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishga alohida eʼtibor berilmoqda. Shuning uchun ham, «Oʻzbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yana-da rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi»da «atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish»[14] yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Tabiat bilan jamiyat va inson munosobatlari oʻrtasida yuz beradigan oʻzaro aloqadorlik tizimi hozirgi davrga kelganda ancha murakkablashdi. Bu aloqadorlik oʻrnini jamiyatning tabiatga koʻrsatayotgan kuchli taʼsiri va bosimi egalladi. Natijada, tabiatda turli xil ekologik muammolarning kuchayishi va uning ijtimoiy-ekologik muammolarga aylanib borishi kuzatilmoqda. Mazkur muammolar yechimida zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda mahalliy aholining tabiatdan foydalanish anʼanalariga asoslangan ekologik yondashuvning ahamiyati haqida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday yozadi: –«Xalqlarimizning tabiatga uning boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda boʻlish va umumiy suv resurslaridan birgalikda foydalanish borasida koʻp asrlik anʼanalariga suyangan holda biz haqiqatan ham ulkan natijalarga erishamiz»[15]. Bunday yondashuvda ekologik tadqiqotlarning dolzarbligi yana-da ortadi. Global iqlim oʻzgarishi natijasida Markaziy Osiyoda soʻnggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30%ga qisqargan. Tadqiqotlarga koʻra, harorat 20Sga ortganda muzliklar hajmi 50%ga, 40S ga isiganda esa 78%ga kamayadi. Bu jarayon natijasida jumladan, 2050 yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5%ga, Amudaryo havzasida 15%gacha kamayishi kutilmoqda. Oʻzbekistonda 2015 yilgacha boʻlgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 mlrd. m3 dan ortiqni tashkil qilgan boʻlsa, 2030 yilga borib 7 mlrd. m3 , 2050 yilga borib esa 15 mlrd. m3 ni tashkil qilishi mumkin.Respublika hududi oʻziga xos tuproq va iqlim sharoitiga ega boʻlib, tabiiy drenajning yetishmasligi, yer osti suvlari minerallashuvi darajasining yuqoriligi natijasida bir qator hududlar “birlamchi shoʻrlangan”. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik va boshqa antropogen omillarning salbiy taʼsiri natijasida ayrim hududlarda yerlarning “ikkilamchi shoʻrlanishi” kuzatilib, 45,7 foiz sugʻoriladigan yer maydoni turli darajada shoʻrlangan[16].

Mamlakatimizda iqlim oʻzgarishlariga moslashish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari hukumat tomonidan tarmoqlar va sohalar darajasida ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilayotgan maqsadli davlat dasturlarida oʻz ifodasini topmoqda.

Ekologik qarashlarning rivojlanishiga katta turtki boʻlgan geografik determinizmni asoschisi sifatida fransuz mutaffakiri Sh.Monteskye ilmiy meʼrosi muhim ahamiyat kasb etadi. Sh.Monteskye va boshqa Gʻarbiy Yevropa olimlarining kishilik jamiyatiga tabiatning taʼsiri haqidagi dunyoqarashlari qadimgi dunyo va Islom sivilizatsiyasi taʼsirida yuzaga kelgan ekan. Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy joyning tabiiy xususiyatlari (tuproq, suv, havo)ni kishilik jamiyatiga va uning faoliyatiga taʼsiri haqida toʻxtalib, shunday yozadi: «Odamlar tuzilishlarining rangi, surat, tabiat va ahloqda turlicha boʻlishi, faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odamlar yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir». Yuqoridagi, havoladan koʻrinib turibdiki, Abu Rayhon Beruniy geografik omilning rolini boʻrttirib, orttirib koʻrsatishdan, zamonaviy tilda

Bu dunyoqarash keyinchalik imperialistik ekspansiyani, millatchilik va irqchilikni oqlab koʻrsatuvchi qurolga aylanib, ilmiy jamoatchilik nazaridan qoldi.

Olim etnoekologiya iborasini ishlatmagan boʻlsa-da, bu yoʻnalishdagi asosiy gʻoyalardan biri, yaʼni «kishilarning atrof tabiat-muhitga moslashib borishi»ni oʻz mohiyatiga singdirgan «Inson ekologiyasi» (Human Ecology) iborasini birinchi boʻlib, amerikalik geograf g.Berrouz qoʻlladi. Keyinchalik, bu yoʻnalishda insoniyatning etnik hilma - xilligiga uning turli tabiiy sharoitlarga moslashishga urinishi (reaksiyasi) natijasi sifatida qarash haqidagi fikrlar aytildi.

Har bir etnosning yagona tizim holida shakllanishiga sabab boʻladigan geografik hududlarni P.N.Saviskiy (1927) insonlarning «Tugʻilgan joyi» tushunchasiga mos analog sifatida etnoslarning «Rivojlanish joyi» deb ataydi. Uning yozishicha joy va uning tabiiy-iqlim sharoiti kishilarning turmush tarziga, xoʻjalik yuritish tizimi va madaniyatiga oʻzining sezilarli taʼsirini oʻtkazadi. Bu taʼsirga moslashish mexanizmi ishlab chiqiladi va avloddan-avlodga berib berib boriladi. Bunday mexanizm sifatida xalqlarda shakllangan koʻnikma, malaka va anʼanalar keltirib oʻtiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilganda, bugungi kunimizda ushbu konsepsiya boʻyicha maʼlum hududning “tabiat-aholi-xoʻjalik” tizimini oʻzaro aloqadorlikda oʻrganish imkoniyati yaratildi. Taʼlimot asoschilarining fikrlariga koʻra, «xoʻjalik-madaniy turlari» deganda, maʼlum tabiiy geografik sharoit va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasida yashovchi xalqlarga tegishli boʻlgan, tarixan shakllangan xoʻjalik va madaniyatning oʻziga xos majmuasi tushuniladi. Bunday turlarning shakllanishida xoʻjalikning yoʻnalishi va geografik muhitning alohida oʻrni borligi taʼkidlanadi. Bir xil geografik muhitda yashovchi turli xalqlarda shunga mos holda “xoʻjalik-madaniy” turlari boʻlishi, tarixiy rivojlanish natijasida bir tur oʻrniga yangisi, ikkinchisi kelishi mumkin.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Aymatov A. Shaxs tabiatga estetik munosabatini shakllantirishda ekologik ongning roli.(DSc) diss..avtoreferati. Samarqand: 2019. – 29 B.
2. Qoʻyliyev T. Ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. – Toshkent.:TAQI, 2007
3. Hakimov N.H.Inson ekologiyasi. Monografiya. Toshkent, Iqtisodiyot, 2021.B.232.
4. Маликов Т.Т. Диалектика формирования активной жизненной позиции личности // Общественные науки в Узбекистане. – 1992. – № 2. – С. 12–17.
5. Мамашакиров С. Урбанизация экологии или экологизированная урбанизация. – Ташкент: Фан, 1991. С. 11–32.
6. Базаров Б. Образование и экологическая безопасность // Экологический вестник. – 1999. №4. С. 5.
7. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. Oʻquv qoʻllanma. –Toshkent: “Chinor ENK” ekologiknashriyot kompaniyasi. 2006.
8. Rasuleva g. S pozitsiy sotsiobiologii. // Ekologicheskiy vestnik. Tashken-1999. - № 5-B. - S. 31-33.
9. https://kun.uz/news/2019/10/25/ozbekiston-2030-yilgacha-yashil-iqtisodiyotga-otishni-rejalashtirmoqda
10. https://lex.uz/docs/4574008 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2030 yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida farmoni.
11. Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va barqarorlik kafolatlari. -Toshkent.: Oʻzbekiston, 1997.-B.107.
12. Karimov I.A. BMT Sammitining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bagʻishlangan yalpi majlisdagi nutq.-Toshkent.: Oʻzbekiston, 2010.Расулева Г. С позиций социобиологии. // Экологический вестник. Ташкен-1999. - № 5-б. - С. 31-33.
13. https://kun.uz/news/2019/10/25/ozbekiston-2030-yilgacha-yashil-iqtisodiyotga-otishni-rejalashtirmoqda

14. https://lex.uz/docs/4574008 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2030 yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida farmoni.
15. Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va barqarorlik kafolatlari. -Toshkent.: Oʻzbekiston, 1997.-B.107
16. Karimov I.A. BMT Sammitining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bagʻishlangan yalpi majlisdagi nutq.-Toshkent.: Oʻzbekiston, 2010.
17. Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Электронный доступ: http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru;
18. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida» gi Farmoni. http: lex.uz/pages/getpege
19. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turmanistonning Turkmanboshi shahrida boʻlib oʻtgan Orolni qutqarish xalqaro jamgʻarmasi taʼsischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisidagi nutqi. Xalq soʻzi gazetasi, 2018 yil 25 avgust, № 173 (7131).
20. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi “Oʻzbekiston Respublikasi suv xoʻjaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga moʻljallangan konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-6024-son Farmoni

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*09.00.00 – Педагогика фанлари*

**Xalliyev Jasurbek Iskandarovich,**
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
+998937537007

## OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA BILISH TUSHUNCHASI BILAN BOG‘LIQ ERONIY QATLAMGA OID MA’RIFIY-FALSAFIY ISTILOHLAR

**Annotatsiya.** Maqolada Ogahiy tarixiy asarlaridagi bilish tushunchasi bilan bog‘liq eroniy qatlamga oid ayrim ma’rifiy-falsafiy istilohlar ma’no taraqqiyoti hamda urfiy va xos ma’nolari haqida so‘z yuritilgan. Zarur o‘rinlarda keltirilgan misollar o‘zbek adabiyotining boshqa vakillari, xususan, Alisher Navoiy ijodi bilan qiyoslangan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy asar, ma’rifiy-falsafiy asar, eroniy qatlam, leksik qatlam, o‘zlashma, o‘zlashma istiloh, xalq tafakkuri, ma’rifiy-falsafiy istiloh,

**Жасурбек Искандарович Халлыев,**
Независимый научный сотрудник
Ургенчского государственного университета
Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

## ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ТЕРМИНЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПОНЯТИЕМ ЗНАНИЯ, В ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ОГАХИ ИРАНСКОГО СЛОЯ

**Аннотация.** В статье говорится о развитии значения некоторых интеллектуально-философских терминов, связанных с понятием знания, в исторических трудах Огахи, а также их традиционных и специфических значениях. Представленные в необходимых местах примеры сравниваются с другими представителями узбекской литературы, в частности, произведениями Алишера Навои.

**Ключевые слова:** историческая работа, учебно-философская работа, иранский пласт, лексический пласт, ассимиляция, ассимиляционная истила, народная мысль, учебно-философская истила,

**Jasurbek Iskandarovich Halliyev,**
Independent researcher of Urganch State University
Urganch Branch of Tashkent Medical Academy

## EDUCATION AND PHILOSOPHICAL TERMS RELATED TO THE CONCEPT OF KNOWLEDGE IN OGAHI'S HISTORICAL WORKS OF THE IRANIAN LAYER

**Abstract.** The article talks about the development of the meaning of certain intellectual-philosophical terms related to the concept of knowledge in Ogahi's historical works, as well as their traditional and specific meanings. The examples presented in the necessary places are compared with other representatives of Uzbek literature, in particular, the works of Alisher Navoi.

**Key words:** historical work, educational-philosophical work, Iranian layer, lexical layer, assimilation, assimilation istila, folk thought, educational-philosophical istila,

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N21

**Kirish.** Har qanday mutafakkir dunyoqarashi oʻz xalqining tafakkur chashmalaridan suv ichib shakllanadi va rivojlanadi. Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy asarlarida ham ana shunday holatning yaqqol ifodasini koʻramiz. Uning tarixiy asarlarida asrlar davomida oʻzbek xalqi maʼnaviy-maʼrifiy dunyoqarashida mustahkam oʻrnashib qolgan tushunchalarni ifoda etuvchi MFI (falsafiy-maʼorifiy istiloh)lar alohida bir tizimni tashkil qiladi.

**Ilmiy-tadqiqot metodlari.** Maqolada masalaga tavsifiy, qiyosiy-tarixiy metodlar asosida yondashilgan.

**Muhokamalar.** Eroniy qatlamga mansub MFIlar sirasida Ogahiy tarixiy asarlarida faol ishlatilgan *donish, dono, binish, bino // bino* kabilarni ham qayd etish mumkin. *Donish* bilmoq maʼnosidagi *donistan* (hozirgi zamon negizi *don*) feʼlining harakat nomi shakli boʻlib, bilim, maʼrifat maʼnosida otga aylangan. [1, 255] Uning fors tilidagi maʼnosi bilish, bilimdan ham tashqari maʼrifat, ilm, irfon hamdir. Shuning uchun "Farhangi forsiy"da uning maʼnodoshlari sifatida *andisha // andesha, binish, hikmat, xirad, donoiy (donolik), shinoxt (tanish, anglash), ilm, farhang, fazl, maʼrifat* kabilar qayd qilingan (Bunga taalluqli misollarni fikrimiz isbotini yorqinroq ifoda topishi uchun bir asar ("Riyozu-d-davla") doirasida keltirdik). Ogahiy koʻpincha *donish* va *binish* MFIlarini birgalikda qoʻllaydi: "arbobi *donish* va ashobi *binishning* oldida avlo va ansab uldur..." (RD, 344[b]); "Muhammad Rizo mirob almutaxallis bi-l-Ogahiy ibn Erniyozbek gʻafarallāhu ẕunȳbahumā va satara ʻuyȳbahumā, *arbobi donishu ashobi binishga* ajz tilining shikastamaqolligʻi bila mundoq arzi hol qilur,.." (RD, 248[a])

**Natijalar.** Ogahiy tarixiy asarlarida *donish* oʻzagidan yasalgan soʻzlar ham oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra MFI tizimiga aloqadorlik kasb etadi: Masalan, *donishnishon* – maʼrifatli odam: "*donishnishon* Sultonxoja va biri manqit beklaridin rifʼatmakon Musobek erdi,.." (RD, 255[b])

*Durandesh* – uzoqni oʻylovchi, uzoqni koʻra oluvchi; *donishkesh* – ilmli, maʼrifat kasb etgan. Undagi *kesh* soʻzi *aqida, oyin, tutum* kabi koʻplab maʼnolarni bildiradi [11, 1577]: "*durandesh* va *donishkesh* kishi erdi, fikri soqib va royi soyib bodasining sogʻarkashligʻidin purdil va dalirlik nashʼasin topib,.." (RD, 259[a])

Ogahiy tarixiy asarlarida -*kesh* va -*andesh* tarkibli boshqa MFIlar ham bor. Ular oʻzaro ohangdosh va mazmuniy mutanosib boʻlgani uchun asosan birgalikda keladi. Masalan,

*Kajandesh* – egri oʻylovchi. Soʻz asosi sanalgan *kaj* hozir ham Xorazm shevalarida faol ishlatiladi. [5, 102] Bu uning "Navoiy asarlari lugʻati"dagi maʼnolariga muvofiq keladi [7,300]: "...barcha *kajandesh* va *fasodkeshlar,..*" (RD, 278[a]); "...*itoatkesh* xodimlar va *ixlosandesh* mulozimlar zumrasigʻa doxil boʻlub,.." (RD, 280[a]); "...*shijoatkesh* va *muborazatandesh* bahodirlari,.." (RD, 282[a]); "...bu amrda musohalakorligʻ qilmoq *xiradkeshlik* va *durandeshlik* umuridin baid va yiroqdur,.." (RD, 283[a]). Soʻnggi misoldagi *xiradkeshlik* (oqillik, oʻylab ish qilish) soʻzi asosi *xirad* fors tilida aql maʼnosini anglatadi. Bu soʻz pahlaviy tilida *xrat*, avestoviyda *xratu*, sanskaritda *kratu,* oʻrta fors tilida *xrat* shakllarida boʻlgan [10, 729]. *Xirad* inson uchun jon qadar qadrli boʻlgani bois Hakim Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"ni

Ba nomi xudovandi jonu *xirad*
K-azin bartar andisha bar guzarad,
yaʼni
U Xoliqki, bermish biza aqlu jon,

Uning qudroati vasfa sigʻmas, inon [2, 25].

*Xiradmand* – aqlli kishi, donishmand.

*Xirad* koʻngligʻa eyla sayqal berur,
Ki ming yil kelur ishdin ogoh erur. (FI, 28)
*Xiradmande* agar bersa sanga pand,
Eshit pandini, bor ersang *xiradmand*. (FI, 201)

Keyingi misolda bayt *xiradmand* soʻzi boshlanib, shu soʻz bilan tugaydi. Mumtoz adabiyotimizda raddu sadr ila-z-zarb (agar misra biror soʻz bilan boshlanib, shu soʻz bilan tugasa, raddu sadr ila-a-aruz) deb nomlanuvchi bu san’atning oʻziga xosligi, zikr etilayotgan tushunchaga oʻta katta e’tibor qaratilayotganini anglatadi. Buning yorqin dalili Alisher Navoiyning

Odamiy ersang, demagil odamiy,
Oniki, yoʻq xalq gʻamidin gʻamiy –

shohbaytidir.

*Doshinosor* – donishmand, ma’rifatli shaxs. Fors va arab tillariga oid soʻzlardan birikib tarkib topgan qoʻshma soʻz: “Chun shohzodayi komkorning rasuli *donishosori* davlat yangligʻ aning sarvaqtigʻa etti,..” (RD, 262[b]). Bu yerda *rasuli donishosor* – bilimdon elchi. Ogahiy tarixiy asarlarida *rasul* soʻzi diplomatik ma’noda ishlatilgan. Ushbu soʻzning lugʻaviy ma’nosi uning *elchi* soʻziga ma’nodosh sifatida qoʻllashga monelik qilmaydi: “Turbat hokimi Muhammadxon Qaroyi valadi Isoxon Qaroyikim, qaroyi elining sardor va farmonravoyi erdi, anga dogʻi bir kordon *rasul*e inoyat yuzidin irsol qildi”. (RD, 261[b]) Ushbu parchada Ogahiy *rasul* va *irsol qildi* soʻzlari orqali ishtiqoq san’atini yuzaga keltirmoqda [8]. Alisher Navoiy asarlarida ham *rasul*ning diplomatikaga oid istiloh sifatida ishlatilgan:

Bordi ul kishvargʻakim borgʻay *rasul*,
Ayladi onda rasulona nuzul [3].

*Donishshior* – ma’rifatparvar, ma’rifatli, ilmu idrokli odam: “*donishshior* sardorlargʻa oʻrduyi kayhonpoʻy va lashkari qiyomatasarni boshlatib yiborildi,..” (RD, 276[b])

*Donishvar* – donish egasi. Fors tilida *-var // -vor* qoʻshimchasi “oʻxshash”, “monand” ma’nolarida sifatlar yasaydi. Bu affiksning shakllanishi “Avesto”dagi “kesik”, “boʻlak” ma’nolaridagi *vara* bilan bogʻlanadi. Toponimlar tarkibidagi “shahar”, “qoʻrgʻon” ma’nolarida *bara, vara* komponentlari ham aynan shu oʻzak bilan aloqadordir. Mazkur komponetlar, jumladan, Xorazm toponimlarida alohida bir etapni tashkil etadi [4, 17-19]. Keyinchalik boʻlak, qism ma’nolari kengayishi natijasida uning bugungi ma’nosi shakllangan: *devonavor* (devonalarning biri, devonaga oʻxshash). “Ul *parviyvash* hajridinkim, yigʻladim *devonavor*” (Alisher Navoiy). Hikmatoyin xadivi *donishvar*, Ulamo doʻstu ham hunarparvar. (RD, 288[b])

*Donishinsho* – vujudida ma’rifat osori ustun shaxs: “alarning xizmat va rafoqatigʻa *donishinsho* Miskin aqoni ta’yin etdi,..” (RD, 325[a])

*Donishiktisob* – ma’rifat kasb etgan. *Iktisob* arabcha *kasb* soʻzidan hosil qilingan boʻlib, “kasb qilish, qozonish, qoʻlga keltirish” [7,269] ma’nolarini anglatadi: “vaziri hikmatmaobi *donishiktisobi* sadoqatasar Muhammad Yusuf mehtar ravvahallohu ruhahukim,.. (344[a])

*Donishasar* – ma’rifatdan bahramand: “*donishasar* Muhammad Ya’qub mehtar,..” (RD, 357[b])” Bu oʻrinda *donishasar* soʻzi *mehtar* soʻzi bilan ohangdoshligi ham e’tiborga olingan.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi *dono, xono, biyno* MFIlari bir xil morfologik qolipda hosil qilingan, ya’ni fors tilidagi hozirgi zamon sifatdosh shaklidan sifatga aylangan, keyinchalik esa

otga koʻchgan soʻzlardir. Shulardan biri *tavono* aynan *qila oladigan, qila oluvchi* degani boʻlib, qudrat sohibi maʼnosini anglatadi. Bilim katta kuch ekani, bilimli odam odam qudrat sohibiga aylanishi haqida Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” muqaddimasida aytgan

Tavono buvad harki, dono buvad,
Zi donish dili piyr barno buvad,
yaʼni
“Qudratlidir kimki boʻlsa bilimdon,
Bilimdan keksalar dili navqiron” [9, 227] bayti mashhur.

*Biyno* soʻzi koʻrmoq maʼnosidagi diydan feʼlining hozirgi zamon oʻzagi *biy*ga *o* qoʻshimchasining qoʻshilishi natijasida yasalgan va aynan koʻruvchi, koʻradigan maʼnosini bildiradi. *Bin* (koʻr-) oʻzagidan yasalgan yana bir MFI *binish.* Ogahiy tarixiy asarlarida, yuqorida koʻrganimizdek, *idrok, anglash, yuksak zehn* kabi maʼnolarni anglatadi: “fazlu donish bobida nodirayi zamon, aqlu *binish* vajhida faridi davron erdi” (RD, 348[b])

Tamosho qilgʻali shanʼu shukuhu rutbau johin,
Kavokibning falakka har biri bir chashmi *biynodur*. (RD, 356[a])

Demak, Ogahiy asarlarida *biyno* aynan idrok nazari bilan koʻrish degan maʼnoda maʼrifiy-falsafiy mazmun kasb etgan. Ochib ibrat kuzin, kilgil tamosho gar esang biyno,.. [6, 325]. Arabcha *bino* بنا va forscha *biyno* بينا eski yozuvimizda har xil yozilishiga qaramay, ayrim hollarda ular joriy alifbolarimizga bir xil shaklda oʻgiriladi:

Tamosho qilgʻoli shonu, shukuhu, rutbau, johin,
Kavokibning falakka har biri bir chashm *binodur* [6, 515].

Xuddi shu kabi *xono* soʻzi ham xondan oʻqimoq feʼlining hozirgi zamon shakli -*xon*ga -*o* qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan. *Biyno*da boʻlgani kabi maʼno koʻchishi natijasida *xono* idrok bilan oʻqiy oluvchi, anglagan holda mutolaa qiluvchi mazmunini kasb etgani bois MFI sanaladi. Buni Ogahiy lirikasida koʻramiz:

Hech kim xati avroqi kamoling oʻquy olmas,
Har necha esa lavhi falak satriga *xono* [6, 27].
Yoki
Kishi gar donish ichra toʻrt daftarga erur *xono*,
Agar yolgʻuz esa nodoncha qadri boʻlmagʻay jono,..[6, 332]

Bu satrlarda tilga olingan *toʻrt daftar* toʻrt ilohiy kitob – *Tavrot, Zabur, Injil, Qurʼon*dir. Demak, satrlar mazmuni bizning yuqoridagi fikrlarimizni toʻla quvvatlaydi.

**Xulosa.** Ogahiy tarixiy asarlarida eroniy qatlamga mansub MFIlar faol qoʻlllanishi fors adabiyotining jahon durdonasiga aylangan badiiy va tarixiy asarlarining sezilarli taʼsiri. Xususan, Munis, Ogahiy, Bayoniy ishlatgan soʻzlarning koʻpchiligini “Shohnoma”, “Guliston”, “Tarixi Bayxaqiy”, “Ravzat us-safo” kabi asarlarda uchratamiz. Demakki, baʼzi soʻzlarning oʻzlashishida fors adabiyoti ham sezilarli taʼsir oʻtkazgani; fors tilida yaratilgan koʻplab tarixiy va badiiy asarlarning tarjima jarayonidagi taʼsiri. Xususan, besh tarixiy asar muallifi Muhammad Rizo Ogahiy fors tilida yaratilgan beshta tarixiy asar (Ogahiy tomonidan fors tilidan amalga oshirilgan tarjima asarlarning umumiy soni oʻn sakkizta) tarjimoni boʻlgani va Ogahiyning ayrim soʻzlarni qoʻllashida ana shu tarixiy asarlardan taʼsirlangani kabi omillar bilan izohlanadi.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Abdusamadov M. Fors tili. – Toshkent: Sharq, 2007.
2. Əbülqasim Firdovsi. Şahnamə. Tərcümə edəni Mübariz Əlizadə.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996.
4. Дўсимов З. Хоразм топонимари. – Тошкент: Фан, 1985.
5. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999.
6. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд: Девон. Нашрга тайёрловчилар Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. Тошкент: Mumtoz soʻz, 2014.
7. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
8. Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2018.
9. Ҳикматлар шодаси. –Тошкент: Oʻzbekiston, 2012.
10. شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶ . جلد ۲
11. محمد معین. فرهنگ فارسی. جلد دوم. تهران.امیر کبیر.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*10.00.00- Филология фанлари*

**Raximjonova Dilshodaxon Abubakir qizi**
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Farg'ona filiali Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi
Email: raximjonovadilshoda733@gmail.com
Tel:+998911085838

## ANA'NAVIY TERMINOLOGIYA MAKTABLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada terminologiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlari, ana'anaviy terminologiya maktablari, ularning farqli jihatlari haqida so'z yuritilgan. Terminologiyaga turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos kategorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi. Har bir tildagi ilmiy-texnikaviy terminlar lingvistik nuqtayi nazardan olib qaralsa, ushbu terminlar tilning terminologik tizimlaridan birini tashkil etadi. Terminologiya bitta yoki bir nechta tillarda maxsus sohaga oid leksik birliklarni, ya'ni terminlarni to'plash, ta'riflash, shakllantirish hamda taqdim etishni o'rganuvchi fan sifatida talqin qilish mumkin. Bundan tashqari maqolada ma'lum bir fan sohasi terminologiyasining aniqligi va tartibliligi o'sha millatning ta'lim, ilm-fan madaniyati darajasini ko'rsatishda xizmat qilishi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, terminologiya maktablari, Sovet maktabi, Praga maktabi, Vena maktabi, terminologiyaning rivojlanish bosqichlari, D.Lotte, E. Vyuster.

**Рахимжонова Дильшодахан Абубакировна**
Преподаватель кафедры иностранных языков Ферганского филиала
Ташкентского университета информационных технологий.

## ШКОЛЫ ТРАДИЦИОННОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются этапы становления терминологии как науки, традиционные школы терминологии и их различия. Терминология рассматривается как совокупность специальных понятий, совокупность специальных понятий, представляющих собой категориальный аппарат, характерный для разных школ, научных направлений и конкретных представлений, объединенных в систему терминов. Если научно-технические термины в каждом языке рассматривать с лингвистической точки зрения, то эти термины образуют одну из терминологических систем языка. Терминологию можно трактовать как науку, изучающую сбор, определение, образование и представление лексических единиц, относящихся к специальной области, то есть терминов в одном или нескольких языках. Кроме того, в статье подчеркивается, что точность и упорядоченность терминологии той или иной области науки служит показу уровня образованности и научной культуры этой нации.

**Ключевые слова:** терминология, школы терминологии, советская школа, пражская школа, венская школа, этапы развития терминологии, Д. Лотте, Э. Вустер.

**Rakhimjonova Dilshodakhan**
Teacher of the Department of Foreign Languages of Fergana branch of
Tashkent University of Information Technologies.

## SCHOOLS OF TRADITIONAL TERMINOLOGY

**Abstract:** This article discusses the stages of the formation of terminology as a science, traditional schools of terminology, and their differences. Terminology is viewed as a set of special concepts, which represent a categorical apparatus specific to different schools, scientific directions, and specific ideas, combined into a system of terms. If the scientific and technical terms in each language are considered from the linguistic point of view, these terms form one of the terminological systems of the language. Terminology can be interpreted as a science that studies the collection, definition, formation, and presentation of lexical units related to a special field, that is, terms in one or more languages. In addition, the article emphasizes that the accuracy and orderliness of the terminology of a certain field of science serve to show the level of education and scientific culture of that nation.

**Keywords:** terminology, schools of terminology, Soviet school, Prague school, Vienna school, stages of development of terminology, D. Lotte, E. Wuster.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N22

**Kirish.** Terminlar - bu "ma’lum bir yo‘nalish doirasidagi maxsus tavsif bilan ifoda etilgan” belgi bandlaridir va fan atamalari birgalikda o‘sha yo‘nalishning terminologiyasini hosil qilishadi[12;57]. Terminologiya sohasi ancha yillardan beri o‘rganilib kelishiga qaramasdan, bu yo‘nalishdagi qarashlar va fikrlar bir-biridan farq qiladi. Bunga asosiy sabab qilib, shu qarashlarga yoki tushunchalarga zamin yaratgan ana’naviy terminologiya maktablarini keltirishimiz mumkin. XX asrning 1-yarmida bu sohada katta o‘zgarishlar bo‘lib, terminologiya fan sifatida ajralib chiqdi. Xuddi shu davrda Praga, Sovet va Vena terminologiya maktablari paydo bo‘ldi va terminologiya sohasining rivojlanishiga nazariy asos bo‘ldi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilishicha, “terminologiya” so‘zi lotincha “terminus”(chek, chegara) “logos” (fan, ta’limot) so‘zlaridan olingan bo‘lib, fan-texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo‘llaniluvchi terminlar majmui, degan ma’noni bildiradi. Uning taraqqiyot bosqichlari ko‘plab o‘zbek va xorij tilshunoslari tomonidan tahlil qilingan. O‘zbek tilshunoslaridan H.Dadaboyev o‘zining “O‘zbek terminologiyasi” nomli monografiyasida asosan, o‘zbek tilshunosligida terminologiyaning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari va unga ta’sir qilgan omillar haqida yozgan[2;39]. Uch ana’naviy terminologiya maktablari soha rivojida muhim ahamiyatga ega. M.T.Kabre shu maktablardan biriga quyidagicha ta’rif bergan, “Praga maktabi tilshunoslikka asoslangan maktab va u madaniy hamda adabiy tillar nazariyasida yaratilgan”[1;106]. Vena terminologiya maktabi esa Vyuster tajribalari va asarlariga asoslangan bo‘lib, eng keng tanilgan hisoblanadi[9;186]. Sovet terminologiya maktabida esa D.Lotte va E.Drezen asoschilar sifatida tan olingan va bu maktabning paydo bo‘lishi ham 3davrga bo‘lingan[17;1040].

**Muhokama.** Terminologiya sohasi hozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan va turli bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan sohadir. Sagerning ta’rif berishicha, terminologiya so‘zining uchta asosiy ma’nosi bor. Birinchidan, u tushunchalar va terminlar o‘rtasidagi munosabatlarga oid tamoyillar va savollarni o‘rganuvchi nazariyani nazarda tutishi mumkin. U terminologik faoliyatning nazariy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, u tegishli faoliyat sohasiga murojaat qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan atamalarni yig‘ish, tavsiflash, qayta ishlash va taqdim etish maqsadida qo‘llaniladigan amaliyot va usullarni o‘z ichiga oladi. Amaliy terminologiya, terminologik amaliyot, terminografiya va terminologik ish terminlari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi. Ba’zi olimlar terminlar lug‘atini yaratish jarayoniga nisbatan terminologiya so‘zidan ko‘ra ko‘proq terminografiya atamasidan foydalanishni afzal ko‘rishadi.

Uchinchidan, terminologiya maʼlum bir fan sohasining lugʻatini nazarda tutganda qoʻllaniladi. Terminologiya birinchidan, ilm-fanga, sanʼatga, yoki ijtimoiy obyektga doir soʻzlar majmui boʻlsa, ikkinchidan, maxsus til doirasida aloqa vositasi vazifasini ham bajaradi[14;27-32].

Terminologiya sohasining oʻrganilishi ancha yillik tarixga ega, chunki maʼno va taʼrif muammolari qadim zamonlardan beri faylasuflar va mantiqchilarning bahs-munozaralariga sabab boʻlgan. XVIII va XIX asrlarda kimyo, botanika va zoolodiya sohalardagi tushunchalarni nomlash muhim ahamiyatga ega boʻlganligi uchun shu yoʻnalishlarda faoliyat yurituvchi olimlar terminologiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari boʻlishgan. XX asrga kelib texnologik rivojlanish yangi tushunchalarni nomlash va terminlarning umumiyligiga kelishish zaruriyati tufayli texniklar va muhandislar ham olimlar safiga qoʻshilishdi. Shu paytga kelibgina, terminologiya ilm sifatida oʻrniga ega boʻldi va uning tamoyillari va metodologiyasi yaratila boshlandi.

Auger fikricha, zamonaviy terminologiya rivojlanishida toʻrtta asosiy davr mavjud:

1. Kelib chiqish davri (1930-1960);
2. terminologik fan sohalarini yaratish (1960–1975);
3. portlash (1975-1985);
4. kengayish (1985 - hozirgi)[9;105].

Ilk davr ilmiy terminologiyaning rivojlanishi (1930-1960) bilan bogʻliq boʻlib, bu tizimli termin shakllarining yaratilishi bilan tavsiflanadi. E. Vyuster va D. Lotte tomonidan yozilgan birinchi nazariy matnlar oʻsha mavzularda paydo boʻlgan. 1961-yilda D. Lotte oʻzining "Fan va texnik atamalarning tuzilishi asoslari" asarini nashr etganida, E. Vyuster doktorlik dissertatsiyasida taqdim etilgan usullarning asosi va mosligini tekshirish imkoniyatiga ega boʻldi. Dissertatsiya rus tiliga tarjima qilingan va 1935 yilda Sovet Ittifoqida terminologiyani oʻrgangan talabalar uchun majburiy fanga aylangan. XX asrning birinchi yarmida na tilshunoslar, na ijtimoiy fanlar terminologiyaga ahamiyat bermadilar. Qiziqish 1950-yillarga kelib yangilandi. Olimlar odatda terminologik tadqiqotlarga oʻzlarining kam qiziqishlarini koʻrsatdilar; buning oʻrniga ular terminologiya nazariyasini va uning tamoyillarini ishlab chiqish bilan shugʻullanishgan.

Terminologiyani rivojlantirishning ikkinchi bosqichida (1960-1975) kompyuter sohalarida va hujjatlashtirish texnikasida eng muhim innovatsiyalar yaratildi. Bu davrda til ichidagi terminologiyani standartlashtirishga birinchi yondashuv amalga oshirildi. Shunday qilib, birinchi maʼlumotlar bazasi paydo boʻldi va terminologiya tamoyillarini qayta ishlash boʻyicha xalqaro muvofiqlashtirish yoʻlga qoʻyildi. 1960-yillarda asosiy sinov usullari va terminlarini qamrab oluvchi xalqaro standartlarni ishlab chiqarishdan uzoqda, muayyan mahsulotlarning ishlashi, xavfsizligi va sogʻligʻi bilan bogʻliq standartlarni ishlab chiqarishga qaratilgan umumiy oʻzgarishlar yuz berdi. Terminologiya fanining koʻp sohalari aynan oʻsha paytda yaratilgan.

Uchinchi bosqichda terminologiyaning portlashi (1975 va 1985 yillar oraligʻida) yuz berdi, bu tilni rejalashtirish va terminologiya loyihalarining koʻpayishi bilan belgilandi; sobiq SSSR va Isroil kabi baʼzi davlatlar til siyosatini avvalroq boshlagan edi. Sobiq SSSRda E. Drezen, D. Lotte bilan bir qatorda Rossiyaning turli universitetlarida oʻquv qoʻllanmalari tayyorlanib qoʻllanilgan. Ushbu ikki muhandis termin va uning xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan eng muhim noaniqliklarni aniqladilar, shuningdek, terminologiya sohasini standartlashtirish va

xalqarolashtirishga yoʻnaltirilgan rivojlanishga e’tibor qaratdilar. Mashhur rus terminologi V.Danilenkoning “Ruscha terminologiya: lingvistik tasvirlash tajribasi” asari atamashunoslikda grammatik kategoriyalarni funksiyalash muammosi koʻtarilgan davrda nashr etilgan. Keyinchalik aerodinamika mutaxassisi S. Chaplygin Sovet atamashunoslik akademiyasini tashkil etdi.

Terminologiya rivojlanishining toʻrtinchi bosqichi tillarni modernizatsiya qilish va yangi atamalarni yaratish bilan tavsiflanadi. Shaxsiy kompyuterlarning tarqalishi terminologik ma’lumotlarning paydo boʻlishiga va qayta ishlanishiga olib keldi. Terminologlar endi oʻzlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan, foydaliroq va samaraliroq boʻlgan turli xil vositalar va resurslarga ega boʻldilar. Maxsus talab va standartlarga ega boʻlgan yoki hamkorlikdan manfaatdor boʻlgan agentliklar va mamlakatlarni bogʻlash uchun xalqaro tarmoqlar yaratilishi natijasida xalqaro hamkorlik mustahkamlanadi, tarqaladi. Bu jarayonga misollar keltirish mumkin. Ma’lumotlar almashinuvi va terminologlarni tayyorlash boʻyicha xalqaro hamkorlik davri hisoblanadi. Va nihoyat, terminologiya modeli rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda zarur boʻlgan rejalashtirish bilan bogʻliq.

Avstriyalik muhandis Evgen Vuster 1930-yillarda paydo boʻlgan zamonaviy terminologiyaning asoschisi hisoblanadi. Bu esa keyinchalik uchta asosiy klassik terminologiya maktablari paydo boʻlishiga olib keldi: Vuster asosiy namoyondasi boʻlgan Avstriya(Vena) maktabi, Sovet terminologiya maktabi va Praga maktabi[13;41-57].

Shu 3 maktabdan eng koʻp tanilgan va eng puxta ishlab chiqilgan deb tan olingani Avstriya ana’naviy terminologiya maktabi hisoblanadi. Bu maktab Vyusterning shu yoʻnalishdsagi ishlariga asoslangan boʻlib, keyinchalik Budn, Felber va Galinskiylar tomonidan rivojlantirilgan.

Vyuster terminologiyani mustaqil, lekin lingvistika, mantiq, ontologiya, axborot va boshqa maxsus fan sohalari bilan bogʻliq fan sifatida ta’kidlaydi. Uning “General theory of Terminology” deb nomlangan asari tushunchalarning tabiati, konseptual munosabatlar, tushuncha va termin oʻrtasidagi munosabatlar, tushunchalarni ifodalash kabi masalalarga bagʻishlangan. Vyuster nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri onomasiologik yondashuv deb ataladi. Uning ta’kidlashicha, terminologiya tushunchalarni oʻrganishdan boshlanishi kerak[18;63]. Leksikograflar semasiologik yondashuvga amal qilib, soʻz va uning ma’nolarini izlashsa, onomasiologik yondashuv terminologlardan tushuncha va uning ma’nosi, nomlanishini oʻrganishni talab qiladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, semasiologik va onomasiologik yondashuvlar oʻrtasidagi farq soʻz va uning ma’nosi qaysi nuqtayi nazaridan tahlil qilinayotganligi hisoblanadi.

Ana’naviy terminologiyada tushuncha “fikr birligi” hisoblanadi. Bu bir obyektning ongdagi tasviri va shu obyektning ma’lum bir sifatini tavsiflash uchun xizmat qiluvchi bir qator belgilardan iborat. Shuning uchun tushuncha “termin mazmuni” yoki “termin ma’nosi”ga mos keladi. Ana’naviy terminologiyaning asosiy gʻoyasi tushunchalarga bir tushunchaning oʻrni uning boshqa tushunchalar bilan munosabatiga bogʻliq boʻlgan “konsept tizimi” tarkibiy qismi sifatida qarashdir. “Terminologik ta’rif” tushunchaning ma’lum tushunchalar orqali ta’riflanishi demakdir[3; 36-40].

Keyingi ana’naviy terminologiya maktabi bu Sovet maktabidir.Sobiq Ittifoqdagi ikkita asosiy oʻzgarishlar rus atamashunoslik maktabining vujudga kelishiga sabab boʻldi: ilmiy-texnikaviy taraqqiyot (boshqa mamlakatlar bilan kam almashinuv) va koʻp tillilik. Dmitriy Lotte, xuddi Vyuster va Drezen (“zamonaviy terminologiyaning ma’naviy otalari” deb ataluvchi)

kabi asosiy tashabbuskor va muhandis boʻlib, terminlar va tushunchalarni standartlashtirish orqali toʻldirish kerak boʻlgan mutaxassislar oʻrtasidagi texnik aloqada boʻshliq borligini tan oldi,

Lotte SSSR Vazirlar Kengashi qoshidagi Standartlashtirish institutida terminologiyani standartlashtirish qoʻmitasining xodimi va Sovet Fanlar akademiyasining a'zosi edi. 1931-yilda u "Ilmiy-texnik terminologiya sohasidagi dolzarb muammolar" nomli maqolasini nashr etdi, oʻsha yili Vyuster "Texnikada lingvistik standartlashtirish" doktorlik dissertatsiyasini nashr etdi, bu atamashunoslikning umumiy nazariyasiga (GTT) asos boʻldi- ikkita. oʻzlari bilmagan holda bir vaqtda sodir boʻlgan alohida voqealar!

Lottening asosiy ishlaridan ba'zilari: "Xorijiy terminlar va termin elementlarini olish va tartibga solish muammolari", "Ilmiy-texnik atamalarning qisqacha shakllari", "Ilmiy va texnik terminologiyani qurish asoslari. Nazariya va texnika muammolari", vafotidan keyin 1961-yilda nashr etilgan "Ilmiy-texnika terminologiyasi tuzilishi asoslari" kabilardir.

Geribert Picht "Terminologiya fani: tarix va evolyutsiya" asarida Vyuster, Drezen va Lotte terminologiyaga umumiy yondashuvlarga ega ekanligini tushuntiradi: (i) bilim birligi sifatidagi tushuncha, (ii) bilimlarni tartibga solish, (iii) koʻrsatmalar bilan tartibga solingan terminlarni shakllantirish va (iv) tushunchalar va atamalarni dinamik standartlashtirish[4; 208-213].

Rus terminologiyasi oʻzining rivojlanishiga avvalo terminologiyani standartlashtirishga e'tibor qaratgan, lekin ish metodlariga qiziqmagan Drezenga, keyinroq Sovet terminologiya akademiyasini tashkil etgan Sergey Alekseevich Kaplyaginga va nihoyat, terminologiya nazariyasi ustida keng koʻlamli ishlar qilgan, ish usullariga qiziqqan aerodinamika mutaxassisi Kaplyagin bilan yaqindan ishlagan Lotte orqali erishgan[17; 1043]. Lottening kashfiyotchilik ishi boshqa mutaxassislarni terminologik ishlar va tadqiqotlar orqali oʻz ishini davom ettirishga ilhomlantirdi.

Drezen bilan bir qatorda Lotte texnika sohasida ilmiy ma'lumotga ega boʻlib, Rossiyaning turli universitetlarida qoʻllaniladigan oʻquv materiallari va qoʻllanmalarini tayyorladi. Ushbu ikki muhandis termin va uning xususiyatlari bilan boʻliq boʻlgan eng muhim tushunchalarni, shuningdek, terminologiya sohasini standartlashtirish va xalqarolashtirish yoʻlidagi rivojlanishni boshlab berganlar. Shuningdek, u oʻz e'tiborini terminlar va oʻzlashtirma soʻzlarni yaratishga qaratdi.

Pitch kabi ba'zi mualliflar hatto Lotte terminologiyaning haqiqiy otasi ekanligini da'vo qilishgan, chunki u Vyusterdan oldin terminologiyaning nazariy jihatlariga qiziqib qolgan. Aslida aynan Vyuster terminologiyani Umumiy terminologiya nazariyasining asosi boʻlgan lugʻatga aylantira olgan. Vyuster terminologiyani lingvistik tushunish zaruriyatini belgilab, oʻz ishini maxsus atamalarni oʻrganish bilan cheklagan boʻlsa, Lotte tilni "soddalashtirib boʻlmaydi", lekin biz ijtimoiy-madaniy omillarni ham hisobga olishimiz kerakligini koʻrsatgan.

Rus terminologiya maktabining asosini D.Lotte, S.Chaplyagin, A.Reformatskiy, V.Vinogradov, G.Vinokur, R.Budagov, S.Ozgegov, F.Skorohodko, V.Danilenkolar tashkil etdi. Binobarin, rus maktabi asosan tushunchalar va atamalarni standartlashtirishdan manfaatdor edi, chunki sobiq Sovet Ittifoqida koʻp tillilik mavjud boʻlgan.

Chexiya maktabi Praga lingvistik maktabi tomonidan ishlab chiqilgan funksional lingvistik yondashuv tufayli paydo boʻldi. Praga terminologiya maktabining maqsadi Chex va Slovyan tillari zamirida maxsus tilning struktur va rasmiy tahili boʻlgan. Praga terminologiya

maktabi terminlar milliy tilning lugʻzt tarkibi sifatida oʻrganilishi kerakligini taʼkidlashgan. Yangi paydo boʻlayotgan tushuncha va qarashlardan farqli ravishda u terminologiyani oʻrganishga maxsus(texnik) matnlarning semiotic jihatlarini oʻz tarkibiga olmagan. Maktab terminlarning standardlashtirilishi jarayonidanufuzli va tajribali standardlashtirish institutlari koʻmagidan foydalandi[7; 48]. U faqatgina milliy terminlarni oʻrganish bilangina cheklanib qolmasdan, Lotin va Yunon nomenklaturalari, xorijiy terminlarni ham tahlil qildi. Chex olimlari va tilshunoslari terminologiyaning nazariy va amaliy tadqiqotlariga eʼtibor qaratdilar.

Praga terminologiya maktabi Rostislav Kocourek, Antonin Kuchera va Jozef Dubskiy kabi terminology mutahassislar tufayli xalqaro ahamiyatga ega boʻla boshladi. Boshidan Praga maktabi lingvistlari soha mutahassislari, terminograflar bilan hamkorlikdaishlashgan. 1911-1935-yillarda terminologiya taʼlimi vazifaviy-struktur xususiyatga ega boʻlgan va Chex va Slovyan tilshunoslari birgalikda shu xususda tadqiqot qilishgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin J. Xoresky rahbarligida Slovakiya Fanlar akademiyasi Slovak tili instituti qoshidagi Standartlashtirish va terminologiya boʻlimi qoshida Chexoslovakiya terminologiya boʻyicha standartlashtirish qoʻmitasi tashkil etildi[8;96]. Terminologiya qoʻmitasi Jozef Xoresky tomonidan tahrirlangan va 1962–1966 yillarda nashr etilgan Československy terminologický časopis (The Chexoslovak Terminologiya jurnali) jurnalini chiqardi; jurnal har ikki davlat terminologlari faoliyati natijalarini taqdim etdi. M.T.Kabrening soʻzlariga koʻra, Chexiya maktabiga Eduard Benes, Vilém Matesius, Jozef Vachek va Nikolay Trubetzkoy, asosan, Lubomir Drodz va Ferdinand de Sossure rahbarlik qilgan. M.T. Kabre: “Praga maktabi “tilshunoslikka eng yoʻnaltirilgan” maktabdir”. Praga maktabi deyarli faqat maxsus tillarning strukturaviy va funksional izohi bilan shugʻullangan, bunda terminologiya muhim rol oʻynagan; u tillar va terminologiyalarni standartlashtirishga qaratilgan; va uning terminologik ishlari Chex tili instituti (Fanlar akademiyasining bir qismi) bilan bogʻliq edi. Bu maktab terminlar adabiy, jurnalistik yoki soʻzlashuv uslublari kabi boshqa uslublarda mavjud boʻlgan funksional kasbiy til birliklari ekanligini taʼkidlaydi.

**Xulosa.** Shunday qilib, bu uchta terminologiya maktabining barchasi tilshunoslik, nazariy tuzilish va metodologiyaga asoslangan edi. Ushbu uchta terminologiya maktabining rivojlanishini tahlil qilib, biz terminologiyaga uchta turli yondashuvni ajratib koʻrsatishimiz mumkin:

– Birinchi yondashuv terminologiyani fan va texnikaning fanlararo, lekin mustaqil sohasi deb hisoblaydi.

– Ikkinchi yondashuv falsafaga qaratilgan. mantiqiy tasnifga investitsiya qilish Ikkinchi yondashuv asosiy eʼtiborni tushunchalarni mantiqiy tasniflash va bilimlarni tashkil etishni oʻrganishga qaratadi.

– Uchinchi yondashuv tilshunoslik, maxsus til terkibini yoki terminologik tizimni oʻrganadi.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Cabré, M.T. Terminology: Theory, Methods, and Applications.
2. Dadaboyev H., “OʻZBEK TERMINOLOGIYASI”.-Toshkent: YOSHLAR NASHRIYOT UYI, 2019.

3. Dilshoda, R. (2022). THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF COMPUTER TERMS IN ENGLISH LINGUISTICS. *PEDAGOGS jurnali*, *20*(2), 36-40.
4. D Raximjonova, TERMIN LINGVISTIKANING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. 2 (8), 208-213.
5. H.Dadaboyev, "O'zbek leksikografiyasi va terminologiyasi". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2016
6. Ibrohim Yo'ldoshev, O'lmas Sharipova. Tilshunoslik asoslari.- T., 2007.
7. Ivana Bozděchová , Prague School of Terminology,-Charles University, Prague
8. Levická, J./ M. Zumrík, Finding one's way: the case of Slovak terminology (general overview from 1844 onwards)
9. M. Teresa Cabré. La Terminolgia. La teoria, els mètodes, les aplicacions. Barcelona, Emúries 1992.
10. Qoshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. T.I. -Toshkent: Fan, 1960.-B.214-215.
11. Raximjonova, D. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOMPOZITSIYA USULIDA SO'Z YASALISHI HODISASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(4), 710-713.
12. Sager, J.C. 1990. A practical course in terminology processing. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.
13. Sager, J. C. 1998/99. "In search of a foundation: Towards a theory of the term," Terminology 5(1), B. 41-57.
14. Sager, J.C. 1997. Term formation. In Handbook of terminology management: Basic aspects of terminology, vol. 1, comp. S.E. Wright and G. Budin, 25 – 41. Amsterdam: John Benjamins.
15. Terminology Science in Russia today: From the Past to the Future. Edited by Larissa A. Manerko, Klaus-Dieter Baumann, Hartwig Kalverkämper. Frank and Timme Ed., 2014.
16. Tursunov U., O'rinboyev B. O'zbek adabiy tili tarixi.-Toshkent: "O'qituvchi", 1982. B. 84-85.
17. V.M. Leitchik, S.D. Shelov, Terminology: Where is Russian Science Today?-LSP&Professional communication Volume 3, Number 1, April 2003, ISSN 1601-1929.
18. Wüster, E. (1974), Die allgemeine Terminologielehre, ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logik, Ontologie, Informatik und den Sachwissenschaften. In: "Linguistics" 12 (119), 61–106.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*10.00.00 – Филология фанлари*

**Осипова Агата Викторовна,**
д.ф.н. (PhD), старший преподаватель кафедры русской литературы и методики обучения
Узбекского государственного университета мировых языков

# СЛОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЕ РУССКОГО ЯЗЫКА УЗБЕКОЯЗЫЧНЫХ УЧАЩИХСЯ

**Аннотация.** Статья посвящена рассмотрению проблемы обучения узбекоязычной аудитории падежной системе русского языка. Предпринята попытка определить падежные параллели русского/узбекского языка. Особое внимание уделяется рекомендациям преподавателю относительно эффективности обучения узбекоязычных учащихся.
**Ключевые слова**: падежная система, падежный вопрос, склонение, падежные параллели.

**Осипова Агата Викторовна,**
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
рус адабиёти ва ўқитиш методикаси кафедраси
катта ўқитувчиси, д.ф.н. (PhD)

# ЎЗБЕК ТИЛИДА СЎЗЛАШУВЧИ ТАЛАБАЛАРГА РУС ТИЛИНИНГ АМАЛИЙ ТИЗИМИНИ ЎРГАТИШДАГИ ҚИЙИНЧИЛИКЛАР

**Аннотация.** Мақола ўзбек тилида сўзлашувчи аудиторияни рус тилининг амалий тизимини ўқитиш муаммосига бағишланган. Рус/ўзбек тилининг иш параллеллигини аниқлашга ҳаракат қилинади. Ўқитувчининг ўзбек тилида сўзлашувчи талабаларни ўқитиш самарадорлиги бўйича тавсияларига алоҳида эътибор қаратилган.
**Калит сўзлар**: иш тизими, иш савол, десленсион, нишаб, иш параллеллари.

**Agata V. Osipova**,
Candidate of Philological Sciences
Uzbek State University of World Languages,
Tashkent, Uzbekistan

# DIFFICULTIES OF TEACHING THE CASE SYSTEM OF THE RUSSIAN LANGUAGE TO UZBEK-SPEAKING STUDENTS

**Abstract.** The article is devoted to the problem of teaching the Uzbek-speaking audience the case system of the Russian language. An attempt is made to determine the case parallels of the Russian/Uzbek language. Special attention is paid to the recommendations of the teacher regarding the effectiveness of teaching uzbek-speaking students.
**Keywords:** case system, case question, declension, case parallels.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N23

Исследование падежной системы и ее грамматических категорий вызывает серьезные трудности у иноязычных учащихся. Познание падежной парадигмы является значимым разделом в обучении грамматическим конструированиям словосочетаний, а далее и предложений. Доказательством всей сложности и актуальности данной проблематики служит немалый арсенал научных разработок в этой области. Так, Ю.А.Борисова [1] в своей статье «Типичные трудности при изучении падежной системы русского языка в курсе РКИ на начальном этапе» рассматривает особенности изучения падежной системы русского языка на начальном этапе курса русского языка как иностранного (РКИ), где особое внимание уделяет трудностям понимания, которые являются наиболее типичными для студентов при освоении грамматической категории падежа. Е.А. Данилова и Т.Н.Юркина [2] выявляют в своем исследовании ряд типичных ошибок иностранных студентов при образовании и употреблении русских падежных форм. Интересным исследованием является работа М.В. Холодковой [3], которая рассматривает эффективные виды работы над формированием навыков употребления падежей для иностранных студентов. Ценной, на наш взгляд, является научная статья Н.Т. Юлдашевой [4], где автор исследует актуальные образовательные методики и эффективные практики в образовательном процессе. Научных работ, посвященных нашей проблеме, очень много и каждая из них ценна по- своему. Рассмотрим основные сложности обучения падежной системе русского языка узбекоязычных учащихся.

Вся сложность исследуемой проблемы заключается в несоотнесённости падежной системы родного языка и изучаемого (русского языка). Но, прежде чем перейти к исследованию падежей, иностранным студентам, в частности узбекоязычным, необходимо обратить внимание на родовую категорию, так как в узбекском языке категория рода отсутствует, что и порождает сложность в обучении.

**Категория рода**

| Род | Подсказка | Окончание | Пример |
|---|---|---|---|
| М.р | Он, мой | -0, -а, -я | дом, папа, дядя |
| Ж.р. | Она, моя | -0, -а, -я | мышь, книга, лилия |
| С.р. | Оно, моё | -о, -е, -я | небо, море, время |

После того, как учащийся усвоил родовую категорию, предстоит обучить его принципам склонений, обязательно оговорив заранее слова исключения (путь, дитя и 10 слов с окончанием на -мя):

| 1 | 2 | 3 |
|---|---|---|
| -а, -я | -о, -е,<br>0 в муж.р. | 0 в жен.р. |

Для наглядного восприятия учащимся можно представить следующую таблицу, по которой им будет легче запомнить падежные окончания и соотнести предлоги с функцией в родном языке:

| Падеж | Вопрос | Предлог | Окончание | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Единственное число | | | Множественное число |
| | | | 1 | 2 | 3 | |
| И.п. | Кто? Что? (есть) | - | -а, -я | 0, -о, -е | -0 | -ы, -и, -а, -я |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Р.п. | Кого? Чего? (нет) | у, до, вокруг, с, из, возле, без, от, после, около, для. | -ы, -и | -а,-я | -и | 0, -ов,-ев, -ей,-ий |
| Д.п. | Кому? Чему? (дать) | по, к | -е, -и | -у, -ю | -и | -ам, -ям |
| В.п. | Кого? Что? (винить) | через, в, за, про, на | -у, -ю | -о, -е | -0 | -0, -ы, -и, -а,<br>-я, -ей |
| Т.п. | Кем? Чем? (доволен) | над, перед, за, под, с | -ой (-ою), -ей (ею) | -ом, -ем | -ю | -ами, -ями |
| П.п. | О ком? О чем? (думать) | на, при, об, обо, в, о | -е, -и | -е, -и | -и | -ах, -я |

Сложность объяснения склонений в русском языке состоит из ряда нюансов, которые необходимо подробно разъяснить узбекоязычным учащимся.

| | Падеж | Единственное число | Единственное число |
|---|---|---|---|
| **Если существительное II склонения оканчивается на -ий или -ие, то в предложном падеже единственного числа пишется окончание –и (санаторий, дельфинарий, доверие)**<br><br>**Если существительное I склонения оканчивается на -ия, то в дательном и предложном падежах пишется окончание -и. Это касается и имён собственных на –ия (Мария, Фрацция, линия, история)** | Именительный Кто? Что? | санато́рий | ге́ний |
| | Родительный Кого? Чего? | санато́рия | ге́ния |
| | Дательный Кому? Чему? | санато́рию | ге́нию |
| | Винительный (неод.) Кого? Что? | санато́рий | ге́ния |
| | Творительный Кем? Чем? | санато́рием | ге́нием |
| | Предложный О ком? О чём? | санато́рии | ге́нии |

| | Падеж | Единственное число | Единственное число |
|---|---|---|---|
| **Существительные с окончаниями в начальной форме -ея в дательном падеже и предложном падеже единственного числа имеют окончание -е (например: о аллее, о галерее).** | Именительный Кто? Что? | алле́я | галере́я |
| | Родительный Кого? Чего? | алле́и | галере́и |
| | Дательный Кому? Чему? | алле́е | галере́е |
| | Винительный (неод.) Кого? Что? | алле́ю | галере́ю |
| | Творительный Кем? Чем? | алле́ей | галере́ей |
| | Предложный О ком? О чём? | алле́е | галере́е |

| | Падеж | Единственное число | Множественное число |
|---|---|---|---|
| **Некоторые существительные мужского рода имеют альтернативную форму предложного падежа (так называемую, форму местного падежа) с окончанием -у (сравните: о лесе – в лесу, о крае – на краю).** | Именительный<br>Кто? Что? | лес | леса́ |
| | Родительный<br>Кого? Чего? | ле́са | лесо́в |
| | Дательный<br>Кому? Чему? | ле́су | леса́м |
| | Винительный (неод.)<br>Кого? Что? | лес | леса́ |
| | Творительный<br>Кем? Чем? | ле́сом | леса́ми |
| | Предложный<br>О ком? О чём? | ле́се | леса́х |
| | Местный (Предложный-2) | в лесу́ | |

Для всестороннего и полноценного усвоения падежной системы русского языка, необходимо провести параллели с родным языком, хотя стоит сделать оговорку, что нельзя говорить о «чистом» соответствии узбекской и русской падежной системы. Падежная система узбекского языка некоторым образом отличается от русской. Интересно, что большинство предлогов (в, на, из и т.д.) в узбекском языке употребляются через суффиксы (аффиксы), при помощи которых и происходит склонение. В узбекском языке шесть падежей:

| **ПАДЕЖИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА** | |
|---|---|
| **Основной падеж (Bosh kelishik)** | |
| **Значение** | Указывает на подлежащее предложения, представляя собой корневое слово без изменений. |
| **Аффиксы** | – |
| **Вопросы** | Кто? Что? Какое место? |
| **Примеры** | Men maktabga boraman (Я хожу в школу) **Men (я)** |
| **Аналог в русской падежной системе** | Именительный падеж |
| **Определительный падеж (Qaratqich kelishigi)** | |
| **Значение** | Определяет отношение принадлежности. Аффикс присоединяется к существительному, которое обозначает «собственника» (часто требует добавления притяжательного суффикса к существительному, которым «владеют»). |
| **Аффиксы** | **+ning** |
| **Вопросы** | Кого? Чего? Какого места? |
| **Примеры** | U mening do‘stim. (Он мой друг). **Mening (мой)**<br>Bu ayolning ismi Zilola (Имя этой женщины Зилола). **Ayolning (женщины)** |

| | |
|---|---|
| **Аналог в русской падежной системе** | Родительный падеж |
| **Направительный падеж (Jo'nalish kelishigi)** | |
| **Значение** | Выражает значение направления действия. Соотносится с русскими предлогами «в», «на», «к» и т.д. |
| **Аффиксы** | +ga, +qa. +ka |
| **Вопросы** | Кому? Чему? Куда? |
| **Примеры** | Men maktabga boraman (Я хожу в школу) **Maktabga (в школу)**<br>Siz Antonga borasiz? (Вы идёте к Антону?) **Antonga (к Антону)** |
| **Аналог в русской падежной системе** | Дательный падеж |
| **Винительный падеж (Tushum kelishigi)** | |
| **Значение** | Указывают лицо, предмет, на который непосредственно переходит действие. |
| **Аффиксы** | +ni |
| **Вопросы** | Кого? Что? Какое место? |
| **Примеры** | Fotima qulupnayni yeydi. (Фотима кушает клубнику). **qulupnayni (клубнику)**<br>Если в предложение не употребить аффикс, меняется его смысловое наполнение. Fotima qulupnay yeydi. (Фотима (обычно)кушает клубнику). **qulupnay (клубнику) НО!** не конкретную, а любую клубнику, поэтому слово уже не будет стоять в винительном падеже. |
| **Аналог в русской падежной системе** | Винительный падеж |
| **Исходный падеж (O'rin-payt kelishigi)** | |
| **Значение** | Исходный пункт движения или действия. Соотносится с предлогом «из», «от» и др. |
| **Аффиксы** | +dan |
| **Вопросы** | От кого? От чего? |
| **Примеры** | U Uzbekistondan (Он из Узбекистана). **Uzbekistondan (из Узбекистана)** |
| **Аналог в русской падежной системе** | - |
| **Местный падеж (Chiqish kelishigi)** | |
| **Значение** | Означает место или время совершения действия (соотносится с русскими предлогами «в», «на» и т.д.) |
| **Аффиксы** | +da |
| **Вопросы** | У кого? У чего? Где? Когда? |
| **Примеры** | Men soat sakkizda boraman (Я уйду в 08:00 часов). **Sakkizda (в восемь).**<br>Anna maktabda. (Анна в школе). **Maktabda (в школе)** |
| **Аналог в русской падежной системе** | - |

Итоги проведенного исследования показывают, что для квалифицированного объяснения русской падежной системы преподавателю необходимо:

- иметь информацию о падежной системе узбекского языка, что позволяет сравнить обе парадигмы и провести некоторые параллели;

- обращать внимание учащегося на обязательные показатели каждого падежа, выражающие значение падежа, род и число, приоритетный вопрос и др;

- конструировать лексико-грамматическую модель – «глагол-падежный вопрос-падеж-окончание». Данная модель позволить разъяснить учащемуся, что существительное стоит в конкретном падеже, имеет определенное окончание, отвечает на падежный вопрос;

- проводить регулярную работу по укреплению полученных знаний посредствам ввода конструкций в устную речь (диалоги, упражнения – тренажеры и т.п.);

- довести до автоматизма употребление учащимися падежных окончаний;

- уделить особое внимание предлогам, сопровождающим тот или иной падеж;
- разъяснить особенности совпадения форм окончаний, вопросов в разных падежах (например, формы родительного и винительного падежей совпадают у одушевленных существительных).

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Борисова Ю.А. Типичные трудности при изучении падежной системы русского языка в курсе РКИ на начальном этапе // ФГБОУ ВО «Всероссийский государственный институт кинематографии им. С.А.Герасимова». 2020 – С. 77-85 https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=djfkoc&ysclid=lguocdwiko332038531
2. Данилова Е.А., Юркина Т.Н. Типичные ошибки иностранных студентов при образовании и употреблении русских падежных форм // Вестник ЧГПУ имени И.Я. Яковлева. 2020. – №4. С.180-185. https://cyberleninka.ru/article/n/tipichnye-oshibki-inostrannyh-studentov-pri-obrazovanii-i-upotreblenii-russkih-padezhnyh-form/viewer
3. Холодкова М.В. Особенности изучения русской падежной системы в иностранной аудитории. // Профессиональная коммуникация: актуальные проблемы преподавания и исследования. Коллективная монография. Тамбов.: Бизнес-Наука-Общество, 2016 – С.48-52 https://www.elibrary.ru/item.asp?id=28371547&ysclid=lguoffzu3j611637211
4. Юлдашева Н. Т. Актуальные образовательные методики и эффективные практики в современном педагогическом образовании // XVIII Виноградовские чтения. Екатеринбург, 2022 – 232с. https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=liynco&ysclid=lguov3j0af322993097

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*10.00.00-Филология фанлари*

**Ахмедова Азиза Комиловна,**
ф.ф.ф.д, Ph.D., Ўзбекистон Давлат Жаҳон Тиллари Университети, Тошкент, Ўзбекистон
aziza.ahmed@inbox.ru

## БАДИИЙ ОБРАЗ ТАСНИФИ, ТИПОЛОГИЯСИ ВА БАДИИЙ-ФУНЦИОНАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация.** Мақолада адабиётшуносликнинг марказий тушунчалардан бўлган бадиий образнинг илмий-назарий масалалари таҳлил қилинди. Хусусун, "образ" атамасига берилган таърифлар, образ типологияси диққат марказида бўлди. Бадиий образ турларининг ўхшаш ва фарқли томонлари, асардаги функциялари таҳлил қилинди.

**Калит сўзлар:** бадиий образ, роман, характер, тип, қаҳрамон.

**Ахмедова Азиза Комиловна,**
д.ф.ф.н., Ph.D., Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент, Узбекистан

## КЛАССИФИКАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА, ТИПОЛОГИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННО-ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА

**Аннотация.** В статье проанализированы научно-теоретические вопросы художественного образа, который является одним из центральных понятий литературоведения. В частности, в центре внимания оказались определения, данные термину «образ» и типология образа. Проанализированы сходства и различия типов художественных образов, их функции в произведении.

**Ключевые слова:** художественный образ, роман, персонаж, тип, герой.

**Akhmedova Aziza Komilovna,**
Ph.D., Uzbek State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

## ARTISTIC IMAGE CLASSIFICATION, TYPOLOGY, AND ARTISTIC-FUNCTIONAL CHARACTERISTICS

**Abstract.** The article analyzed the scientific-theoretical issues of the artistic image, which is one of the central concepts of literary studies. In particular, definitions given to the term "image" and the typology of the image became the focus of attention. The similarities and differences between the types of artistic images, and their functions in the literary work were analyzed.

**Keywords:** artistic image, novel, character, type, hero.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N24

**Кириш.** Образлилик – санъатнинг етакчи хусусияти бўлиб, айнан шу хусусият орқали санъат тафаккур қилади ҳамда борлиқни акс эттира олади. Образ воситасида ижодкор янги бир параллел оламни, бадиий борлиқни вужудга келтиради. Адабиётнинг марказида инсон образи туришининг асосий сабаби шундаки, санъат борлиқни инсон орқали англайди, яъни инсон унинг билиш предметидир. Адабиётшуносликда “образ” ва “образлилик” атамаларига қатор олимлар, жумладан А.Л. Андреев., Л.И.Тимофеев, П.В. Палиевский, В.И. Тюпа, М.Б. Храпченко ўз таърифларини берганлар. “Бадиий образ” тушунчасига берилган таърифлар бир-бирига ўхшаш. Л.И.Тимофеевнинг таърифича, “образ — тўқима ёрдами билан яратилган ва эстетик қиймат касб этган инсон хаётининг умумлашма ва, айни чоқда, конкрет манзарасидир” [ 1; Б. 62-63.]. Д.Қуронов таърифига кўра “Бадиий образ борлиқнинг (ундаги нарса, ҳодиса ва б.) санъаткор кўзи билан кўрилган ва идеал асосида ижодий қайта ишланиб, ҳиссий идрок этиш мумкин бўлган шаклда ифодаланган аксидир” [2; Б.90.]. Шунингдек, адабиёт назариясига оид манбаларда “Бадиий образ деб умумийлик билан хусусийликнинг муайян ғоявий идеалга мос ҳаётий тўқималар асосида индивидуал кўринишдан типикликка айлантирилган конкрет ва ҳиссий эстетик бирлигига айтилади” [3; Б.118.]. Кўринадики, бадиий образ ҳақида юқорида келтирилган барча таърифларда идеалга асосланганлик, типиклик ва индивидуалликнинг ўзаро мутаносиблиги, умумлашмалилик, борлиқнинг ижодкор томонидан ҳиссий қайта ишланган тасвири каби этакчи хусусиятларга урғу берилади.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Маълумки, адабиётда “бадиий образ” тушунчасининг кенг ва тор маънолари мавжуд. Кенг маънода **бадиий образ** борлиқда мавжуд ҳар қандай ҳодиса ва нарса-буюмнинг акси бўлса, тор маънода эса инсон образини ифодалайди. Мазкур тадқиқотда образнинг тор маъноси назарда тутилиб, Синклер Люис ижодида инсон образини яратиш маҳорати диққат марказида бўлди. Хусусан, муайян ёзувчи поэтикасини баҳолашда бадиий образ марказий аҳамиятга эга экан, тадқиқотда ижодкорнинг характер яратиш маҳоратини илмий ўрганиш жоиз топилди. Зеро, айнан бадиий образлар яратиш орқали ижодкор ўзидаги тасвир истеъдодини, оламни ва одамни англаш даражасини, эзгулик ва ёвузлик, гўзаллик ва хунуклик ҳақидаги эстетик қарашларини намоён этади. Шунингдек, у ёки бу асарнинг ижтимоий-сиёсий таъсир кучини, адабий аҳамиятини ҳамда абадиятга дахлдорлигини маҳорат билан яратилган бадиий образлар белгилайди.

Бадиий адабиётда инсон образини жонлантириш учун турли **бадиий унсурлар** хизмат қилади: 1. Муаллиф характеристикаси. Бунда образнинг феъл атворига, табиатига ижодкор томонидан бевосита таъриф берилади; 2. Портрет. Образнинг сийрати ёки сурати тасвирланишига қараб ички ва ташқи портрет турлари мавжуд. “...Ижодкорнинг бадиий маҳоратини унинг адабий қаҳрамон портретини тасвирлашига қараб ҳам белгиласа бўлади” [4; Б.471.], дея эътироф этади А. Улуғов.; 3. Бадиий психологизм. Образ яратишда уй-фикрлар, ҳаракат ёки руҳият тасвири етакчилигига кўра бадиий психологизмнинг аналитик, динамик ҳамда психологик турлари эътироф этилган. Демак, ижодкор индивидуал услуби, муайян асар орқали акс эттирлаётган бадиий концепциядан келиб чиқиб юқорида санаб ўтилган бадиий унсурлардан мақсадли фойдаланади. Бадиий образни таснифлаш бўйича жаҳон адабиётшунослигида

салмоқли илмий ишлар қилинган бўлсада, мавжуд таснифлар образга хос барча хусусиятларни қамраб олмаган.

Умумлашмалилик, индивидуаллик, бадиий тўқимадан фойдаланиш, метафориклик, ассоциативлик, тугалланмаганлик, кўпмаънолилик, таъсирчанлик образнинг этакчи хусусиятларидир. Бу хусусиятлар ўзаро узвий боғлиқ бўлиб, бир-бирини тақазо этади. Жумладан, бадиий образдаги кўпмаънолилик ассоциативлик ва тугалланмаганлик каби хусусиятлар натижаси ўлароқ намоён бўлади.

Умумлаштириш даражасига кўра бадиий образ бир неча турларга ажратилади. Муаммо шундаки, ушбу масалада бир гуруҳ ўзаро синоним атамаларнинг мавжудлиги ҳамда уларнинг кўпмаънолилиги, турли тилларда образ турларининг фарқли номланиши айрим чалкашликларни келтириб чиқаради. Персонаж, образ, қаҳрамон, характер — асардаги барча образларни назарда тутувчи умумий тушунчалардир. Ушбу ўринда қаҳрамоннинг персонажлар системасида марказда турувчи бош образ (инг.тилида “hero”, рус.тилида “герой”) сифатидаги яна бир маъноси борлигини унутмаслик лозим. “Характер” дейилганда ҳам икки хил образ назарда тутилиб, биринчиси умумий маънода жами персонажларни англатади. Хусусан, инглиз тилида “характер” айни шу маънода қўлланилади. Характер терминининг асосий маъноси сифатида — ҳаракатларида муайян ирода йўналишига эга бўлган, шу билан биргаликда хулқ-атворида ёрқин ажралиб турадиган белгиларни намоён этадиган, пухта ишланган бадиий образ тушунилади. И.Султон ҳақли равишда эътироф этганидек, “Характер муаллиф эстетик идеалини ташувчидир” [ 5; Б.103.]. Бир асар сюжетида кўплаб персонажлар қатнашсада, бир ёки бир нечта характер учраши мумкин. Шу ўринда айтиш жоизки, характер атамаси ва унинг хусусиятлари илк марта Аристотелнинг “Поэтика” асарида учрайди. Аристотел мазкур асарида образ тушунчасининг ўрнига “мимесис” атамасини қўллайди. Характер ҳақида эса, унинг тўрт мақсадда яратилиши таъкидланади. Аристотелга кўра, характер, биринчидан, олийжаноб бўлиши керак. Иккинчидан, характерлар ўзига мос бўлиши, яъни ўз мантиғига мос ҳаракатланиши лозим. Учинчидан эса, ҳаққонийлик ва ниҳоят, изчиллик характер яратишдан муддао сифатида илгари сурилади [6; Б.43.]. Гарчи ҳар бир замон ва макон адабий қаҳрамон масаласига ўзгача мезонлар тақдим этсада, Аристотел санаб ўтган хусусиятлар характернинг умуминсоний тамойиллари сифатида ҳануз эътиборга лойиқ.

**Муҳокама.** Аксарият совет олимлари, жумладан, А.Ивашенко, Е. Тагер, Д.Тамарченко, Г.Поспелов, А.Н.Иезуитов ҳақли равишда характерни ижодий метод муаммоси сифатида баҳолаганлар. Сабаби, ижодкорнинг асосий фалсафий-эстетик қарашларини характерда ифодалаш имкониятининг кенглиги, характер ҳатти-ҳаракатлари, ирода йўналиши ҳам мазкур қарашлар асосида рўёбга чиқиши муайян ижодий методга ишора қилишини инкор этиб бўлмайди. Муаллиф мансуб бўлган ижодий метод ҳақида билмасдан туриб, у яратган бадиий образлар моҳиятини тушиниш мушкул.

Образлар тизимида мураккаблиги ва даражаси жиҳатидан устун образ типдир. Муайян даврдаги бирор тоифа, конкрет синфнинг ёрқин вакили сифатида гавдаланган образлар “тип” дейилади. Тип айни пайтда характер ҳам бўлади. Бироқ шуни унутмаслик лозимки, ҳар қандай характер ҳам тип бўла олмайди. Сабаби юксак маҳорат билан яратилган характерларгина типга айланади. “Адабий типларнинг

умумлаштирувчи кучи шунчалик каттаки, улар кейинги замонларда муҳим ижтимоий ва психологик ҳодисаларнинг мужассами бўлиб халқлар онгига кирадилар" [5; Б.104.]. Демак, типлар миллий адабиёт сарҳадларидан жаҳон адабиёти контекстига кўтарилган, нафақат макон, балки замонлар чегараларини ҳам енгиб ўтувчи яшовчан образ лардир. Ҳар бир образ бирор ғояни акс эттирса, ҳар бир тип ортида муайян маконзамонга хос ижтимоий ҳодиса туриши диққатга сазовор. Типлар ҳатто, муайян асар контекстидан ажралиб, ижод оламида мустақил ҳаёт кечира бошлайдики, бадиий образларнинг бошқа ном остида турли асарларда, турфа санъат турларида бот-бот учраши шу ҳолат билан изоҳланади.

**Натижалар.** Албатта, жаҳон адабиётида образлар хилма-хиллиги чексиз. Адабиётшуносликда турфа образларни муайян белгиларига кўра, шунингдек образлардаги такрорланишларни ва улардаги ўхшаш **қадриятлар тизимини** ҳисобга олиб йирик гуруҳларга ажратиш давом этмоқда. Чунончи, архетиплар ( В.Е. Хализев уларни «сверхтип» [ 7; 405 б.] деб номлайди) каби замон ўлчовларидан юқори турувчи, умуминсоний образлар борки, улар турли миллий адабиётларда, турли даврларда яратилган образларни бир гуруҳ остида бирлаштиради. М.М.Бахтин [8; Б.76.], Е.М. Мелетинский [9; 136 б. ], В.Е.Хализев ушбу турдаги образларга икки хил бадиий образлар гуруҳини санаб ўтадилар. Биринчи гуруҳ авантюр-қаҳрамон образлар ( «авантюрно-героический образ») бўлиб, жаҳон бадиий меросида яратилган мифолигик, афсонавий, романтик адабиёт қаҳрамонларидан тортиб замонавий оммавий адабиёт қаҳрамонларигача ( Прометей, Одиссей, Ахилл, Тарас Бульба, Вертер, Онегин) ушбу ном остида жамланган. Қаҳрамонлардаги саргузаштларга ташналик, мавжуд воқеъликка нисбатан норозилик ва исёнкор руҳ уларни ҳамиша курашга, турли сафарларга ҳамда янги тажрибаларга чорлайди. Авантюр-қаҳрамон образларнинг барчасида кучли иштиёқ ҳамда шижоат намоён бўлиши билан биргаликда, ушбу иштиёқ баъзан эзгу мақсадларга асосланган бўлса, масалан, Одиссей, Прометей образида, айрим ҳолларда бундай образлар нафс, амалпарастлик ва шуҳрат изидан ҳаракатланади ( Дон Жуан, Фауст).

Архетип образларнинг яна бир тоифаси маиший-идиллиявий образлар ҳисобланади. Ушбу гуруҳ образлари авантюр-қаҳрамон образларнинг бутунлай тескариси сифатида намоён бўлади. Маиший-идиллиявий образлар мавжуд воқеълик билан ҳамжиҳатликда, сокин ҳаёт кечирадиларки, улар учун исёнкорлик, кураш ёт тушунчалар. Маиший-идиллиявий образлар учун меҳнатсеварлик, аҳил турмуш, дўстлик, ҳалоллик каби муайян ахлоқий қадриятлар устувор ҳисобланиб, уларда адабиётнинг дидактик функцияси кўпроқ рўёбга чиқади. Англашиладики, бундай қаҳрамонларда кескин ички зиддиятлар, гарчи мавжуд бўлсада, ёрқин сезилмайди, улар оламга дўстона кайфият билан боқишни афзал кўрадилар. Маиший-идиллиявий образлар нисбатан кечроқ, асосан охирги асрларда яратилган образлар бўлиб, хусусан, ўн тўққизинчи аср ижодкорлари асарларида гавдаланган. Н.А.Некрасов, И.С.Тургенев, А.П.Чехов, Ч.Диккенс, У.Фолкнер шулар жумласидандир. Бадиий адабиёт ҳаётнинг кўзгуси экан, кейинги асрлар адабиётида муросали маиший-идиллиявий образларниг кириб келиши инсониятнинг турли ижтимоий бўҳронларга, зиддиятларга консенсус йўли билан, қонли урушларсиз, ўзаро келишув йўли орқали эришишга интилаётганидан дарак беради. Кўринадики, архетипларнинг ҳар икки гуруҳи ҳам асосан қадриятлар

тизимидан келиб чиқиб авантюр-қаҳрамон ва маиший-идиллиявий образларга бўлинган.

**Хулоса.** Демак, бадиий образнинг назарий ва илмий масалаларини бугунги бадиий мезонлар нуқтаи назаридан қайта баҳолашга эҳтиёж мавжуд. Жаҳонда содир бўлаётган глобаллашув жараёни замонавий адабиётшуносликда бадиий образ поэтикаси каби долзарб муаммони ўрганишни тақозо этади. Бадиий образ ҳақидаги тасаввурлар ҳам ижтимоий тараққиёт билан биргаликда ўзгариб борар экан, унинг мазмун ва моҳиятини қайта кўриб чиқиш аҳамиятли бўлиб қолади.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. М. Просвещение, 1971, 62—б3-ст.
2. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: "Навоий университети". 2018. – Б.90.
3. Адабиёт назарияси. 1-том, —Т.: "Фан". 1978, —Б.118.
4. Каримов Б. Ўзбек адабий танқиди. —Т.: "Турон-Иқбол".—2011. — Б.471
5. Султон И. Адабиёт назарияси. — Т.: Ўқитувчи нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2 0 0 5 . — Б.104
6. Арасту. Ахлоқи кабир. —Т.:"Ўзбекистон энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2018. — Б.43.
7. В.Е.Хализев. Теория литературы. — М.: «Высшая школа». — 2004. — 405 с.
8. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. С. 176.
9. Мелетинский Е.М. О литературных архетипах. —М.: Российский государственный гуманитарный университет. —1994. — 136.с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*10.00.00-Педагогика фанлари*

**Кучкарова Ҳафиза**
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
немис тили назарий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси,
филология йўналиши бўйича фалсафа доктори, Phd

## НЕМИС АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ЖАНРНИНГ ЎРНИ

**Аннотация.** Ушбу маколада немис адабиётидаги жанр тушунчаси ва унинг алоҳида дунё тажрибаларини ўзида мужассам этган адабий алоқаларнинг бирлашган ташкилий шакли ва адабиётшуносликда насрий жанрлар таснифи адабиётнинг миллий хусусиятлари, тил имкониятларига боғлиқ равишда турлича амалга оширилиши тўғрисида фикр юритилади.
**Таянч сузлар:** жанр, сюжет, ҳикоя , тасвир ифодалари.

---

**Хафиза Кучкарова**
Узбекский государственный университет мировых языков
Кафедра теоретических наук немецкого языка старший преподаватель,
доктор философии в области филологии, кандидат наук

## РОЛЬ ЖАНРА В НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация.** В данной статье понятие жанра в немецкой литературе и его единая форма организации литературных отношений, воплощающих отдельные мировые опыты, и классификация жанров прозы в литературоведении рассматриваются по-разному в зависимости от национальных особенностей литературы и языковых возможностей.
**Ключевые слова:** жанр, сюжет, повесть, образные выражения

---

**Khafiza Kuchkarova**
Uzbek State University of World Languages
Department of Theoretical Sciences of the German Language
Senior Lecturer, PhD in Philology

## THE ROLE OF GENRE IN GERMAN LITERATURE

**Abstract.** In this article, the concept of genre in German literature and its single form of organization of literary relations embodying individual world experiences, and the classification of prose genres in literary criticism are considered differently depending on the national characteristics of literature and language capabilities.
**Key words:** genre, plot, story, figurative expressions

---

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N25

**Кириш.** Немис адабиётида жанр истилоҳи ўрнида "gattung" атамаси ишлатилади, матнларнинг шакл ва мазмун жиҳатидан гуруҳларга бўлинишига нисбатан татбиқ этилади. Адабий жанрларни белгилашда икки асосий омил мавжуд: биринчиси, норматив тарихий-фалсафий ёки антропологик принципларга асосланса, иккинчиси коммуникатив ва тарихий характер касб этиб, унинг илдизи адабиёт тарихига бориб тақалади. [1; 264]

Гегелнинг айтишича, жанр – "ифода воситаси", Гёте эса "шеъриятнинг табиий шакли", деб атайди. Шлегель жамики жанрларни ягона "универсал поэзия" таркибига бирлаштириш лозимлигини айтади. Б. Срос ҳам Шлегелни қўллаб-қувватлаган ҳолда жанр тушунчасини инкор этади. Жанр тушунчасининг норматив бўлмаган концептларини ижтимоий-маданий, тарихий ўзгарувчанлик белгилайди. Бунга кўра жанр – алоҳида дунё тажрибаларини ўзида мужассам этган адабий алоқаларнинг бирлашган ташкилий шаклидир. Жанр адабиётда ва адабиётшуносликда баҳсли бадиий асарларни мазмунан тартибга келтиради.

XIX аср бошида америкалик файласуф ва қиёсий адабиётшунос Ричард Рорти жанр ҳақида сўз юритар экан: "Гёте ва Макаулей (Thomas Babington Macaulay) ҳамда Карлэул (Thomas Carlyle) ва Эмерсон (Ralph Waldo Emerson) давридан бошлаб ёзма адабиётнинг янги тури ривожланди, бу на арзирли баҳолаш, на бадиий саҳна асари, на илмий-тарихий қайд, на ахлоқий фалсафа, на ижтимоий башорат, буларнинг бари биргаликда қоришилган жанр" деган хулосани олға суради. [2; 8]

Инглиз адабиёти тарихини тадқиқ этувчи Х.Орел фикрича, XIX аср инглиз ёзувчиларининг катта қисми ҳикоя ва повестни романга нисбатан қуйи поғонада деб қабул қилди. Айтиш мумкинки, ушбу ёндашувда адабиётни хослар ва авом учун ажратиш тенденцияси устунлик қилган.

**Мухокама ва Натижалар.** Маълумки, "XIX-XX аср бошларида "ҳикоя" ("story") жанри шаклланиш босқичини якунлаб, тўлиқлигича жанр хусусиятларига эга бўлди. Бу пайтга қадар бу шакл на ёзувчилар, на танқидчилар томонидан қабул қилинмаган эди"[2; 11].

Умуман, мазкур давр адабий-танқидий муҳитида терминологияга эътибор қаратилмаган, бадиий, ҳужжатли, публицистик ёки журналистиканинг бошқа жанрларидаги материаллари эканлигидан қатъи назар ҳажми 12000 сўздан кам бўлган барча асарлар "кичик наср" ("brief narratives / short fiction") деб юритилган. "Эртак" ("tale"), "эскиз"("sketch"), "ҳикоя" ("story"), "қисқа ҳикоя" ("short story"), "новелла" ("novel") ва ҳатто "роман" ("novelette") каби тушунчалар ўртасидаги фарқ XX асрга келибгина Англияда фарқлана бошлади".

1880-йилларда Ғарб адабиётшунослигида ҳикоя жанри ўзининг адабий тавсифига эга бўлди, эпик жанр иерархиясининг бошқа шакллари қаторига киритилди ва роман, повесть, ҳикоя, очерк таърифлари илмий истифодага киритила бошланди. Қисқа ҳикоя ("short story") жанридаги илк асарлардан бири америкалик ёзувчи, театршунос ва драматург Брандер Метюсга тегишли. "London Saturday Review" нашрида чоп этилган "Қисқа ҳикоя фалсафаси" мақоласида у ҳикояни мустақил адабий бирлик ва илмий атама сифатида белгилаб, ҳикоянинг еттита типологик жанр хусусиятларини келтиради:

- сюжет чизиғининг ўзига хослиги;

- ҳикоя битта таассурот қолдириши керак ва шунинг учун унда фақат битта белги, битта воқеа, битта туйғу ёки битта воқеа туфайли юзага келган ҳиссиётлар тасвирланиши мумкин;

- ҳикоя нафақат воқеаларни тақдим этишда, балки муаллиф услубида ҳам аниқлик билан ажралиб туради;

- тасвир ифодаларининг жонлилиги;

- ҳикоя амалда ўз ифодасини топган ёрқин ва қизиқарли воқеалар ҳақида сўзлаб бериши керак;

- ҳикоя сюжети қатъий мантиқий кетма-кетликда очилиши керак;

- фантастик сюжети бўлган ҳикоя афзал.

Инглиз ҳикоячилигини махсус тадқиқ этган рус олими А.А.Бурцевнинг фикрича, Б.Метюснинг назарий ечимлари унчалик ишонарли кўринмайди, унинг таъкидлашича, инглиз адабиётшунослигида "...мавжуд асарларда бу жанрнинг барқарор ва умумэътироф этилган таърифи йўқ".

Кўриниб турибдики, инглиз ёзувчилари ва Ғарб танқидчилари "ҳикоя", "эртак", "тасвир", "қисқа ҳикоя", "тарих", "иншо" каби терминологик таърифларни синоним тушунчалар сифатида ишлатиб келишган. Шунинг учун, ҳикоя жанри ўртасидаги фарқланишни топишга уринишлар XIX аср инглиз адабиёти танқиди нуқтаи назаридан ҳикоялар ёки қисқа ҳикояларга ажратилади.

Немис адабиётшунослигида ҳам жанрлар лирик, эпик ва драматик турларга ажратиб ўрганилади. Бироқ эпик жанр ва унинг шакллари хусусида фикрлар турлича. Ҳикоя шаклидаги халқ китоблари, Märchen (эртаклар), Sage (афсона), Fabel (масал), Schwank Legende (ривоят), новелла ва романларга бўлинган. Кичик эпик жанрга Märchen (эртак), Gleichnis (масал), Kurzgeschichte, Lügengeschichte, Novelle (новелла), Erzählung (ҳикоя)лар кирса, катта эпик жанрга роман, эпос, Saga (ёзма ёдгорлик шаклидаги қиссалар)лардан иборат бўлади.[3;7]

Айрим немис манбаларида келтирилишича, эпик жанрлар уч турга – кичик, ўрта ва катта эпик жанрларга бўлинади. Кичик эпик жанрларга - Märchen, Sage/Legende (афсона/ривоятлар), Fabel (масал), Parabel/Gleichnis (масал), Kalendergeschichte (тақвим битиклари), Schwank (матал), Anekdote (анекдот), Kurzgeschichte (кичик ҳикоялар), Reportage (репортажлар) кирса, ўрта эпик жанрга новелла ва ҳикоялар, катта эпик жанрга – роман, эпослар киради. [4; 36]

Яна бир қатор адабиётшунослар эса бу таснифлашни икки қисмга ажратади. Улар эпик турни кичик ва катта насрий жанрларга ажратишади. Кичик насрий жанрларга Märchen, Sage/Legende (афсона/ривоятлар), Fabel (масал), Parabel/Gleichnis (масал), Kalendergeschichte (тақвим битиклари), Schwank (матал), Anekdote (анекдот), Kurzgeschichte (кичик ҳикоялар), Reportage (репортажлар), новелла ва ҳикоялар киритилса, роман ва эпосни катта насрий жанр тоифасига киритишади.

Адабиётшуносликда насрий жанрлар таснифи адабиётнинг миллий хусусиятлари, тил имкониятларига боғлиқ равишда турлича амалга оширилган.

Kurzgeschichte (кичик ҳикоялар) жанрининг пайдо бўлиши XIX асрда газеталар ривожи билан чамбарчас боғлиқдир. Америкалик ёзувчилар учун китоб бозоридан кўра газеталар саҳифасида ўз асарлари билан чиқишлари муҳимроқ бўлган, сабаби бу ҳолат машҳурлик учун қўйилган дадил қадамлардан ҳисобланарди. Мазкур жанр даставвал

*short story* номи билан инглиз ва Америка адабиётида учрай бошлаган. Эдгар Аллан По (Edgar Allan Poe), Шервуд Андерсон, (Sherwood Anderson), Френсис Скотт Фитцжеральд (Francis Scott Fitzgerald), Эрнест Хемингуэй (Ernest Hemingway), О.Генри (О.Henry), Уильям Фолкнер (William Faulkner), Синклер Левис (Sinclair Lewis), Ҳенри Слезар (Henry Slesar) каби ижодкорлар томонидан дастлабки кичик ҳикоялар ёзилди.

Немис тилидаги илк кичик ҳикоялар 1900-йилларда пайдо бўлди. Бу жанрдаги дастлаб ижод қилган адиблар экспрессионизм оқими вакиллари Альфред Дюблин ва Роберт Музил бўлган.

**Хулоса.** Немис адабиётида кичик ҳикоялар 1945 йилдан кейинги „Kahlschlag“ оқимининг таъсирида вужудга келди. Немислар америкалик ёзувчиларга қараганда мазкур жанрга ўзгача тус беришди. Улар кичик ҳикоялар тилининг содда ва равон, ҳар қандай жимжимадор қочириқларсиз, ғоявий қарашларсиз бўлишига замин ҳозирладилар. Янги жанрда “Grupре 47” вакиллари самарали ижод қилганлар, улардан Ҳайнриҳ Бёлл, Ингеборг Бахманн, Мартин Вальзер, Гюнтер Грасс, Петер Биксель каби машҳур адиблар шулар жумласидандир.

Мазкур жанрга бир неча жиҳатдан қатъий талаблар қўйилган:

Шаклига кўра: ўта ихчамлик; поездда — темирйўлнинг бир бекатлик масофасида ўқиб тугалланиш; беш саҳифадан ошмаслик.

Мазмунига кўра: бирор воқеадан парча; воқеалар битта жойда кечиши; қаҳрамонлар бир ёки икки нафар бўлиши; ҳаётий воқеалар табиий ҳолатда тилга олиниши; бош қаҳрамон “тақдир синов”ларини, муаммоли ҳолатни бошдан кечириши, қўрқув, шок ҳолатида бўлиши мумкин; бош қаҳрамон характерида ўта иккиланиш устунлик қилиши мумкин; асар воқеалари кундалик ҳаёт олинади; қаҳрамонлар фақат кўрсатилади, характер жиҳатдан шакллантирилмайди; асарнинг кириш, шарҳ ҳамда якуний фикри берилмайди; ҳикоячи нейтрал бўлади.

Воқелик ечимига кўра: воқеага тўғридан-тўғри ёндашиш, кўпинча ҳикоя қаҳрамонлари учун шахссиз олмош қўлланилади; тўсатдан рўй берган воқелик; муаммоли вазиятга шарҳ ва ечим берилмайди, ҳикоячи томонидан воқеага аниқлик киритилмайди; китобхонда бироз тушкун кайфият туғдирса-да, муаммоли вазиятдан чиқиб кетишни унинг ўзига қолдиради; воқеа ҳақида китобхон узоқ ўйлаб юришини таъминлайди.

Тузилишига кўра: ҳикоячи(ровий)нинг ўрни қатъий; мустаҳкам сюжет; кульминацион нуқта ва воқеа якунининг бирга келиши;

Қаҳрамонлар танлашга кўра: воқеа марказида оддий инсон туради; кўпинча қаҳрамонлар бир ёки икки кишидан иборат бўлади; қаҳрамонлар фақат тасвирланади, характер жиҳатдан шакллантирилмайди;

Тил нуқтаи назаридан:

– асосан, содда, халқчил бўлиши лозим.

Немис адабиётида кичик ҳикоя жанридаги асарлари билан машхур ижодкор Зигфрид Ленц таъбирича, “Кичик ҳикоялар таом тўлдирилган ликопча мисоли, унинг мазасини татиб кўриш – китобхоннинг ишидир”.[5; 67]

Адабиётшунос Людвиг Ронер эса, кичик ҳикояларда воқелик гўё кўз очиб юмгунингизча содир бўлиши билан характерли эканлигини таъкидлайди. [6; 56]

Кейинги йиллардаги Европа адабиётидаги асарлар янги оҳанглар, ифода тарзи эса янги усуллар билан бойиб бормоқда. Ифоданинг қабариқлиги, тасвирнинг серқатламлиги, мазмун, руҳий ҳолат манзараларининг ранг-баранглиги билан, инсонни бадиий тадқиқ этишга бадиий усулларнинг ўз ўрнини бўшатиб бораётгани билан алоҳидалик касб этади. Қаҳрамон хаёлоти ва кечинмаларидаги жараёнларни тасвир объектига айлантириш, реаллаштириш, уни янада тўлароқ илғашга интилиши билан ўзига хосдир.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Турғунов С.Т. Таълим муассасаларини бошқаришда инновацион фаолият. // ж. Узлуксиз таълим. – Т., 2006. — №4. – Б.4.
2. Педагогик атамалар луғати. – Т.: ЎзПФИТИ, 2008. – 136 б.
3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 222 б.
4. Запесоцкий А.С. Образование: философия, культурология, политика / А.С. Запесоцкий. -М.: Наука, 2002. - 456 с.
5. Баранчеев В. Управление знаниями: Учебное пособие (журнал «Маркетинг». Специальный выпуск № 29) / В.Барачеев. – М.: Центр маркетинговых исследований и менеджмента, 2005. – 144 с.
6. Simonton D.K. Creativity: Cognitive, personal, developmental and social aspects // American Psychologist. 2000. V. 55. – P. 151–158.
7. Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – М.: Прогресс, 1994. – 480 с.
8. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009. – 434 с.
9. Бьюзен Т. Могущества творческого интеллекта / Т. Бьюзен. - Минск: Попурри, 2004. – 160 с.
10. Арипджанова А.Р. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (ПхД). ... дисс. Автореф. – Т., 2017. – 50 б.
11. Юнусова Д.И. Бўлажак математика ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлаш назарияси ва амалиёти: педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Тошкент, 2012. – 47 б.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*10.00.00-Филология фанлари*

**Комилова Муяссар Мавжудовна,**
старший преподаватель Ташкентского университета
прикладных наук, самостоятельный соискатель
НИИ педагогических наук им. Т. Н. Кары Ниязи
моб.: +998935348715

эл. почта: mmkomilova@gmail.com

## ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ РУССКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ВОЕННОГО АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ ПРИ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОМ ОБУЧЕНИИ

**Аннотация.** В статье проанализированы работы зарубежных и отечественных видных ученых-лингвистов по вопросам развития речи. Расмотрены проблемы, припятствующие развитию русской речи учащихся военно-академических лицеев «Темурбеклар мактаби». Расскрыты специфические особенности обучения русскому языку как иностранному в военно-академических лицеях. Систематизированы факторы, влияющие на развитие русской речи учащихся-узбеков. Предлагается ряд предложений по решению вышеуказанных проблем.

**Ключевые слова:** среднее специальное военное образование; уровень знания русского языка; систематизация обучения; факторы: семейные, образовательные, личностные; дифференциация и индивидуализация; среда; постановление президента; дифференцирование; мотивация; непрерывное обучение; целенаправленность.

**Komilova Muyassar Mavjudovna,**
Senior Lecturer, Tashkent University of Applied Sciences,
independent researcher of the Research Institute of
Pedagogical Sciences named after T. N. Kary Niyazi
Email: mmkomilova@gmail.com

## FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF RUSSIAN SPEECH OF STUDENTS OF A MILITARY ACADEMIC LYCEUM WITH DIFFERENTIATED TRAINING

**Abstract.** The article analyzes the work of foreign and domestic prominent linguists on the development of speech. The problems hindering the development of the Russian speech of students of the military academic lyceums "Temurbeklar Maktabi" are considered. The specific features of teaching Russian as a foreign language in military academic lyceums are revealed. The factors influencing the development of the Russian speech of Uzbek students are systematized. A number of proposals are proposed to solve the above problems.

**Keywords:** secondary specialized military education; level of knowledge of the Russian language; systematization of training; factors: family, educational, personal; differentiation and individualization; Wednesday; presidential decree; differentiation; motivation; continuous learning; purposefulness.

**Komilova Muyassar Mavjudovna,**
T. N. Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institute
mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti katta oʻqituvchisi

mob.: +998935348715
El. Pochta: mmkomilova@gmail.com

## HARBIY AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING RUSCHA NUTQINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Annotatsiya.** maqolada xorijiy va mahalliy taniqli tilshunoslarning nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlari tahlil qilingan. "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilarining rus tilidagi nutqini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar ko'rib chiqilgan. Harbiy akademik litseylarda rus tilini chet tili sifatida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. O'zbek o'quvchilarining 198uscha nutqining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirilgan. Yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun bir qator takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar va iboralar**: o'rta maxsus harbiy ta'lim; rus tilini bilish darajasi; kadrlar tayyorlashni tizimlashtirish; omillar: oilaviy, ta'limiy, shaxsiy; farqlash va individuallashtirish; muhit; Prezident farmoni; farqlash; motivatsiya; uzluksiz ta`lim; maqsadlilik.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N26

В настоящем времени образование рассматривается как фактор, спасающий общество от глобальных конфликтов и различных проблем, возникающих в жизни человека. Такое положение ставит перед представителями системы образования огромные задачи, такие как уделение серьезного внимания вопросу образования и воспитания.

В последние годы в процессе обучения и воспитания основное внимание уделяется формированию квалифицированных педагогических кадров, формированию знаний и умений учащихся, внедрению различных новых методов, созданию условий для развития полноценной личности, способного думать, общаться с окружащим миром, слушать и понимать самого себя и других, готового принимать важные решения.

Ibn Sinoning huquqiy qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, unda mutafakkir davlatning mavjudligini jamiyat bo'linishi bilan bog'lab, o'zaro uchta tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Qonun ijodkorining qonun ishlab chiqarish va mamlakat boshqaruvidagi asosiy maqsadi jamiyatni uch toifaga bo'linishi lozimligi bilan bog'lab o'tadi. Bular: 1) boshqaruvchilar; 2) hunarmandlar va 3) harbiylar. U qonun chiqaruvchining har bir guruh tepasiga bir rahbar tayinlanishi lozimligi, uning ostidagilar uchun esa boshqa rahbarlar qo'yilishi va u odamlarning umumiy boshqaruviga kelguniga qadar davom etishi lozimligi ta'kidlangan.

Mutafakkir, davlatda barqarorlik va tinchlikni saqlash uchun barcha narsa qonun bilan tartibga solinishi va bunga mas'ul bo'lgan shaxslar jamiyatning uchta tarkibiy qismini qamrab olishi lozimligi uqtiradi: birinchidan, mutafakkir hokimiyatning o'z tarkibiga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan iborat bo'lishi, ular boshqaruv qoidalarni ishlab chiqishi orqali davlatni boshqarishga mas'ul ekanligini ta'kidlaydi; ikkinchidan, tadbirkor va

ishbilarmonlarni mutafakkir mamlakatdagi iqtisodiy ishlarni rejalashtiruvchi, tashkil etuvchi va amalga oshiruvchilar sifatida tavsiflaydi; uchinchidan, davlat qo‘riqchilari (soqchilar), harbiylar, siyosatchilarni davlat xavfsizligini muhofaza qilishga javobgar bo‘lgan tashkilotlar sifatida talqin etadi.

Ibn Sino jamiyatning davlatga aylanish jarayonini iqtisodiy uy xo‘jaligi va ushbu faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxslar va guruhlar bilan bog‘lab o‘tadi [2]. Uning fikricha, iqtisodiy uy xo‘jaligi bu er, xotin, bolalar va xizmatchilar kabi oila elementlaridan tashkil topib, ushbu har bir element iqtisodiy uy xo‘jaligining barcha oila a’zolariga foyda keltirishi uchun mas’uliyatli ekanligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari u, iqtisodiy jamiyat xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar va guruhlardan iborat ekanligini uqtiradi. U shaxs ehtiyojlarining xilma-xilligi jamiyatda turli kasb va mashg‘ulotlarning yuzaga keltirgan deb hisoblaydi. Davlat iqtisodiy xo‘jaligi orqali boshqariladigan iqtisodiy faoliyati jamiyatda adolat va farovonlikka erishishga xizmat qiladi.

Ibn Sino davlatning jamiyat va boshqaruvdagi rolini uch jihatga bo‘ladi, xususan:

1) davlatda qonunning mavjudligi;

2) davlatda bo‘sh ish o‘rinlarining yaratilganligi;

3) fuqarolarning ijtimoiy muhofazaga olinishi.

Keling, davlatning boshqaruvdagi yuqorida keltirilgan rolini huquqiy jihatlariga batafsil to‘xtalib o‘tsak.

***Birinchidan,*** hukumat jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida davlatda iqtisodiyotni barqarorlashtirishni ko‘zlovchi iqtisodiy siyosat sohasidagi normalarni ishlab chiqishi lozim. Agar bunday qilinmas ekan, jamiyatda majburiy mehnat, ta’qib, zulm va korrupsiya kabi ko‘plab muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham hukumat iqtisodiyotga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishi va uni kafolatlashi lozim. Ibn Sino fikricha, hukumat iqtisodiy faoliyatga doir bitimlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tovlamachilik va adolatsizlikni oldini oluvchi qonunlar ishlab chiqarishga mas’ul bo‘lishi lozim [3].

Agar davlat xavfsizligi barqaror bo‘lmasa, bunda xorij investorlari yoki tadbirkorlarni davlatda o‘z tadbirkorlik faoliyatini yuritishiga ikkilanishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun davlatdagi siyosiy iqtisodiy barqarorlikka erishishda, Ibn Sino o‘zining “madina al-fazila”sida jamiyat tuzilishini tartibga solishi lozimligini uqtiradi. Davlatning asosiy uch tarkibiy qismi, ya’ni hukumat, iqtisodiy faoliyat yurituvchilar va davlat qo‘riqchilari “madina al-fazila”ga erishish uchun mas’uldirlar, deb aytib o‘tgan.

***Ikkinchidan,*** davlatning bo‘sh ish o‘rinlari bilan ta’minlash siyosati. Ibn Sino davlatda bandlik masalasi xususida to‘xtalib o‘tar ekan, shaharda har bir kishi o‘ziga tegishli ma’lum bir vazifa, kasb-kor va o‘ziga xos joyga ega bo‘lishi, har bir shaxs o‘ziga yuklatilgan vazifadan kelib chiqib, shahar uchun foyda keltirishi lozimligini asoslab bergan. Jumladan, u jamiyatda bekorchilik va ishsizlikni qonun yo‘li bilan taqiqlanishini taklif etadi. Qonun inson uchun zarur bo‘lgan kundalik ehtiyojlarini boshqa birovning hisobidan qondirishiga yo‘l ochib bermasligi va bunda har bir kishining o‘zini ortiqcha harakatdan tiyishi lozimligini shrhlab bergan. Agar shaxsning jismoniy nuqsoni yoki kasalligi aniqlansa, qonun chiqaruvchi bunday holatlardagi shaxslar uchun alohida joy ajratishi lozimligini asoslab bergan.

Ibn Sino jamiyatda ishsizlikni ta’qiqlashning huquqiy jihatlariga to‘xtalib o‘tar ekan, uning quyidagi uchta jihatiga e’tibor qaratgan:

*Birinchidan,* jamiyatning har bir a'zosi o'z shahri va jamoasiga hissa qo'shish yoki foyda keltirishga mas'uldir. Davlatga hissa qo'shish jamiyatning majburiyatlaridan biridir. Demak, davlatga foyda keltirish uchun jamiyat a'zolari o'ziga biriktirlgan ishni mukammal, vijdonan va sidqidildan maksimal darajada ehtiyotkorlik va mahorat bilan bajarishlari kerakligini tavsiflaydi.

*Ikkinchidan,* hukumat odamlarni ish bilan ta'minlash va ishsizlikni taqiqlovchi qonunlarni tayyorlash imkoniyati orqali shaharda bekorchilik va ishsizlikni tugatishga mas'ul ekanligini aytib o'tadi. Uning fikricha, Alloh tomonidan koinot mukammal yaratilgan va insoniyat bunda o'z rizqini topishi uchun barcha vositalarga erishish imkoni mavjud. Alloh tabiiy ravishda har bir ish uchun bir maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Olam va uning qismlari mukammal yaratilgan bo'lib, unda hech qanday nomukammallik va bandsizlikka o'rin yo'q. Agarda, yer yuzida inson o'z kundalik ehtiyojini qondirish uchun chindan ham harakat qilganida, ular ish bilan band bo'lar edi. Shuning uchun, Allohning o'rinbosari sifatida davlat o'z fuqarolariga shaxs va jamiyatga foyda keltiruvchi tegishli ishlar bilan ta'minlashi va tanlash erkinligini berishi, shaxsga va umuman jamiyatga zarar yetkazadigan ishlarni taqiqlashi yoki bekor qilishi lozim. Shuningdek, davlat jamiyat hayoti uchun foydali bo'lgan ishlab chiqarish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlashi kerak. Biroq, zino va o'yin-kulgi kabi zararli sohalar faoliyatini taqiqlashi kerakligini tushuntiradi. Mutafakkir, Alloh insonlarga bu dunyoda yashash va kun ko'rishi uchun bergan ksab-hunar turlarini bayon qiluvchi Qur'oni karimdagi suralar bilan dalillab o'tgan.

*Uchinchidan,* Ibn Sino mehnatga layoqatsiz, kasal yoki nogironlarga nisbat g'amxo'rlik qilishni hukumatning ijtimoiy mas'uliyati deb e'tirof etadi. Bunday holatda hukumat ularni maxsus joyga joylashtirish va ularning o'zlarini mustaqil ta'minlash layoqatiga ega bo'lishlariga qadar malakasini oshirish va kasbga yo'naltirishga mas'ul deb, hisoblaydi.

Ishsizlikni tugatish maqsadida keltirib o'tilgan ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, mamlakatda adolat va farovonlikka erishish uchun davlatning burchi sifatida qaralgan. Ushbu chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi orqali davlat kasallar, nogironlar va ishsizlarning oziq-ovqat bilan ta'minlanishini tartibga solishga javobgarligini ko'rsatadi. Binobarin, mutafakkir islom qoidalari asosida davlat ish bilan ta'minlash maslasini yechish orqali jamiyatning asosiy ehtiyojlarini ta'minlashi va kafolatlashi mumkinligini tahlil etib bergan. Agar, odamlar kasallik yoki jismoniy nuqsoni tufayli ishlay olmay qolganda, bunday holatda davlat ularni moddiy qo'llab-quvvatlashi, dangasalik tufayli ish topa olmasa, davlat bunday shaxslarni jazolashi lozim. Bundan tashqari, davlatning moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini saqlab qolishda shardagi boylar pul berib, hukumatga bu borada o'z yordamlarini ko'rsatishlari kerak.

Ibn Sino davlat o'z fuqarolarini ish bilan ta'minlash maqsadida quyidagi siyosatni amalga oshirishi lozimligini ko'rsatib o'tgan:

1. fuqarolarning mehnatga layoqatli va sog'lom bo'lgan davrda foydali va haq to'lanadigan mehnat bilan shug'ullanishining kafolatlanishi;

2. Samarali ishlash uchun malaka oshirish tizimining yo'lga qo'yilganligi;

3. Kasallik paytida bepul va samarali tibbiy xizmatlardan foydalanishning kafolatlanishi;

4. Kasallik, bevalik, ishsizlik, shuningdek, keksalik va voyaga yetmaganlik kabi shaxslarning irodasiga bog'liq bo'lmagan yurdik faktlar tufayli nogironligi bo'lgan fuqaroning asosiy ehtiyojlarini ta'minlash [4].

Ibn Sino ijtimoiy muhofazani ta'minlashda jamiyat uchun ijtimoiy kafolat tizimining roli xususida toʻxtalib, uning jamiyat manfaatlarida yuzaga keladigan muammolarni hal qiluvchi vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Shaharda ijtimoiy himoyani yoʻlga qoʻyish uchun umumiy jamgʻarma mavjud boʻlishi kerakligini, uning bir qismi meva va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari kabi orttirilgan va tabiiy foydadan olinadigan boyliklardan, bir qismi jazo tariqasida tayinlangan jarimalardan, yana bir qismi esa, qonunga qarshilik koʻrsatganlardan tortib olingan mol-mulkdan iborat boʻlishi kerakligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, jamgʻarma umumiy farovonlikka erishish va jamiyat ehtiyojlarini qondirish, hech qanday hunarmandchilik bilan band boʻlmagan, turli kasalliklar tufayli kundalik ehtiyojini qondirishga qiynalayotgan shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishini koʻrsatib beradi. Uning tushuntirishicha, jamiyat manfaati uchun boylikni boshqarishda ikkita asosiy nuqta borligini tahlil qilish mumkin, ya'ni "mal musytarak" (umumiy boylik) va "masholih musytarakah" (umumiy manfaatlar).

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning davlat va huquq haqidagi qarashlari bizga davlatning ijtimoiy farovonlikni va ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi rolini anglashda muhim konseptual ahamiyat kasb etadi. U davlatning paydo boʻlishini jamiyatni boʻlinishi bilan bogʻlab, ular oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik davlatni yuzaga keltirganligini koʻrsatadi. Davlatda xavsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun jamiyatning barcha tarkibiy qismlari qonunlar asosida tartibga solinishi kerakligini izohlaydi. Jamiyat manfaatlari va ijtimoiy xavfsizligining ta'minlanganligi, bu ijtimoiy adolat deb talqin qiladi va uni birinchidan, jamoat ishlarini adolatli hal etish maqsadida qabul qilingan qonunlarning paygʻambar sunnatiga muvofiq kelishi; ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanishga erishish maqsadida fuqarolarning toʻliq ish bilan ta'minlanishida hukumatning mas'uliyatli ekanligini; uchinchidan, ijtimoiy ta'minot va himoya orqali jamiyatda boylar va kambagʻallar oʻrtasidagi tafovutni yoʻq qilish orqali davlatdagi iqtisodiy muvozanatni saqlab qolishda degan xulosaga keladi.

## Adabiyotlar / Literatura / References:


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish boʻyicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi// https://president.uz/oz/lists/view/5696
2. Ibn Sina, Kitab al-Siyāsah. ed. Louis Ma'luf, in Louis Cheikho et. al, Maqālat Falsafiyyah Qadīmah li Ba'di Masyāhīrih Fālāsifah al-arab Muslimin wa Nasara, Beirut: al Matba al-Kātsūlīkiyyah lil Abāi al-yasūiyyin, 1911. –p.5.
3. Avicenna. Shifā›, Kitāb Ilāhīyāt (Metaphysics of the Healing). Translated by Michael E. Marmura with Arabic edition. Provo, UT: Brigham Young University Press, 2005. 441 p.
4. Muhammad Asad, The Principles of State and Government in Islam. -Gibrartar: Dar al-Andalus, 1980. –p.58.
5. M. Cüneyt Kaya. In the shadow of "prophetic legistlation"; the venture of practical pilosophy after Avicenna, Arabic Sciences and Philosophy. -Cambridge University Press, 2014, vol. 24. -pp.269-296.
6. Ibn Sina [Avicenna]// https://plato.stanford.edu/entries/ibn-sina/
7. Sobirovich T. B. National Principles of Democracy in Uzbekistan //Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS). – 2021. – T. 5. – №. 3. – C. 131-135.
8. Sobirovich T. B. National and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 334-338.

9. Sobirovich T. B. The national and universal principles of democracy in the Central Asian context //International Journal of Advanced Research and Review. – 2021. – Т. 6. – №. 1. – С. 30-34.
10. Sobirovich T. B. A study of national and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 417-421.
11. Turdiyev B. S. Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 443-451.
12. Sobirovich T. B. Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan //Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST). – 2023. – Т. 7. – №. 1. – С. 149-157.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*12.00.00 – Юридик фанлар*

**Матчанов Фахриддин Курамбой ўғли,**
Тошкент давлат юридик университети
мустақил изланувчиси
Телефон:+998 (93) 503-60-00
E-mail: matchanovfaxriddin@gmail.com

## МАҲКУМЛАРНИ АХЛОҚАН ТУЗАТИШ ВОСИТАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ БЎЙИЧА АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

**Аннотация:** Мақолада муаллиф томонидан озодликдан маҳрум этиш тариқасидаги жиноий жазони ўтаётган маҳкумларни ахлоқан тузатиш воситаларини қўллаш бўйича Финляндия, Швейцария, Германия ва бошқа илғор хорижий давлатлар тажрибасига оид айрим жиҳатлар ёритилган. Жумладан мазкур мамлакатларда турмаларда маҳкумларнинг таълим олишига ва касб-ҳунар ўрганишига ҳам жиддий эътибор қаратилганлиги ёритилган.

**Калит сўзлар**: жазони ижро этиш, маҳкум, ижтимоий мослаштириш, тарбиявий таъсир, маҳкумлар таълими, ахлоқан қайта тарбияланиш, дифференциал ёндашув.

**Матчанов Фахриддин Курамбой угли**
независимый соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

## ОПЫТ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ СРЕДСТВ НРАВСТВЕННОГО ИСПРАВЛЕНИЯ ЗАКЛЮЧЕННЫХ

**Аннотация.** В статье автором рассматривается опыт Финляндии, Швейцарии, Германии и других передовых зарубежных стран по использованию средств нравственного исправления осужденных, отбывающих уголовное наказание в сфере лишения свободы. В частности, отмечается, что образованию и профессиональной подготовке осужденных в этих странах уделяется серьезное внимание

**Ключевые слова:** исполнение наказания, осужденный, социальная адаптация, воспитательное воздействие, воспитание осужденного, нравственное перевоспитание, дифференцированный подход.

**Matchanov Fakhriddin Kuramboy ugli**
Independent researcher of
The Tashkent State University of Law

## THE EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES IN USING MEANS OF MORAL CORRECTION OF PRISONERS

**Abstract.** In the article, the author examines the experience of Finland, Switzerland, Germany and other advanced foreign countries on the use of means of moral correction of convicts serving criminal sentences in the field of deprivation of liberty. In particular, it is noted that serious attention is paid to the education and vocational training of convicts in these countries.

**Keywords:** execution of punishment, convicted person, social adaptation, educational impact, education of the convicted person, moral re-education, differentiated approach.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N30

**Кириш**. Мустақиллик йилларида жазони ижро этиш тизимини эркинлаштиришга ва маҳкумни ахлоқан тузатиш воситаларини қўллашни кенгайтиришга доир чора-тадбирлар мамлакатимиз раҳбарияти томонидан улкан социал ва ижтимоий-сиёсий аҳамиятга эга масала сифатида қаралмоқда. Бу эса, ўз навбатида, маҳкумни ахлоқан тузатишни такомиллаштириб бориш ва ушбу соҳада хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш, таҳлил қилиш, лозим бўлса, тажрибанинг ижобий томонларини бизнинг республикамизда ҳам қўллаш вазифасининг ҳал этилишини тақозо этади.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, кўплаб хорижий мамлакатларда озодликдан маҳрум қилиш жазосини ўтаётган маҳкумларга таъсир этишнинг энг самарали, айни пайтда, истиқболли усул ва методларини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга жорий этиш масалалари турлича ҳал этилган. Жумладан, Финляндия, Швейцария, Германия Федератив Республикаси, Буюк Британия ва АҚШда жазони ижро этувчи муассаса ва органларнинг ҳар хил тизимларини шакллантириш, жазони ўташ даврида маҳкумлар билан муомала қилишнинг илмий асосланган методларини ишлаб чиқиш ва қўллаш, маҳкумларни тоифалаш ҳамда уларга нисбатан дифференциал тарзда ёндашув борасида бой амалий тажрибалар тўпланган.

Финляндияда турмалар тизими Адлия вазирлигига қарашли бўлиб, 2021 йилдаги ҳолат бўйича мамлакатда жами 23 турма (17 таси ёпиқ ва 6 таси очиқ шаклда) ва 36 та муассасада умумий сони 3 мингга яқин маҳкум сақланган[1]. Бундан ташқари Турку шаҳрида маҳкумлар учун руҳий касалликлар шифохонаси ва турма касалхонаси фаолият кўрсатади. Шунингдек, ҳар бир маҳкумнинг телевизор, магнитофон, китоб, ўқув қуроллари, компьютер ўйинларидан фойдаланишига рухсат этилади.

Маҳкумларнинг ўқиши расман Финляндия давлатининг ўрта ва умумтаълим тўғрисидаги умумий қонунчилигига асосан амалга оширилади. Бироқ мамлакат пенитенциар тизими раҳбарияти маҳкумлар учун махсус ўқув курсларини ташкил этиш ва ўзига хос ўқув дастурларини ишлаб чиқиш орқали таълимнинг янги шакл ва методларини изламоқдалар. Маҳкумлар таълими учун сарфланадиган молиявий харажатларнинг тахминан 50 фоизи маориф ва муниципалитет (шаҳар ва қишлоқларни ўзи идора қилувчи маъмурият) органлари томонидан, қолган қисми эса турма маъмурияти томонидан қопланади. Турмалар учун малакали ходимларни тайёрлаш вазифаси Финляндия Адлия вазирлигининг етакчи (айни вақтда ушбу соҳадаги ягона) таълим муассасаси ҳисобланувчи ва 1976 йилдан фаолият кўрсатаётган пенитенциар муассаса ходимлари Ўқув маркази зиммасига юклатилган. Марказнинг таянч курсларини ҳар йили ўртача 40–60 курсант тамомлайди ва таълим олувчиларнинг ўртача ёши 24–26 ёшни ёки ҳар учтадан биттасини аёллар ташкил этади.

**Муҳокама.** 2001 – 2021 йилларда Ўқув марказида ўқиш истаги билан мурожаат қилган турли касб-ҳунарларга эга бўлган жами абитуриентларнинг

10 фоизигина ўқишга қабул қилинган. Ўқиш муддати назарий ва амалий машғулотларни ўз ичига олган 40 ўқув ҳафтасини ҳамда 13 ҳафталик иш амалиётини ташкил этади. Бундан ташқари, турма ходимларининг малакаларини ошириш мақсадида йил мобайнида 100 дан ортиқ турли хил кўринишдаги семинар машғулотлари ташкил этиб борилади[2].

Швейцарияда эса озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо ижросини ташкил этиш борасида ягона жиноят-ижроия қонунчилиги мавжуд эмас. Унда жами 26 та кантондаги турмалар маъмурияти озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо ижросини ташкил этиш бўйича тартиб қоидаларини мамлакат учун ягона бўлган жиноят қонунчилигидаги чеклашлардан келиб чиқиб белгилайди[3].

Ўзларини ижобий хулқ-атвордан кўрсатиб бораётган маҳкумлар сақланадиган камераларда телевизор ва музика аппаратураларини сақлашга рухсат этилади. Маҳкумлар ушбу аппаратураларни ойига 20 швейцария франки (тахминан 10 АҚШ доллари) тўлаган ҳолда турма маъмуриятидан ижарага олишлари мумкин. Телевидения орқали 30 га яқин дастур немис, француз ва итальян тилларида намойиш этилади.

Маҳкумларнинг бўш вақтларини ижтимоий фойдали фаолиятга жалб этиш турма маъмуриятининг доимий диққат марказида бўлиб, бу фаолият – маҳкумларни мажбурий меҳнатга жалб этиш, умумий ва касб-ҳунар таълимини йўлга қўйиш, спорт, диний-маънавий ва шу каби бошқа тадбирларни амалга ошириш орқали олиб борилади[4].

Бундан ташқари, маҳкумларни алкоголизм, гиёҳвандлик ёки заҳарвандликка қарши даволаш курслари бўйича дастурларда, озодликка тайёрлаш босқичидаги дастурларда, диний-маънавий дастурлардаги фаол иштироки ҳам рағбатлантириш учун асос бўлади.

Таъкидлаш лозимки, Швейцарияда маҳкумларни ижтимоий фойдали фаолият билан жалб этишда юқори савияда жиҳозланган спорт майдончаларидан, мактаблардан, ибодат хоналаридан ва турли тиллардаги адабиётлар билан тўлдирилган кутубхоналардан унумли фойдаланилади. Мамлакат турмалар тизими фаолиятининг ўзига хос эътиборли томони шундаки, маҳкумларни нафақат жазони ўташ жараёнидаги ҳаётига, балки озодликка чиқарилгандан кейинги ҳаётларига ҳам жиддий эътибор берилади[5].

Озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо ижросини ташкил этиш борасида Германия Федератив Республикасида тўпланган тажрибалар ўзининг ижобий томонларини кўплиги билан Европадаги аксарият давлатлар томонидан эътироф этилган. Мамлакат жазони ижро этиш тизими Адлия вазирлиги таркибида бўлиб, унинг ўзига хос томонларидан бири маҳкумларга нисбатан ўзаро таъсир этиш чораларини олиб боришда асосий мутахассислар сифатида ижтимоий ёрдам кўрсатувчи ходимлар, руҳонийлар ва психологлардан фойдаланилади. Ушбу ходимлар фаолиятидаги асосий принциплардан бири озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазога ҳукм қилинган маҳкумлар билан ишлаш жараёнида, улар эртами-кечми, барибир, жамиятга қайтиши ва унинг тенг ҳуқуқли аъзоси бўлишлигини англаб етилганлиги ва эътироф этилганлигидир. Яна бир эътиборли томони шундаки, озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ижро этиш муассасаларида диннинг роли ўта муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун ҳам ҳар бир жазони ижро этиш муассасаси ўзининг католик ва

протестант руҳонийсига эга бўлиб, улар маҳкумларга озод бўлганларидан сўнг ҳам ёрдамларини давом эттириб боради[6].

Немислар тажрибасидан шу нарсани билса бўладики, бошқа соҳаларда бўлгани каби жазони ижро этиш муассасаларида сақланаётган маҳкумларни ижтимоий фойдали фаолиятга жалб этишда узоқни кўзлаб иш тутилади. Жумладан, маҳкумлар атом реактори пайвандчиси, автомат линияларини созловчи каби юқори малакали ихтисосликларга ўқитилади ва бундан кўзланган асосий мақсад маҳкум озодликка чиққанидан сўнг юксак технологияларга асосланган ишлаб чиқариш корхоналарида бемалол ишлаб кетиши лозим. Шунинг учун ҳам Германиядаги ахлоқ тузатиш муассасалари амалда юксак малакали ходимлар резервини тайёрлаб берувчи жой ҳисобланади ва бу нарса, немис мутахассисларининг ишонишича, рецидив жиноятчиликнинг олдини олиш имкониятини кўпайтиради.

Бундан ташқари, турма маъмурияти меҳнат биржалари билан яқиндан ҳамкорликда бўлиб, меҳнат бозорида қандай мутахассисларга эҳтиёж катта бўлаётганлиги, келгусида қайси соҳаларда малакали ишчи кучи зарурати борлиги ва шу каби бошқа масалаларни чуқур ўрганади ва таҳлил қилиб борадилар.

**Натижалар.** Турмада маҳкумларнинг таълим олишига ва касб-ҳунар ўрганишига ҳам жиддий эътибор қаратилган. Таълим олаётган маҳкумлар шартли равишда қуйидаги икки тоифага ажратилади: – бошланғич таълим (ўқиш, ёзиш, арифметика) курсларида ўқиётган саводи яхши бўлмаганлар; умумтаълимнинг қисқартирилган дастурлари бўйича таълим олаётган саводи яхши бўлганлар.

Сўнгги йилларда Германиядаги турмаларда масофавий таълимни жорий этилаётганлиги кўпчиликда қизиқиш уйғотяпти. Бу эса, ҳақиқатдан ҳам, бир қанча Европа давлатларининг телемарказлари орқали бериладиган ўқув дастурларини маҳкумлар томонидан реал ўзлаштириш имкониятини туғдиряпти. Шунингдек, турма жойлашган шаҳарнинг кўзга кўринган жамоат арбоблари (шифокор, педагог, ишчи ва ҳ.к.)дан иборат васийлик кенгаши тузилган бўлиб, ушбу кенгаш турма маъмурияти томонидан амалга ошириладиган барча жабҳалардаги фаолият йўналишларида фаол иштирок этади ҳамда озодликдаги кундалик турмуш тарзи ҳаётига тайёрлаб боришда кўмаклашади[7].

Буюк Британияда турмалар тизими аксарият Европа давлатларидаги каби Адлия вазирлиги томонидан эмас, балки Ички ишлар вазирлиги томонидан бошқарилади ҳамда қуйидаги уч мустақил тармоқдан иборат: Шимолий Ирландия турмалар хизмати; Шотландия турмалар хизмати; Англия ва Уэльс турмалар хизмати.

Йигирма бир ёшгача бўлган ёш маҳкумларни сақлаш учун Англияда борсталь ахлоқ тузатиш муассасалари ва мактаблари мавжуд. Бундан ташқари, вояга етмаган ҳуқуқбузарларни қисқа муддатга сақлаб туриш учун ахлоқ тузатиш-тарбия марказлари тизими ҳам фаолият кўрсатади[8].

Маҳкумларни озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ўташ даври қуйидагиларга бўлинади: синов даври (маҳкум якка тартибда сақланади); ахлоқан тузалиш даври (мажбурий меҳнатга жалб этиш орқали бошқа маҳкумлар билан биргаликда умумий хоналарда сақланади); муддатидан илгари шартли равишда озод қилиш даври (жазонинг камида тўртдан уч қисмини ўтаган маҳкумлар учун).

Британия турма қоидаларига асосан ҳар бир маҳкумга билим олиш имконияти яратилиши шарт. Барча турмаларда кечки ўқув машғулотлар дастурлари ишлаб чиқилган бўлиб, хоҳловчилар ўз билим даражаларини сиртқи ёки кечки таълим олиш шаклида оширишлари ёхуд ишдан бўш вақтларида касб тайёргарлигидан ўтишлари мумкин. Касб тайёргарлиги учун барча шароитлар етарли бўлса бу тайёргарлик меҳнат қилиш учун ажратилган соатларда ташкил этилади ва иш ҳақи тўланади. Буюк Британия пенитенциар муассасаларида маҳкумларга таълим бериш жараёни юқори савияда ташкил этилган бўлиб, бу ерда бошланғич маълумотдан бошлаб олий маълумотгача олиш мумкин. Таълимнинг шакллари ҳам ранг-баранг: кечки таълим, ҳафтанинг маълум кунларида ташкил этиладиган кундузги таълим, очиқ университет ва коллежлардаги сиртқи таълим, махсус курсларда ўқиш, аёллар учун алоҳида ўқув курслари. Маҳкумлар учун таълим олиш асосан ҳомийлар ҳамда хайрия ташкилотлари ҳисобидан бепул бўлса-да, бироқ баъзи бир таълим бериш хизматлари пулликдир. Таълим жараёнининг узликсизлиги фақатгина жазони ўташ давридагина эмас, балки жазо муддати тугаганидан сўнг ҳам таъминланиши эътиборга молик жиҳатдир. Буларнинг ҳаммаси озод бўлаётган маҳкумнинг жамиятга мослашиб кетишига жиддий ёрдам беради[9].

Коллегия аъзолари турмаларнинг хоҳлаган жойини текшириш, маҳкумлар ва ходимлар билан аноним тартибда суҳбат қилиш ҳуқуқига эга[10]. Таъкидлаш лозимки, Буюк Британияда турмалар тизимини назорат қилишнинг бундай шакли мамлакатда озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо ижросини самарали ташкил этишни таъминлашда, маҳкумларни ахлоқан тузатишда, жиноятлар содир этилишининг олдини олишда, маҳкумларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишда ўзига хос тажриба ҳисобланади.

АҚШда озодликдан маҳрум этиш жойлари устидан раҳбарликни амалга ошириш Бош атторнейга юклатилган[11]. Шунингдек, жазони ижро этиш муассасалари устидан бошқарув икки томонлама, яъни маҳаллий (муниципалитет) органлар ҳамда округ пенитенциар муассасалар бошқармаси томонидан амалга оширилади. Жазони ижро этиш муассасаларида маҳкумларни ахлоқан тузатиш ва жиноятчилик даражасини пасайтириш учун бир қатор дастурлар ишлаб чиқилган. Улар қуйидагилардан иборат: руҳий характердаги дастурлар – содир этган жиноятига иқрор бўлмайдиган маҳкумлар ёки жазо муддати жуда қисқа бўлганлиги учун бошқа дастурларга қатнаша олмайдиган маҳкумлар учун қўлланилади; интенсив (узоқ муддатли) дастурлар – рецидивистлар, гиёҳвандлар ва жинсий зўровонлик жиноятини содир этганларга мўлжалланган; ўтиш (мослашув) дастурлари – жазонинг охирги 9 ойини ўтаётган маҳкумлар учун ишлаб чиқилган; кенгайтирилган дастурлар – паст даражадаги интелектга эга бўлган маҳкумлар билан ишлашни назарда тутади.

Осло (Норвегия) университетининг криминолог олими Н. Кристининг фикрича, АҚШда ўтган асрнинг 80-йилларидан бошлаб хусусий турмалар фаолиятидан кенгроқ фойдаланилмоқда. Жумладан, 1987 йилда хусусий турмаларда 3000 маҳкум сақланган бўлса, 1996 йилга келиб уларнинг сони 85.000 кишига етган. USA Today газетасининг 1996 йил 5 июндаги хабарига кўра, бу кўрсаткич кейинги ўн йил ичида 360.000 кишига етиши мумкинлиги башорат қилинган[12]. Қайд этиш керакки, Ўзбекистон Республикаси жиноят-ижроия қонунчилигига мувофиқ маҳкумни ахлоқан тузатишнинг

асосий воситаларига жазони ижро этиш ва ўташнинг белгиланган тартиби (режими), ижтимоий-фойдали меҳнат, тарбиявий иш, умумий ва ҳунар таълими, касб тайёргарлиги ва жамоат таъсири киради. Манзил колонияларида жазони ўтаётган маҳкумларга муассаса жойлашган ердаги олий ва ўрта махсус ўқув юртларида сиртдан ўқишга рухсат этилади. Бироқ, амалда бунинг ижросини кўриш жуда мушкул. Шу жиҳатдан жазони ижро этишда маҳкумларга таълим беришнинг сифатини оширишда хорижий давлатлар тажрибасидан унумли фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Таълимнинг инсонпарварлик руҳида олиб борилиши бир қатор давлатларда, жумладан, Австрия, Буюк Британия, Дания, Норвегия, АҚШ, Финляндия, Франция, ГФРда алоҳида таҳсинга лойиқ. Жумладан, Данияда «маҳкум давлатнинг ҳар қандай фуқароси сингари таълим олиш ҳуқуқига эга». Финляндия қонунчилигининг ўзига хос хусусияти мамлакат иқтисодий аҳволидан қатъи назар ҳар бир маҳкумнинг таълим олиши учун етарлича шароит қилиб берилиши лозим.

**Хулоса.** Маҳкумларни умумий ва касб-ҳунар таълимини сифати ва самарадорлигини ошириш учун қуйидаги ишларни амалга оширишда қуйидагиларга алоҳида эҳтибор қаратиш ҳамда жазони ижро этиш тизимига уларни жорий этиш мақсадга мувофиқ: таълимни ташкил этиш ва ўқиш жараёнига малакали мутахассис-педагогларни жалб этиш; масофавий таълимни жорий этиш; маҳкумларнинг таълим олмаганлиги ёки уларни билим даражасидан келиб чиқиб уларни кичик гуруҳларга бўлиб ёки индивидуал тарзда ўқитиш; маҳкумларнинг таълим олмаганлиги ёки уларни билим даражасидан келиб чиққан ҳолда таълим дастурлари ишлаб чиқиш ва ўқув курслари ташкил этиш.

Аминмизки, жазони ижро этишда маҳкумларга нисбатан тарбиявий таъсир чораси сифатида таълимдан фойдаланиш жиноий жазоларни ўташ жараёнида маҳкумларнинг таълим олиш ҳуқуқини таъминлашга, маҳкумларнинг касбий ва шахсий ривожланишига, жазони ўтаб бўлгандан сўнг жамиятга мослашишига хизмат қилади. бу эса пенитенциар тизимнинг профилактик функцияси самарадорлигини оширишга олиб келади.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Социальная работа в уголовно-исполнительной системе: Учебное пособие / Под общ. ред. Ю.И.Калинина. – Рязань, 2022. – С.315.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00-Педагогика фанлари*

**Боборахматов Бобир Бўриевич**
Термиз давлат университети
Спорт бошқаруви кафедраси ўқитувчиси

## ЕНГИЛ АТЛЕТИКАНИНГ ЮГУРИШ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА КЎП ЙИЛЛИК ТИЗИМЛИ БОШҚАРИШ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ

**Аннотация.** Мақолада югуриш йўналишларига ихтисослашган ёш спортчиларни чуқурлаштирилган тайёргарлик босқичида тайёрлаш жараёнининг тузилиши ва мазмуни кўриб чиқилади. Бундан ташқари 12-16 ёшдаги ёш спортчиларни тайёрлаш тизимининг асосий қоидаларини ишлаб чиқиш зарурлиги кўрсатилган. Муаллифнинг фикрича, ёш юқори тоифали югурувчиларни тайёрлаш самарадорлигини машғулот юкламаларининг ҳажми ва интенсивлигини ошириш орқали эмас, балки машғулот жараёнини рационализация қилиш орқали сезиларли даражада ошириш мумкин. Машғулотлар макро-, мезо- ва микроциклларнинг оптимал тузилишига асосланади. Биологик ривожланишнинг соматик тури ва варианти, анаэроб чегараси ва юрак уриш тезлиги билан боғлиқ функционал кўрсаткичлар, таянч-ҳаракат тизимининг хусусиятлари ва кўп йиллик тайёргарлик циклининг истиқболда мушаклар кучини намоён қилишнинг ўзига хос хусусияти асосида машғулотлар жараёнини бошқариш таклиф этилади. Аэроб ва анаэроб чегарани вақти-вақти билан аниқлаш ҳам тавсия этилади.

**Калит сўзлар:** енгил атлетика, югуриш турлари, тизимли бошқарув, кўп йиллик тайёргарлик, ёш спортчилар, машғулотлар, педагогик технология.

**Боборахматов Бобир Буриевич**
Термезский государственный университет
Преподаватель кафедры Спортивного менеджмента

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ МНОГОЛЕТНЕГО СИСТЕМНОГО УПРАВЛЕНИЯ БЕГОВЫМИ ВИДАМИ ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКИ

**Аннотация.** В статье рассмотрены структура и содержание тренировочного процесса юных спортсменов специализирующихся в беговых видах легкой атлетики на этапе интенсивной подготовки. Кроме того, указывается на необходимость разработки основных правил системы подготовки юных спортсменов 12-16 лет. По мнению автора, эффективность подготовки юных бегунов высокого класса можно существенно повысить не за счет увеличения объема и интенсивности тренировочных нагрузок, а за счет рационализации тренировочного процесса. Тренировки строятся на оптимальной структуре макро-, мезо- и микроциклов. Предлагается управлять тренировочным процессом, исходя из соматического типа и варианта биологического развития, функциональных показателей, связанных с анаэробным порогом и частотой сердечных сокращений, особенностей опорно-двигательного аппарата, особенностей проявления мышечной силы в ракурсе многозадачности годичного цикла обучения. Также рекомендуется периодическое определение аэробного и анаэробного порога.

**Ключевые слова:** легкая атлетика, виды бега, систематическое управление, многолетняя подготовка, юные спортсмены, тренировка, педагогическая технология.

**Boborakhmatov Bobir Burievich**
Termez State University
Lecturer at the Department of Sports Management

## PEDAGOGICAL TECHNOLOGY FOR LONG-TERM SYSTEMIC MANAGEMENT OF RUN-WIDE TYPES OF LIGHT AND ATHLETICS

**Abstract.** The article considers the structure and content of the training process of young athletes specializing in cross-country athletics at the stage of intensive training. In addition, the need to develop the basic rules for the training system for young athletes aged 12-16 is indicated. According to the author, the effectiveness of training young high-class runners can be significantly improved not by increasing the volume and intensity of training loads, but by rationalizing the training process. Training is based on the optimal structure of macro-, meso- and microcycles. It is proposed to manage the training process based on the somatic type and variant of biological development, functional indicators associated with the anaerobic threshold and heart rate, features of the musculoskeletal system, features of the manifestation of muscle strength in terms of multitasking of the annual training cycle. Periodic determination of the aerobic and anaerobic threshold is also recommended.
**Key words:** athletics, types of running, systematic management, long-term training, young athletes, training, pedagogical technology.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N31

**Кириш.** Спорт фаолиятидаги муваффақиятлар кўп жиҳатдан болалар, ўсмирлар, ўғил болалар ва қизларнинг табиий мойиллиги ва кўп йиллик машғулотлар давомида педагогик таъсирларни вақт бўйича тўғри танлаш ва тақсимлаш билан боғлиқ. Олимлар педагогик, биотиббиёт, психологик ва математик тадқиқот усулларининг кенг арсеналидан фойдаланган ҳолда олинган экспериментал маълумотлар асосида узоқ муддатли спорт машғулотларининг фундаментал қоидаларини ва уларни амалиётга татбиқ этиш усулларини ишлаб чиқдилар. Тўпланган тадқиқот маълумотлари спортчиларни эрта болаликдан бошлаб фаол спорт билан шуғулланишнинг охиригача тайёрлашнинг назарий ва услубий контсепциясининг асосларини яратишга имкон берди. Ушбу мустаҳкам илмий-услубий асосда узоқ муддатли спорт машғулотларининг ҳар бир босқичи учун мақсад, вазифалар ва фундаментал педагогик йўриқномалар шакллантирилди. Кейинги йилларда бир қатор тадқиқотлар туфайли танланган спорт турининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда узоқ муддатли машғулотларнинг биринчи ва иккинчи босқичларида ўқув машғулотларини режалаштириш бўйича аниқ амалий тавсиялар ишлаб чиқилди. Шу билан бирга, югуриш турлари йўналишларига ихтисослашган ёш спортчиларни тайёрлаш жараёнининг тузилиши ва мазмуни ҳақидаги маълумотлар чуқурлаштирилган тайёргарлик босқичида анча кичикроқ ҳажмда келтирилган.

Шу билан бирга, бундай маълумотларнинг етишмаслиги узоқ муддатли машғулотларнинг иккинчи босқичига нисбатан узлуксизликни таъминлашни ва учинчи босқичда ёш югурувчилар ва югурувчилар танасининг тўртинчи босқичда максимал юкларни бажаришга тайёрлигини шакллантиришни қийинлаштиради. Ёш югурувчиларни тайёрлаш жараёнини бошқаришнинг педагогик амалиётини уларнинг

ёшига боғлиқ ривожланишининг адекват ритмларига, уларнинг морфологик ва функтсионал ҳолатининг параметрларига педагогик таъсирларнинг мазмуни ва тузилиши тўғрисида янги илмий ва технологик билимлар билан таъминлашнинг долзарб зарурати. тизимлар ва ушбу ташкилий-педагогик вазифани ҳал қилиш бўйича илмий асосланган тавсияларнинг йўқлиги ҳозирги муаммоли вазиятнинг моҳиятидир.

Юқорида тавсифланган ҳолатлар 12-16 ёшдаги ёш спортчиларни тайёрлаш тизимининг асосий қоидаларини ишлаб чиқиш зарурлигини кўрсатади, бу бизнинг тадқиқотимизнинг долзарблигини олдиндан белгилайди.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Кўп йиллар давомида олимлар енгил атлетиканинг югуриш турларини ўргатиш самарадорлигини ошириш йўлларини излашди. Бир қатор мутахассислар анъанавий ўқув жараёнини такомиллаштириш тарафдорлари (В. В. Балахничев [1; 16 б.], Ю. В. Верхошанский [3; 23 б.], М. А. Годик [4; 43 б.]), бошқалари дастурлаштирилган таълимга эътибор беришади (В. К. Бальсевич [2; 39 б.], С.А. Локтев [7; 14 б.], Л. П. Матвеев [8; 143 б.]), оғзаки билим даражаси ва ҳаракатлар техникасини ўзлаштириш жараёни учун ўзгартирилган бошқарув тизимлари (Г. Н. Максименко [9; 43 б.], В. М. Дьячков [5; 114 б.], В. М. Зациорский [6; 121 б]).

Тадқиқотнинг мақсади енгил атлетика спортига ихтисослашган ёш спортчиларни узоқ муддатли тайёрлашнинг педагогик тизимини илмий ва технологик жиҳатдан асослашдир.

Енгил атлетика бўйича ихтисослашган ёш спортчиларнинг ёши ва кинезиологик салоҳиятининг асосий параметрларининг малака динамикаси қонуниятлари тоғрисидаги маълум илмий маълумотларга асосланиб, спортни илмий, услубий ва тиббий-биологик таъминлаш технологияларига янги ёндашувлар, спорт элитасини тайёрлаш, машғулотларнинг ёш спортчининг морфо-функционал ва биомеханик тизимларининг ҳолати ва ривожланиш ритмларига мувофиқлиги принципидан келиб чиқиб, жуда кўп ўқув юкларининг ҳажми ва интенсивлигини ошириш орқали, лекин ўқув жараёнини ратсионализация қилиш орқали биз ёш юқори тоифали югурувчиларни тайёрлаш самарадорлигини сезиларли даражада оширишни таклиф қилдик.

Ёш спортчилар ўртасида ушбу муаммони ҳал қилишда макро-, мезо- ва микроциклларни оптимал тузишни асослаш, жисмоний ва техник тайёргарликнинг зарурий тузилмасини аниқлаш ва унинг спорт маҳоратининг ўсиши билан ўзгариши, машғулотлар ва мусобақа юкламаларининг мазмуни ва тузилишини, шунингдек, спортчининг тикланиши ва соғлигини сақлаш жараёнларини мониторинг қилишнинг биотиббиёт усуллари педагогик маҳорат ривожланишининг асоси ҳисобланади.

Тадқиқот вазифалари қуйдигалирдан иборат бўлди:

1. Енгил атлетика бўйича ихтисослашган ёш спортчиларнинг асосий морфофункционал тизимлари ва жисмоний сифатларининг рағбатлантириш орқали ривожланишининг ўзига хос хусусиятларини ва уларнинг спорт кўрсаткичларига таъсир даражасини ўрганиш.

2. Йиллик циклда турли хил ўқув воситалари ҳажмларининг нисбатини енгил атлетика билан шуғулланувчиларни чуқурлаштирилган тайёрлаш босқичида экспериментал текшириш.

3. Машғулот микроциклларини қуришнинг асосий қонуниятларини очиб бериш, енгил атлетикага ихтисослашган спортчиларни тайёрлашнинг тайёргарлик ва мусобақа

даврларида улардан фойдаланишнинг самарали схемаларини экспериментал асослаб бериш.

4. Машғулотлар самарадорлиги ва мусобақа юкламалари ҳамда ёш спортчиларда тикланиш жараёнларининг боришини педагогик ва тиббий-биологик назорат маълумотларидан фойдаланишнинг педагогик алгоритмларини назарий ва экспериментал жиҳатдан асослаш.

Вазифаларни ҳал қилиш учун қуйидаги методлар қўлланилди:

- енгил атлетика ва спорт ўйинларида турли ёшдаги ва малакали спортчиларни тайёрлаш муаммолари бўйича маҳаллий ва хорижий адабиётларни мантиқий ва мазмунли таҳлил қилиш, спорт ютуқларини таҳлил қилиш, тайёрлашда илғор педагогик тажрибани ўрганиш ва умумлаштиришни ўз ичига олган назарий таҳлил қилиш;

- бошқариш ва назорат қилиш муаммоларини ўрганиш услубари (адабий манбалар ва ҳужжатларни ўрганиш, эксперт баҳолаш технологиялари);

- педагогик тадқиқот услублари мажмуи (педагогик кузатишлар, педагогик назорат тестлари, педагогик тажрибаларни аниқлаш ва шакллантириш);

- биотиббиёт тадқиқот услублари мажмуаси (антропометрия, спорт тестерлари ёрдамида пулсометрия, полидинамометрия, биокимёвий қон тестлари, полиелектрокардиография, реография);

- экспериментал маълумотларни математик ва статистик қайта ишлаш усуллари (корреляция таҳлили, Стьюдент мезони бўйича қиёсий таҳлил).

Тадқиқот материаллари стандарт компютер дастурлари ёрдамида қайта ишланди.

**Муҳокама.** Тадқиқот тўрт босқичда амалга оширилди. Биринчи босқичда енгил атлетика бўйича ихтисослашган ёш спортчиларнинг кўп йиллик машғулотларини бошқариш муаммоси ҳолати ўрганилди ва уни ҳал этишнинг истиқболли ёндашувларини режалаштириш бўйича ишлар олиб борилди.

Иккинчи босқичда енгил атлетика бўйича ихтисослашган ёш спортчиларнинг асосий морфологик ва функционал тизимлари ва жисмоний сифатларининг рағбатлантирилган ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари ҳамда уларнинг спорт кўрсаткичларига таъсир қилиш даражаси ўрганилди.

Учинчи босқичда енгил атлетиканинг югуриш турлари билан шуғулланувчиларнинг чуқурлаштирилган тайёргарлигининг йиллик циклидаги турли воситалар ҳажмларининг нисбати экспериментал синовдан ўтказилди, шунингдек, ёш спортчиларда машғулотлар самарадорлиги ва мусобақа юкламалари, тикланиш жараёнларининг боришини педагогик ва тиббий-биологик назорат қилиш маълумотларидан фойдаланишнинг назарий жиҳатдан асосланган ва экспериментал синовдан ўтган педагогик алгоритмлари ўрганилди.

Тўртинчи босқич машғулот микроциклларини режалаштиришнинг асосий қонуниятларини очиб беришга ва тушунишга, енгил атлетиканинг югуриш турларига ихтисослашган ёш спортчиларни тайёрлашнинг тайёргарлик ва мусобақа даврларида қўллашнинг самарали схемаларини экспериментал асослашга бағишланди.

Назарий ва услубий тадқиқотлар натижасида биринчи босқичда 12-16 ёш оралиғида енгил атлетиканинг югуриш йўналишлари бўйича узоқ муддатли

машғулотлар мазмуни ва тузилишини бошқариш бўйича ташкилий-услубий талаблар алгоритми асослаб берилди. Алгоритм тадқиқотимизнинг асосий натижаларини бирлаштирган ҳолда қуйидаги асосий қоидаларда келтирилган.

1. Келажакда халқаро миқёсдаги спорт натижаларига эришишга йўналтирилган ёш спортчи-югурувчиларни узоқ муддатли тайёрлаш мазмуни ва тузилмасини бошқариш тизимини учта даражада ифодалаш мумкин:

- стратегик танлов ва режалаштириш;
- ўргатиш, тарбиялаш ва тарбиявий таъсирлар босқичини оператив ва жорий ташкил этиш ва амалга ошириш;
- потенциал истиқболли спортчининг мусобақалар ва ўқув-машғулотлари фаолиятининг индивидуал мақбул услуби ва ритмини шакллантириш.

2. Стратегик танлаш ва режалаштириш бошқаруви тоифасининг педагогик маъноси машғулот пайтида ривожланиши қийин бўлган спорт қобилиятларининг устун параметрлари ҳолатининг белгиларини ташхислаш асосида спортчининг потенциал имкониятларини пухта таҳлил қилиш зарурлигини англатади.

3. Ўргатиш, тарбиялаш ва тарбиявий таъсирларни босқичма-босқич жорий этиш ва амалга ошириш ҳажми, интенсивлиги, биомеханик амалга ошириш шаклларини доимий равишда тузатиш, спорт машғулотларининг долзарб ва кўп йиллик мақсадларига эришишга қаратилган машғулотлар таъсирининг самарадорлигини ошириш, психологик ёрдам ва жорий прогнозлашни таъминлайдиган дидактик тузилмани яратишга қаратилган назорат тадбирларини ўз ичига олади.

4. Мусобақалар ва ўқув-машғулотлари фаолиятининг индивидуал мақбул услуби ва ритмини шакллантиришнинг бошқарув тоифаси ўқув юкламаларининг йўналишларини ўзгартириш ҳажмлари, интенсивлиги ва ритмлари таркибий қисмларининг умумий формати ва контурларини назорат қилади. Иккинчиси ёш спортчилар танасининг морфологик ва функционал тизимларининг ҳолати динамикаси билан боғлиқ ҳолда, ҳозирги ва тезкор педагогик муаммоли вазиятлар ва бошқа тартибдаги вазифалар ва уларни ҳал қилиш имкониятларининг ўзига хос чекловлари билан белгиланади.

**Натижалар.** Тетраполяр дифференциал реограмма кўрсаткичлари бўйича енгил атлетиканинг югуриш турларига ихтисослашган спортчиларнинг юрак-қон томир тизими ҳолати динамикасига машғулотларнинг таъсирини баҳолаш имкониятларини ўрганиш қуйидагиларни аниқлашга имкон берди:

- спортчилар қонининг кучли ҳажми (ҚКХ) қиймати спортчиларнинг ёши, спорт ихтисослиги, спорт тайёргарлиги даражаси, шунингдек, спорт машғулотлари босқичларига боғлиқ бўлади;
- спортчиларнинг бир ёш босқичидан иккинчисига ўтиши билан қоннинг кучли ҳажми кўрсаткичлари ошади;
- қонннинг кучли ҳажми даражасининг энг юқори кўрсаткичлари узоқ масофага югурувчилар учун, энг пасти эса спортчи бўлмаган ўқувчилар учун хосдир;
- қоннинг кучли ҳажми даражасининг энг юқори кўрсаткичлари мусобақалар даврининг бошида қайд этилади.

12 ёшдан 16 ёшгача бўлган даврда организмнинг морфологик ва функционал тизимлари билан бир қаторда тананинг мувозанат функцияси ривожланади. Тана

мувозанати стратегиясини шакллантириш тезлиги табиий ўсиш жараёнлари хусусиятлари билан белгиланади. Спорт билан шуғулланадиган 14-15 ёшдаги қизлар ва 15-16 ёшли ўғил болаларда стабилометрик кўрсаткичлар катталар учун хос бўлган қийматларга етади. Спорт билан шуғулланмайдиган ўсмирларда мувозанат функциясининг нормаллашиши қизлар учун 15-17 ёшда ва ўғил болалар учун 17-18 ёшда содир бўлади. Муаллиф енгил атлетиканинг югуриш турлари тананинг мувозанат функциясини шакллантириш жараёнини интенсив нормаллаштиришга ёрдам беришини аниқлади.

Машғулотларни режалаштиришнинг ўзига хослиги юқори интенсивликдаги югуриш юкламасини кўпайтиришни, макросоматик турдаги иккала жинсдаги спринтерлар учун ҳам куч машқлари ҳажмини оширишни таъминлайди. Сакраш машқлари сони аксинча камайиши керак, айниқса спортчилар балоғат ёшида бўлган даврда. Микросоматик типдаги шахсларда юқори интенсивликдаги югуриш ҳажми ва куч машқлари сони камаяди. Микросоматик типдаги инсонларда ҳар хил турдаги сакрашлар ҳажми машғулотларнинг барча босқичларида макросоматик тип вакилларига нисбатан каттароқ бўлади. Ўрта ва узоқ масофаларга югуришга ихтисослашган макросоматик спортчилар учун югуриш юкламаларини режалаштиришда кўпроқ аэробик режимда, микросоматик турдаги одамлар учун эса аралаш ва анаэроб режимларда югуриш юкламаларининг миқдорини ошириш керак. Юкламаларнинг умумий ҳажми мушак массасининг топографиясига ва иштирокчиларнинг индивидуал соматотипик ва функционал хусусиятларига қараб танланган махсус югуриш машқларини ўз ичига олиши керак.

Қисқа, ўрта ва узоқ масофаларга югурувчилар билан ишлашда спорт машғулотларининг барча босқичларида чидамлиликни ривожлантиришга қаратилган жисмоний машқларни режалаштириш керак, бу эса спортчиларнинг функционал кўрсаткичларини керакли даражага кўтариш имконини беради. Тадқиқот натижалари асосида, айниқса қисқа ва ўрта масофага югурувчилар учун чидамлиликни ривожлантиришга қаратилган мушаклар юкламаларидан спорт машғулотларининг мусобақалар даврида фойдаланишни тавсия қилиш мумкин.

**Хулоса.** Шуни ҳисобга олиш керакки, болалар ва ўсмирларнинг спортга тайёргарлиги ортиши организмнинг функциялари ва тизимларининг яхшиланиши билан бирга келади. Шунинг учун функционал қобилият мезонлари ҳар бир ёш даражасида сезиларли даражада фарқ қилиши мумкин. Махсус чидамлилик ва бошқа жисмоний сифатларни устунроқ такомиллаштириш учун сенситив даврлар ҳақидаги маълумотлардан фойдаланиш керак. Ёши ва жисмоний тайёргарлигидан қатъий назар, махсус чидамлиликни оширишга ёрдам берадиган машғулотлар таъсирида югуриш тезлиги ва самарадорлиги ошади. Мураббийликда спортчининг ҳолатини бошқариш, нафақат сезгирлик ва кўра билиш, спорт натижаларига таяниш, балки тананинг функционал тизимларининг объектив морфологик, физиологик кўрсаткичларидан ҳам фойдаланиш жуда муҳимдир. Бу эса доимо қисқа, ўрта ва узоқ масофаларга югуришда ишончли захирани тайёрлашга ёрдам беради.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Балахничев В. В. К проблеме целевого программирования государственной поддержки легкой атлетики в России до 2004 г. // Теория и практика физической культуры, 1996. № 6. - С. 15-17.
2. Бальсевич В. К. Перспективы развития общей теории и технологий спортивной подготовки и физического воспитания (методологический аспект) // Теория и практика физической культуры, 1999. № 4. - С. 21-26, 39-40.
3. Верхошанский Ю. В. Актуальные проблемы современной теории и методики спортивной тренировки // Теория и практика физической культуры, 1993. № 11-12. - С. 21-24.
4. Годик М. А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. - М.: Физкультура и спорт, 1980. - 136 с.
5. Дьячков В. М. Ведущие параметры, фазы и элементы координации и их отражение в ритме двигательного акта: Сб. науч. тр. ВНИИФКа. - М., 1972. - С. 77-131.
6. Зациорский В. М. Физические качества спортсмена. - М.: ФиС, 1966. - 200 с.
7. Локтев С. А. Педагогический и медико-биологический контроль за юными бегунами на средние дистанции // Теория и практика физической культуры, 1994. № 11. - С. 11-14.
8. Матвеев Л. П. Основы спортивной тренировки. - М.:Физкультура и спорт, 1977. - 280 с.
9. Максименко Г. Н. Научно-методические основы системы подготовки юных спортсменов, специализирующихся в легкой атлетике и спортивных играх, на этапе углубленной тренировки. Автореф. дисс. ... докт. - М., 1996. - 64 с.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Uraimov Sanjar Ro‘zmatovich**
Farg‘ona davlat universiteti aniq va tabiiy fanlar
kafedrasi mudiri p.f.b.f.d., (PhD), dotsent
Email. uraimov-sanjar@mail.ru

## BOSHLANG'ICH MAKTAB O‘QUVCHILARINING JISMONIY FAOLLIGINI BAHOLASH

- From the perspective of teaching and learning in integrated language skills lessons, communicative tasks - information gap, and role play have important in that they assure learners practice the integration of two or more language skills simultaneously and actively engage in the procedure of teaching-learning integrated language skills in classrooms and establish an authentic language atmosphere that encourages positive student-to-student and teacher-to-student interactions. The sharing of proper teaching material/modules in encouraging the integration of language skills in language classrooms is quite definite. However, the current research depicted that the lack of such a tool limited teachers' power in planning lessons and proper lesson implementation that would assure integrated language skills teaching become successful.

## Adabiyotlar/Литература/References

1. Avalos, B. (2011). Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years. Teaching and Teacher Education, 27, 10-20.
2. Deykina, A. D. (2011) Trends in the development of the Russian language teaching methods. Russian Language at School, 6, 4-8.

3. Guerrero, D., & La Rosa G. (2013) Scientific Domain Analysis of Professional Competences, Procedia – Social and Behavioral Sciences, 92, 369-376.
4. Irgasheva N.N. Raising motivation of students in a second/foreign language acquisition. [Electronic Resource]. Вопросы науки и образования, № 5 (50), 2019. P. 168-171. URL: https://scientificpublication.ru/images/PDF/2019/50/Questions_of_science_and_e ducation-5-50.pdf/ (date of access: 15.10.2019).
5. Khamdamova S.O. Efficiency in the use of multimedia and hypermedia English lessons. [Electronic Resource]. Issues of science and education, 2018. P. 89-91.
6. Korotkova I.I. Features approach to teaching foreign language in the middle school // Informatics and education. – 2009. - No. 4, 5. P. 115-116.
7. Levchenko V.V. Integrated approach in teaching foreign languages // Higher education. - Samara, 2009. - No. 2. P. 84-87.
8. Nikolashina E. A. Integrated approach to teaching a foreign language // Concept. – 2017. No 16. – URL: http://e-koncept.ru/2017/470197.htm.
9. Scarcella R. & Oxford R., 1992. "The tapestry of language learning: The individual in the communicative classroom". Boston: Heinle & Heinle.
10. Toshmatova N.A Journal writing as a teaching tool to promote reflection. [Electronic Resource]. Достижения науки и образования, № 7 (48), 2019. P. 53-54. URL: https://scientifictext.ru/images/PDF/2019/DNO-7-48/DNO-7-48.pdf/ (date of access: 15.10.2019).

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 – Педагогика фанлар*

**Устоев Абдураззоқ Қурбонович**
Термиз давлат университети
Спорт бошқаруви кафедраси катта ўқитувчиси

## ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КУРАШЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИДА ПСИХОЛОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

**Аннотация.** Экспериментал тадқиқотнинг мақсади юқори малакали курашчиларни тайёрлашда психологик қўллаб-қувватлаш дастурини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, унинг асосида ушбу спорт турининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда спорт психологи фаолияти дастурини яратиш эди. Тадқиқот гипотезаси курашчиларнинг муваффақиятли шахсини шакллантириш ва ривожлантириш учун уларда янги малака даражасига ўтишга психологик тайёргарлигини тизимли асосда рағбатлантирадиган психологик ёрдам дастурини ишлаб чиқиш зарурлигини тахмин қилиш эди.

**Калит сўзлар:** кураш, психологик ёрдам дастури, психологик ёрдам, психологик тайёргарлик, курашчилар.

**Устоев Абдураззок Курбонович**
Термезский государственный университет
Старший преподаватель кафедры Спортивного менеджмента

## ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БОРЦОВ

**Аннотация:** Целью экспериментального исследования явилась разработка и апробация программы психологического сопровождения в подготовке борцов высокой квалификации и создание на ее основе программы деятельности спортивного психолога с учетом специфики данного вида спорта. Гипотеза исследования заключалась в предположении о необходимости разработки программы психологической поддержки, системно стимулирующей психологическую готовность борцов к переходу на новый уровень мастерства в целях формирования и развития успешной личности.

**Ключевые слова:** борьба, программа психологической поддержки, психологическая поддержка, психологическая подготовка, борцы.

**Ustoev Abdurazzok Kurbonovich**
Termez State University
Senior Lecturer of the Department of Sports Management

## PSYCHOLOGICAL SUPPORT IN THE PROCESS OF PREPARATION OF HIGHLY QUALIFIED WRESTLERS

**Abstract.** The purpose of the experimental study was to develop and test a program of psychological support in the training of highly qualified wrestlers and to create on its basis a program of sports psychologist activity, taking into account the specifics of this sport. The hypothesis of the study was the assumption of the need to develop a program of psychological support that systematically stimulates the psychological readiness of wrestlers to move to a new level of skill in order to form and develop a successful personality.

**Key words:** wrestling, psychological support program, psychological support, psychological preparation, wrestlers.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N35

**Кириш.** Замонавий спорт - бу ҳар бир спортчининг салоҳияти ва имкониятини рўёбга чиқариш орқали юқори натижаларга эришишга қаратилган мусобақавий фаолиятдир. Ҳозирги вақтда спорт шу қадар юқори ривожланиш даражасига кўтарилганки, энг кучли спортчиларнинг жисмоний, техник ва тактик тайёргарлиги тахминан бир хил даражада намоён бўлади. Шунинг учун спорт мусобақаларининг натижаси кўп жиҳатдан психологик омиллар билан белгиланади. Спортда маълум бир спорт жамоаси ўйинчиларининг жисмоний, техник ва тактик тайёргарлигини баҳолашга асосланган барча башоратлардан фарқли ўлароқ, нисбатан заиф жамоа ғалаба қозонишига кўплаб мисоллар келтириш мумкин ва бу одатда психологик омиллар билан изоҳланади. Юқори рухий устунлик, ғалаба қозониш истаги кўпинча кучлироқ рақиб устидан ғалаба қозонишга олиб келади. Катта спортдаги психологик тайёргарлик - бу спортчиларнинг мусобақага руҳий тайёргарлик ҳолатини шакллантиришга қаратилган жараёндир [8; 284 б.]. Буни спорт мусобақаларига психологик тайёргарлик мазмуни деб ҳисоблаш керак. Спорт машғулотлари таркибидаги психологик компонентнинг улуши сезиларли даражада ошган, шунинг учун спортчиларнинг рақобатбардош фаолияти самарадорлигини оширишнинг энг муҳим шартларидан бири психологик қўллаб қувватлашни ташкил этишдир. Спортчилар билан ишлашда психологик ёрдам асосий ўринни эгаллайди. Бу айниқса юқори малакали спортчиларни тайёрлашда стресс омиллари таъсирининг кескин кучайиши, шикастланишнинг юқори эҳтимоллилиги, экстремал жисмоний ва нейропсик стресс, шунингдек спортда юксак мартаба чўққисига эришиш билан боғлиқ шахсий инқирознинг бошланиши туфайли долзарб масала ҳисобланади.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Спортдаги стресс омилларини ўрганиш бўйича кўпгина хорижий, ҳамда ўзимизнинг маҳаллий олимлар шуғулланишган ва кўпгина илмий тадқиқотлар олиб боришган. Турли тадқиқотчилар спорт фаолиятидаги стресс омиллари ҳақида ўз тушунчалари ва қарашларига эгадирлар. Г. Д. Горбунов, А. Ц. Пуни [2; 367 б., 5; 51 б.] стресс омилини спортчи томонидан ҳаддан ташқари талаблар сифатида қабул қилинадиган, унинг ўзини ўзи баҳолай олишига тўсқинлик қиладиган ва хавотирни келтириб чиқарадиган ташқи таъсирлар йиғиндиси сифатида тушунишади. Л. Н. Акимова, С. Г. Туманян [1; 367 б., 6; 469 б.] ўз ишларида ҳаддан зиёд чарчаш, доимий равишдаги рақобатдан чарчаш, спорт жароҳатлари ва биринчи навбатда спортнинг ўзига хослиги ва тури билан боғлиқ бўлган жароҳатлар, ўқув-машғулотлар жараёнининг бузилиши каби қуйидаги стресс омилларини аниқладилар. Р. М. Городничев ва В. Н. Платонов [3; 136 б., 4; 820 б.] мусобақаларда юқори натижага эришиш учун кураш, экстремал ҳолатлар, спортчининг барча жисмоний ва руҳий

кучларининг максимал кучланиши, кундалик, соатлаб ўқув жараёни ва у билан боғлиқ бўлган турмуш тарзи кабиларни спорт фаолиятининг стресс омилларига киритишади. Илмий ва услубий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатдики, спорт ва машғулот амалиётида қуйидаги қарама-қаршиликлар мавжуддир, булар:

- психологик хизматларга талаб мавжудлиги, лекин уни амалга ошириш учун махсус технология йўқлиги;
- жисмоний сифатларни такомиллаштириш дастурлари ишлаб чиқилган бўлиб ўқув - машғулотлари жараёнида фаол қўлланилади, лекин спорт маҳорати ошиши билан амалга ошириладиган психологик шаклланиш ва ривожланишга кам эътибор берилади;
- махсус ишланмалар мавжуд, аммо спорт фаолиятини психологик қўллаб-қувватлашнинг яхлит, асосланган модели йўқ.

**Муҳокама.** Тадқиқотни ўтказишдан мақсад юқори малакали курашчиларни тайёрлашда психологик қўллаб-қувватлаш дастурини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш, унинг асосида ушбу спорт турининг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда спорт психологи фаолияти дастурини тузиш эди.

Тадқиқот тахмини курашчиларда муваффақиятли шахсни шакллантириш ва ривожлантириш учун тизимли (яхлит) асосда курашчиларнинг психологик тайёргарлигини таъминлашга имкон берадиган психологик ёрдам дастурини ишлаб чиқиш зарур деган тахмин бўлди.

Дастур қуйидаги иш йўналишларини ўз ичига олиши керак:

- психологик стрессни енгиш;
- жароҳатлар ва машғулотлардан кейинги реабилитация;
- қайта тикланиш;
- ғалабага бўлган иштиёқ;
- мусобақа шароитида спортчининг ички ресурсларини юқори жисмоний ва психологик стрессда сафарбар қилиш.

Тадқиқот ўзаро боғлиқ бўлган бир нечта босқичларни ўз ичига олди: 1-босқич - тайёргарлик босқичи. Бу босқичда танланган мавзунинг долзарблиги асослаб берилди ва тадқиқотнинг методологик асослари аниқланди.

2-босқич - асосий босқич. У экспериментал ишларни ташкил этиш ва амалга оширишни ўз ичига олди: курашчиларнинг психологик тайёргарлиги даражасини ошириш учун психологик ёрдам кўрсатиш модели ва дастурини яратилди.

3-босқич - якунловчи босқич. Натижаларни қайта ишлаш, унинг самарадорлигини баҳолаш билан психологик ёрдам дастурини амалга оширишни сарҳисоб қилиш билан боғлиқ бўлди.

Тадқиқот Термиз давлат университетининг спорт залида ўтказилди, унда 43 нафар курашчи, шу жумладан 11 нафар спорт устаси ва 32 нафар спорт усталилига номзод спортчилар иштирок этдилар. Спортчилар тасодифий равишда иккита гуруҳга (назорат гуруҳи (НГ) ва экспериментал гуруҳ (ЭГ)) бўлинди.

**Натижалар.** Психологик ёрдамнинг биринчи босқичи диагностик тадқиқотни ўтказиш бўлиб, у муаммолар соҳасини аниқлайди ва кейинги ишнинг асосий йўналишларини шакллантиради, шунингдек бажарилган ишларнинг самарадорлигини баҳолашга ёрдам беради. Спорт фаолиятини психологик қўллаб-қувватлашнинг

диагностик компоненти спортчиларнинг психологик тайёргарлигини мажбурий ўрганишни ўз ичига олади [9; 76].

Курашчиларнинг психологик тайёргарлигини баҳолашнинг асосий мезонларидан бири уларнинг индивидуал типологик хусусиятларини, энг аввало темпераментини ҳисобга олишдир. Синов натижаларига кўра, ЭГда ҳам, НГда ҳам темпераментнинг экстраверсия каби руҳий хусусияти устун эканлиги аниқланди (62,5%). НГ ва ЭГдаги курашчиларнинг 30 % да темпераментнинг амбивалентлик (амбиверсия), яъни дуаллик каби икки қарама-қарши тенденция (экстроверсия ва интроверсия) комбинацияси аниқланган.

Темпераментнинг эмоционал барқарорлик каби хусусияти ЭГдаги респондентларнинг 55 % да ва НГ спортчиларининг 50 % да намоён бўлди. Эмоционал барқарорлик (кучли стресс таъсирига қаршилик) ўз ҳис-туйғуларини бошқариш қобилиятида намоён бўлади ва фаолият структурасини бузадиган бундай даражадаги ҳиссий қўзғалишнинг олдини олади. Ўрганилганлар орасида невротизм ёки эмоционал беқарорлик ЭГ курашчиларининг 45% да ва НГ курашчиларининг 50% да аниқланган.

Экстраверсия-интроверсия ва эмоционал барқарорлик кўрсаткичлари курашчиларнинг доминант темперамент турларини аниқлаш имконини берди: сангвиник (ЭГда 47,5% ва НГда 40%) ва холерик (ЭГда 37,5% ва НГда 42,5%). Ушбу турдаги темпераментларнинг мавжудлиги мусобақаларда муваффақиятли ишлашга ёрдам беради.

Курашчиларда иродавий сифатларнинг ривожланиш даражасини аниқлаш қуйидаги натижаларни берди: ЭГ ва НГ курашчиларда эмоционал-иродавий сифатларнинг ривожланиш даражаси ўртача (50% да) устунлик қилади, ўртача кўрсаткичдан паст даража ЭГ спортчиларининг 25% да ва НГ спортчиларининг 20% да намоён бўлди, энг паст даража - ЭГ нинг 10% да ва НГ нинг 15% да кузатилди. Ҳар икки гуруҳдаги курашчиларнинг атиги 15 % да иродавий сифатларни назоратга олиб туриш қобилияти юқори даражаси аниқланган.

Бу курашчиларда эмоционал-иродавий сифатларнинг етарли даражада ривожланмаганлигидан далолат беради, бу жуда муҳим кўрсаткич бўлиб касбий жиҳатдан аҳамиятли хусусиятдир. Айнан ривожланган ирода спортчиларга машғулотларда самарали ишлаш ва юқори натижаларга эришиш имконини беради.

Курашчининг муваффақияти учун унинг хулқ-атворидаги агрессивлик даражаси муҳим аҳамиятга эга. Биз иккала гуруҳнинг респондентларида жисмоний агрессивликнинг юқори даражаси курашчиларнинг 65 % да ва вербал агрессивликнинг юқори даражаси курашчиларнинг 45 % да эканлигини аниқладик. Жисмоний агрессивлик муваффақиятли спортчи моделининг ажралмас қисмидир, шунинг учун унинг ёрқин намоён бўлиши фақат эмоционал агрессивлик билан биргаликда хавфли бўлади ва ташқи қаршиликларга деструктив жавоб беришга олиб келади. Умумий агрессивлик даражасини аниқлаш шуни кўрсатдики, ЭГ да 30 % курашчиларида ва НГ да 20 % курашчиларида умумий агрессивлик юқори даража эканлиги, ўртача даражаги умумий агрессивлик ЭГ да 45 % ва НГ да 55 % ва ҳар икки гуруҳ респондентларининг 25 % курашчиларида умумий агрессивлик паст даража эканлиги аниқланди. Бундай натижалар ушбу спорт тури учун жуда яхши кўрсаткич ҳисобланади. Фақатгина юқори даражадаги ўз-ўзига агрессивлик даражаси бўлган ЭГ спортчиларининг 5% хавф

зонасига кирадилар, чунки улар ҳаддан ташқари психологик стрессни енгишга қодир эмаслар.

Курашчиларнинг шахсий безовталаниш холатини ўрганиш шуни кўрсатдики, у ЭГ курашчиларининг 10 % да ва НГ курашчиларининг 5% да юқори даражада намоён бўлди, ўртача даража эса ЭГ курашчиларида 70 % ни ва НГ курашчиларида 75 % ни ташкил этди. Энг паст даража эса иккала гуруҳ респондентларида ҳам 20% ни ташкил этди. Вазиятли безовталаниш ЭГ курашчиларининг 15% да ва НГ курашчиларининг 20% да қайд этилди, ЭГ курашчиларининг 70% да ва НГ курашчиларининг 65% да ўртача даража, иккала гуруҳ курашчиларининг 15% да эса паст даража кузатилди.

Мусобақалардаги стрессга жавоб бера олиш хусусиятларига келсак, худди юқоридаги каби тенденция кузатилмоқда: курашчиларда мусобақалардаги безовталик кўпроқ ўртача даражани (ЭГ да 60% ва НГ да 70%) ташкил этди, юқори даража эса бир оз камроқ (ЭГ да 25% ва НГ да 20%) намоён бўлди. Энг паст даража эса ЭГ да 15% ва НГ да 10% ни ташкил этди.

Ғалаба қозониш мотивацияси мавжудлигини ўрганиш шуни кўрсатдики, иккала гуруҳ курашчи - спортчилари муваффақиятга эришиш учун юқори мотивацияга эга эканлиги (ЭГ да 50% ва НГ да 55% ) ва ҳар иккала гуруҳда ўртача (ЭГда 20% ва НГда 15%) даража эканлиги аниқланди, паст даражали мотвация иккала гуруҳда ҳам аниқланмади.

Курашчиларни кенг қамровли диагностик ўрганиш натижаларига кўра психологик тайёргарликнинг учта даражаси аниқланди: юқори даража, бу фақат ЭГ курашчиларининг 15% да ва НГ курашчиларининг 15,5% да, ўрта даража ЭГ курашчиларининг 65% да ва НГ курашчиларининг 62,5% да ва паст даража - ЭГ курашчиларида 20% ни НГ курашчиларида 22 % ни ташкил қилди.

Шундай қилиб, бирламчи диагностик тестлар шуни кўрсатдики, ҳар икки гуруҳ курашчиларининг психологик тайёргарлиги ўртача даражада бўлиб, юқори даража эса курашчиларда етарлича эмас, ваҳоланки психологик тайёргарликнинг юқори даражасигина курашчиларни катта спортдаги муваффақиятларга олиб кела олади.

Тажриба синовлари энг катта қийинчиликлар курашчиларда иродавий сифатларни ривожлантириш ва эмоционал ҳолатни назоратга олишда пайдо бўлишини кўрсатди. Шунинг учун ўқув-машғулотлар жараёнининг психологик компоненти самарадорлигини ошириш бўйича мақсадли, тизимли ишларни олиб бориш зарурлиги аниқланди. Диагностик тадқиқот натижалари келажакдаги коррекция ва ривожлантириш ишларининг йўналишларини аниқлаш ва спортчиларга индивидуал таъсир кўрсатишнинг зарур бўлган услубларини танлаш имконини берди. Курашчиларнинг психологик тайёргарлиги даражасини ошириш учун шарт-шароитлар яратиш ва уларнинг юқори профессионал маҳорат даражасига кўтарилиши учун психологик қўллаб-қувватлаш дастури ишлаб чиқилди.

Шакллантирувчи экспериментдан сўнг қуйидаги диагностика натижаларини олинди: НГ курашчиларида сезиларли ўзгаришлар кузатилмади, ЭГ курашчиларида эса психологик тайёргарлиги даражаси сезиларли даражада (20% га) ортган, паст даража эса умуман аниқланмади. ЕГ даги энг кўзга кўринадиган ижобий ўзгаришлар “иродавий сифатларни назорат қила олиш”, “хавотирланиш”, "муваффақиятга эришиш учун мотивация" шкалаларида кузатилди.

**Хулоса.** Хулоса ўрнида, курашчиларнинг психологик тайёргарлигининг бир

хусусиятини қайд этиш лозим. Гап шундаки, машғулотларнинг мустақил таркибий қисми сифатида бундай машғулотлар йўқдир, чунки психологик тайёргарлик учун махсус дастур мавжуд эмас. Шу билан бирга, курашчи машғулотларининг бошқа барча бўлимлари том маънода психологик мазмун билан сингишиб кетган. Юқори малакали спортчиларни тарбиялашга қаратилган барча санаб ўтилган психологик таъсирларни ягона тизимга келтириш кўп жиҳатдан мураббийнинг тажрибасига, унинг таҳлил қила олиш қобилияти ва психологик билимига боғлиқдир. Олинган натижалар машғулот жараёнининг самарадорлиги ва натижавийлигини ошириш учун шарт-шароитларни яратишда спорт фаолиятини тизимли психологик қўллаб-қувватлаш зарурлигини кўрсатади.

**Adabiyotlar/Литература/References**

1. Акимова, Л. Н. Психология спортивной карьеры: учеб. Пособие / Н. Б. Стамбулова. - СПб.: Центр карьеры, 1999. - 367 с.
2. Горбунов, Г. Д. Психопедагогика спорта / Г. Д. Горбунов. - М.: Физкультура и спорт, 1986. - 207 с.
3. Городничев, Р. М. Теоретические и практические аспекты спортивной борьбы / Р. М. Городничев, Е. Ю. Андриянова, Н. А. Скляр. - Великие Луки, 2008. - 136 с.
4. Курбанович, У. А. (2022). Формирование волевых усилий у подростков в процессе занятий физическим воспитанием. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(1), 14-18.
5. Платонов, В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте: общая теория и практические приложения / В. Н. Платонов. - М.: Советский спорт, 2005. - 820 с.
6. Пуни, А. Ц. Процесс и система звеньев психологической подготовки к соревнованиям в спорте: избран. Лекции / А. Ц. Пуни. - Л.: ГДОИФК, 1979. - 51 с.
7. Туманян, Г. С. Стратегия подготовки чемпионов: настольная книга тренера / Г. С. Туманян. - М.: Советский спорт, 2006. - 494 с.
8. Турдимуродов, Д. Ю. (2022). Формирование у подростков волевых качеств в процессе физического воспитания. Science and Education, 3(7), 283-289.
9. Турдимуродов, Д. (2022). Жисмоний тарбия дарси мактаб ўқувчиларида иродавий сифатларни ривожлантирувчи восита сифатида. Общество и инновации, 3(6/S), 74-80.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 –Педагогика фанлар*

**Ismoil Rustamov**
Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasi o'qituvchisi

## CHOLG'U IJROCHILIGIDA DOIRA USULLARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada doira cholg'u ijrochiligi sohasida muxim sanalgan ijroviy usullari borasida so'z boradi. Shuningdek bugungi kunda ustoz-shogird an'analari asosida ta'lim berayotgan mohir ijrochi-pedagoglar faoliyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** doira usullari, ijro mahorati, ta'lim sifati, sahna mahorati, namunaviy ijro.

**Исмаил Рустамов**
преподаватель кафедры
Вокально-инструментального исполнения
Ферганского государственного университета

## ЗНАЧЕНИЕ ПРИЕМОВ В ИНСТРУМЕНТАЛЬНОМ ИСПОЛНЕНИИ НА ИНСТРУМЕНТЕ ДОЙРА

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о наиболее важных исполнительских приемах в области исполнительства на инструменте доира. Также будет освещена деятельность искусных исполнителей-педагогов, которые сегодня преподают на основе традиций учитель-ученик.

**Ключевые слова:** методы исполнении усулей дойры, исполнительское мастерство, качество обучения, сценическое мастерство, образцовое исполнение.

**Ismail Rustamov**
Department teacher Vocal and instrumental performance
Fergana State University

## THE SIGNIFICANCE OF RECEPTIONS IN INSTRUMENTAL PERFORMANCE ON THE INSTRUMENT DOYRA

**Abstract.** This article describes the most important performing techniques in the field of performance on the doira instrument. It will also highlight the activities of skillful performers-teachers who today teach on the basis of teacher-student traditions.

**Key words:** methods of performance of doira usuls, performance skills, quality of education, stage skills, exemplary performance.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N36

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar, xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, mamlakatimizda ilm-fan, san’at va madaniyat sohalarida erishilayotgan yutuqlar, aholini, ayniqsa, yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda, milliy qadriyatlar va an’analarni asrab avaylash va keng tag‘rib etishda musiqa ta’limi va san’atining o‘rni beqiyosdir.

Milliy musiqa san’atimizning muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri - doira cholg‘u ijrochiligidir. Mazkur ijrochilik san'ati juda qadimiy tarixga ega va u hozirgi davr milliy musiqa ta’limi tizimimizda o‘ziga xos o‘quv jarayoni hisoblanadi.

O‘zbekistonda barcha sohalar qatorida musiqa san’ati zamonaviy talablar asosida rivojlanib bormoqda. Bu borada musiqa ta’limini tashkil etish tubdan yangilanganligini va uning sifat samaradorligi oshib borayotganligini ta’kidlash joiz. Keyingi yillarda qo‘shiqchilik san’ati va cholg‘u ijrochiligi ta’limi saviyasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, Respublikamiz pedagog kadrlarni tayyotlashga ixtisoslashgan Oliy ta’lim muassasalarida San’atshunoslik fakultetlari o‘z faoliyatini boshlagani va bu fakultetlarda tayanch akademik musiqa maskani bo‘lgan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi vokal san’ati va cholg‘u ijrochiligi ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasi asosida faoliyat yuritib kelayotgan kafedralar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning amalga oshirilishi bu boradagi yutuqlar ko‘lamini kengaytirib bormoqda[1;3].

**Asosiy qism.** Doira cholg‘u ijrochiligi asrlar davomida musiqa madaniyatimizning tarkibiy qismi bo‘lib rivojlanib kelmoqda. Shu sababli Prezidentimiz «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida bir necha cholg‘ular qatorida doira cholg‘usi xalqimizning har bir xonadonida borligi va u musiqiy madaniyatimiz rivojida muhim o‘rin tutib kelayotganligini ta’kidlaydi.

Doira cholg‘usi ommaviy cholg‘u bo‘lib, ijrochining yosh xususiyatini tanlamaydi. Shu sababli 11-15 yoshli o‘quvchilar mazkur cholg‘uda ijrochilik ko‘nikmasini hosil qilish va uning nazariy asoslarini egallash imkoniyatiga ega. Ayni paytda, mazkur cholg‘u ijrochiligining taraqqiyotini chuqur bilish o‘quvchilarning doira cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha nazariy bilimlarini oshirish imkonini beradi.

Tegishli manbalarda, o‘quv adabiyotlari va mumtoz asarlarda doira cholg‘usining qadimiyligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan:

1) xalq og‘zaki ijodi namunalarida;
2) arxeologik topilmalarda;
3) o‘rta asrlarda yaratilgan yozma asarlarda;
4) qadimgi tog‘lardagi qoyatoshlarga chizilgan tasvirlarda;
5) o‘rta asrlarda yaratilgan miniaturalarda.

Abu Nasr Forobiy (X asr) «Kitab al-musiqa al-kabir» (Musiqa haqida katta kitob) asarida doira va usullar haqida g‘oyat qimmatli ma’lumotlar berib o‘tgan. Safiuddin Urmaviy (XIII asr) «Kitab al-advor» (Musiqiy doiralar kitobi) asarida doira usullarining o‘n ikki maqom musiqa ijrochiligida muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida fikr yuritgan. Abdurahmon Jomiy (XV asr) «Risolai musiqiy» (Musiqa risolasi) asarida doira usullari turlari haqida yozadi. Darvesh Ali Changiy - Buxoriy (XVII asr) «Risolai musiqiy» (Musiqa risolasi, bu asar ba’zan «Tuhfatul ahbob», ya’ni

«Yaxshilar tuhfasi» deb ham yuritiladi) asarida doira usullari va uning mashhur ijrochilari toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlami bergan.

Doira cholgʻu ijrochiligi asrlar davomida shakllanib va sayqallanib kelgan. Uning tarixini shartli ravishda uch davrga boʻlamiz:

1) qadimgi davr (VIII asrgacha)
2) oʻrta asrlar davri (IX - XIX asrlar)
3) yangi davr (XX-XXI asrlar).

Qadimgi davr (VIII asrgacha) doira cholgʻu ijrochiligiga ommaviylik xos boʻlgan. Unga koʻra, doira cholgʻu ijrochiligi yosh tanlamagan. Doira cholgʻusini yasash ommaviy tus olgan va barcha bayramlar, tadbirlar doira ijrosisiz oʻtmagan. Yakkanavoz va joʻrnavoz doira cholgʻu ijrochiligi shakllangan. Doira cholgʻu ijrochiligining musiqa, qoʻshiq va raqs sanʼatlaridagi oʻrni belgilangan. Bularning ijodkori omma edi.

Qadimgi davr doira cholgʻu ijrochiligi ohanglarga boyligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Eng asosiysi-bu davrda doira cholgʻu ijrochiligi ommalashib, musiqa sanʼatining tarkibiy qismiga aylandi.

Oʻrta asrlar davri (VIII-XIX asrlar) doira cholgʻu ijrochiligi xususida doira usullarini tushuntirish, tahlil qilish va maqomlar musiqasida doira ijrosining tutgan oʻrni kabi masalalar oʻrganilgan.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy «Kitab al-musiqa al-kabir» asarida doira asari «usul» deb atalishini va u inson tomirining urishiga qarab «tan-tan» deb belgilanishini yozadi[2]. Uning fikricha, «doira usullari asosiy va kichik qismlarga boʻlinadi». Bunda Forobiy asosiy deganda toʻliq usullarni, qism deganda zarblarni nazarda tutadi. Bundan tashqari, u doirani qisqa tovushli qoʻngʻiroq, tabl, tasfiq, sanj kabi cholgʻular tarkibiga kiritadi. Forobiyning bu saboqlari undan keyingi oʻrta asrlarning barcha mualliflariga dasturilamal boʻlib qoldi.

Oʻrta asrlar doira cholgʻu ijrochiligiga Darvesh Ali Changiy Buxoriy ham «Risolayi musiqiy» asari bilan munosib hissa qoʻshgan. Uining yozishicha, XV-XVII asrlarda doira ijrochilari havaskor va kasb egalariga (professionallarga) boʻlingan. Havaskor doira cholgʻu ijrochiligi yosh tanlamagan, professional doira ijrochilari bayramlar, sayil-u tantanalar va saroylardagi tadbirlarda faol ishtirok etishgan. Darvesh Alining yana maʼlumot berishicha, Gʻiyos Samarqandiy, Mirak Buxoriy, Darvesh Miskin kabi mashhur doira ijrochilari boʻlgan. Hatto ular Navo, Buzruk kabi maqomlarga doira usullari yaratishgan.Demak ular nafaqat doira ijrochisi, balki doira usullari yaratuvchilari ham boʻlishgan.

Mamlakatimizdagi qoyatoshlarda qadimgi davrlarga oid tasviriy sanʼat namunalari, xalq musiqiy ogʻzaki ijodi va yozma manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, doira cholgʻusining tuzilishi bugungi kunga qadar u qadar oʻzgarishga uchramagan va asrlar davomida faqat ijro uslublari takomillashib kelgan. Barcha zamonlarda doira cholgʻusini yasovchi mohir ustalar boʻlgani, ijrochilar doira ijrosi uchun oʻz doira cholgʻusini yasagan.

Yangi davrda (XX - XXI asrlar) doira cholgʻu ijrochiligi maktablari yaratildi. Bu davrda A. Eyxgorn, N.Mironov, V.Uspenskiy, V.Belyayev, II.Akbarov va boshqalar doira usullarini notaga olishga urunishadi. Abdurauf Fitrat doira cholgʻu ijrochiligining xalq orasidagi ahamiyati va doira usullarini toʻplash yuzasidan koʻplab ishlarni amalga oshirgan[3]. Ustoz Usta Olim Kornilov ustozi Masand ota Margʻiloniy va doʻsti Yusufjon qiziq Shakarjonov yordamida doira usullarini toʻpladi, tizimlashtirdi, ularning ijro uslublarini belgiladi, raqs sanʼati bilan aloqadorligini kuchaytirdi, doira cholgʻu ijrochiligini dunyo miqyosiga olib chiqdi va ustoz-

shogird yangi doira cholgʻu ijrochiligi maktabiga asos soldi. A.Petrosyans toʻrt chiziqli nota yozuvi asosida doira usullarini notaga olib, orkestrda nota asosida doirada ijro etish an’anasini yoʻlga qoʻydi.

Yangi davr doira cholgʻu ijrochiligida individual ijro uslublari tarkib topdi, doira ijrosiga doir oʻnlab oʻquv qoʻllanmalar yaratildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Doiraning tarixiy shakllanishi uzoq oʻtmishga borib taqalsa-da uning boshqa cholgʻulardan alohida boʻlib ajralganligi borasida Xusrov Parviz saroyida hizmat qilgan ilk saroy musiqachisi Barbad Marvaziy ijodiy faoliyatiga bagʻishlangan tarixiy rasmlar va asarlardan bilish mumkin. Lekin “Forobiyning (IX asr) ma’lumotlariga qaraganda Xuroson doirasi oʻzining koʻplab belgilari bilan zamonaviy doirani eslatadi”[2;42].

Abu Nasr Forobiy (X asr) “Kitob al- musiqa al-kabir” (Musiqa haqida kitob) asarida doira va doira asari boʻlgan usullar xaqida gʻoyat qimmatli ma’lumotlar berib oʻtgan. Safiuddin Urmaviy (XIII asr) “Kitob al-advor" (Musiqiy doiralar kitobi) asarida doira usullarining oʻn ikki maqom musiqa ijrochiligida muhim oʻrin tutishi toʻgʻrisida fikr yuritgan. Abdurahmon Jomiy (XV asr) “Risolai musiqiy” (Musiqa risolasi) asarida doira usullari turlari haqida yozadi. Darvesh Ali Changiy-Buxoriy (XVII asr) “Risolai musiqiy” (Musiqa risolasi) asarida doira usullari va unig mashhur ijrochilari toʻgʻrisida qimmatli ma’lumotlarni bergan. Bu noyob manbalar doira ijrochilik tarixini oʻrganish uchun muhim omil hisoblanadi. V.Belyaev, T.Vizgo, A.Petrosyans, F.Karomatov, I.Rajabov kabi olimlarimizning tadqiqotlarida doira ijrochiligining nazaryasiga doir muayyan fikr muloxazalar bildirib oʻtilgan.

Cholgʻu ijrochiligida doira san’ati oʻziga xos yetakchi oʻrin tutadi. Bu cholgʻu barcha cholgʻular ichida uzoq tarixga egaligi va ijrochilik san’ati bilan ajralib turadi. Kishilik jamiyatining ibtidoiy davrlaridan boshlab qadimgi odam qadamlarining bir maromda yerga tashlanishi, ov yoki boshqa jamoa tadbirlaridagi takroriy harakatlar, qoʻllarini-qoʻllariga, badaniga urishdan paydo boʻluvchi sadolar, turli mehnat qurollari, buyumlar yoki toshlarning bir-biriga tegishidan kelib chiqadigan ritmik tovushlar - urma cholgʻularning vujudga kelishiga sabab boʻlgan. Shuningdek, ritm-usul ibtidoiy inson hayotining markaziy unsuri boʻlib, u jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, uni borliq – tabiat va koinot bilan uygʻunlashtiruvchi yagona vosita boʻlgan[4].

Doira ijrochiligi bilan bogʻliq tadqiqotlarni alohida qayd etish lozim. Usta Olim Komilov ijrosidagi xalq doira usullarining koʻpi Ilyos Akbarov ("Doira usullari", T., 1952), V.Uspenskiy, Ye. Romanovskayalar tomonidan yozib olingan. Usta Olim Komilovning ijro uslubi zarblar jilvadorligi hamda tembr vositalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. T.Inogʻomov, K.Azimov, A.Toʻychiyev va boshqa koʻplab doirachilarga ustozlik qilgan.

**Natija va muhokamalar.** Faqat oʻqib oʻrganish, izlanish, ijod qilish, mashq va ustozlardan saboq olish bilangina doira ijrosi mahoratini egallash mumkin. Bugungi yosh doira ijrochisi shunchaki ijrochi emas, u salohiyatli va ijodkor shaxs boʻlishi lozimdir.

Doira cholgʻu ijrochiligida bir necha janrlardagi doira asarlari mavjud, ulardan biri pesadir. Pesa yorqin ifodaviy mazmuni, aniq badiiy nomi, erkin shakldagi va ihcham hajmli cholgʻu musiqa asari hisoblanadi. Doira uchun pyesalar bastakorlar yoki kompozitorlar tomonidan yaratiladi va ularning musiqalari mohir doira ijrochilari tomonidan doira ijrosiga moslashtiriladi.

Doira asarlarining muhim janrlaridan biri etyuddir. Etyud ijrochilik mahoratini oshirish uchun yaratilgan texnik (mashq) va yuksak ijro mahoratini namoyon qiluvchi doira asari

hisoblanadi. Etyudlar qisqa hajmli boʻlsada, lekin mazmundor hisoblanadi va muayyan usulni oʻzlashtirish, doira ijrosi koʻnikmasi, malakasi hamda mahoratini egallashda mashq manbai boʻlgan doira asaridir. Etyudlarni ijro etish va uni muntazam odatga aylantirish doira ijrosi mahoratining oshishiga hamda individual ijro uslubini shakllantirishga olib keladi.

Zero, doira asarlarida usul, pyesa va etyud muhim oʻrin tutadi. Ularni farqlash, nazariy va amaliy jihatdan oʻzlashtirish lozim. Misol uchun, ustoz Usta Olim Komilovning «Qoʻsh qars-1» asari chuqur mazmun, jarangdor ohang va tinglovchiga zavq beradigan asar hisoblanadi. Shu bois, ushbu asarni oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilishi muhimdir.

Doira cholgʻu ijrochiligi va uning yana bir oʻziga xos xususiyati ustoz san’atkorlarning ta’limini oʻzlashtirish bilan bogʻliqdir. Mahorat- kasbiy va hayotiy tajriba orqali orttirilgan yuksak malakalar majmuidir. Doira cholgʻu ijrochiligida mahorat tajribali san’atkorlarning kasbiy bilim, amaliy koʻnikma va malakasi majmuidir. San’atkor mahoratga ijodiy izlanish, tinimsiz mashq va oqilona faoliyat yuritish orqali erishadi. Bugungi kunda urf boʻlayotganidek, faqat texnik va texnologik imkoniyatlardan foydalanish bilan doira cholgʻu ijrochiligida yuksak va e’tirof etgulik mahoratga ega boʻlib boʻlmaydi.

Doira ijrochilik tarixini kuzatish shuni koʻrsatadiki, har bir davrda doira ijrochilik san’atining fidoyilari boʻlgan. Ular bu borada ilmiy, nazariy, amaliy va ijtimoiy jixatdan munosib xissa qoʻshganlar.

Respublikamizda doira ritmik usullarini dunyoga mashhur qilishda oʻz hissasini qoʻshgan Usta Olim Komilovning (1875-1953), boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini oʻtab kelmoqda. Mashhur ustaning an’analarini davom ettirganlar[5;17]:

Toʻychi Inogʻomov (1914-1986), Gʻofur Azimov (1917-1981), Dadaxoʻja Sottixoʻjaev (1921-1991), Qaxramon Dadaev (1936-2013), Odil Kamolxoʻjaev (1944-2015) kabi ustozlardir. Zamondoshlarimiz Tal’at Sayfutdinov, Rustam Ubaydullaev, Komiljon Xakimov, aka-uka Dilmurod, Elmurod, Xolmurod Islomovlar, Husan Nosirov, Xasan Azimov, llhom Ikromov kabilarning doira ijrosi rivojidagi mehnatlarini e’tirof etish lozim. Oʻnlab doirachilar mustaqil Oʻzbekistonning barcha viloyat va tumanlarida, butun Oʻrta Osiyoda doirachilik san’atini rivojlantirish hamda bu noyob soz turini dunyoga targʻib va tashviq qilish ishida munosib hissalarini qoʻshib kelmoqdalar.

Bunday natijalarga erishishda Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirgi Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi) faoliyati ham serunum boʻlganligini eslatish joiz. Doira ijrochilik san’atining rivojlanish jarayonida yosh avlodga nazariy va amaliy bilim berish maqsadida 1948 yilda Toshkent davlat konservatoriyasining “Xalq cholgʻulari” fakultetida doira va urma zarbli cholgʻular sinfi tashkil topdi. Ushbu dargohda iste’dodli talabalar doira ijrochiligi tarixini, nazariy bilimlarini mukammal egallab, amaliy oʻzlashtirishga ijodiy yondoshgan holda bilim olishga kirishdilar. Yillar davomida mazkur ta’lim yoʻnalishi boʻyicha yuzlab mutaxassislar tarbiyalandi. Bugungi kunda shu sohada oliy ta’lim muassasini muvaffaqiyatli bitirgan talabalarga Davlat Attestatsiya komissiyasi xulosasiga koʻra doira va urma zarbli cholgʻular boʻyicha bakalavr hamda magistr akademik darajalari berilmoqda. Hozirda ular Respublikada hamda xorijiy mamlakatlarning ijodiy jamoalari va ta’lim dargohlarida samarali faoliyat olib bormoqdalar.

Oʻzbekistonda barcha sohalar qatorida musiqa san’ati zamonaviy talablar asosida rivojlanib bormoqda. Bunda musiqa ta’limini berish tubdan yangilanganligini va uning sifat samaradorligi oshib borayotganligini ta’kidlash joiz.

Yangi davr doira cholgʻu ijrochiligida individual ijro uslublari tarkib topdi, doira ijrosiga doir oʻnlab oʻquv qoʻllanmalari yaratildi.

**Xulosa.** Oʻzbek doira maktabi borasida soʻz borar ekan, barchaning koʻz oʻngida Usta Olim Komilov siymosi gavdalanishi tabiiy. Oʻzbek doirasi sadolarining chet el sahnalarida sadolanishi va oʻzining mohirona ijrosi bilan jahon tomoshabinlari yuraklarini zabt etgan ustoz-sanʼatkor Usta Olim Komilovning doira cholgʻusi ijrosi sir asrorlarini nafaqat amaliy, balki nazariy-ilmiy jihatdan oʻquv qoʻllanma va darsliklar koʻrinishida xalqimizga yetkazgan ustoz sanʼatkor Dilmurod Islomov xisoblanadi. Zamonamiz doira maktabiga yangicha nafas baxsh etgan ustoz sanʼatkor Dilmurod Islomov oʻz atrofida keyinchalik kasbiga sadoqatli shogirdlar tarbiyalab xalqimiz xizmatiga safarbar etdi.

Bugungi kunda doira cholgʻusi ijrosi bilan erkaklar bilan teng ravishda ayollar ham shugʻillanib kelmoqdalar. Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq doirachi sozandalari doimo xalqimiz eʼzozida boʻlib kelganlar.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda xulosa oʻrnida shuni xotima qilishimiz mumkinki, Yangi Oʻzbekistonda barcha sohalar qatorida musiqa sanʼati zamonaviy talablar asosida rivojlanib bormoqda. Bunda musiqa taʼlimini berish tubdan yangilanganligini va uning sifat samaradorligi oshib borayotganligini taʼkidlash joiz. Shu sababli keyingi yillarda qoʻshiqchilik sanʼati va cholgʻu ijrochiligi yangi bosqichga koʻtarildi.

Yangi davr doira cholgʻu ijrochiligida individual ijro uslublari tarkib topdi, doira ijrosiga doir soha vakillari tomonidan koʻplab oʻquv qoʻllanmalar yaratilmoqda.

Faqat oʻqib oʻrganish, izlanish, ijod qilish, mashq va ustozlardan saboq olish bilangina doira ijrosi mahoratini egallash mumkin. Bugungi yosh doira ijrochisi shunchaki ijrochi emas, u salohiyatli va ijodkor shaxs boʻlishi lozimdir.

## Адабиётлар/ Литература/ References:


1. Rustamov, I. (2022). DOIRA CHOLGʻUSIDA IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA QOʻLLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. *Science and innovation*, *1*(B6), 456-460.
2. Xayrullayev M. M., Oʻrta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994
3. Oʻzbekiston nomoddiy madaniy merosi loyiha muvofiqlashtiruvchisi Sayidafzal Mallaxanov YUNESKO ishlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi tomonidan tayyorlanib ICHKAP moliyaviy koʻmagida va MOTXI hamkoriligida 2017 y. nashr etildi. ISBN 978-9943-357-46-4
4. Mannopov, S. (2004). Oʻzbek xalq musiqa madaniyati. *Toshkent.,"Yangi asr avlodi" nashriyoti*.
5. N.Rahmatov. Doira. – T.: "Fan va texnologiya", 2016 y., 13 b.
6. Rustamov, I. (2022). The Place of Doira Instrument in Uzbek National Art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *5*, 74-77.
7. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). MUSIQA SAN'ATINING HOZIRGI KUNDAGI OʻRNI. Scientific progress, 3 (2), 841-845.
8. Murodova, D. (2022). ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАРДА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ. *Science and innovation*, *1*(B6), 702-707.

9. Nasritdinova, M. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИНИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАР БАДИИЙ-ЭСТЕТИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИ. *Science and innovation*, *1*(B6), 950-955.
10. Akhrorova, R. (2022). LEXICAL-SEMANTIC EXPRESSION OF EARLY YOUTH/JEUNESSE IN FRENCH. In *МЕЖДУНАРОДНЫЕ НАУЧНЫЕ КОНФЕРЕНЦИИ С ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 617-620).
11. Ahrorova, R. U. (2021). SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS REPRESENTING “YOUTH” IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. *Theoretical & Applied Science*, (7), 122-126.
12. С. Маннопов (2019). Шарқ маданияти ривожида ўзбек халқ мусиқа меросининг тутган ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 29-36.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich,**
Farg'ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Email: oerkaboyev@gmail.com

## X VA XI SINF O`QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK-2021 TESTLARI BILAN QIYOSIY BAHOLASH

**Annotatsiya.** X va XI sinf o`quvchilarining jismoniy tayyorgarligini chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik-2021 testlari bilan qiyosiy baholangan. Shuningdek, yuqori sinf o`quvchi yoshlarini harakat imkoniyatlarini baholash paytida, ularning jismoniy tayyorgarligi dinamikasini o`rganish muhim omil hisoblanadi. Bu dasturiy-normativ xujjatlar tizimini o`zgartirish vositasida jismoniy tarbiya jarayonini samarali boshqarish uchun bazani yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** Yuqori sinf, granata uloqtirish, jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang`ich tayyorgarlik, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, harbiy tayyorgarlik, harbiy ta’lim, qurolli kuchlarning tuzilish, xavfsizlik, davlat, demokratik, respublika, burch, mudofaa.

**Еркабоев Ойбек Мухаммаджонович,**
Преподаватель Ферганского государственного университета

## СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ 10 И 11 КЛАССОВ С ИСПЫТАНИЯМИ НАЧАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА-2021

**Аннотация.** Физическая подготовленность учащихся X и XI классов сравнивалась с испытаниями предварительной подготовки-2021 перед призывом. Также, изучение динамики их физической подготовленности является важным фактором при оценке двигательных возможностей старшеклассников. Это создает основу для эффективного управления процессом физического воспитания путем изменения системы программно-нормативных документов.

**Ключевые слова:** Высший класс, метание гранат, физическая культура, начальная подготовка перед призывом, Вооруженные Силы Республики Узбекистан, военная подготовка, военное образование, структура вооруженных сил, безопасность, государство, демократия, республика, долг, оборона.

**Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich,**
Teacher of Fergana State University

## COMPARATIVE ASSESSMENT OF THE PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS OF THE 10TH AND 11TH CLASSES WITH PRIMARY PREPARATION-2021 TESTS

**Abstract.** The physical fitness of students of the X and XI classes was compared with the preliminary preparation-2021 tests before the convocation. Also studying the dynamics of their physical fitness is an important factor when evaluating the movement capabilities of high school students. This creates a basis for effective management of the physical education process by changing the system of programmatic and normative documents.

**Keywords:** High class, grenade throwing, physical education, initial training before the draft, Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, military training, military education, structure of the armed forces, security, state, democratic, republic, duty, defense.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N37

**Kirish.** Yuqori sinf oʻquvchilarini tezkorlik imkoniyatlari natijalarini baholashda quyidagilar aniqlandi: 100 metrga yugurishda X sinf oʻquvchilarining oʻrtacha koʻrsatkichlari 14,42±2,07 sek.ni (V= 6,31%), XI sinf oʻquvchilarining oʻrtacha koʻrsatkichlari esa – 14,23±1,48 sek.ni tashkil qilgan, bu koʻrsatkich X sinfdagi tengdoshlarinikidan 0,19 sek.ga yaxshi boʻlib, 1,32%ni tashkil qiladi, bunda, variativ tarqoqlik V=5,27%. Yuqori sinf oʻquvchilarining tezkorlik imkoniyatlari natijalarini qiyosiy dinamikasida oʻquv yilida ishonchli oʻzgarishlar aniqlangan ( t= 2,87)[1].

Yuqori sinf oʻquvchilarining kuch imkoniyatlarini baholash boʻyicha maxsus harakat vazifalarining biri – “Turnikda aylanib koʻtarilish” testi hisoblanadi, unda, X sinf oʻquvchilarining natijasi oʻrtacha 5,3±0,2 martani (V=5,52%), XI sinf oʻquvchilariniki – 7,8 ± 0,61 martani, oʻrtadagi farq – 2,5 martani (17,59%) tashkil qilganligini koʻrsatdi, ishonchlilik darajasi yuqori – t = 4,29 ga teng.

“Granata uloqtirish” testi, barcha umumta’lim maktablarining normativ hujjatlariga asosiy kasbiy zarur boʻlgan test sifatida kiritilgan boʻlib, Farg`ona shahridagi umumta’lim maktablarining yuqori sinf oʻquvchilarini tezkor-kuch xarakteridagi sifatlari ushbu testni bajarish orqali oʻrganilganda, X sinf oʻquvchilarining natijasi oʻrtacha 28,7±2,65 m.ni (V=1,98%), XI sinf oʻquvchilariniki – 33,4 ± 2,75 m.ni, oʻrtadagi farq – 4,7 m.ni (1,14%) tashkil qilganligini koʻrsatdi, ishonchlilik darajasi yuqori – t = 4,16 ga teng.

Umumta’lim maktablarining yuqori sinf oʻquvchilarini harakat qobiliyatlarini oʻrganish boʻyicha olingan natijalarni tahlil qilish, maktablarda jismoniy tarbiya va Chaqiruvga qadar boshlang`ich tayyorgarlikboʻyicha oʻquv jarayoniga sezilarli darajada korrektsiyalar kiritish va dasturiy-normativ hujjatlarni yuqori sinf oʻquvchilarini Qurolli kuchlar safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichidagi oʻquv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritishni hisobga olgan holda qayta koʻrib chiqish zaruratiga asos boʻladi[2].

Jismoniy tarbiya va Chaqiruvga qadar boshlang`ich tayyorgarlik boʻyicha bazaviy mashg`ulotlarni X va XI sinf oʻquvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorgarlik bosqichida harakat tayyorgarligi darajalariga integratsiyalangan ta’sirini ikki yillik tsiklini samaradorligini aniqlash ilmiy jihatdan qiziqish uyg`otdi.

Mamlakatimizdagi ilmiy-uslubiy adabiyotlarni monitoring tahlil qilish, yuqori sinf oʻquvchilari kontingentida bazaviy mashg`ulotlarni harakat tayyorgarligiga integratsiyalangan ta’sirini aniqlash boʻyicha oʻtkazilgan tajribaviy tadqiqotlarni mavjud emasligini koʻrsatdi. Mazkur muammo, umumta’lim maktablarida 11 yillik ta’lim tizimini joriy qilinishi munosabati bilan oʻta dolzarb boʻlib qoldi va bu, yuqori sinf oʻquvchilarini oʻquv yillari boʻyicha jismoniy tayyorgarliklarini uzluksiz dinamikasini oʻrganish imkonini berdi.

**Muhokama va natijalar.** Chaqiriqqacha yoshdagi oʻsmirlarda chidamlilik sifatini testlash 3000 m masofani bosib oʻtish natijalari boʻyicha aniqlangan, unda, X sinf oʻquvchilarining oʻrtacha koʻrsatkichlari 14,65±3,91 min.ni (V= 4,48%), XI sinf oʻquvchilarida – 13,80±2,34 min.ni tashkil qilgan, variatsiya koʻrsatkichi ishonchli tarzda – V=4,48% boʻlgan. Shuni aytish joizki, maktab bitiruvchilarining chidamlilik koʻrsatkichini oʻrtacha natijasi X sinf oʻquvchilarining oʻrtacha koʻrsatkichlaridan 0,73 sek.ga (4,3%) ortiq boʻlgan, ta’limning yillik

tsiklida sinflar oʻrtasidagi qiyosiy farq ishonchli tasdiqlangan ( t= 2,96) (3.6-jadvalga qarang)[3].

Epchillik, biz tomondan, yuqori sinf oʻquvchilarini yuzaga kelgan harakat vazifasini muvaffaqiyatli bajarishga, murakkab va tasodifiy holatdan tez, ratsional va topqirlik bilan chiqish yoʻlini aniqlash qobiliyati sifatida koʻrib chiqilgan. Mazkur omilni tadqiq qilish "Moksimon yugurish 3x10 m" harakat testi asosida amalga oshirilgan, unda, X sinf oʻquvchilarining oʻrtacha natijalari 7,9±1,02 sek.ni, XI sinf oʻquvchilariniki – 7,8±1,01sek.ni tashkil qilgan, tadqiq qilinayotgan koʻrsatkich bitiruvchi oʻquvchilarda 1,6 sek.ga ishonchli yaxshilangan, bundagi farq – 5,48%ni tashkil qilgan, progressiv ishonchlilik – t=4,31.

**1-Jadval**

**Umumta'lim maktablari yuqori sinf oʻquvchilarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi holati (n=100)**

| Testlar | X±σ | | | | | | 0-11 s/f. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 10-sinf | 10-sinf | | 11-sinf | 11-sinf | | |
| Yugurish 100 m, sek | 14,42±2,07 | 13,9±1,49 | 2,15 | 14,23 ±1,48 | 13,3±1,05 | 5.38 | 3,45 |
| Yugurish 300 m, sek | 14,65±3,91 | 13,5 ±2,52 | 2,36 | 13,80 ±2,34 | 12,6 ±1,88 | 4,19 | 4,00 |
| Turnikda tortilish, marta | 10,6±1,66 | 11,9 ±1,91 | 5,34 | 11,2 ±1,9 | 13,3 ±2,09 | 7,43 | 5,15 |
| Granata uloqtirish 700 gr., m. | 28,7±2,65 | 32,1± 3,9 | 5,88 | 33,4±2,75 | 35,8±3,6 | 3,7 | 4,16 |
| Joyidan turib uzunlikka sakrash, sm | 203,9± 20,3 | 218 ±22,66 | 3,9 | 214,9 ±22,8 | 230,9±22,92 | 4,55 | 4,20 |
| Polda tayanchda qoʻllarni bukib rostlash | 29,7± 5,57 | 33,4±5,9 | 4,78 | 31,7± 5,29 | 34,9±5,25 | 5,03 | 4.38 |
| Chalqancha yotgan holda, 30 soniya davomida gavdani 90° ga koʻtarish, marta | 38,6±5,53 | 43,9±5,9 | 6,9 | 35,5±4,49 | 40,8±4,8 | 8,45 | 4,27 |
| Toʻsiqlar osha yugurish 100 m., sek. | 167,8±18,1 | 158,3±17,3 8 | 6,4 | 168,4 ±19,15 | 153,8 ±18,26 | 6,3 | 2,42 |
| Qoʻl jangini boshlang`ich majmuasi | 1,74±0,24 | 2,2±0,35 | 10,1 | 1,8±0,88 | 2,42±0,49 | 6,76 | 5,21 |
| Doʻmbaloq oshib koʻtarilish | 5,3±0,2 | 6,2±0,96 | 7,2 | 5,4±1,1 | 6,5±1,07 | 7,5 | 2,20 |
| Moksimon yugurish (3x10) | 7,9±1,02 | 7,3±1,1 | 3,22 | 7,8±0,61 | 7,4±1,1 | 3.25 | 0,67 |
| Yugurib kelib uzunlikka sakrash, sm | 381,4±25, 9 | 403,7±55, 9 | 2,9 5 | 395.1±29,4 | 393±49,77 | 2,87 | 1,5 0 |

"Yugurib kelib uzunlikka sakrash" testi ma'lumotlari boʻyicha tezkor-kuch tavsiflarini tahlil qilish, X sinf oʻquvchilarining natijasi oʻrtacha 381,4±25,9 sm.ni, XI sinf oʻquvchilariniki –

395,1±29,4 sm.ni, oʻrtadagi farq – 25 sm.ni (6,69%, t=1,93) tashkil qilganligini koʻrsatdi. “Joyidan turib uzunlikka sakrash” testi ham tezkor-kuch xarakteriga ega boʻlib, unda, X sinf oʻquvchilarining natijasi oʻrtacha 203,9±20,3 sm.ni, XI sinf oʻquvchilariniki ishonchsiz 9 sm.ga (3,91%) yuqori boʻlib, – 214,9±22,8 sm.ni (t=4,55) tashkil qilgan[4].

Yuqori sinf oʻquvchilarining kuch potentsiyalarini tadqiq qilish – mushak kuchini oʻlchashda asosiy omil hisoblanadi, bu, O.V.Goncharovaning fikriga koʻra, tashqi qarshilikni yengib oʻtish yoki mushak kuchlanishlari hisobiga unga qarshi harakat qilish hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya amaliyotida absolyut va nisbiy kuch farqlanadi.

**Absolyut kuch** – kuch potentsialini tavsiflaydi va maksimal ixtiyoriy mushak kuchlanishini kattaligi bilan izometrik rejimda vaqtni chegaralamasdan yoki chegaraviy og`irlikdagi yukni koʻtarish bilan oʻlchanadi.

**Nisbiy kuch** – absolyut kuchning kattaligini shaxsiy tana massasiga nisbati bilan, ya’ni shaxsiy tana massasining 1 kilogrammiga toʻg`ri keladigan kuchning kattaligi bilan baholanadi[5].

In the modern information society, the use of digital technologies in the educational process, the formation of the modern teacher's skills in working with information media, the understanding of the essence of education with the help of digital technologies, the development of pedagogical potential and the conditions for using various media, in the educational process (information technologies, the Internet, social networks, television, advertising, interactive games, computer animation, etc.), pedagogical models and a means of forming readiness to use them.

In the conditions of the educational cluster, we have developed several methods of organizing and developing the educational process based on digital technologies, for example, connecting educational centers, educational institutions, parents, independent education of students. We will create a system that will make it clear that the child is not coming to class, or is not working independently, and will send a daily SMS message to the parents about it. Through this system, parents will be informed immediately that their child is going to school, but not going to school, and can take action. Moreover, through this way, educational centers can organize their work to a certain extent. The student can immediately determine how long they have been to extra classes, how long they have been absent, and students who have been regularly missing classes, as well as students who have stopped courses for some reason. In this way, they can organize their work to a certain extent automatically and do not spend excessive time on these works.

It is well known that independent education is the basis of any knowledge. We want to organize a number of courses specialized in each subject for students to develop their

knowledge independently. Through this, students can compete with their group mates or other students in a specific subject from the comfort of their own home or apartment. It is also possible for students who have shown high results to compete with each other. A number of young people who have shown the highest results in such independent education and have collected a certain point determined by the teacher can manage to make the next month's course at the educational center free of charge. In addition, through this method, we can ensure that students and young people spend their time using the phone in a productive activity.

Today, there is a need for digital technologies to involve every student in the process of active learning, to apply the acquired knowledge in practice, and to clearly understand where, how and for what purposes this knowledge can be used and this, in turn, is becoming one of the requirements of the time.

In addition, searching for ways to ensure modern preparation of students is one of the most important tasks of modern pedagogic science and practice. Complex tasks such as formation of a student's personality, training of a well-rounded person, ensuring the high level of professional skills of future specialists cannot be solved without fundamentally changing the educational technology. That is, we should widely implement new technologies in our educational system.

The development of the state and the development of the society are largely determined by its intellectual potential. Because a highly developed country with scientific potential will always be advanced in all fields. Therefore, in our country, fundamental reform of the education system is considered as a priority task of state importance, and a lot of attention is being paid to it. There are specific requirements for the organization and management of the educational process in order to achieve the training of highly qualified specialists. First, the level of professional knowledge acquisition of students is related to ensuring compliance with the requirements of state educational standards. Secondly, to achieve full coverage of the scope of knowledge, skills and qualifications defined in the state educational standards of independent creative activity of students. In this way, the rapid development of society, the need for highly qualified personnel, requires the teacher to demonstrate his/her intellectual abilities and meet social demands. [1; 3-11-b.]

**Results and analysis**. There are several methods for organizing and developing the educational process based on digital technologies in the context of an educational cluster.[7] The following methods can be used:

1. Learning Management Systems (LMS): This software helps to organize and analyze textbooks, tests, assignments and other educational materials online. There are popular LMSs such as Moodle, Blackboard and Canvas. This method aims to provide interesting and more understandable education to students with the help of interactive textbooks. Students can easily access the information due to the interactive textbooks.

2. Educational Outlines: This methodology helps teachers prepare educational programs and organize educational materials. It helps in organizing synopses, textbooks, assignments and other educational materials.

3. Video lessons: This method allows students to learn through online lessons or videos. This method makes it easier for students to read and explain. With the help of video tutorials, it aims to provide students with interesting and more understandable education.

4. Interactive learning: This methodology is a teaching method that allows students to learn and master. This method aims to provide interesting and more understandable education to students with the help of interactive textbooks. Students can easily access the information due to the interactive textbooks. In this way, students learn at their own pace, setting their own learning paths.

5. Pre-learning: This method helps students prepare learning materials before starting the learning process. This method increases student learning and facilitates the learning process.

6. Personalization: This method involves preparing an educational program suitable for each student's age, skills and documents. Through this method, each student can develop in their best learning direction.

7. Database and reverse practice exercises: This methodology allows students to practice the techniques. In practical exercises, students validate and work with data.

The use of these methods facilitates the organization and development of the educational process based on digital technologies and allows students to master it.

As a result of our theoretical information, we concluded that the use of e-learning technologies in teaching foreign languages is likely to largely solve the same methodological problems as traditional teaching aids do. However, in computer training, it is done on a faster basis, for computer technologies have the following facilities:

- they have a significant amount of memory and high speed;
- they provide an opportunity not only dissemination of educational material and recording the responses, but also the analysis of the responses and requests of students, which is very important for independent work;
- they connect the educational material (a computer program) with the student in a dialogue mode, simulating some of the functions of the teacher and, to some extent, communication;
- there's carried out in automatic mode multivariate statistical collection and analysis of information obtained in the course of computerized classes without disturbing the natural flow of the computer lesson.

The incorporation of the Internet into the communicative approach aims to engage students in learning a foreign language by facilitating the accumulation and expansion of their knowledge and experiences. The goal is to equip students with the language skills necessary for genuine communication beyond the classroom setting. This includes situations such as visiting countries where the target language is spoken, hosting foreign guests, engaging in correspondence, exchanging audio and video recordings, participating in joint projects with schools or friends from the target language area, and more.

It is important to note that the concept of communication should not be narrowly interpreted solely from a pragmatic standpoint. The "Communication-Bim" approach aims to foster an understanding and appreciation of the spiritual values of other cultures through personal interactions and reading materials. By leveraging the Internet, this approach captivates learners by focusing on topics that interest them and offering a variety of texts and tasks to achieve the program's objectives.

The Internet plays a significant role in developing the communicative abilities of learners by involving them in a broad range of meaningful, realistic, and attainable targets.

Successfully completing these tasks brings a sense of satisfaction and boosts learners' confidence in their language skills.

The advantage of teachers is the use of digital technologies and information technologies in the educational process through the use of the above-mentioned and improved methods. Currently, in the period when our country is moving to digital technologies, we can witness that there are still excess documents and paperwork in the educational process. It is precisely in this process that we can make significant progress through the extensive use of digital technologies in education.

**Conclusion.** In summary, It is important to acknowledge that incorporating Internet resources and multimedia into education provides teachers with an outstanding opportunity to enhance learning management, improve the efficiency and objectivity of the educational process, and save valuable teaching time. It also serves to increase students' motivation to acquire knowledge and fosters their interest in learning foreign languages, while instilling a strong drive for self-control and self-improvement, ultimately leading to positive learning outcomes.

Furthermore, the utilization of web resources simplifies the communication process between students themselves and with native speakers. Students can engage in written and oral communication through video conferences or social networks, not only limited to school-related topics. This exposure to authentic communication situations closely resembles real-life interactions. Although the Internet cannot replace the language classroom or the interaction between teachers and students, it offers a wealth of information and communication possibilities that significantly enhance the language learning experience.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Abdumannonovna, D. B. (2021). Bo`lajak tabiiy fanlar oqituvchilarining axborot texnologiyalari bilan ishlash media konikmasini rivojlantirish metodikasining xorijiy va mahalliy tajribalarining tahlili. Современное образование (Узбекистан), (12 (109)), 3-11.
2. Kizi, F. M. A. Defects And Errors In Language Learning. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 1-4.
3. Klochko, O., Fedorets, V., Tkachenko, S., & Maliar, O. (2020, September). The Use of Digital Technologies for Flipped Learning Implementation. In *ICTERI Workshops* (pp. 1233-1248).
4. Makhmudova, D. M. (2018). Electronic educational resources as a new component of a traditional educational process. *Indonesian Journal of Education Methods Development*, *1*, 10-21070.
5. Oʻrinboyev, Z. (2021). Oliy ta'lim muasasalarida axborot texnologiyalar fanini smart texnologiyalar asosida oʻqitish. *Academic research in educational sciences*, *2*(CSPI conference 3), 718-723.
6. Юсупова, Д. С., & Шобдурахимова, У. Т. (2020). Ta’lim tizimida dars samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning oʻrni. *Инновации в педагогике и психологии*, (SI-2№ 9).

7. Yarychev, N. U., & Mentsiev, A. U. (2020, November). New methods and ways of organizing the educational process in the context of digitalization. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 1691, No. 1, p. 012128). IOP Publishing.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Salimova Shahlo Sayfulloyevna**
Qarshi davlar universiteti, tayanch doktorant
Email: shsalimova@gmail.com
Tel: +998 91 959 43 09

# BOʻLAJAK TEXNOLOGIYA OʻQITUVCHILARINI MAKTABDA PSIXOLOGIK XAVFSIZ TAʼLIM MUHITINI LOYIHALASH UCHUN TAYYORLASH

**Annotatsiya.** Maqola maktablarda boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini psixologik xavfsiz taʼlim muhitini yaratishga tayyorlashga bagʼishlangan. Oʻquv jarayoniga psixologik xavfsizlikni joriy etish zaruriyati va bu jarayonda texnologiya oʻqituvchisining roli koʻrib chiqiladi. Boʻlajak oʻqituvchilarni psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratishga tayyorlashda qoʻllaniladigan usul va texnikalari tavsiflanadi. Tadqiqot natijalari boʻlajak texnologiya oʻqituvchilari uchun psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashda oʻqitish dasturining samaradorligini koʻrsatadi.

**Kalit soʻzlar:** psixologik xavfsizlik, oʻquv muhiti, texnologiya oʻqituvchisi, tayyorlash, loyihalash, psixologiya, taʼlim.

**Салимова Шахло Сайфуллоевна**
Каршинский государственный университет, базовый докторант
Email: shsalimova@gmail.com
Tel: +998 91 959 43 09
ORCID: 0009-0000-7010-0945

# ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ ПСИХОЛОГИЧЕСКИ БЕЗОПАСНОЙ УЧЕБНОЙ СРЕДЫ В ШКОЛАХ

**Аннотация.** статья посвящена подготовке будущих учителей технологий к проектированию психологически безопасной учебной среды в школах. Рассматривается необходимость внедрения психологической безопасности в учебный процесс и роль учителя технологий в этом процессе. Описываются методы и приемы, используемые при подготовке будущих учителей к проектированию психологически безопасной учебной среды. Представлены результаты исследования, демонстрирующие эффективность программы подготовки будущих учителей технологий к проектированию психологически безопасной учебной среды.

**Ключевые слова:** психологическая безопасность, учебная среда, учитель технологий, подготовка, проектирование, психология, образование.

**Salimova Shahlo Sayfulloyevna**
Karshi state university, basic doctoral student
Email: shsalimova@gmail.com
Phone: +998 91 959 43 09

# PREPARING FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS FOR DESIGNING A PSYCHOLOGICALLY SAFE LEARNING ENVIRONMENT IN SCHOOLS

**Absrtact.** the article is devoted to the preparation of future technology teachers for designing a psychologically safe learning environment in schools. The need to introduce psychological safety into the educational process and the role of technology teachers in this process are considered. The methods and techniques used in preparing future teachers for designing a psychologically safe learning environment are described. The results of the study demonstrating the effectiveness of the program for preparing future technology teachers for designing a psychologically safe learning environment are presented.

**Key words:** psychological safety, learning environment, technology teacher, preparation, design, psychology, education.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N41

**Kirish.** Hozirgi vaqtda ta’lim muhiti yanada texnologiyalashib bormoqda va texnologiya oʻqituvchilari oʻz talabalari uchun xavfsiz va sog’lom ta’lim muhitini yaratishga tayyor boʻlishlari muhim hisoblanadi. Oʻqituvchi texnik bilimlardan tashqari oʻquvchilarining psixologik xususiyatlarini ham hisobga olib, ularning muvaffaqiyatli oʻqishi va rivojlanishi uchun sharoit yarata olishi kerak. Maqolada boʻlajak texnologiya oʻqituvchilari maktab muhitida samarali ishlashlari va oʻquvchilariga akademik va hayotiy muvaffaqiyatlarga erishishlariga yordam berishlari uchun xavfsiz ta’lim muhitini loyihalashga tayyorlanishi,. xavfsiz ta’lim muhitini yaratish uchun texnologiya oʻqituvchisi ega boʻlishi kerak boʻlgan asosiy kompetentsiyalar, shuningdek, bu jarayonda ularga yordam beradigan usul va vositalar koʻrib chiqiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi - oʻquvchilarga nafaqat texnologiya oʻqituvchilari, balki boshqa oʻqituvchilar va ta’lim mutaxassislari uchun ham foydali boʻlgan psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish boʻyicha amaliy tavsiyalar berishdir. Maqola talabalarning salomatligi va xavfsizligi haqida qayg’uradigan, ularning oʻqishi va rivojlanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratishga intilayotgan har bir kishi uchun qiziqarli va foydali boʻladi.

Psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish boʻyicha mavjud yondashuvlarni tahlil qilish zamonaviy maktab amaliyotida texnologiyani oʻqitish va qoʻllash tajribasiga asoslanadi.

Boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashga tayyorlashning dolzarbligi bir qator omillar bilan bog’liq. Birinchidan, bugungi ta’lim muhiti tobora koʻproq texnologiyalashayotganligi va texnologiya oʻqituvchilari ta’lim oluvchilar uchun xavfsiz va sog’lom ta’lim muhitini yaratishda muhim rol oʻynaydi. Ikkinchidan, soʻnggi yillarda maktab oʻquvchilari oʻrtasida axborot va uni almashinuvining haddan tashqari koʻpligi, ijtimoiy izolyatsiya, shuningdek, oʻquv jarayonining qoniqarsiz tashkil etilishi va bu boradagi oʻqituvchilarning malakasizligi bilan bog’liq psixologik muammolar koʻpayib bormoqda.

Shu munosabat bilan texnologiya oʻqituvchilarini oʻquvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning muvaffaqiyatli oʻqishi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib, psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalash boʻyicha malaka oshirishlarini ta’minlash zarur. Bundan tashqari, zamonaviy maktab amaliyotida yangi texnologiyalar va oʻqitish usullaridan tobora koʻproq foydalanilmoqda, oʻquvchilarning bilim olishi va

rivojlanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratish uchun oʻqituvchilar ular bilan samarali ishlay olishlari kerak.

Shunday qilib, boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashga tayyorlash mavzusi dolzarb va muhim boʻlib, yangi usul va yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, ushbu yoʻnalishda oʻqituvchilarning malakasini oshirishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maqolani tayyorlash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- taʼlim muassasalarida oʻquv va psixologik xavfsizlik mavzusi boʻyicha oʻquv adabiyotlari, ilmiy jurnallar, ilmiy toʻplamlar va monografiyalarda nashr etilgan ishlar bilan tanishib, psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashning asosiy tushunchalari va usullariga, shuningdek, ushbu tushunchalarni turli taʼlim muassasalarida amaliy tatbiq etish tajribasiga eʼtibor qaratik;
- boʻlgʼusi texnologiya oʻqituvchilarini tayyorlash uchun moʻljallangan oʻquv dasturlari va uslubiy koʻrsatmalar oʻrganildi;
- maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish boʻyicha loyihalarni amalga oshirish tajribalari oʻrganildi;
- psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish uchun qoʻllanilishi mumkin boʻlgan zamonaviy texnologiyalar va oʻqitish usullari oʻrganildi;
- psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish uchun taʼlim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish tajribalari oʻrganildi;
- boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratishga tayyorlash metodikasi ishlab chiqildi.

Taʼlim tashkilotidagi munosabatlar madaniyati, hamkasblar bilan muloqotning kasbiy etikasi, oʻqituvchilar va oʻquvchilar oʻrtasidagi munosabatlar pedagogik jarayon subʼektlarining oʻzaro taʼsiri sifatida; yoshlarning bir-biri bilan oʻzaro munosabati haqida olimlardan A.M. Stolyarenko, A.D. Karnyshev, G.S. Korytova, I.V. Korytov, B.G. Ananiev, E.L. Arshinskaya tadqiqot olib borishgan [2; B. 155.].

G.L.Ejovaning taʼkidlashicha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi oʻquv jarayonida yangi paydo boʻladigan xususiyatlarining paydo boʻlishiga olib keladi [3; B. 11-12.].

Tadqiqotchi A.D. Asqaqarovaning fikricha, taʼlim tizimiga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi diqqatni jamlashda, maʼlumot toʻgʼrisidagi tasavvurni kengaytirishda, oʻquv predmeti, darsga qiziqishning ortishi va bilimlarni ixtiyoriy tarzda oʻzlashtirishda, izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga faol kirishishda, kasbiy malakani muntazam oshirib borishda ahamiyatli sanaladi [1; B. 63.].

Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N. va D.Sh.Temirovlarning tadqiqotlarida “kompetentlilik”, “kompetensiya” tushunchalari bilimlar majmuining amalda qoʻllanilishi; faollashgan (amaliyotga tatbiq etilgan) oʻquv, bilim, tajribalar majmui; shaxsning maqsadga yoʻnaltirilgan emotsional iroda kuchi sifatida taʼriflanadi [5; B. 31.].

Maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhiti mavzusi bilan koʻplab xorijiy olimlar va tadqiqotchilar shugʼullangan, jumladan, H.H. Keller oʻzining "Taʼlim muassasalarida psixologik xavfsizlik: asosiy tamoyillar va tavsiyalar" nomli maqolasida psixologik xavfsiz oʻquv muhitining asosiy tarkibiy qismlari va uni yaratish usullarini tadqiq etdi [4; B. 49-50.], Michigan

universiteti psixologiya professori D.O. Makkey maktablarda psixologik xavfsizlik va oʻquv motivatsiyasi haqida tadqiqotlar oʻtkazdi [6; B. 418.], Rochester universitetining psixologiya professori. R.M. Ryan va uning hamkasblari maktabdagi oʻquv muhitida psixologik xavfsizlikni saqlash: avtonomiya, bog'liqlik va kompetentsiyaning roli haqida tadqiqot oʻtkazishdi [7; B. 70.].

**Muhokama.** Boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalash uchun tayyorlash koʻplab mamlakatlarda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu sohadagi xalqaro tajribaning bir nechta misollarini koʻrib chiqamiz:

1. AQSh boʻlajak oʻqituvchilar uchun ta'lim berish muhitidagi oʻquv dasturlariga xavfsizlik boʻyicha talablar kiritdi, jumladan AQShning ba'zi shtatlarida stajyor oʻqituvchilar uchun maktab xavfsizligi boʻyicha maxsus oʻquv dasturi talablari mavjud.

2. Kanadada maktablardagi xavfsizlik ta'lim sohasidagi davlatning umumiy strategiyasi kontekstida koʻrib chiqiladi. Xususan, Ontario provinsiyasida boʻlajak oʻqituvchilarni maktab xavfsizligi sohasida oʻqitish boʻyicha maxsus dastur yaratilgan.

3. Evropa Ittifoqida maktablarda xavfsizlik ta'lim sohasidagi ustuvor yoʻnalishlardan biridir. 2017-yilda Yevropa Komissiyasi maktablarda xavfsizlikni ta'minlash boʻyicha hisobotni e'lon qildi, unda ta'lim muassasalarida xavfsizlikni yaxshilash boʻyicha aniq chora-tadbirlar taklif qilindi.

4. Avstraliya boʻlajak oʻqituvchilarni psixologik jihatdan xavfsiz muhitda ishlashga tayyorlash uchun maxsus ta'lim dasturlarini joriy qildi. Bundan tashqari, Avstraliyaning ba'zi shtatlari, masalan, Kvinslend, oʻqituvchilar uchun xavfsizlik malakasini talab qiladi.

Umuman olganda, xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, oʻquv muhitining psixologik xavfsizligi masalalari ta'lim sohasidagi koʻplab mamlakatlar uchun muhim ustuvor yoʻnalish boʻlib, boʻlajak oʻqituvchilarni xavfsiz muhitda ishlashga tayyorlash uchun maxsus dasturlar joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Germaniya va boshqa mamlakatlardagi koʻplab universitetlar oʻquv muhitining psixologik xavfsizligiga qaratilgan oʻqituvchilarni tayyorlash dasturlarini taklif qiladi. Masalan, Stenford universitetlari, UCLA, UC Berkeley, UC San-Diego, Buyuk Britaniyaning Vestminster universiteti, Avstraliyaning Sidney universiteti va boshqalar.

Ushbu dasturlarga asosan boʻlg'usi oʻqituvchilar maktablarda pedagogic amaliyot oʻtashi ta'minlanadi, ular maktablarda oʻquvchilar bilan ishlash tajribasiga ega boʻlishlari va oʻquv muhiti xavfsizligi boʻyicha bilimlarini amalda qoʻllashlari mumkin. Boshqa dasturlarga asosan esa, maktablarda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan amaliy oʻquv loyihalari orqali oʻqituvchilar amaliyotchilariga oʻz malaka va bilimlarini oshirish imkoniyatini berishadi.

Umuman olganda, boʻlajak oʻqituvchilarni maktablarda psixologik xavfsiz ta'lim muhitini yaratishga tayyorlash boʻyicha xalqaro tajriba turli formatlarda taqdim etilgan: ixtisoslashtirilgan dasturlardan tortib, universitetlar va maktablarda oʻtkaziladigan amaliyot va loyihalargacha. Ushbu dasturlarning aksariyati boʻlajak oʻqituvchilarga turli xil madaniy va ijtimoiy kontekstlarda tajriba orttirish imkoniyatini beradi, bu esa oʻquv muhitida psixologik xavfsizlik sohasidagi vakolatlarini mustahkamlashda yordam beradi.

**Natijalar.** Boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashga muvaffaqiyatli tayyorlash uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

1. Boʻlajak oʻqituvchilarda bolalar hamda oʻsmirlarni tarbiyalash va taʼlim berishning psixologik jihatlari haqidagi tushunchalarini shakllantirish. Talabalarning psixologik xavfsizligiga qanday omillar taʼsir qilishini, ularning qulayligi va xavfsizligini maksimal darajada oshiradigan sharoitlarni qanday yaratishni tushunishga yordam berish kerak.

2. Oʻquv muhitini loyihalash koʻnikmalarini rivojlantirish. Boʻlajak texnologiya oʻqituvchilari oʻqitishning tegishli uslub va vositalarini tanlay olishlari, ish joyini tashkil etishlari, oʻquvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan topshiriq va loyihalarni yaratishlari kerak.

3. Oʻqitishning innovatsion usullarini oʻzlashtirish va yangi texnologiyalardan foydalanish. Texnologiya oʻqituvchilari oʻz ishlarida yangi oʻqitish usullari va texnologiyalaridan foydalanishga tayyor boʻlishlari kerak, masalan, onlayn kurslar, vebinarlar, mobil ilovalar va boshqalar.

4. Talabalar bilan ishlash koʻnikmalarini rivojlantirish va xavfsizlik madaniyatini shakllantirish. Texnologiya oʻqituvchilari oʻquvchilar bilan samarali ishlay olishlari, ularning talablarini tushunishlari va muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berishlari kerak. Shuningdek, ular oʻquv jarayonida xavfsizlik madaniyatini oshirishga va oʻquvchilarda oʻz harakatlari uchun masʼuliyatni shakllantirishga tayyor boʻlishlari kerak.

5. Amaliy mashgʼulotlar va pedagogik amaliyotlarni oʻtkazish. Boʻlajak texnologiya oʻqituvchilari xavfsiz oʻquv muhitini loyihalash boʻyicha amaliy mashgʼulotlar va pedagogik amaliyot oʻtkazish hamda tajribali hamkasblaridan fikr-mulohazalarni olish imkoniyatiga ega boʻlishlari muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashga tayyorlash koʻp bosqichli va koʻp qirrali jarayon boʻlib, oʻrganish va rivojlantirishga kompleks yondashuvni talab qiladi.

Bundan tashqari, tahlillarimizga koʻra boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratishga samarali tayyorlash uchun quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- ijtimoiy-madaniy sharoit. Texnologiya oʻqituvchilari oʻz oʻquvchilari ishlayotgan ijtimoiy-madaniy sharoitni tushunishlari kerak. Bu ularga oʻqitish uslublari va vositalarini taʼlim muassasasining oʻziga xos xususiyatlariga moslashtirishga yordam beradi va oʻquvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitida psixologik xavfsizligini taʼminlaydi;
- oʻqituvchining psixologik madaniyati. Texnologiya oʻqituvchilari oʻquvchilarning ehtiyojlari va muammolarini tushunishlari, hissiy jihatdan qoʻllab-quvvatlovchi muhit yaratishlari va oʻzlarining his-tuygʼularini boshqara olishlari uchun yuqori psixologik madaniyatga ega boʻlishlari kerak;
- psixologlar va pedagog-psixologlar bilan hamkorlik. Texnologiya oʻqituvchilari oʻquv muhitining psixologik xavfsizligini baholashda va uni yaxshilash boʻyicha tavsiyalar berishda yordam beradigan psixologlar va pedagog-psixologlar bilan hamkorlik qilishlari lozim;
- muntazam oʻz uztida ishlashi. Texnologiya oʻqituvchilari doimiy ravishda oʻz bilim va malakalarini oshirib borishlari, taʼlim va texnologiyaning yangi tendensiyalariga amal qilishlari, professional anjumanlar va seminarlarda qatnashishlari, hamkasblari bilan tajriba almashishlari kerak.

Umuman olganda, boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini maktablarda psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashga tayyorlash murakkab jarayon boʻlib, u nazariy va amaliy tayyorgarlikni, shuningdek, ijtimoiy-madaniy sharoit va oʻquvchilarning asosiy psixologik xavfsizlik tamoyillarini tushunishni oʻz ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

**Xulosa.** Oʻrganishlarimiz natijalariga koʻra quyidagi xulosalar olindi. Psixologik xavfsiz taʼlim muhitini yaratish zamonaviy taʼlimning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Uni hal qilish uchun boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini sifatli tayyorlash zarur, ular nafaqat texnik bilimlarga, balki oʻquvchilarning hissiy xavfsizligi uchun shart-sharoit yaratishga ham ega boʻlishi kerak.

Mavzu boʻyicha adabiyotlar va metodik tahlil qilish asosida boʻlajak texnologiya oʻqituvchilarini psixologik xavfsiz oʻquv muhitini loyihalashga sifatli tayyorlanishini taʼminlash uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Psixologik xavfsizlik sohasidagi kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mavzularning oʻquv dasturlariga kiritish.
2. Psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratishda koʻnikma va malakalarni shakllantirish uchun loyiha asosida oʻqitish va hamkorlikda oʻqitish kabi zamonaviy oʻqitish usullaridan foydalanish.
3. Talabalarga oʻquchilar bilan ishlash tajribasini orttirish va psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish koʻnikmalarini shakllantirish imkonini beruvchi amaliy mashgʼulotlar va pedagogic amaliyotlarni tashkil etish.
4. Psixologik xavfsiz taʼlim muhitini yaratish uchun taʼlimda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Yuqorida keltirilgan xulosalar asosida quyidagi takliflar shakllantirildi:

- psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish muammosini hal qilish uchun boʻlajak texnologiya oʻqituvchilari uchun yuqori sifatli tayyorgarlikni taʼminlash kerak;
- oʻquv dasturlari psixologik xavfsizlik sohasidagi kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mavzularni oʻz ichiga olishi kerak;
- psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish koʻnikma va malakalarini shakllantirish uchun loyiha va hamkorlikda oʻqitish kabi zamonaviy oʻqitish usullaridan foydalanish kerak;
- amaliy mashgʼulotlar va pedagogik amaliyotlarni tashkil etish talabalarga oʻquvchilar bilan ishlash tajribasini toʻplash va psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish koʻnikmalarini shakllantirishga yordam berishini hisobga olgan holda bu boradagi ishlarni samaradorligini oshirish kerak;
- oʻqitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratishga yordam beradi, chunki bu oʻquvchilar bilan interaktiv tarzda ishlash va har biriga individual yondashish imkonini beradi;
- psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish sohasida master-klas va tajriba almashish imkonini beradigan ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, mahorat darslari va boshqa tadbirlarni oʻtkazish muhim ahamiyatga ega;
- texnologiya oʻqituvchilari zamonaviy talablarga javob beradigan psixologik xavfsiz oʻquv muhitini yaratish imkoniyatiga ega boʻlishlari uchun oʻqitish uslublarini doimiy ravishda takomillashtirishi va taʼlim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishi zarur;

Bu chora-tadbirlarning barchasi oʻquvchilarning psixologik xavfsizligi uchun sharoit yaratishga va zamonaviy sharoitlarda oʻquv jarayonining muvaffaqiyatli rivojlanishini taʼminlashga yordam beradi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Аскаров, А. Д. (2015). Масофавий ўқитиш таълим шаклининг ривожланиш босқичлари ва моделлари. *Современное образование (Узбекистан)*, (10), 59-65.
2. Аршинская Е.Л., Жупиева Е.И., Семенова Е.А. Взаимодействие и психопрофилактика в образовании // Альманах современной науки и образования: Сборник статей. Тамбов: Грамота, 2013, № 11 (78). С. 155-157.
3. Ежова Г.Л. Особенности организации образовательного процесса с учетом его целостности //Современное педагогическое образование. 2016. № 4. С. 9-12.
4. Keller, H. H. (2003). Psychological safety in educational institutions: essentials for a culture of excellence. Journal of leadership & organizational studies, 9(4), 46-61.
5. Kaziyeva T.T. “Fonetik uslubiyatni oʻrganishda oʻquvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari”. Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan 2020.
6. McKay, D. O., Dweck, C. S., & Weinstein, N. (2004). Psychological safety, self-regulated learning, and student retention. Educational psychology, 24(4), 417-428.

Ryan, R. M., Deci, E. L., & Vansteenkiste, M. (2017). Maintaining psychological safety in school environments: The roles of autonomy, relatedness, and competence. Current opinion in psychology, 16, 67-71.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Matchanova Nargiza To'lqinovna**
"Tarix va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi
Ma'mun Universiteti NTM
Email: prezident2888@mail.ru
+998 94 314 01 54

## O'ZBEKISTONDA XORIJIY TALABALARNING IJTIMOIY MOSLASHUV MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** Maqolada Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali misolida O'zbekistonda o'qish davomida xorijiy talabalar duch keladigan bir qator umumiy muammolar muhokama qilingan. Shu jumladan, xorijiy talabalar kelgan mamlakatlarning o'ziga xosligi va ularning moslashuvining asosiy bosqichlari o'rtasidagi bog'liqliklar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** moslashuv, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy muhit, xorijiy talabalar, ta'lim, madaniyat, muloqot.

**Матчанова Наргиза Тулкиновна**
преподаватель кафедры "История и психология"
негосударственного образовательного
учреждения "Университет Маъмуна"

## ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В статье рассматривается ряд общих проблем, с которыми сталкиваются иностранные студенты во время обучения в Узбекистане на примере Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии. Среди них выявляются связи между характеристиками стран, куда приезжают иностранные студенты, и основными этапами их адаптации.

**Ключевые слова:** адаптация, социальная адаптация, социальная среда, иностранные студенты, образование, культура, общение.

**Matchanova Nargiza**
Teacher of the "History and Psychology"
department of Mamun University
non-state educational institution

## PROBLEMS OF SOCIAL ADAPTATION OF FOREIGN STUDENTS IN UZBEKISTAN

**Abstract.** The article discusses a number of common problems faced by foreign students while studying in Uzbekistan using the example of the Urgench branch of the Tashkent Medical Academy. Among them, the connections between the characteristics of the countries where foreign students come and the main stages of their adaptation are revealed.

**Key words:** adaptation, social adaptation, social environment, foreign students, education, culture, communication.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N42

**Kirish.** Hozirgi kunda dunyoda xalqaro taʼlim aloqalari jadal rivojlanib, tobora koʻproq yoshlar uchun xorijda oliy taʼlim olish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Statistika qoʻmitasi bergan maʼlumotlariga koʻra, 2021-2022 oʻquv yili boshida Respublikamizdagi oliy taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 5140 nafarni tashkil etgan. 2021-2022 oʻquv yilida Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali (TtaUf)ga 549 nafar xalqaro talabalar qabul qilindi. Ayni paytda TtaUf da 7 ta davlatdan 949 nafar xorijiy talabalar tahsil olmoqda. Biroq, xorijiy talabalar sonining oʻsishi ularning yangi muhitga, boshqa madaniyatga va Oʻzbekistonda yashash sharoitlariga moslashishi bilan bogʻliq bo`lgan masalalarni keltirib chiqaradi.

**Uslubiy asos.** Ijtimoiy moslashuv - individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasidir. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda, individning oʻz faoliyatini va oʻzini oʻrab turgan ijtimoiy davrasini tubdan oʻzgartirish davrlari bilan bogʻlaydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol taʼsir etish koʻrinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish koʻrinishi boʻladi. Ijtimoiy moslashuv shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi koʻp jihatdan individ oʻzini va oʻzining ijtimoiy aloqalarini qanchalik oʻxshash (adekvat) anglashiga bogʻliq.

Ijtimoiy moslashuv - bu shaxsning begona madaniy muhitga oʻrganishi, uni qabul qiluvchi jamiyatning turmush tarzini belgilaydigan meʼyor va qoidalarga koʻnikish jarayonida xulq-atvor stereotiplarini oʻzgartirishning alohida turi. Qizigʻi shundaki, bu jarayon mezbon madaniyatning oʻzida maʼlum oʻzgarishlarni oʻz ichiga oladi, chunki yangi kelganlar mahalliy aholi uchun noodatiy tuyulishi mumkin boʻlgan va oʻzlarining xatti-harakatlari va tafakkurida har xil reaktsiyalarni keltirib chiqaradigan harakatlar shakllari va fikrlash tarzlarini namoyish etishlari mumkin.

Moslashuv subyektning atrof-muhitga faol reaktsiyasi shaklidir. U obyektiv ravishda mavjud tuzilmalarni, shuningdek, subyektning shaxsiy salohiyatini oʻzgartirishga qaratilgan [9,25]. Bilamizki, ishtirok etayotgan subyektlarning yoʻnalishlari va munosabatlarini oʻzaro oʻzgartirish jarayonida doimo muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu qiyinchiliklar ularning odatiy xulq-atvorini belgilovchi mahalliy madaniyat va meʼyorlar bilan toʻqnashuvdan kelib chiqadi

[6,365-370; 8, 371-377; 10, 210-242]

Ijtimoiylashuv jarayoni insonning koʻplab ijtimoiy yoki etnik guruhlarga tegishli boʻlgan bir qator yoʻnalish va munosabatlarni, shuningdek, faqat maʼlum bir madaniyatga xos boʻlgan oʻziga xos va individual xususiyatlarni egallashini anglatadi. Turli madaniyatlar vakillari bilan aralashish, bir tomondan, nima toʻgʻri va nima toʻgʻri emasligi haqida umumiy tushunchalar mavjudligini koʻrsatadi, bu esa maʼlum bir kelishuv uchun shart-sharoit yaratadi, lekin boshqa tomondan, stereotiplardagi farqlar istalgan natijalarga erishishda qiyinchiliklarga olib keladi. Bu yashirin va ochiq toʻqnashuvlarga olib keladi, bu esa odamlarning oʻzlari bilan muloqotda boʻlgan ijtimoiy guruhlarga moslashishiga toʻsqinlik qiladi.

Xorijiy talabalarning moslashish darajasi ularning qabul qiluvchi mamlakatdagi oʻz turmush tarzi bilan belgilanadi. Bu yerda markaziy jarayonlar quyidagilardir: maʼruza va seminarlarda ularning ishiga qoʻyiladigan yangi talablarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirish, topshiriqlarni bajarish, kurs ishlari hamda ularning test va imtihonlarda oʻzlarini koʻrsata bilishlari yaʼni ishlashlaridir. Har bir mamlakatda oʻquv jarayonini tashkil etishning oʻziga xos

usullari mavjud boʻlib, ular davlat taʼlim standartlari, anʼanalariga tayangan holda, oʻqituvchilar, universitet maʼmuriyati va talabalar oʻrtasidagi muloqot uslublari bilan belgilanadi.

Birinchidan, bu xorijiy talabalarning oʻz vatanlarida oʻrganib qolgan xatti-harakatlarining baʼzi shakllaridan voz kechishlari kerakligini anglatadi. Ikkinchidan, ular yangi strategiyalarni, masalan, turli oʻquv materiallari bilan ishlash tartib-qoidalarini oʻrganishlari kerak boʻladi. Xorijiy talabalar shaxsiy saʼy-harakatlari orqali hal qilishlari kerak boʻlgan muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi, garchi baʼzida vaziyatga taʼsir qiluvchi tashqi omillar ham boʻlishi mumkin. Bu jarayonda akademik hamjamiyat va ularning xalqaro talabalar ehtiyojlarini qondirish uchun moslashuvchan boʻlishga tayyorligi alohida rol oʻynaydi[3, 196-219; 11, 75-95;12].

Mezbon davlat tilini qisman bilish chet ellik talabalarning moslashuvining hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi: ular tilni ravon bilishning turli darajalarini namoyish etishga moyildirlar. Ushbu talabalarning til muammolari bilan bogʻliq jiddiy psixologik qiyinchiliklar boʻlishi mumkin; bu talabalar oʻz oʻqituvchilari va jamoat joylarida odamlar bilan muloqot qilishga harakat qilganlarida yaqqol namoyon boʻladi. Til malakasi mezbon jamoaga integratsiyalashuvning eng muhim shartlaridan biridir [4, 91-109].

Har bir mamlakatning kundalik turmush tarzining oʻziga xos madaniy xususiyatlari mavjud. Talabalar turar joyida yashab, xorijiy talabalar baʼzi mahalliy madaniy oʻziga hosliklarni oʻzlashtirishlari kerak, masalan, ovqat sotib olish va pishirish va xonadoshlari bilan muloqot qilishda. Baʼzan bu talabalar oʻzlarining milliy kundalik madaniyatining baʼzi elementlaridan voz kechib, yangi muhitga moslashish uchun zarur boʻlgan yangi koʻnikma va odatlarni egallashlari kerak.

Moslashish jarayonida ular boʻsh vaqtlarini tashkil etishda ham muammolarga duch kelishlari mumkin. Uyda boʻlganida odatiy holga aylangan narsa Oʻzbekistondagi mahalliy aholining salbiy munosabatiga sabab boʻlishi mumkin. Shuning uchun ular oʻzbek yoshlariga, xususan, TtaUf talabalariga xos boʻlgan xatti-harakatlar va boʻsh vaqtlarini qanday oʻtkazishlari haqida koʻproq maʼlumotga ega boʻlishlari kerak. Qolaversa, ular mahalliy madaniy oʻziga hosliklar asosida boʻsh vaqtlarini tashkil etish borasida maʼlum tajribaga ega boʻlishlari lozim. Va nihoyat, oʻzbek madaniyati vakillarini xorijiy talabalar oʻz madaniyati anʼanalari bilan tanishishga ragʻbatlantirishi kerak.

Chet eldagi hayot koʻpincha koʻchada, transportda, doʻkonlarda yoki teatrlarda nomaʼlum odamlar bilan aloqa qilish holatlarini oʻz ichiga oladi; bu xorijiy talabalar mahalliy aholi tomonidan hech qanday salbiy reaktsiyalar qoʻzgʻatmaydigan xatti-harakatlar namunalarini oʻrganishi kerakligini anglatadi. Bu vazifa jamoat joylarida mahalliy muloqot usullariga moslashishga yordam beradi.

Umuman olganda, xorijiy talabalarning moslashish jarayoni ular kundalik hayotida oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlashga muvaffaq boʻlgan aloqalar soni va sifatiga [1,5-44] va natijada tarmoqlarning shakllanishiga bogʻliq [2, 277-297; 5, 709-722].

Kundalik oʻzaro taʼsirning barcha bu tipik sohalari maʼlum darajada oʻz-oʻzini rivojlantirish, oʻz-oʻzini tarbiyalash va oʻz-oʻzini takomillashtirishni talab qiladi. Xorijiy talabalarning chet el madaniyatini qabul qilishlari, mahalliy aholi bilan aloqa oʻrnatish va mezbon davlat tilini oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqi ularning muvaffaqiyatli moslashishi uchun qimmatli turtki boʻlib xizmat qiladi [7,399-406]. Bunday holda, Oʻzbekistonda, oliy maʼlumot olish eng yuqori natijalarni beradi, bu esa bitiruvchilarning muvaffaqiyatini taʼminlaydi.

**Natijalar va muhokama.**

Biz 2022 va 2023 yillarda xorijlik talabalarning TtaUfda oʻqish va Oʻzbekistonda yashash vaqtida duch keladigan asosiy moslashuv muammolarini aniqlash maqsadida bir qancha sotsialogik soʻrovlar oʻtkazdik. Ushbu soʻrovnomalarda Hindiston, Pokiston, Rossiya, Turkmaniston, Qirgʻiziston, Afgʻoniston kabi davlatlar talabalari ishtirok etdi. Anketa soʻrovi bakalavriat bosqichida (oʻqishning birinchi kursidan toʻrtinchi kursigacha) 120 nafar talaba va turli fanlar boʻyicha tahsil olayotgan talabalarini qamrab oldi.

Shu bilan birga, Turkmaniston, Qirgʻiziston davlatlaridan Oʻzbekistonga kelgan talabalarning 76 foizi haqiqatan ham Oʻzbekitsonda oʻqish niyatida ekanliklarini aytishdi. Ularning asosiy sababi shundaki, til, madaniyat, hududiy yaqinlik va qarindoshlari yoki tanishlari O’zbekistonda yashashadi, ta’lim olishadi.

Ushbu xorijiy talabalar guruhi Oʻzbekistonda kasbiy tayyorgarlikka ijobiy munosabatda boʻlishdi, bu ularga yangi sharoitlarga yanada samarali moslashish imkonini berdi.

Shu sababli ham shuni ta’kidlash kerakki, oʻquvchilarning oʻqimoqchi boʻlgan mamlakat haqidagi bilimlari ularning yangi muhitga moslashishiga sezilarli darajada ta’sir koʻrsatadi.

**1-jadval. TtaUfga oʻqishga kelishdan oldin xorijlik talabalarda O’zbekiston to’g’risida dastlabki bilimlar mavjudligi* (%)**

| Soʻrovnoma savollari | Qoʻshni mamlakatlar | | Boshqa mamlakatlar | |
|---|---|---|---|---|
| | Ha | Yo`q | Ha | Yo`q |
| Oʻqishga kirishdan oldin Oʻzbekiston davlati haqida eshitganmisiz? | 50% | 0% | 33% | 18% |
| Oʻqishga kirishdan oldin Oʻzbekistondagi hozirgi siyosiy va iqtisodiy vaziyat haqida ma’lumotga ega boʻlganmisiz? | 17% | 33% | 0% | 50% |
| Oʻqishga kirishdan oldin Oʻzbekiston universitetlarida ta’lim jarayoni bilan tanish boʻlganmisiz? | 28% | 22% | 20% | 30% |
| Oʻqishga kirishdan oldin talabalarning kundalik hayoti va turar joyini tashkil etilishi haqida ma’lumot olganmisiz? | 35% | 15% | 25% | 25% |
| Oʻqishga kirishdan oldin jamoat joylarida mahalliy aholi bilan muloqot qilish uchun muloqot normalari bilan tanishganmisiz? | 38% | 12% | 25% | 25% |
| Oʻqishga kirishdan oldin xarid qilish qoidalari bilan tanishganmisiz? | 33% | 17% | 28% | 23% |
| Oʻqishga kirishdan oldin turli etnik guruhlar vakillari bilan muloqot qilganmisiz? | 3% | 47% | 25% | 25% |

***Manba:** Muallif tomonidan so`rovnoma ma`lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Uzoq xorijdan kelgan talabalarning aksariyati Oʻzbekiston haqida juda kam ma’lumotga egadirlar (Qoʻshni mamlakatlar bundan mustasno). Ma’lumotlarni asosan internet tarmoqlaridan va universitetga tayyorgarlik kursidan olishgan. Kursda Oʻzbekiston tarixi va madaniyati, urf-odatlari va an’analari haqida talabalarga yetarlicha ma’lumot berishmagan. Ularni qabul qiluvchi mamlakat haqidagi cheklangan bilimlari moslashish davrida ularning hayotini sezilarli darajada qiyinlashtiradigan omil hisoblanadi. Ular qilgan xatolaridan xulosa

chiqarishlari kerakki, bular ijtimoiy-madaniy tayyorgarlikning yetishmasligidan kelib chiqadi. Bu muqarrar ravishda xorijiy talabalar va mahalliy aholi jamoat joylarida, kasalxonalarda va dam olish joylarida muammolarga olib keladi. Bu talabalar yangi, xorijiy jamiyatning turmush tarziga moslashishda psixologik muammolarga duch kelishlari mumkin.

**Xorijiy talabalarning kundalik hayotga moslashishi muammolari.** Xorijiy talabalarning kundalik tartiblari va bo‘sh vaqtlari ular ko‘plab moslashuvchan qiyinchiliklarga duch keladigan muhitlardir. Bu muammolarning aksariyati talabalarning kundalik hayotini tashkil etishda, ma’muriyat va qo‘shnilari bilan o‘zaro munosabatlar qoidalarini tushunish va ularga rioya qilish zaruriyatida ham qiynalayotganliklari bilan bog‘liqdir. Biroq, bir muncha vaqt o‘tgach, bu talabalar ba’zi mahalliy odatlarni o‘zlashtira boshlaydilar va ularni kundalik hayotga , ovqatlanish amaliyotiga va kiyinish uslubiga ham kiritadilar. Bu o‘zgarishlar ko‘proq Hindiston va Pokiston davlatlaridan kelgan talabalar orasida sodir bo'ladi.

Shu bilan birga, xalqaro talabalar erta bolalik davrida o‘zlashtirgan milliy xulq-atvor namunalarini saqlab qolishadi; bular birinchi navbatda ularning ovqatlanish odatlarida namoyon bo‘ladi. Talabalar uylaridan yuborilgan ziravorlar yordamida o‘zlari taom pishiradilar. Oshxona, kafe va restoranlar xalqaro talabalar orasida unchalik mashhur emas, chunki ular juda qimmat. Respondentlarning har uchinchisi oziq-ovqat va kiyim kechaklar narxining yuqoriligini ta’kidlaydilar.

TtaUfda o’qiydigan xorijiy talabalarning bo‘sh vaqtini o‘rganar ekanmiz, bu muhit oliy ta`lim muassasasida tahsil olayotgan barcha yoshlarga tegishli yagona tuzilmaga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. U kutubxonalarda darslarga tayyorgarlik, dam olish va do‘stlar bilan muloqot qilish (xususan, Internet orqali) kabi tadbirlar atrofida tashkil etilgan. Respondentlarning 72 foizi bo‘sh vaqtlarini komputerda o‘tkazishni yaxshi ko‘radi, 56 foizi sevimli musiqalarini tinglashni yoqtiradi. Talabalarning taxminan 69 foizi uyidagi do‘stlari va qarindoshlari bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy aloqada bo‘lishadi. Talabalar shaharchasida yashovchi o‘zbek talabalari bo‘sh vaqtlarini xuddi shunday tashkil qiladi. Birgalikda o‘qish va yashash jarayonida talabalarning bu ikki guruhi umumiy manfaatlarga ega bo‘lishni boshlaydilar va ularning muloqot jarayoni do‘stona (xorijiy talabalarning 25%) va yordam berishga tayyorligi (o‘zbek talabalarning 41%) bilan tavsiflanadi.

Biroq, so‘rov natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, uchinchi yoki to‘rtinchi kursda tahsil olayotgan ko‘pchilik xorijiy talabalar (70%) universitetda va jamoat joylarida o‘zlarini qulay his qilishadi. Ular mahalliy aholi bilan deyarli ziddiyatga borishmaydi, universitet xodimlaridan yordam talab qilmaydilar va faol dam olish mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanadilar, kino va teatrga boradilar.

**Xalqaro talabalarning ijtimoiy moslashuvining to‘siqlari va bosqichlari.** Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy talabalarning ijtimoiy moslashuvida to‘siqlar mavjud. Bu to‘siqlar talabalarning kerakli natijalarga erishish uchun o‘z o‘qishlarini va darsdan tashqari mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishga imkon beradigan me’yorlarni o‘zlashtirishlariga to‘sqinlik qiluvchi omillar majmuasi sifatida aniqlanadi.

Quyidagi ijtimoiy moslashuv to‘siqlari aniqlandi: birinchidan, xorijiy talabalarning o‘qishini tashkil etish, ularning darsdan tashqari faoliyati va kundalik hayoti bilan bog‘liq tashkiliy to‘siqlar. Asosiy muammoli yo‘nalishlar bu o‘quv rejasida o‘quv soatlarini taqsimlash, o‘quv jarayonini uslubiy, moddiy-texnik ta’minlash, uy-joy sharoitlari bilan bog‘liq.

Ikkinchidan, talaba-migrantlarning moliyaviy farovonligi va xavfsizligi bilan bog‘liq

iqtisodiy toʻsiqlar mavjud. Bu masala respondentlarning 27 foizi tomonidan qayd etilgan.

Uchinchidan, ijtimoiy-madaniy toʻsiqlar mavjud boʻlib, ular migrantlarning milliy va etnik oʻziga xosligi, oʻzbek tilini bilish darajasi, kundalik xatti-harakatlari va dam olish shakllari bilan bogʻliq muammolarni oʻz ichiga oladi. Oʻzbek tilini oʻrganish chet ellik talabalarning xorijiy muhitga moslashishi uchun asosdir: respondentlarning 57% uchun oʻzbek tilida muloqot qilish ularning moslashish jarayonida eng qiyin muammo boʻlib koʻrinadi, 23% esa ular ogʻzaki va yozma nutq koʻnikmalarini muvaffaqiyatli oʻzlashtirganiga ishonishadi. Garchi xorijiy talabalar kundalik hayotida talabalar madaniyatosti qadriyatlari va normalarini qabul qilsalar ham, ular oʻzlarining milliy va etnik urf-odatlari va an’analariga ham rioya qilishadi, bu esa qoʻshimcha qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, har uchinchi respondent oʻz milliy taomlarini tayyorlash imkoniyati yoʻqligini ta’kidlagan.

Va nihoyat, yangi ijtimoiy muhit, uning me’yorlari va qadriyatlari toʻgʻrisidagi ma’lumotlarning yetishmasligi yoki rad etilishidan kelib chiqadigan axborot toʻsiqlari mavjud; bu mahalliy aholi va migrant oʻrtasidagi ijtimoiy masofani oshiradi va oʻz navbatida ularning oʻzaro begonalashuviga sabab boʻladi. Respondentlarning 41 foizi Oʻzbekistonda yashovchi turli etnik guruhlar bilan muloqot qilishning nozik jihatlaridan xabardor ekanliklarini, ammo mahalliy aholi bilan muloqot qilish va ularni tushunishda hali ham qiyinchiliklarga duch kelishlarini ta’kidladilar.

Ushbu muammolarni hal qilish quyidagi omillarga bogʻliq: erta moslashish bosqichi talabalarning ona yurtidan boshlanadi, bizning fikrimizcha va ularning xorijiy davlatda oʻqishga boʻlgan motivatsiyasining tuzilishi bilan bogʻliq. Agar ularning motivatsiyasi yuqori sifatli ta’lim olish istagiga asoslangan boʻlsa, kelajakdagi talaba Oʻzbekiston ta’lim tizimining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganadi, umuman o’zbek xalqining urf-odatlari va an’analari aniqrogʻi, oʻzbek talabalari haqida ma’lumot izlaydi. Respondentlarning 34 foizi ushbu strategiyaga amal qilishga harakat qilgan. Har beshinchi respondent talabalar turar joyida yashash qoidalari, uy-joy sharoitlari va boshqalar haqida ma’lumot izlagan.

Boshlangʻich deb ta’riflanishi mumkin boʻlgan moslashishning keyingi bosqichi universitetiga kirgandan keyin boshlanadi. Oʻrtacha, u ikki oydan bir yilgacha davom etadi. Ushbu bosqichda xorijiy talabalar yangi ijtimoiy muhit bilan tanishadilar: ular tilni faol oʻzlashtirmoqda va mahalliy talabalarning oʻqish paytida va kundalik hayotda xatti-harakatlarini kuzatmoqda. Xorijiy talabalar odatda guruhdoshlari bilan, ayniqsa, bitta yotoqxonada yashovchilar va yurtdoshlari bilan muloqot qilishadi.

Keyingi bosqichga, ikkinchi darajali moslashishga oʻtish uchun talabalar Oʻzbekiston haqida bilimlarni toʻplashlari kerak: uning tarixi, madaniyati, jinslar oʻrtasidagi aloqa shakllari va mahalliy aholi bilan muloqot qilishda rioya qilinishi kerak boʻlgan muloqot normalari. Ushbu bosqichda xorijiy talabalar yangi muhit qadriyatlari tizimining asosiy elementlarini tushunadilar va qabul qiladilar. Bu bosqich bir necha oy yoki ikki-uch yilgacha davom etishi mumkin. Ushbu taraqqiyot natijasida xorijiy talabalarning yangi jamiyatga integratsiyalashuvi va ularning ijtimoiy mavqei ta’minlanadi. Universitet xodimlari va O’zbekistonlik talabalar bilan mezbon hamjamiyat vakillari bilan faol muloqot xorijiy talabalarga ushbu bosqichdan tezroq oʻtish imkonini beradi.

Ushbu bosqichda moslashuvchan samaradorlikni oʻlchash quyidagi obyektiv koʻrsatkichlarni tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin: akademik muvaffaqiyat, ijtimoiy va akademik tadbirlarda ishtirok etish, oʻzbek doʻstlariga ega boʻlish, faol dam olish va boʻsh

vaqt darajasi. Shuningdek, subyektiv choralar mavjud: ijtimoiy farovonlik, oʻquv jarayonidan qoniqish, uy-joy sharoitlarining samaradorligi va boʻsh vaqtni tashkil etish, shaxsiy xavfsizlikka ishonch, hech qanday qoʻrquv boʻlmasligi va boshqalar.

Ushbu tadqiqotda yuqori kurs talabalarining aksariyati (70%) (uchinchi yoki to'rtinchi kurs talabalari) universitet ichida ham, undan tashqarida ham oʻzlarini juda qulay his qilishlarini aniqlash uchun subyektiv koʻrsatkichlar tizimidan foydalanildi. Ular mezbon jamoa bilan deyarli hech qanday nizolarga duch kelmaydilar va universitet maʼmuriyatining yordamiga muhtoj emaslar; ular faol dam olishni yaxshi koʻradilar, kino va teatrlarga tashrif buyurishadi. Ikkilamchi moslashish bosqichi taxminan uch yil davom etadi.

**Xulosa.** Xorijiy talabalarning Oʻzbekistonda moslashuvini kuchaytirish uchun, birinchi navbatda, tayyorgarlik kurslarida oʻqitish tizimini takomillashtirish kerak. Ikkinchidan, chet ellik talabalarning universitetda, talabalar turar joyida va jamoat joylarida oʻzbek urf-odatlari va anʼanalari hamda madaniyatlararo muloqot tamoyillari toʻgʻrisida xabardorligini oshirish uchun maxsus mamlakatni oʻrganish kurslarini joriy etish zarur. Uchinchidan, har bir xorijiy talaba uchun, ayniqsa, oʻqish, kundalik hayot yoki dam olishda jiddiy moslashish muammolariga dosh berishga majbur boʻlganlar uchun individual maslahat va qoʻllab-quvvatlash xizmatlarini koʻrsatish uchun sharoit yaratish juda muhimdir. Muvaffaqiyatli moslashish kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish va ushbu talabalar taʼlim olayotgan Oʻzbekistonga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun hayotiy zarur va oʻta muhimdir.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. Bochner, S. (1986). Th e Social Psychology of Cross-Cultural Relations. In: Cultures in Contact: Studies in Cross-Cultural Interaction. ed. S. Bochner, (pp. 5 – 44). Oxford: Pergamon.1986.
2. Bochner, S., B. McLeod, and A. Lin. (1977). Friendship Patterns of Overseas Students: A Functional Model. International Journal of Psychology 12: 277 – 97.
3. Cortazzi, M. and Jin, L. (1999). Cultural Mirrors: Materials and Methods in the EFL classrooms. In: Culture in Second Language Teaching and Learning ed. E. Hinkel (pp. 196 – 219). Cambridge: Cambridge University Press.
4. Furnham, A. (1993). Communicating in Foreign Lands: Th e Cause, Consequences and Cures of Culture Shock. Language, Culture and Curriculum 6: 91 – 109.
5. Furnham A. and Alibhai N. (1985). Th e Friendship Networks of Foreign Students: A Replication and Extension of the Functional Model. International Journal of Psychology 20: 709 – 722.
6. Furnham, A. and Tresize, L. (1983). Th e Mental Health of Foreign Students. Social Science and Medicine 17: 365 – 370.
7. Heikinheimo, P.S. and Shute, J.C.M. (1986). Th e Adaptation of Foreign Students: Student Views and Institutional Implications. Journal of College Student Personnel 27 (5): 399 – 406.
8. Jensen, I.K.K. and Jensen, J.V. (1983). Cross Cultural Encounters: Th e Newly Arrived Asian Student. College Student Journal 17 (4): 371 – 377.
9. Kozyreva P.M. (2011). Social Adaptation of the Russian Population in the Post-Soviet Period . Social Studies 6: 24 – 36.
10. Leong, F.T.L., & Chou, E.L. (1996). Counseling International Students. In: Counseling across cultures eds P. B. Pedersen, J. G. Drauguns, et al., (4th ed., pp. 210 – 242). Newbury Park, CA: Sage.

11. Prescott, P. and Hellsten, M. (2005). Hanging Together Even with Non-Native Speakers: The International Student Transition Experience. In: Internationalizing Higher Education:Critical Explorations of Pedagogy and Policy eds P. Ninnes & M. Hellsten, (pp. 75 – 95). Hong Kong: Comparative Education Research Centre, HKU.
12. Ryan, J. (2000). A Guide to Teaching International Students. Oxford: Oxford Centre for Staffand Learning Development.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Erkaboyeva Feruz G'ayratovna**
Farg'ona davlat universiteti doktaranti

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN VA O'YINCHOQLARNING O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirishda o'yin va o'yinchoqlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanoyotgan bolalarning nutqini paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element bo'lib, bu esa o'z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muloqot va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma'lumot olishni o'rganadi.

**Kalit so`zlar:** Maktabgacha ta'lim, rivojlantirish, milliy qadriyatlar. tarbiyalanuvchi, o'yinchoq, qo'g'irchoq, tarbiya, ta'lim, ertak, nutq o'stirish, yozuv, milliy o'yinchoqlar.

**Эркабоева Феруз Гайратовна**
Докторант Ферганского государственного университета

## РОЛЬ ИГР И ИГРУШЕК В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение игр и игрушек в развитии устной речи детей в условиях дошкольного образования. Изучение возникновения и развития речи детей в системе дошкольного образования актуально не только с точки зрения психологии, но и имеет личностно-общественное значение. Речь является структурным элементом коммуникативной деятельности, которая, в свою очередь, играет решающую роль в развитии познавательной деятельности ребенка. Через общение и речь ребенок учится получать информацию из сокровищницы общественно-исторического опыта человечества.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, развитие, национальные ценности. развивающая, игрушка, кукла, воспитание, воспитание, сказка, развитие речи, письмо, национальные игрушки.

**Feruz Gairatovna Erkabayeva**
doctorate student at Fergana State University

## THE ROLE OF GAME AND TOYS DEVEOPING ORAL SPEECH IN CHILDERN OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

**Abstract.** This article discusses the importance of games and toys in the development of oral speech of children in preschool education. Studying the emergence and development of children's speech in the preschool education system is relevant not only from the point of view of psychology, but also of personal and social importance. Speech is a structural element of communicative activity, which, in turn, plays a decisive role in the development of a child's cognitive activity. Through communication and speech, the child learns to receive information from the treasury of the socio-historical experience of mankind.

**Keywords:** preschool education,to develop, national values ,children, toy, doll, upbringing, education, fairytale,speech development, writing, national toys, national values.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N43

**Kirish.** Maktabdagi ta'limning muvaffaqiyatli olib borilishida maktabgacha bo'lgan davrda og'zaki monologik rivojlantirishning o'rni juda katta hisoblanadi. Bolaning so'z boyligini o'stirish, ishlatilgan so'zlarning polisemiyasini va ularning semantik soyalarini tushunishga yordam berish bolaning nutqini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarning asosiylari sirasiga kiradi. Turli o'yinlar natijasida tilimizga qiziqishi ortadi va shu bilan barobar uning nutqiy faoliyati ham rivojlanadi.

O'yin faoliyati orqali bolalarni har tomonlama va har jihatdan to'g'ri tarbiyalashga erishiladi. O'yin faoliyati bolalarni barkamol avlod sifatida rivojlantirishda yordam beradi. O'yinchoqlar bu faoliyatning o'ziga xos predmeti bo'lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi.

Ko'pgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o'zlari duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga tushiradi va ulardan qanday qilib chiqishni usullarini o'rgatadi. Bolalar o'yinchoqlar bilan tanishish, o'ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadilar. Bolalar o'zlari orasida bo'ladigan munosabatlari, bir-birlariga muomala madaniyatlari, o'zlari orasida xuddi kattalardek gaplashishni va ular bilan kattalar muloqotga kirganda kattalardek muomalaqilishlarini istashadi. O'yinchoqlar orqali bolalar sizga, atrofdagilarganimademoqchiligini tushuntira oladilar.[1] Ular o'yinchoqlar va o'yinlarni o'ynshlari orqali borliq haqidagi tushunchalarini va bilim va ko'nikmalarini boyitib borishadi.

**Mavzuga doir adabiyotlarning tahlili.** O'yin nazariyasini va o'yinchoqlarning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdagi o'rni haqida L.S.Vygotskiy, A.N.Leontiev, D.B.Elkoninlar samarali izlanishlar olib borgan. Buyuk rus olimi A. M. Gorkiy "O'yinchoq, avvalambor bolani hayratda qoldiradi va bu tuyg'u tushunishning boshlanishidir". O'yinchoq bolani atrof-muhit bilan tanishtiradi, ularni o'rgatadi, taassurotlarini mustahkamlaydi va muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. O'yinchoq bola tug'ilganidan to 3 yoshigacha bo'lgan davrda albatta ahamiyatga ega. Chunki ular o'ynash davomida o'zlarini rag'batlantiradi, o'yin tashkil etish qonun qoidalarini o'rganadi: qo'g'irchoq bilan ular ona va qiz bo'lib o'ynashsa, raketa yoki moshina, samolyot bilan ular haydovchi rolini o'ynashga kirishib ketadi. O'yinchoqlar orqali o'yin qay tarzda ketayotganini va nima maqsad borligini tushuntira oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalariga ichidagi his tuyg'ularini o'yin orqali yetkazib beradi. Bola o'yin mazmuni o'yinchoqqa bog'liqligini bilib, uning ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Bola o'yinchoq o'ynash orqali o'zini dunyosini shakllantirib, yangi g'oyalar bilan o'rtoqlashadi va biz shu g'oyalarni rivojlanishiga yordam berishimiz kerak[2]. O'yinchoqlar bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega, chunki hamma narsalar xilma-xilligi bilan tasvirlanadi.

O'yinchoq do'konlaridan turli xil hayvonlar, asbob-anjomlar, har xil shakllar, transportlar va hattoki, insonning tana tuzilishi asosida yaratilgan o'yinchoqlarni ham uchratish mumkin. Ushbu o'yinchoqlar orqali bolaning hayotida ilk hayotiy tasavvurlar uyg'onib, rivojlana boradi. Misol sifatida keltiradigan bo'lsak, shifokor o'yinchog'ini o'ynash orqali bola o'zida shifokorniki kabi harakatlarni amalga oshira, hissiyotlarni his qila boshlaydi. N.K.Krupskaya "O'yinchoqlar bolalarni atrofdagi haqiqiy dunyo bilan tanishtirish, ularning hissiyotlarini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega"deb yozgan[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oʻyinchoqlarga turli xil tasniflar mavjud boʻlib ular: Didaktik oʻyinchoq, ta'limiy oʻyinlar, teatr oʻyini, sport oʻyini va musiqiy oʻyinlarga ajratiladi.

Didaktik oʻyinchoqlar - oʻyin jarayonida bolalarga oʻzlarining turmush tarzi, tabiati, har xil hodisalari haqida oʻrgatadi. Bolalarning bilimini chuqurlashtiradi.

Didaktik oʻyinlar bolalar nutqini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Ta'limiy oʻyin - bolalarga oʻyin orqali ta'lim-tarbiya oʻrgatadi. Bunda oʻyin bilan bir qatorda bilim, malaka egallanadi. Teatr oʻyini - zamonaviy teatrda "oʻyin" atamasi aktyor tomonidan turli ifoda vositalari – nutq, mimika, imo-ishora, har xil harakatlar orqali foydalanuvchiga yetkazib berish. Sport oʻyini - bolalarni sogʻlom oʻlishiga qaratilgan harakatli oʻyinlar. Bolalarsport oʻyinlari orqali kun boʻyi tetik, quvnoq, karfiyati a'lo boʻlib yuradi. Musiqiy oʻyin - bolalar bu oʻyin orqali musiqaga qiziqishini shakllantiradi. Musiqiy qobiliyatlari rivojlantiradi. Bu oʻyin bolalarga quvonchli va quvnoq daqiqalar beradi. Bolalarda oʻyinlar orqali milliy urf-odatlarimiz ham shakllanadi. Bolalarga har bir oʻynaladigon oʻyinlar haqida tushunchalar berilishi kerak.

**Tahlil va natijalar.** Oʻyinchoqlar to maktabga chiqqunicha bola hayotida katta oʻrin egallaydi. Bolalar kichiklik davridan barcha oʻyinchoqlarni oʻynashga urinadi. Keyinchalik yoshi ulgʻaygan sari oʻyinchoqlarni saralay boshlaydi. Oʻzlariga ayni vaqtda nima kerakligini yon-atrofdagilarga oʻyinchoqlar orqali yetkazadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik guruh (3-4 yosh) bolalariga asosan qoʻlda bemalol oʻynashga moʻljallanga oʻyinchoqlar oʻynaladi. Tigʻli, uchli oʻyinchoqlar bola hayoti uchun xavfli oʻyinchoqlar oʻynashi mumkin emas. Oʻrta guruhda (4-5 yosh) bolalar kichik guruhdan farqli ravishda ozgina murakkabroqdir. Unda bolalar tarbiyachi bilan birga oʻyinchoqlar orqali roller ijro etishlari mumkin. Ijro etayotgan rollari orqali bolada nutq ham rivojlanadi. Yangi soʻzlar oʻrganadi. Talaffuzidagi kamchiliklar ham asta-sekin toʻgʻirlanib boriladi. Katta guruh (5-6 yosh) bolalar bemalol oʻzlari oʻyinchoq oʻynashlari mumkin boʻladi. Oʻzlari orasida rollar boʻlib olinib turli oʻyinlar va oʻyinchoqlar orqali rollar ijro etiladi. Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) bolalar endi oʻyinchoqlarni bemalol tanlay oladi. Qaysi personajga qaysi oʻyinchoq mos kelishini tarbiyachisiz oʻzlari mustaqil tanlab koʻrsatishi mumkin. Oʻyin bilan oʻyinchoqni farqi shundaki, oʻyin orqali bolalar oʻzlari turli muhitgaturlicha moslashishni oʻrganadi. Oʻyinda bolalar oʻzlari ishtirok etadi. Oʻyinda bolalarni psixikasi, oʻy-xayollarida nima kechayotganini bilishimiz mumkin. Oʻyin orqali bolalar oʻrtasida nutq, muomala ma'daniyati rivojlanadi. Oʻyinchoqlar rang-barangligi bilan bolalarni oʻzlariga jalb qiladi. Har bir bola turli oʻyinchoqlar oʻynaydi. Bola qanday oʻyinchoq oʻynayotganiga qarab uni ichki dunyosini bilib olish mumkin.[5] Oilasida bolaga boʻlgan munosabatlar ham bolaoʻyinchoq oʻynash orqali bildiradi.

Qoʻgʻirchoqlar – inson qiyofasini aks ettirgan oʻyinchoqdir. Qoʻgʻirchoqlar deyarli barcha qizlar, aksariyat, oʻgʻil bolalar uchun yasaladi. Qoʻgʻirchoq orqali bolalar turli kasblar haqida oʻzlarida fikr shakllanadi va oʻzlarini qiziqishlaridan kelib chiqib qoʻgʻirchoqlarni tanlab oʻynaydi. Kimdir onasi rolida boʻlsa, boshqasi qizi rolida, yana kim esa shifokor va hokazo. Goʻdaklik davrida bola qanday oʻyinchoqga oshno tutinsa, undan ruhiy ta'sir oladi. Qoʻgʻirchoqlar bolalarda goʻzallik, nafislik, qoʻrqmaslik kabi xislatlarni shakllantiradi. Qoʻgʻirchoq birinchi boʻlib 150 yil oldin Amerika Qoʻshma Shtatlaridan "Barbi" nomli qoʻgʻirchoq Oʻzbekistonga kelgan chet el qoʻgʻirchoqlari bizning milliyligimizdan ancha uzoqda boʻlganligi uchun bolalari kichikligidan xuddi kattalardek fikrlab, kattalarga taqlid qilishga urinishgan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, oʻzimizni milliyligimizni unutmasligimiz, hamda, milliylikni kelajak avlodga ham yetkazishimiz uchun milliy qoʻgʻirchoq yaratishga har tomonlama tadbirkorlarimizga shart-sharoit yaratib berilmoqda. Yurtimizda milliy qoʻgʻirchoqlarga boʻlgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Bu qoʻgʻirchoqlar orqali bolalar milliy ma'daniyatimiz, urf-odatlarimizni oʻrganadi. Bolaning nutqini rivojlantirish muhim va murakkab jarayondir.[5] Nutqni rivojlantirishning asosiy davri - oʻyin faoliyati davri bilan bogʼliqdir. Shunga koʻra, mashgʼulotlar oʻyin shaklida olib borilsa, samaraliroq boʻladi. Odatda oʻyin shaklida faoliyat yuritishni talab qilishning hojati yoʻq, chunki aslida har qanday oʻyin bolalarda katta qiziqish uygʼotadi.

**Xulosa.** Maktagacha bolalarning nutqini rivojlantirishga oʻyinchoqning ta'siri katta boʻlib Oʻyinchoqlar bilan har kuni oʻtkazadigan vaqti va oʻyinlarida bolalar nafaqat oʻzi foydalanadigan ob'ektlarni, balki ularning xususiyatlari, oʻlchamlari, shakli, rangi va boshqalarni ham nomlashni oʻrganadi. U oʻyinchoqlarni oʻyinga oʻz gʻoyalariga mos ravishda qoʻshadi va ularning qolganlari bilan munosabatlarini aniqlaydi.

"Topish va tavsiflash" o'yini ijtimoiy o'zaro ta'sirni osonlashtiradi va turli elementlar va shaxslarni jalb qiladi. Bola o'yin davomida barcha harakatlarini ifodalash uchun nutqdan foydalanadi. Nutqni rivojlantirish mashqlari davomida tavsiflash, kuzatish va kognitiv qobiliyatlarni oshirishga qaratilgan ushbu o'yinni amalga oshirish mumkin. Ushbu o'yinni tashkil qilish uchun turli xil o'yinchoqlar tanlanadi: ikkita qo'g'irchoq - biri kamonli, ikkinchisi esa yo'q - va har xil rangdagi ikkita mushuk.

O'yinchoqlar alohida ko'rib chiqiladi va taqqoslanadi, bu esa bolaning o'ziga xos xususiyatlari va farqlarini tasvirlash orqali so'z boyligini faollashtirishga undaydi. Keyinchalik, o'qituvchi o'yinchoqlarni yashiradi (tezkor qidirishni osonlashtirish uchun) va bolalarga ularni topishni buyuradi. Jumladan, oʻqituvchi: “Aziz oq mushukcha topadi, malika qora mushukchani, Nigora esa kamonli qoʻgʻirchoqni topadi” deyishi mumkin. Bolalar o'yinchoqlarning joyini topib, ularni qaytarib olib kelishadi, o'qituvchi esa: "Sizda qanday mushuk bor? Mushukning boshida nima bor? Va bu nima?" Bola o'qituvchining yordami bilan o'yinchoqlarni aniqlash va tasvirlash orqali javob beradi.

Ushbu suhbat orqali bolalar tomonidan berilgan turli javoblar asosida turli fikrlar to'planadi. Masalan, "Malika qora mushukchani topib oldi. Uning quloqlari, ko'zlari katta, boshida mo'ylovi bor. Mushukchaning ham uzun dumi bor" deb xulosa qilinadi. Bolalar savollarga to'g'ri javob berish qobiliyatiga ega bo'lgach, o'qituvchining tavsifini takrorlash tavsiya etiladi. Shunday qilib, jarayon bolaga mavzuni tavsiflashda yordam berishga qaratilgan kuzatish, tekshirish, savol-javob, suhbat, tahlil va sintezni o'z ichiga oladi.

O'yinchoqlardan og'zaki nutqni rivojlantirish va so'z boyligini boyitish vositasi sifatida foydalanish tez natijalar beradi. O'yinchoqlar bolaning so'z boyligini kengaytirish va mustahkamlash uchun o'tkazgich bo'lib, yangi so'zlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'yinchoqlar bolalarda faqat ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, ularning suhbatga kirishish istagini uyg'otadi. Bolaning ertaklarni tasvirlashga, hikoya qilishga qiziqishi natijasida bilimi oshib, kengayib borishi kuzatiladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Qurbonova Maftuna, Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works // Экономика и социум, 2020. *№6(73), с* 432-437.
2. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. -T.: 2016 y., 29-dekabr.
3. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish».-T «O‘qituvchi», 1990
4. Крупская Н.К. Дошкольное воспитание. 1899. С 165.
5. Гербова В . Планирование работы по развитию речи и ознакомление с художественной литератрой // Дошкольное воспитание, 1999, № 3, с19-22.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Bozorova Aziza Saidmurot qizi**
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti
e-mail: abozorova@dtpi.uz
tel: 90 376 87 88

## MAKTAB O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TA'LIM MASALALARI (boshlang‘ich ta’lim misolida)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida atrof-muhitga mas’uliyat hissini shakllantirish, maktablarda olib borilayotgan ekologik ta’limni yanada rivojlantirib, ushbu ta’lim sohasiga interfaol usullarni qo‘llagan holda, “tabiat-maktab-jamiyat” tamoyilida o‘quv jarayonini tashkil etish kabi masalalar tadqiq etilgan. Bundan tashqari, ekologik madaniyat, ona zaminga bo‘lgan hozirgi kundagi munosabat haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik ta’lim, ekologik madaniyat, maktablarda ekologik ta’limni tashkil etish, ta’lim kompetensiyalari.

**Бозорова Азиза Саидмурот қизи**
Магистр Деновского института предпринимательства и педагогики
e-mail: abozorova@dtpi.uz

## ВОПРОСЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ (на примере начального образования)

**Аннотация.** В данной статье рассмотрено формирование чувства ответственности за окружающую среду у учащихся начальных классов, дальнейшее развитие экологического образования в школах, с использованием интерактивных методов в данной сфере образования, по принципу «природа-школа-общество». Изучена организация учебного процесса. Кроме того, были даны комментарии об экологической культуре и нынешнем отношении к матушке-земле.

**Ключевые слова:** экологическое образование, экологическая культура, организация экологического образования в школе, педагогические компетенции.

**Bozorova Aziza Saidmurot kizi**
Master of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
e-mail: abozorova@dtpi.uz

## ISSUES OF ENVIRONMENTAL EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN (on the example of primary education)

**Abstract.** This article discusses the formation of a sense of responsibility for the environment among primary school students, the further development of environmental education in schools, using interactive methods in this area of education, according to the principle "nature-school-society" the organization of the

educational process was studied. In addition, comments were made about ecological culture and the current attitude towards mother earth.

**Keywords:** ecological education, ecological culture, organization of ecological education at school, pedagogical competences.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N44

**Kirish.** Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida belgilangan aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkoralik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.[2] Bu borada Oʻzbekistonning iqlim oʻzgarishi boʻyicha Parij bitimini amalga oshirish boʻyicha Harakatlar milliy rejasini ishlab chiqish va qabul qilish, 2019–2030 yillarda Oʻzbekistonning «yashil» iqtisodiyotga oʻtish strategiyalari, 2030-yilgacha boʻlgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi ekologik halokatlarning oldini olish vazifalariga erishish kabi ulkan maqsadlar yoʻlida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish hamda ana shu maqsadga xizmat qiluvchi boshlangʻich sinf oʻquvchilarini ekologik tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi[3].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020-yil) Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish boʻyicha boshlangan amaliy ishlarni davom ettirish, dengizning qurigan tubida oʻrmonzorlarni kengaytirish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida “yashil belbogʻ ” lar barpo etish, sanoat rivojining ekologiyaga ta’sirining oldini olish boʻyicha 2025-yilgacha moʻljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, nufuzli xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, Ekologiya kodeksi loyihasini ishlab chiqish lozimligini alohida ta’kidlagan edi.

**Mavzuning dolzarbligi** kichik maktab oʻquvchilarining ekologik ta'limi etarli oʻrganilmaganligi, maktab oʻquvchilarida ekologik ta’limning qay darajada ekanligi hamda ularni tabiatni asrash ruhida tarbiyalash qanchalik ijobiy ta’sir koʻrsatishi etarli darajada oʻrganilmaganligi bilan belgilanadi.

**Mavzu boʻyicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.** Boshlangʻich maktab oʻquvchilarida ekologik ta’limni shakllantirish jarayoni bilan bogʻliq masalalarni xorijiy olimlardan L.D.Bobyleva, A.A. Pleshakova, L.P. Saleeva, Zaxlebniy, B.T. Lixachev, L.P. Saleeva, I.T. Pechko, I.T. Suravegina va boshqa pedagog olimlar oʻrganishgan. Mazkur masalani oʻzbekistonlik pedagog olimlardan O.J.Xolmoʻminova, A.Yu.Kuchkinov, X.T.Tursunova va boshqalar oʻrganganlar. Lekin chop etilgan ishlarda boshlangʻich maktab oʻquvchilarida ekologik ta’lim masalalarining ayrim jihatlariga toʻxtalib oʻtilgan.

Pedagog A.N. Zaxlebniy oʻquvchilarning maktabdan tashqari ekologik mashgʻulot faoliyatini oʻrgangan. Shuningdek, A.N. Zaxlebniy[4] ekologik ta'limning maqsadi maktab oʻquvchilarining barcha faoliyat turlarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatini shakllantirishni ta'minlaydigan ilmiy bilimlar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini shakllantirishdir, deb hisoblaydi. Pedagog olim I.T. Suravegina esa oʻquvchilarni atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish masalalari va usullarini oʻrgangan[5]. Lekin oʻzbekistonlik olimlardan O.J.Xolmoʻminova[6], A.Yu.Kuchkinov[7], X.T.Tursunovalar asosan boshlangʻich maktab oʻquvchilarini ekologik jihatdan oʻqitishning metodik usullarini ishlab chiqishgan va oʻrgangan.

**Tahlil va natijalar.** Ma’lumki, ekologik ta'lim zamonaviy ta'limning oʻzagiga aylanib bormoqda va uning zamonaviy tizimlarini va umuman jamiyatni qayta qurishning kalitidir. Ekologik ta'limning yangi axloqning asosi va odamlarning amaliy hayotining koʻplab masalalarini hal qilishda qoʻllab-quvvatlash roli bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Shuningdek, atrof-muhit va inson salomatligiga zarar etkazmasdan muayyan iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilish koʻnikma va malakalarini shakllantirishdir.

Har qanday jarayonning asosiy komponenti maqsadni belgilashdir. Har qanday faoliyat turi, shu jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish, bir qator fundamental qoidalar va e'tiqodlarga asoslanadi[7]. Ekologik savodxon shaxsni shakllantirishning boshlangʻich nuqtalari ekologik ta'lim va tarbiyaning tizimli, uzluksiz va fanlararo tamoyillari, shuningdek, atrof-muhitning yaxlitligi haqidagi gʻoyalardir. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili ekologik ta'lim muammosining tarixiy ildizlariga ega ekanligini isbotlaydi.

Ekologik ta'lim samaradorligining mezoni maktab oʻquvchilarining sa'y-harakatlari bilan erishilgan bilimlar tizimi va oʻz hududining atrof-muhitini yaxshilash boʻlishi mumkin.

Biz oʻrganish davomida quyidagi tadqiqot vazifalarini belgilab oldik:

-maktabda ekologik ta'lim uchun shart-sharoitlarni aniqlash;

-oʻquvchilarning ekologik ta'limini shakllantirish usullarini aniqlash;

-maktab oʻquvchilarining ekologik ta'lim darajasini oʻrganish.

**Ekologik ta'limning shartlari.** Boshlangʻich maktab yoshidagi bolaga sezilarli ta'sir koʻrsatadigan ekologik ta'limning asosiy boʻgʻinlari sifatida quyidagilarni keltirib oʻtmoqchimiz:

-bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari;

-maktabdan tashqari ta'lim muassasalari;

-ommaviy axborot vositalari;

-oʻz-oʻzini tarbiyalash.

Oʻquvchilarni ekologik tarbiyalash 1-sinfdan 3-sinfgacha boʻlgan davrda alohida elementlarning uzluksizligi, bosqichma-bosqich murakkablashishi va chuqurlashishini hisobga olgan holda oʻlkashunoslik materialidan foydalangan holda tizimli amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, kichik maktab oʻquvchilarini mahalliy tabiiy resurslarni muhofaza qilish boʻyicha amalga oshirilishi mumkin boʻlgan amaliy mashgʻulotlarga faol jalb qilish kerak. Bunday narsalar juda koʻp: maktab, parkni ichki va tashqi koʻkalamzorlashtirish, gulzorlarga gʻamxoʻrlik qilish, maktabga yaqin boʻlgan oʻrmon maydonlariga homiylik qilish, oʻtloq va daraxt va buta oʻsimliklarining mevalari va urugʻlarini yigʻish, oʻlik daraxtlarni tozalash, qushlarni himoya qilish va oziqlantirish, oʻz ona yurtini oʻrganish jarayonida tabiat yodgorliklariga homiylik qilish va boshqalar. Yuqorida aytilganlarning barchasidan koʻrinib turibdiki, muayyan ekologik aloqalarni ochib berishga asoslangan ta'lim oʻquvchilarga tabiatdagi xatti-harakatlar qoidalari va normalarini oʻrganishga yordam beradi.

**Oʻquvchilarning ekologik ta`limini shakllantirish metod va usullari.** Samarali ekologik ta'lim uchun yangi nazariy va uslubiy asoslarni va bu jarayonning mazmunini bilish zarur. Ekologik ta'lim jarayonining mazmuni va tuzilishini rivojlantirishning asosiy zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlari aksiologik, madaniy, faollik, kompetentsiyani oʻz ichiga oladi. Ekologik ta'limga aksiologik yondashuv bolalarda tabiatning bir qismi sifatida tabiatga, odamlarga va oʻzlariga qadrli munosabatni anglash zarurati va qobiliyatini shakllantirishni oʻz ichiga oladi. Madaniy yondashuv nuqtai nazaridan, ekologik ta'lim bolaning oʻz makonida oʻzini

oʻzi rivojlantirish sohasi sifatida qaraladi[6]. Ekologik ta'limni tashkil etish shakllari, usullari va vositalari quyidagilardan iborat:

Tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun (hayvonlarni boqish; muammoga duch kelgan hayvonlarni qutqarish; axlatga qarshi kurashish; oziqlantiruvchilar va qushlar uchun uylar yasash; muhofaza qilinadigan oʻsimliklar tarqalgan joylarda belgilar oʻrnatish);

Tabiatdagi nojoʻya xatti-harakatlarning oldini olish va ularga qarshi kurash ("yashil" va "koʻk" patrullarda, tabiat qoʻynidagi reydlarda ishtirok etish);

Tabiiy muhitni yaxshilash (oʻsimliklar ekish, qiyaliklarni obodonlashtirish, oʻrmonni quruq yogʻochdan tozalash); Tabiatni muhofaza qilish gʻoyalarini targʻib qilish va tushuntirish (oʻrtoqlar, ota-onalar, kattalar bilan suhbatlar, plakatlar tayyorlash, devor gazetalari chiqarish, radioeshittirishlar tayyorlash);

Tabiatning estetik qadriyatlarini saqlash va ulardan foydalanish (tabiiy materialni yigʻish, tabiiy materialdan panellar, qoʻl san'atlari ishlab chiqarish).

**Empirik oʻrganish natijalari.** Pedagogik tajriba-sinov va uning natijalari tahlilini Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani 30-maktabning 4 - sinf oʻquvchilari ishtirokida “Boshlangʻich ta’lim oʻquvchi yoshlarini tabiatni muhofaza qilish ruhida tarbiyalash” mavzusi boʻyicha soʻrovnoma oʻtkazildi. Oʻtkazilagan tadqiqotda 2 ta 4-A va 4-B sinflarida ja’mi 30 nafar oʻquvchilar bilan oʻtkazildi hamda nazorat va tajriba guruhiga ajratildi.

1. Eng avvalo oiladagi sogʻlom, emotsional muhit 10-11 yoshdagi bolaning ma'naviy va axloqiy va ekologik jihatdan shakllanishida katta imkoniyatlar yaratadi. Buning uchun atrof-muhitga toʻgʻri munosabatda boʻlish koʻnikmasini shakllantirish zarur boʻladi. Lekin, ayrim oilalarda ota-onalarning ekologik madaniyati etarlicha yoʻqligi, bolani dunyopqrashini shakllantirishga beparvoligi, loqaydligi, e’tiborsizligi, doimiy nazoratning yoʻqligi tufayli bolalar xulq atvorida atrof-muhitga nisbatan salbiy holatlarni shakllanayotganligini kuzatamiz[5]. Bu esa 10-11 yoshdagi bolaning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga oʻz ta’sirini koʻrsatadi. Mazkur muammoning oldini olish uchun oilada bolalar bilan doʻstona munosabatni oʻrnatish, tabiat bilan oshno qilish, hayvonlar olami bilan yaqindan tanishtirish zarur. Buning uchun oilada sogʻlom muhitni yaratish lozim. Birinchi navbatda ota-ona farzand tarbiyasiga oid bilimlarni makammal darajada bilish zarur hisoblanadi.

**Tajriba-sinov ishlarining tahlili va natijalari**

Shundan, nazorat guruhi 30 nafar tarbiyalanuvchi, tajriba guruhi 30 nafar tarbiyalanuvchilarga ajratidi.

Tajriba masalalarini ta’riflash uchun, ularni echish vositalarini tanlash uchun tajriba va nazorat guruhlarida tarbiyalanuvchilarda boshlangʻich sinf yoshidagi bolalarga ekologik madaniyatni oʻrgatish texnologiyalari toʻgʻrisida ma’lumotga ega boʻlish zarurligi bois kerakli ma’lumotlarni aniqlash boʻyicha tadqiqotlar olib borildi.

**1-jadval.**

| № | Ta’lim muassasalari | Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani 30-maktabning 4-A va 4-B sinflari | |
|---|---|---|---|
| | | **Nazorat guruhi** | **Tajriba guruhi** |
| 1 | Sinaluvchilar soni | **30** | **30** |

Tajriba sinov ishlarini olib borish jarayoni uch bosqichga ajratildi.

Birinchi bosqichida tanlangan tarbiyalanuvchilar kuzatildi. Kuzatish jayonida ba’zi bolalarda tabiat haqida datslabkiu tushunchalar mavjudligi, atrof-muhitni asrash kerakligi haqida dastlabki tuhsunchalarning borligini ayrimlarida ea bu shakllanmaganligini aniqlandi;

faoliyat jarayonida atrofga chiqindi tashlashi yoki tashlamasligi, hayvonlarga mehribonlik qila olsihi yoki e’tiborsizligi, daraxtlarni shoxlarini sindirib ozor bermasligi, hashar va shunga oʻxshagan tadbirlarda faol qatnashishi jarayonlari tekshirildi;

ovqat qoldiqlarini turli joylarga tashlamaslik, suvni iflos qilmaslik haqida amaliy faoliyati tekshirildi;

sayr vaqtida oʻzlari tutishlari yoʻldagi toshlarni va qogʻozlarni olishi, maysa-otlarni bosib-yanchmasligi va tabiatni sevish darajalari tekshirildi;

Kuzatish jarayonida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun quyidagilar uchun ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganligi mezonlar ishlab chiqildi.

**2-jadval.**

| T/r | Mezon nomi |
|---|---|
| 1. | Bolaning atrof-muhitga toʻgʻri ovqatlanishda odob-axloq qoidalariga amal qilishi |
| 2. | Uy hayvonlarini yoqtiradimi? |
| 3. | Oʻsimliklarni asrab-avaylashni anglashi |
| 4. | Atrof-olamni parvarish qilishda ishtiroki |
| 5. | Kundalik hayotda tozalik va ozodalikka rioya qilishi |
| 6. | Chiqindilarni atrofga tashlashdan saqlanishi |

Dastlabki natijaga koʻra bolaning atrof-muhitga, toʻgʻri ovqatlanishda odob-axloq qoidalariga amal qilishi koʻnikmalarini shakllantirish boʻyicha:

nazorat guruhi tarbiyalanuvchilarining 9 nafar (30%)i yuqori, 10 nafar (33%)i oʻrta va 11 nafar (37%)i esa past darajada ekanligi;

tajriba guruhi tarbiyalanuvchilarining 8 nafar (26%)i yuqori, 11 nafar (37%)i oʻrta va 11 nafar (37%)i esa past darajada ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalar tahliliga koʻra nazorat guruhida ekologik savodxonlikka oʻrgatish darajasi yuqori ekanligi aniqlandi.

**Xulosa.** Ekologik ta'lim muammosi oʻzining tarixiy ildizlariga ega. Ekologik ta'limni inson ongi va faoliyatida tabiatdan foydalanish tamoyillarini mustahkamlash, atrof-muhit va odamlarning sogʻligʻiga zarar etkazmasdan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish koʻnikma va koʻnikmalariga ega boʻlish deb ta'riflash mumkin. Hozirgi vaqtda ekologik madaniyatni shaxsning ijtimoiy zarur axloqiy sifati sifatida shakllantirish haqida gapirish kerak. Ekologik ta'lim samaradorligining mezoni maktab oʻquvchilarining sa'y-harakatlari bilan erishilgan bilimlar tizimi va oʻz hududining atrof-muhitini yaxshilash boʻlishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilar ekologik ta’limini tadqiq etish bizga quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Ekologik ta'limning eng ustuvor shartlari - boshlangʻich maktabda oʻquv jarayonining tarbiyaviy xususiyati; ta'limning milliy-mintaqaviy yoʻnalishini ragʻbatlantirish; yuqori

ahamiyatga ega oilaviy ta'lim; oilada va maktabda ekologik yoʻnaltirilgan pedagogik muhitni tashkil etish; kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarining anatomik-psixologik va anatomik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olish.

2. Tarbiya usullari o`qituvchining o`quvchiga, uning ongi, irodasi, his-tuyg`ulari, xulq-atvoriga ta`sir etish usullaridir. Ta'lim usullaridan ta'lim vositalarini ajratib koʻrsatish kerak - bular oʻziga xos faoliyat yoki tarbiyaviy ish shakllari, oʻquvchilarning faoliyat turlari, shuningdek, ma'lum bir usulni qoʻllash jarayonida qoʻllaniladigan koʻrgazmali qurollar.

3. Boshlangʻich maktabda birinchi bosqichlarda maktab oʻquvchilarida shakllangan ekologik qadriyat yoʻnalishlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini tahlil qiluvchi va toʻgʻrilaydigan usullar eng mos keladi. Jamiyat va tabiatning uygʻun ta'siri usullarini nazariy asoslash bosqichida oʻqituvchi global, mintaqaviy, mahalliy omillarni hisobga olgan holda tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini keng va koʻp qirrali munosabatlarda taqdim etishga imkon beradigan hikoyaga murojaat qiladi. Kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarida tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish samaradorligini oshirish uchun kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish boʻyicha turli shakl va usullardan foydalangan holda maqsadli tizimli ishlarni amalga oshirish kerak.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 02.02.2022 sanasidagi videoselektoridan.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019 yil 30-oktyabr.
3. Oʻzbekiston Respublikasining 2018 yil 2-oktyabrdagi iqlim oʻzgarishi boʻyicha “Parij bitimini (Parij, 2015 yil 12 dekabr) ratifikat siya qilish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-491-son qonuni.
4. Захлебный, А.Н. Экологическое воспитание школьников во внеурочной деятельности . Москва: Феникс, 2011. 422 с.
5. I.T. Suravegina, V.M. Senkevich.Ekologiya va tinchlik M.: Yangi maktab, 1994. 320 b.
6. Xolmoʻminova O.J. Oʻquvchilarga ekologik-huquqiy tarbiya berish texnologiyasi.Uslubiy qoʻllanma. -Toshkent:”Lesson press”nashr.,2020. B.134.
7. Kuchkinov A.Yu .Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tabiatni eʼzozlash ruhida tarbiyalash.Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma. -T.:”Fan va texnologiya”, 2012, 88-b.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 – Педагогика фанлари*

**Сулайманова Дилдора Назаровна**
СамДУ тадқиқотчиси

## КРЕАТИВ ТАФАККУР ТУШУНЧАСИНИНГ ФАЛСАФИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАНБАЛАРДАГИ ТАЛҚИНИ

**Аннотация.** Мазкур мақолада тафаккур, креатив тафаккур тушунчасининг мазмуни, моҳияти фалсафий ва педагогик илмий манбалар асосида таҳлил этилган.
**Калит сўзлар:** тафаккур, креатив тафаккур, ижод, ижодкорлик, фалсафа, педагогика, талқин, мутафаккир, олим.

**Сулайманова Дилдора Назаровна**
научный сотрудник СамГУ

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

**Аннотация.** В данной статье анализируется содержание и сущность понятия мышления, творческого мышления на основе философско-педагогических научных источников.
**Ключевые слова:** мышление, творческое мышление, творчество, творчество, философия, педагогика, интерпретация, мыслитель, ученый.

**Sulaymonova Dildora Nazarovna**
Researcher of SamSU

## INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF CREATIVE THINKING IN PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL SOURCES

**Abstract.** This article analyzes the content and essence of the concept of thinking, creative thinking on the basis of philosophical and pedagogical scientific sources.
**Key words:** thinking, creative thinking, creativity, creativity, philosophy, pedagogy, interpretation, thinker, scientist.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N45

Бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш тизимида рўй бераётган ўзгаришлар таълим фалсафаси, унинг парадигмалари, қонуниятлари, тамойиллари ва қадриятларининг ўзгаришини, жараёнга мутлақо янгича ёндашувларни вужудга келтирмоқда. Мазкур ёндашувлар фонида бўлажак ўқитувчиларда педагогик компетентлилик, креативлик, коммуникативлик, жамоада ишлаш, танқидий тафаккур мустақиллигини ривожлантириш, касбий фаолиятига инновацияларни киритиш, уларни тушуниш,

ижодий ёндашиш, шунингдек, маҳоратини узлуксиз равишда ошириб бориш учун қулай шароитлар яратишга фалсафий, психологик ва педагогик асосга эга бўлган тизимли муносабатни тақозо этади. Педагогик тафаккур борган сари ўз-ўзини ривожлантириш, ўзини субъект сифатида англаш, масъулият ва мослашувчанлик лаёқатига эга мутахассислар ва уларни шакллантириш муҳитига эга бўлган замонавий таълимга бўлган тасаввурлар, изланишлар, янгиликларни кенгайтирмоқда. Амалий педагогик муҳитнинг илгарилаб кетувчи, фаол-ўзгартирувчи функциялар аҳамиятига янгича муносабати фикрлай оладиган, ижодий ёндашадиган, муаммоларни тушуниш, уларнинг ечимини лойиҳалаш, инновацион жараёнларда ҳаракатчан бўлган педагогларга муҳтожликни яққоллаштиради.

Зеро, мазкур ёндашувлар долзарб жараён сифатида таълим ислоҳотларининг бош бўғинини ифодайди. Фикримизни республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси”да таълим тизими олдидаги устувор йўналиш сифатида қўйилган “Ўқувчиларда эркин ва креатив фикрлашни, жамоада ишлаш ва мулоқот кўникмаларини шакллантириш зарур. Мана мактабларимизга қандай муҳит кириб бориши керак” [1] вазифаси билан далиллаш мумкин.

ЮНЕСКОнинг таълим бўйича Осиё-Тинч океани ҳудудий бюроси ҳамда Колорадо университети “Таълим соҳасидаги сиёсат миллий маркази” мутахассислариинг 152 та, жумладан ўқитиш тизими энг ривожланган давлатлар таълим натижаларига мўлжалланган меъёрий ҳужжатлари таҳлили танқидий тафаккур, креативлик, муаммоларни ҳал қилиш, мулоқот, ҳамкорликда, жамоада ишлаш каби 21-асрда зарурий кўникмалар сифатини баҳолашнинг янги методикаларини ишлаб чиқишга эътибор қаратилаётганлигини кўрсатди. Тадқиқотлар натижасида эълон қилинган маърузалар айнан шу кўникмалар 21-асрда ҳал қилувчи аҳамиятга эгалиги ва таълим мақсадлари уларга йўналтирилиши лозимлигини уқтиради [1]. Демак, креатив тафаккур фақатгина маълум бир иқтидор ёки қобилиятга эга бўлган шахслар учун эмас, балки замонавий дунёда яшаб қолиш учун ҳар инсонда шакллантирилиши лозим бўлган асосий кўникмалардан бирини англатади.

Тафаккур тушунчаси етарлича тарихга эга бўлиб антик даврлардан бошлаб то ҳозиргача мушоҳада ва диққат марказида турибди. Шу нуқтаи назардан, тадқиқотимиз давомида креатив тафаккур тушунчасининг фалсафий, психологик ва педагогик талқинини ифодалаш имкони пайдо бўлади (1-расм.). Қуйида уларнинг айрим эътиборга молик жиҳатларига диққат қаратамиз.




**1-расм. Креатив тафаккур тушунчасига доир ёндашувлар**

**Креатив тафаккур тушунчасининг фалсафий талқини.** Креативлик ва тафаккур тушунчаларининг ўзаро боғлиқлиги фундаментал илмий тадқиқотларда баҳсталаб мавзу сифатида кўп кўтарилади. Чунки, аниқ ҳолат, воқеаларни тушуниш, тафаккур қилиш ҳамда амалий аҳамиятга эга бўлган вазифаларни ҳал қилишдаги фикрлаш жараёни, натижага йўналганлик доимо диққат марказида бўлиши табиий. Шунинг учун, креатив тафаккур тушунчаси ижтимоий фазилат сифатида шахснинг инсоний қийматини белгиловчи омиллардан биридир. У шахснинг мустақиллигига ишора қилувчи сифат ва миқдор мужассамлигини ифодалайди. Айнан, шу мужассамлик қадимги юнон файласуфларининг тушунчага турлича қарашларга келишларига туртки бўлган.

Жумладан, Суқрот креативликни йўқликдан борлиқнинг туғилиши сифатида баҳолайди. Унингча, ижод – инсоннинг асл фаолият жараёни бўлиб, унинг натижасида сифат жиҳатидан янги моддий ва маънавий қадриятлар яратилади, янги буюмлар, хулқ, мулоқот усуллари, тасаввурлар ва билимлар шаклланади. Ижод жараёнида нафақат объектив борлиқ ҳодисалари ва буюмлари, балки, уларнинг мавжудлиги ёки вужудга келиш мақсади, шартлари ва сабаблари англанади [11]. Афлотуннинг қарашларида креативлик инсоннинг турли тушунчалар яратишга қаратилган мушоҳада юритиш қобилияти бўлса, креатив тафаккур уни кундалик амалий фаолиятга татбиқ зарурати тарзида қаралади [13]. Арасту эса “ижод ўз-ўзини англашдаги детерминаллашган фаолият бўлиб, у билимнинг янгидан-янги сифат кўрсаткичларини юзага келтиради”, дея таърифлайди ҳамда “креативлик” ва “креатив тафаккур” тушунчаларини ажратишга ҳаракат қилади, “креативлик”ни ижодий имкониятнинг ижодий воқеликка ўтиш жараёни, “креатив тафаккур”ни эса шу жараённинг пировард натижаси тарзида тушунтиради. Лекин, кейинги мулоҳазаларида ушбу фикрларини ривожлантирмайди ва уларни бир-бирига ўхшаш, ўзаро тўлдирувчи мазмунида фойдаланди [4].

Шарқ мутафаккирларининг фалсафий қарашларида илгари сурилган ғоялар инсон, уни тарбиялаш, ҳар томонлама ривожлантириш, касбий етуклик, ижодий фазилатларини юксалтиришнинг илмий асосларини яратишда муҳим аҳамият касб этди. Муҳаммад ал-Хоразмий, Абу Юсуф ал Киндий, Абу Наср Форобий, Абу Райҳон

Беруний, Абу Али ибн Сино, Аҳмад Югнакий, Имом Ғаззолий, Бурҳониддин Зарнужий, Алишер Навоий ижодкорлик, тафаккур тушунчаларининг моҳияти, мазмуни, маъносини тушунишга доир илмий қарашларини илгари сурдилар.

Муҳаммад ал-Хоразмий инсон моҳияти ҳақида фикр юритар экан, унинг ақл имкониятига юқори баҳо беради ҳамда қадрини билими, маҳорати ва ижодкорлигида, деб ҳисоблайди. Абу Али ибн Сино инсоннинг имкониятларига ишонч билдириш, баркамол инсонни тарбиялаш, педагогик фаолиятни ташкил қилишга ижодий ёндашишга доир фикрларини асослайди [7]. Абу Наср Форобий “шоирлар чиндан туғма қобилиятли ва шеър битишга тайёр табиатли кишилар бўлади ва уларда ташбиҳ ва тамсилга лаёқати яхши ишлайдиган бўлади. Бу хил шоирлар шеър навининг кўп турида ё бўлмаса бир турида ижод қилишга лаёқатли бўладилар. ...ижодда ё табиийлик, ё мажбурийликдан ҳоли бўлмайди” [12], деб ижоднинг аҳамиятини, турларини кўрсатади. Шунингдек, бошқа алломалар асарларида ҳам комилликка интилиш, ўз-ўзини ривожлантириш ва бу жараёнда ижодий фаолликнинг муҳим сифат эканлиги кенг ёритилган.

Креатив тафаккур, И.Кантнинг таъкидлашича инсоннинг ўз-ўзи билан мулоқоти, ички овозини эшитиши ҳисобланади. Инсонда имманент мулоқотнинг пайдо бўлиши натижасида ижодий фикрлашининг уйғониши рўй беради. Бу тарздаги мулоқот ёки ўзининг ўзи билан ички суҳбати ижодкор шахснинг танқидий ва креатив тафаккурга бўлган ноёб қобилиятининг юзага чиқишидир. Демак, креатив шахслар янги билмларга очиқ ва ўрганаётган фани ёки фаолият юритаётган соҳасида ўз сўзини айтиш жасоратига эга бўладилар [11]. Г.В.Ф.Гегелнинг қарашларида ижодий тафаккур бутун объектларнинг бўлакларга бўлиниши, бу жараёнда ижоднинг қуввати, бутунни бўлакларга жаратишдаги қобилияти, бўлакларнинг ўзаро боғлиқлиги, алоқадорлиги ҳамда инсоннинг ақлий фазилати сифатида намоён бўлади. Унингча, шахсларнинг ижодий изланишлари бир-бирига яқин ёки тубдан фарқ қилиш, ҳатто бутунлай зид бўлиши ҳам мумкин [3]. Б.Спиноза ва А.Бергсон асарларида ҳам креатив тафаккурни интеллект билан боғлаш учрайди. Уларнинг фикрича ижодий тафаккур интеллектнинг юқори босқичи бўлиб, қатъий белгиланган қоидаларга мувофиқ ҳаракатланди [13].

Файласуф В.Лебедев “Назарий craft. Координаталар системаси, ғоялар тушунчаси” номли мақоласида креатив методологиянинг вазифаси инсонни англанган ижодий натижага олиб келишидир, деган хулосани беради. Англанган натижага бўлган қизиқиш ижодий маҳсулотнинг сифатини ўлчаш мумкин бўлган соҳаларда кучлироқ намоён бўлади. Шунингдек, муҳим аҳамиятга эга бўлган мақсадларга эришиш жараёнида ностандарт ёндашувлар вазифани ҳал қилишнинг самарадорлик даражасини белгилайди. Айнан, мазкур ёндашувлар креатив, дея номланади, чунки жараённинг ўзи ҳам якуний маҳсулотлар ҳам ижодий бўлади [2]. Е.А.Шульга “Креативлик фалсафаси: ижодкорликни ўрганишнинг муҳим даврлари” номли мақоласида креатив тафаккур инсоннинг ўз фикри, тушунчаларини илгари суриш, асослаш, аждодлар тажрибасини ўзлаштириш, турли тимсоллар ва ғояларда намоён бўлишини ҳамда мазкур тушунчанинг далилларни тўплаш, таҳлил қилиш, воқеаларни кузатиш, мавзуга доир билимларни ўрганиш, уларни ўзаро боғлаш, ўзининг ижодий фаразини яратишдан иборатлигини билдиради [15]. Креатив тафаккурнинг ишлаш механизмларини аниқлаш билан шуғулланган олима Е.Н.Князева “Креативликнинг креативлик

ойнасидаги табиати" номли мақоласида "Онг хатоликлар, адашишлар, улардаги бўшлиқларни йўқотишга йўналганлиги билан автопоэтик когнитив ва креатив функцияга эга" бўлиб, ўзини такомиллшатириш, ихтиро қилиш, мақсадларга эришиш ва бутунлигини қуришни ифодалашини далиллайди [6]. Н.А.Шермуҳамедова эса "Фалсафа ва фан методологияси" номли қўлланмасида инсон зеҳнининг ақли, зукколиги, хотирасининг табиат, жамият тўғрисидаги қарашлари билан боғлаб мушоҳада қилиши, ўз-ўзини англаши ҳақида фикр юритиб, "...фандаги узлуклилик ижодий жараён ва олдингидан мутлақо фарқ қилувчи янги билмнинг пайдо бўлишида намоён бўлади", деб умумлаштиради [16].

Юқорида келтирилган фикрлар креатив тафаккурни муайян билимлар асосида амалга ошадиган жараён тарзида қабул қилиш имконини беради. Унда инсоннинг шахсий хусусиятлари, қобилияти, фикрлаш тарзи, ностандарт ечимларга келиши, ижодкорлиги, янги ғояларни ярата олиш хислати, интуицияси муҳим аҳамият касб этади.

**Креатив тафаккур тушунчасининг педагогик талқини.** Педагогикада креативлик (ижодийлик) "қандайдир янги, бетакрор нарса ярата олиш лаёқати, бадиий шакл яратиш, фикрлаш, ғоя ва ечимга олиб келувчи ақлий жараён, шахснинг янги ғояларни яратиш ва қабул қилишга тайёрлигини тавсифловчи ижодий қобилияти", креатив (ижодий) тафаккур эса "эркин фикрлаш ва ижодкорлик тамойили устувор бўлган тафаккур шакли; бир-бирига боғлиқ бўлган ички ақлий омиллар асосида янгича тафаккурга эга бўлишнинг мантиқий изчиллиги маҳсули; воқеа-ҳодисаларни қиёслаш, таққослаш, таҳлил этиш асосида фикрни ривожлантириш, унинг янги-янги қирраларини очиш, шу тариқа билим ва тасаввур дунёсини бойитишни англатади" [17] тарзида ифодаланади ҳамда шахснинг ақлий ривожланиш даражаси билан боғлиқликда ўрганилади.

Таниқли олим В.В.Краевскийнинг фикрича инсонпарварлик педагогикаси ва психологияси ғоялари таълим олувчиларнинг индивидуал хусусиятлари, қизиқишлари, имкониятларини назарда тутган ҳолда ўқитишни ташкил қилишда ўзаро бир-бирини тўлдиради. Ўқувчиларнинг шу хусусиятларини инобатга олишга шароит яратувчи индивиудал таълим траекторияси орқали уларнинг билиш, тафаккур қилиш, ижодий ва бошқа қобилиятларини рўёбга чиқариши мумкин [18].

Шу йўналишдаги тадқиқотларда ўқитувчиларга таълимнинг инсонпарварлик мақсадини белгиловчи қуйидаги вазифалар қўйилиши таъкидланган:

- тарбияланувчиларнинг диққатини ўзининг ноёблигини англаш ва ҳаётининг мазмунини тушунишига урғу беришга қаратиш;

- ҳар бир инсоннинг ўзига хос бўлган жисмоний ва маънавий ноёб истеъдоди нишоналарини ривожлантириш, ҳаёт йўлини қуриш ва натижалари учун шахсий масъулиятни шакллантиришга кўмаклашиш;

- ўз ҳаётини режалаштириш ва қуришнинг муҳим омили бўлган соғлигини сақлашнинг зарурияти англашга ёрдамлашиш;

- ўқувчини моддий-маънавий меросга нисбатан шахсий муносабатини ишлаб чиқиш ва маданий қадриятлар тизимига жалб қилиш учун тегишли шароитлар яратиш;

- ахлоқий меъёрларни қадрлаш, ҳаётида раҳмдиллик, эмпатия, толерантлик ва бошқа шу каби ижобий хислатларини намоён қилиши учун шароит яратиш.

Креатив тафаккур моҳиятини ўрганган тадқиқотчилардан бири М.М.Зиновкина буюк инсонлар, олимлар, кашфиётчилар, шунингдек, оламшумул ихтиролар тарихини ўрганиш асносида уларнинг барчалари ўз даври учун жуда юқори даражада фундаментал билимлар соҳиби бўлиш билан биргаликда муайян алгоритм хос бўлган тафаккур, эвристик усул ва амалларни ифодаловчи билим ҳамда ижодкорликка эга бўлганларини аниқлаган [14]. Креатив тафаккур инсоннинг жараён ва ҳодисаларни идрок қилишга бўлган ўта сезувчанлиги, ҳаётий вазитяларда вужудга келадиган муаммолар, вазифаларни ечишдаги кутилмаган, оригинал, ностандарт ечимлар топиш ҳамда мавжуд тушунча, нарсаларни ўзгартиришга бўлган одатларда намоён бўлади [8]. Тафаккур кўникмалари ва малакасини эгаллаш ҳаётий вазифаларни ечишга тайёрлаш жараёнида ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликдаги ижодий фаолияти натижаларини билдиради. Мазкур натижалар тарбияланувчиларда шахсий тажрибасининг ажралмас қисмига айланиши ва қуйидаги сифатларда кўриниши лозим: танлаш қобилияти (характер, ҳамкор, қадриятлар, хулқ услубларида намоён бўлади); рефлексияга лаёқати (ўз-ўзини адекват баҳолаш, ўз-ўзини таҳлил қилиш); масъулият (инсоннинг ўз масъулият соҳасини субъектив танлашини назарда тутувчи шахсий универсал интегратив хислати); креативлик (ўзи учун муҳим бўлган ишларга ижодий ёндашиш, ўзининг фаолият ва таъсир ҳудудига эришишга бўлган ҳаракати); ички эркинликка бўлган эҳтиёж (мустақиллик, ўзини ўз ҳаётининг субъекти сифатида амалга ошириш).

Ижод жараёнларининг педагогик моҳияти билан шуғулланган тажрибали педагог И.Я.Лернер қуйидаги хислатларни креатив тафаккурнинг асоси сифатида баён этади:

- билим ва кўникмаларни мустақил равишда янги вазиятга ўтказиш;
- танишларда, стандарт вазиятларда янги муаммоларни ҳис қилиш; таниш объектларнинг янги функцияларини кўра олиш;
- ўрганилаётган объектнинг тузилишини, яъни унга дахлдор қисмларни лаҳзаларда кўриш ва уларнинг ўзаро таъсири, мувофиқлигини ҳис қилиш;
- муқобил ечимлар, уларни излашга муқобил ёндашувларни кўриш кўникмаси;
- муаммоларни ҳал қилишнинг мавжуд усулларини янгисига бирлаштириш ҳамда бошқа ечимлар бўлганда уларга ўхшамайдиганини яратиш кўникмаси [9].

Педагог-олимларнинг таъкидланишича, мазкур хислатларни шахснинг истеъдоди ва шижоати билан ривожлантириш мумкин. Бу хислатга бир умумийлик хос, яъни улар бирор бир ахборот олиш, ҳаракатларни кўриш, эшитиш билан ўзлаштирилиб қолмайди, ижод талаб қилинадиган ҳаракатлар, фаолиятга узатиб бўлмайди, улар фақатгина шаклланади. Шунинг учун, креатив тафаккур янги ғояларни яратиш, ҳамма учун оддий бўлган, кўникилган меъёрларни ўзгартиришга бўлган тайёргарликни ифодалайди. Лекин, бундай тайёргарликни таъминлаш учун муайян шарт-шароитлар яратилиши зарур бўлади, жумладан: ўқувчиларнинг ривожланиши, илгарилаб кетиши учун креатив муҳит яратиш, таълим олувчиларга иш турини эркин танлаш, у билан шуғулланиш вақти, муддати, шаклини мустақил белгилаши учун имкон бериш, имкониятларини мумкин қадар сарфлаш, муаммоларни аниқлаш, тушуниш, ҳал қилишни ўзларига қўйиб бериш ва б.қ.

Мазкур шарт-шароитлар педагогик-психологик адабиётларда қуйидаги мазмунда ифодаланган (1-жадвал).

1-жадвал.

**Ўқувчиларнинг креатив қобилиятларини ривожлантиришга ижобий таъсир кўрсатувчи шарт-шароитлар**

| Шарт-шароитлар | Мазмуни |
|---|---|
| **Ўқувчи ролининг ўзгариши** | Ўқувчининг билиш жараёнларида фаоллиги, ўзининг қизиқишлари, эҳтиёжларини қоплаш, салоҳиятини рўёбга чиқариш. |
| **Қулай психологик иқлим яратиш** | Ўқувчининг қобилиятларини ривожлантиришга (болаларни ижодкорликка интилишини рағбатлантириш, ўз имкониятлари ва кучига ишонч ҳосил қилиш, унинг қобилиятлари, қизиқишлари, фикрларини ҳурмат қилиш, камчилик кўрсатмаслик, танқид қилмаслик каби) ижобий таъсир кўрсатадиган шароит ҳозирлаш. |
| **Ички ўқув мотивациясини яратиш** | Ички ўқув мотивацияси ўқувчининг ижодкорлигига, кучига ишониши, ўзига юқори баҳо қўйишини билдиради. Шу асосда ўқувчида эҳтиёж, қизиқиш фақатгина билимга эмас, балки жараённинг ўзига ҳам бўлади. Ҳиссий кўтаринкилик ўқувчига ижобий таъсир кўрсатади. |
| **Болага тўғри педагогик ёрдам кўрсатиш** | Болага катталарнинг ўйланган, хайрихоҳлик билан кўрсатиладиган ёрдами. Бола учун ўйлаб, унга ишоралар бериш мумкин эмас, унинг ўзи фикрлаши, тўхтамга келиши керак. |
| **Турли ишларни биргаликда олиб бориш** | Дарс жараёнида ижодий топшириқнинг мақсади ёки мураккаблик даражасига кўра индивидуал, гуруҳ, фронтал ва бошқа шаклларидан фойдаланиш |
| **Фанлараро алоқадорлик** | Ижодий топшириқларни ечиш жараёнида турли фанларга тегишли билимларни қўллаш. Топшириқ қанча мураккаб бўлса, шунча кўпроқ фанларга доир билимлар керак бўлади. Муваффақият муҳитини яратиш. |
| **Ижодий топшириқларни бажаришдаги мустақиллик** | Болага топшириқларни мустақил бажариши, имкониятларини мумкин қадар юқори сарфлаши, бу маррани секинлик билан кўтариб бориш, ижодий фаолиятга қизиқиш ва рағбатни йўқотмаслик учун ўзларига мос топшириқлар бериш. |
| **Ижодий топшириқларнинг мазмуни ва даражасига кўра** | Ижодий ва оддий ўқув топшириқларини бирлаштириш бунёдкорлик имкониятларига бой бўлади, ҳар бир ўқувчининг алоҳида ривожлантириш ҳудудида ўқитувчи ишини енгиллаштиради. |

| | |
|---|---|
| **турфа хиллиги** | |
| **Ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришда изчиллик ва тизимлилик** | Ижодий машқ ва топшириқларнинг узлукли бўлиши ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини фаоллаштиришга имкон бермайди ҳамда уларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга таъсир кўрсатмайди. Ижодий қобилиятга бўлган истеъдод ҳар бир инсонга хослиги нуқтаи назаридан уни ривожлантириш йўлларини топиш керак. Бунинг учун ўқитувчи ўқувчига шу кўникмаларни шакллантириши зарур бўлади. |

А.Н.Лук ўзининг қарашларида креативликни тафаккурнинг қуйидаги турлари билан бирлигини кўрсатади (2-расм): кўргазмали-амалий тафаккур (индивиднинг воқелик билан дуч келганда уни тушунишга бўлган ҳаракати); кўргазмали-образли тафаккур (кўрилган образлар, идрок, тасаввурга асосланади); абстракт-мантиқий тафаккур (мавҳум, ноаниқ тушунчаларда идрок қилиш, тушуниш, англаш, умумлаштириш занжиридан фойдаланиш); предметли-амалий тафаккур (ғояларни яратиш ва амалиётга киритиш) [19].

**Креативликни намоён қилувчи тафаккур турлари**




**2-расм. Креативликни намоён қилувчи тафаккур турлари**

Бу жараёнда ўқиувчининг вазифаси ўқувчининг ижодкорлигини фаоллаштиришни билдиради. Чунки, у ўқув фаолиятига ундовчи мотивларнинг энг амалийси сифатида ўқув жараёнида билишга бўлган қизиқишларни пайдо қилади. Ўқитувчи унинг ёрдамида муайян ҳолатларда ўқувчининг ақлий фаолиятига таъсир кўрсатиш, ижодий масалаларни ечишнинг кейинги босқичларига йўналтириш имкониятига эга бўлади [5].

Келтирилган таҳлиллар асосида, креатив тафаккур педагогикада умумий ҳолатда ижодкорлик қобилиятини ифодалайди, ўқув топшириқларининг ижодкорликни рағбатлантиришга йўналтирилган ҳолда тузилиши тафаккурнинг мустақиллигини шакллантириш, интеллектнинг топқирлиги, янги ғоялар, ҳаракатларни ривожлантиришга туртки беради, деган фикрга келиш мумкин.

Хулоса қилиш ўринлики, креатив тафаккур тушунчасини фалсафий ва педагогик нуқтаи назардан таҳлил қилиш атамани яхлит ҳолда тушуниш имкониятни кенгайтиради. Тушунчани шундай англаш орқали бўлажак янги давр ўқитувчиларини тайёрлашда асосий йўналишлардан бири уларнинг креатив салоҳиятини орттиришга қаратилиши зарурлигини билдиради. Чунки, замонавий дунёда инвестициялар киритиш, глобал муаммоларга ечим топиш, илмий-техник тараққиётни ҳаракатга келтирувчи куч сифатида мутахассиснинг креатив тафаккури қаралмоқда.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси” URL: https://president.uz/uz/lists/view/5774
2. Боровинская Д.Н., Суровцев В.А. Креатиность и мышление: категориальная характеристика // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. – Томск, 2019. – №47. – С. 15-16
3. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа / Пер. с нем. Г.Г.Шпета, Коммент. Ю.Р.Селиванова. – М.: Акад. Проект, 2008. – 767 с.
4. Зубов В.П. Аристотель: Человек. Наука. Судьба наследия. Изд.3. – М.: УРСС, 2009. – 368 с.
5. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: «Питер», 2009. 2- с
6. Князева Е.Н. Природа креативности в зеркале креативности природы // Эпистемология креативности / отв. ред. Е.Н. Князева. – М.: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2013. – С. 10–47.
7. Мардонов Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий қадриятлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: пед. фан. док... дисс. – Тошкент, 2006. – 302 б.
8. Морозов А.В. Креативная педагогика и психология: учебное пособие / А.В.Морозов, Д.В.Чернилевский. – 2-е издание, исправленное и дополненное. – М.: Академический проспект, 2004. 301- с.
9. Сериков В.В. Обучение как вид педагогической деятельности: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2008. 19-с.
10. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthess report, UNESCO, 2016 – URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000244022
11. Философское обоснование креативности в мышлении – URL: https://ozlib.com/843454/meditsina/filosofskoe_obosnovanie_kreativnosti_myshlenii
12. Фозил одамлар шаҳри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. 164-б
13. Шеров М.Б. Креатив тафаккур ҳақидаги фалсафий қарашлар эволюцияси– URL: file:///C:/Users/Ultrashop/Downloads/ kreativ-tafakkur-a-idagi-falsafiy-arashlar-evolyutsiyasi%20(1).pdf

14. Шиянов Е.Н. Развитие личности в обучении / Е.Н.Шиянов, И.Б.Котова. – М.: Академия, 1999. 76-с.
15. Шульга Е.Н. Философия креативности: важнейшие вехи изучения творчества // Философия творчества. Ежегодник. Вып. 2. – М., 2016. – С. 5.
16. Шермухамедова Н.А. Фалсафа ва фан методологияси. – Тошкент: Алоқачи, 2008. 15-б.
17. Педагогика: энциклопедия. II жилд / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2015. 52-б.
18. Краевский В.В. Содержание образования: вперед к прошлому. – М.: Педагогическое общество России, 2001. – 36с.
19. Блонский П.П. Психология и педагогика. Избранные труды. – 2-е изд., стер. – Москва: Издательство Юрайт, 2016. – 87-89-с.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 5 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*23.00.00 – Сиёсий фанлар*

**Фаррух Эшмаматов Эшқобил ўғли,**
ЎзДЖТУ, Ёшлар билан ишлаш, маънавият ва
маърифат бўлими бошлиғи

## СИЁСИЙ МАФКУРА – ЖАМИЯТ РИВОЖИ ВА ШАХС ФАОЛИЯТИНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИНИ БЕЛГИЛАБ БЕРУВЧИ МУҲИМ ҒОЯЛАР ТИЗИМИ СИФАТИДА

**Аннотация.** Мазкур мақолада сиёсий мафкура категорияси, мафкуравий сиёсат юритиш ижтимоий-сиёсий жиҳатлари, ўзига хос ижтимоий-ғоявий усуллари ва воситалари, жамият барқарорлигини таъминлашжа мафкуравий сиёсат олиб боришнинг муҳим омиллари таҳлил қилинган. Шунингдек, жамият ривожи, инсон фаолиятининг амалий аҳамиятини белгилайдиган устувор қадриятлар, тизимлар ва жараёнлар бевосита сиёсий мафкуранинг моҳиятига асосланиши назарий жиҳатдан ёндашилган.

**Калит сўзлар:** мафкуравий сиёсат, ғоялар, қарашлар, Янги Ўзбекистон, иқтисодий-ижтимоий тараққиёт, мафкуравий жараёнлар, жамият ривожи, демократик тизим, гуруҳ, қадрият.

---

**Фаррух Эшмаматов**,
УзГУМЯ, начальник отдела
работа с молодежью, духовность и образования

## МЕТОДОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА

**Аннотация.** В данной статье разработаны несколько методов организации и развития образовательного процесса на основе цифровых технологий в условиях образовательного кластера. Эти методы созданы на основе опыта и выводов З.К.Бектуривой и Н.Н.Вагаповой.

**Ключевые слова:** цифровое образование, методика обучения, современные технологии, Google, З.К.Бектурива и Н.Н.Вагапова.

---

**Farrukh Eshmamatov**
USLWU, head of the department of
youth work, spirituality and education

## POLITICAL IDEOLOGY - AS A SYSTEM OF IMPORTANT CONCEPTS TO DETERMINE THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND PERSONAL ACTIVITY

**Abstract.** This article analyzes the category of political ideology, socio-political aspects of ideological politics, specific socio-ideological methods and tools, important factors of ideological politics ensuring the stability of society. Also, it is theoretically approached that priority values, systems and processes that determine the practical significance of the development of society, human activity are directly based on the essence of political ideology.

**Key words:** ideological politics, ideas, views, New Uzbekistan, economic and social development, ideological processes, development of society, democratic system, group, value.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N46

Мафкуравий сиёсат юритишнинг асосий омиллари аввало, жамият сиёсий жараёнлари билан ҳамоҳанг равишда кечади. Мафкуравий сиёсат – муайян ғоявий қарашлар тизимини одамлар онгига сингдириш, зарарли маънавий-мафкуравий таъсирлар, турли кўринишдаги тазйиқларнинг олдини олишга қаратилган услуб ва воситалар ҳамда уларни ишлаб чиқиш, тартибга солиш ва бошқариш билан боғлиқ фаолият мажмуи ҳисобланади.

Бундан ташқари, мафкуравий сиёсатни мафкуравий вазифаларни амалга ошириш учун бўлган ҳаракат тарзида ҳам тушуниш мумкин. Бу вазифалар муайян халқ ва давлатнинг дунё ҳамжамиятида тутган ўрни, нуфузи, халқаро иқтисодий-маданий, сиёсий, дипломатик алоқалардаги мавқеи, тараққиёт даражаси каби бир қатор кўрсаткичлардан келиб чиқади.

Мафкуравий сиёсат ички ва ташқи омилларга ажратиб олинадиан бўлса, одатда, ички ҳамда ташқи мафкуравий сиёсат бир-биридан фарқланади. Ички мафкуравий сиёсат мамлакат, халқнинг ўз олдига қўйган стратегик мақсадларидан келиб чиқиб, тараққиётнинг янги бир босқичга кўтарилиши учун фуқароларни сафарбар қилиш вазифасини ўтайди. Ташқи мафкуравий сиёсат эса, ўз халқи ва мамлакатининг халқаро майдондаги нуфузини мустаҳкамлаш, мустақил тараққиётнинг халқаро муносабатлар билан боғлиқ жиҳатларини таъминлаш ҳамда бегона мафкураларнинг таъсиридан ҳимоя қилишга қаратилган бўлади [1; 85-б].

Мафкуравий сиёсат юритиш қандай олиб борилишига қараб уни ички ва ташқига ажратиб олиш мумкин. Унинг умуминсоний тамойиллар асосида назарий жиҳатдан ўз аҳамиятини топиб бориши ташқи омилини кўрсатиб берса, маълум бир миллат, жамият манфаатлари мақсадларидан келиб чиқиши ички стериотларга таянишини кўрсатади.

Мафкуравий сиёсатнинг самарадорлиги унинг қандай воситалар, усуллар ва шаклларда юритилишига боғлиқ. Бу ўринда ижтимоий тараққиётдаги турли гуруҳлар, синфлар ва қатламлар манфаатларининг ҳисобга олиниши муҳим аҳамиятга эгадир. Мафкуравий таъсир ўтказиш йўллари омма учун қанчалик яқин, тушунарли ва табиий бўлса, ижтимоий-гуманитар фанлар ютуқларига таянган ҳолда ташкил этилса, мафкуравий сиёсат шунчалик самарали бўлади [2; 185-б].

Баъзи бир сиёсатшунослик тадқиқотларида, мафкуравий сиёсат – бу одамларнинг фикри ва ҳаракатларини кўп нарсаларга, жумладан, миллат, ирқ, ҳукуматнинг роли ва функцияси, мулкий ва синфий бўлинишлар, эркаклар ва аёллар ўртасидаги муносабатлар, табиий муҳит учун инсон масъулияти ва бошқаларга нисбатан шакллантирувчи кўплаб ғоялар тизими [3; 1-б] , тарзида ифодаланади. Бизнинг назармизда ҳам, мафкуравий сиёсат юритиш жамият ижтимоий-ғоявий усуллар ва воситаларнинг қандай юритилиши билна бевосита боғлиқ бўлади.

Шу ўринда сиёсий мафкура категориясни изоҳлаш ўринли бўлади.

Сиёсий мафкура (гр. идеа – тушунча ва логос – таълимот, сўздан) – сиёсий ҳаётга оид ғоялар, қарашлар, тушунчалар, сиёсат оламини тушунтириш йўллари тизими бўлиб,

у қадриятлар, муайян сиёсий ҳодисалар, жараёнларга йўналишлар, тузилмаларга асосланади.

Бу сиёсий фаолиятнинг турли субъектлари манфаатларини ифодаловчи ва уюшган сиёсий ҳаракатнинг назарий асосини яратувчи ғоялар тизимидир [4; 1-б].

Сиёсий мафкура – бу давлат сиёсатини асослаш, тушунтириш, баҳслашиш ёки ўзгартиришга уринишга ҳаракат қилувчи ғоялар, қадриятлар ва қарашлар асоси, негизидир.

Яна бошқа бир манбада, сиёсий мафкура – бу ижтимоий ҳаракат, муассаса ёки катта гуруҳнинг ахлоқий идеаллари, тамойиллари, таълимотлари, афсоналари ёки рамзлари йиғиндисидир. Ушбу сиёсий мафкуралар жамият қандай ишлаши кераклигини тушунтиради ва маълум бир ижтимоий тузумнинг режасини таклиф қилади [5; 1-б]. Аслида ҳам, сиёсий мафкура давлат ва жамиятда амал қилиши лозим бўлган сиёсий жараёнлар фаолиятини маълум маънода белгилаб берувчи муҳим восита бўлиб келади.

Ҳар қандай сиёсий ҳаракат ўзининг характерига, йўналишига, вазифаларига, мақсадларига мос келадиган маълум сиёсий мафкура билан ифодаланади, мафкуранинг вазифалари тегишли кучларнинг сиёсий ва бошқа манфаатларини назарий асослаш билан чекланиб қолмайди. Уларнинг ҳаракат дастурини шакллантириш, сиёсий ҳаракатнинг йўналиш ва мақсадларини белгилаш, рағбатлантирувчи ва иродани шакллантирувчи омил бўлиб хизмат қилиш учун мўлжалланган [6; 407-б] .

Қолаверса, сиёсий мафкураларнинг қуйидаги дифенецияда ҳам кўриб чиқиш мумкин: анархизм – ҳокимиятнинг барча шаклларига қарши бўлган ва иерархиянинг беихтиёр ва кучли тушунчаларини рад этадиган сиёсий фалсафа ва ҳаракатнинг бир тури. Анархизм исталмаган, кераксиз ва зарарли деб ҳисоблаган давлатни йўқ қилишга чақиради. Тарихий жиҳатдан, у одатда антикапитализм ва социализм билан боғлиқ; авторитаризм – сиёсий плюрализмни рад этувчи сиёсий мафкура шакли. У ўзининг сиёсий мақомини сақлаб қолиш учун кучли марказий ҳокимиятдан фойдаланади. Авторитаризм режимлари табиатан автократик, олигархик ва ҳарбий бўлиши мумкин. Ҳарбий диктатуралар авторитаризмнинг энг кенг тарқалган намуналаридир; коммунитаризм – бу шахс ва жамият ўртасидаги алоқани таъкидлайдиган мафкура. Унинг асосий эътиқоди шундаки, шахснинг ўзига хослиги ва шахсияти жамият ичидаги муносабатлар орқали шаклланади, ривожланишнинг кичик даражаси индивидуализмга таъсир қилади; коммунизм – бу ижтимоий, фалсафий, сиёсий ва иқтисодий мафкура бўлиб, унинг асосий мақсади умумий мулк мавжуд бўлган ва ишлаб чиқариш воситаларига ижтимоий синфлар, пуллар ва бошқалар мавжуд бўлмаган умумий оммага тегишли бўлган жамиятни шакллантиришдир; консерватизм – анъанавий ижтимоий институтларни тарғиб қилувчи ва сақлаб қолишга интиладиган маданий, ижтимоий ва сиёсий фалсафа. Консерватизмнинг асосий тамойиллари минтақанинг анъаналари ва амалиётига қараб минтақадан минтақага фарқ қилиши мумкин, аммо уларнинг барчаси модернизмга қарши ва анъанавий қадриятларга қайтишга интилади; корпоратизм – бу жамиятни қишлоқ хўжалиги, меҳнат, ҳарбий, бизнес, илмий ёки гилдия бирлашмалари каби корпоратив гуруҳлар томонидан уларнинг умумий манфаатлари асосида ташкил этилишини ёқлайдиган сиёсий мафкура; демократия деганда халқ ўз бошқарувчи қонун чиқарувчиларни танлаш ёки қонунчилик бўйича қарор қабул қилиш ваколатига эга

бўлган бошқарув шаклини англатади; фашизм авторитаризм, ўта миллатчилик тарафдори бўлган, диктатура ҳокимияти хусусиятларига эга, мухолифатни зўрлик билан бостириш, жамият ва иқтисодиётнинг қаттиққўллиги билан ажралиб турадиган сиёсий мафкура [7; 1-б].

Сиёсий мафкураларнинг бу тарзда туркумланиши ҳар давлат жамият моҳиятидан келиб ўзига хос бўлган сиёсий жараёнлар ва сиёсий қарашлар билан боғлиқ ҳолда шаклланади.

Юқоридагилардан ташқари, сиёсий мафкуранинг яна қуйидаги синфлари ҳам бошқа бир манбаларда ажратиб кўрсатилади. Булар: традиционализм – бу таълимот энг қадимгиларидан бири бўлиб, XVII асрда пайдо бўлган. Ушбу таълимот жамиятни ривожлантириш масалалари соҳасидаги кураш ғоясига тўғри келади. Бу таълимот асосида монархия шаклланди, сиёсий фикрнинг бошқа соҳалари каби консерватизм ҳам дунёга келди, бу эса келажакда либерализмнинг ривожланишига, шунингдек, маърифатпарварлик ва инқилобларга асос бўлди; реформизм жамият ҳаётидаги ислоҳотлар зарурлигига қаратилган турли йўллар билан эришиш мумкин бўлган давлатлар. Масалан, инқилоб қилиш, ҳар қандай сиёсий жараёнларни заифлаштириш ёки кучайтириш, мафкура ёрдамида жамиятга таъсир ўтказиш ва ҳоказолар бу соҳадаги тегишли усуллардан биридир; либерализм – бу тенденция нисбатан узоқ вақт олдин пайдо бўлган, унинг аждоди эди. Ж.Локк ва А.Смитларнинг ғоялари асосида янги ғояларнинг шаклланиши, яъни буржуазиянинг ўрнатилиши жараёни содир бўлди. Буржуазия иқтисодий мустақиллик ва фаолликка асосланади, шунингдек, сиёсий соҳа ва давлат ҳокимиятига нисбатан ўз даъволарини билдиради, либерализм инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари бузилмас ва туғилишдан унга тегишли эканлигига, улар жамият манфаатларидан устун бўлишига асосланади [8; 1-б].

Шуни ҳам ҳисобга олиш керакки, сиёсий фаолиятнинг йўналиши ва усуллари жамиятнинг оқилона тузилиши ҳақидаги ғоялар ва инсон ҳаракатларининг амалий аҳамиятини белгилайдиган устувор қадриятлар, тизимлар ва жараёнлар сиёсий мафкура моҳиятини белгилайди.

Қолаверса, сиёсий мафкура қуйидаги функцияларни бажаради: муайян ижтимоий ҳамжамият (гуруҳ, синф, миллат) манфаатларини ифодалаш ва ҳимоя қилиш; жамоатчилик онгига уларнинг сиёсий воқеаларни, сиёсий тарихни баҳолаш мезонларини жорий этиш; умумий баҳолар, қадрият йўналишлари, сиёсий ғоялар асосида одамларнинг интеграцияси (бирлашиши); одамларнинг хулқ-атворини умумий мафкуравий нормалар ва қадриятлар асосида ташкил этиш ва тартибга солиш; сиёсий хулқ-атвор мотивларини асослаш ва ижтимоий ҳамжамиятларни белгиланган вазифаларни амалга оширишга сафарбар этиш; ҳокимиятни қонунийлаштириш: ҳукмрон элита фаолиятини оқилона асослаш (оқлаш) [9; 1-б]. Умумий маънода мафкуравий нормалар, мезонлар ва қадриятларни тартибга солишда сиёсий мафкура бўлган талаб юқори бўлади. Қадриятга ва легалликка асосланмаган жамиятлар сиёсий мафкураси мурт бўлиши турган гап.

Бундан ташқари, айрим хорижлик соҳа вакиллари сиёсий мафкура бир қатор ижтимоий функцияларни бажаришини таъкидлашади: сиёсий маконда шахслар ва гуруҳларнинг ўзини-ўзи идентификациялаш; ҳукмрон кучлар ҳокимиятини ёки мухолифатнинг ҳокимият ҳуқуқини қонунийлаштириш; гуруҳлар ва қатламлар

манфаатларини ифодалаш; фуқароларни сафарбар этиш ва интеграциялашуви, улар томонидан мақсадли (йўналтирилган) ҳаракатларни рағбатлантириш; ижтимоий ҳаётдаги муваффақиятли ўзгаришларга умид билан ижтимоий норозиликни қоплаш. Бу функциялар мафкуранинг умумий аҳамият ва меъёрийликка даъво каби хусусиятлари туфайли амалга оширилади.

Ҳар қандай мафкура бошқа мафкуралардан устун бўлишга интилади, илгари сурилган ғояларни амалга ошириш йўлида дунёни ўзгартириш миссиясини эълон қилади. Мафкуралар томонидан илгари сурилган ижтимоий идеаллар ўз тарафдорларининг маданий (қадрият ва меъёрларга) садоқати туфайли амалга оширилиши мумкин. Мафкура сиёсий хулқ-атворни мотивация қилиш шакли сифатида демократик тизимларда фақат гуруҳ манфаатларини концепциялаш босқичларида қўлланилади [10; 16-б], дейди хорижлик соҳа вакили Н.Сирота.

Сиёсий мафкуранинг бир неча даражалари ажратиб кўрсатилади: 1) назарий, концептуал (энг мавҳум даража) бунда маълум бир синф, миллат, давлатнинг идеаллари ва қадриятлари очиб берилади, асосий қоидалар жамиятнинг асосий соҳаларига нисбатан шаклланади; 2) дастурий-сиёсий, бу даражада мослашув содир бўлади, ижтимоий-фалсафий тамойиллар тилидан дастурлар ва шиорлар тилига элита ёки қарама-қарши элита талабларини таржима қилиш, бошқарув қарорларини қабул қилиш учун меъёрий асос шаклланади; бу даражадаги талаблар имкон қадар кўпроқ одамлар учун очиқ бўлиши, уларни сиёсий ҳаракатларга йўналтириши; 3) янгиланган, муайян мафкуранинг ғоялари, мақсадлари, тамойилларини ўзлаштириш даражасини, унинг таъсирини белгилайди; айнан мана шу даража элитага жамоатчилик фикрини ўрганиш орқали шахс ва жамият ҳаётини бошқарадиган ташкилий, тартибга солиш, назорат қилиш тизими вазифасини бажарувчи сиёсий мафкуранинг таъсир даражасини, ишончлилигини аниқлаш имконини беради [11; 332-б]. Бундай даражаларга бўлинишининг ўзи хос жиҳати шундаки, ҳар қандай мафкура маълум бир дастур ёки мақсад асосида юзага чиқишини инобтага олганда, сиёсий мафкура аввало, назарий асосларга эга бўлган ҳолда тизимли чоралар кўриб бориш ҳамда унинг иштирокчилари ва уларнг вазифаларини кўрсатиб бериши орқали ҳам конкретлашиб боради.

Ҳар бир ижтимоий гуруҳ ва унинг сиёсий ташкилотлари, партиялари ўзининг мафкурасига эга. Шунга қарамасдан, ҳукмрон синфлар ғоялари ҳукмрон мафкура вазифасини бажаради. Маълум омма манфаатларига ҳукмрон мафкура зид бўлса-да, улар ҳукмрон синфнинг ғояларига амал қилишга мажбурдир. Бунинг қатор сабаблари бор. Биринчидан, моддий ишлаб чиқаришга ҳукмронлик қилувчи гуруҳлар, табақалар маънавий воситаларининг ҳам эгасидир. Иккинчидан, ҳукмрон синфлар, гуруҳлар қандай йўллар ва воситалар билан бўлмасин ўз иродалари, қарашлари ва тасаввурларини маълум оммага зўрлаб сингдиради. Ҳокимият тепасида турган кучларнинг барча мафкуравий ташкилотлари, қуроллари ҳам уларнинг мафкураларини акс эттиради. Қарама-қарши синфларга бўлинган жамиятда ягона, яъни барча синфларга бир хилда тенг хизмат қиладиган мафкуранинг бўлиши мумкин эмас. Жамиятда қайси синф ҳукмрон бўлса, унинг мафкураси хам ҳукмрон бўлади [12; 130-131-б]. Бунда мафкуравий сиёсатнинг муҳимлигини эсдан чиқариб бўлмайди. Мафкуравий сиёсат ижобий характер касб этган ҳолда сиёсий жараёнлар билан халқ ва жамият сиёсий тафаккур тарзини, онгини шакллантиришни назардан четда

қолдирмаса, бошқа тоифадаги, яъни маълум мақсад, юштирувчилик ва ҳукмронлик қилишга одатланган афкуравий сиёсат юритиш нафақат фуқаролар, балки жамият ижтимоий жараёнларини ҳам ўз қўл остига қаттиққўллик билан олиб боришни асосий мезонига айлантиради.

Мафкура бевосита давлат ва жамият ривожига у ёки бу даражада таъсир этади. Мафкуранинг давлат, жамият ва инсон ўртасидаги муносабатларини белгиловчи ахлоқий мезонлар уйғунлиги умуминсоний қадриятларга қанчалик асосланганлиги даражаси билан давлат равнақи белгиланади ёки халқаро ҳамжамият эътирофига сазовор бўлади. Яъни, ахлоқ инсон орзу-интилишларининг маърифийлигини таъминловчи мезон бўлиб, разолат ва жаҳолат йўлларини тўсувчи омил бўлиб хизмат қилади.

Демократик ривожланиш йўлини танлаган жамият, тоталитаризмдан фарқли равишда, мафкуралар хилма-хиллигига асосланади. Жамият ижтимоий ривожланишида мафкура хилма-хиллигини жорий этиш, адолининг миллий-тарихий турмуш ва тафаккур тарзидан, халқ анъаналари ва урф-одатларидан келиб чиққан ҳолда амалга оширишни тақозо этади [13; 90-б].

Демократик, ҳуқуқий давлатда бирорта синфнинг, сиёсий партиянинг, диний конфессиянинг, оқимнинг ёки мазҳабнинг мафкураси расмий давлат мафкураси сифатида ўрнатилиши мумкин эмас. Чунки расмий мафкура бошқа мафкураларни сиқиб чиқаришга ҳаракат қилади ва ҳурфикрлиликка, ғоялар рақобатига, баҳсига путур етказади. Бу эса, охир-оқибатда, догматизмга ва мутаассибликка йўл очади, иқтисодий ва маънавий турғунликни, инқирозни келтириб чиқаради.

Хусусан, коммунистик мафкура айни миллий манфаатларни ҳисобга олмаганлиги, миллий дунёқараш, туб аҳоли руҳияти, кайфияти ва ақидалардан узоқлиги, турмуш тарзи ва анъаналарни ўзида ифода этолмаганлиги учун ҳам инқирозга учради.

Коммунистик мафкура ўзининг қотиб қолган ва чекланганлик иллатлари билан ақолини жамиятдан, мамлакатни оламдан ажратиб қўйди. Маънавий-маърифий ва тарғибий-ташвиқий тизимнинг бир қолипга тушиб колганлиги илмий догматизмни, ғоявий демогогияни вужудга келтирди. Тафаккур тараққиётига тўсиқ бўлди [14; 16-б]. Аслида ҳам халқ кўнглидан, қарагларидан, тафаккур тарзидан жой ололмаган ҳар қандай шаклдаги мафкуравий жара ёнлари ўз моҳиятини аста-секин йўқотиб боради.

Сиёсатшунос олим Ш.Пахрутдинов: Коммунистик мафкура илгари сурган кўпгина мақсадлар парадоксал кўриниш ва ўзига хос шаклда мафкуравий курашлар тазйиқи остида буржуазия либерал қадриятларини қўллаган мамлакатларда амалга оширилди [15; 144-б] , дейди. Ннатижада коммунистик мафкуранинг халқчил мақсаддан йироқлиги охир-оқибатда уни тазйиқидан халқни бездирди.

Маҳаллий олимларнинг таъкилашича, истибдод мафкураси – босиб олинган халқ ёки юртни турли йўл ва воситалар билан тутқунликда сақлаб қолишга, унда яшайдиган кишилар тафаккурини қарам қилишга қаратилган ғоявий қарашлар, мафкуравий усуллар тизимидан иборат. Ваҳоланки, истибдод бирон-бир давлатнинг ўз иқтисодий, сиёсий, маданий, геостратегик ва бошқа тор манфаатларидан келиб чиққан ҳолда бошқа халқ ёки давлатни босиб олишга интилган, босиб олган, унинг маданияти, тили, урф-одатларини йўқ қилишга, барча соҳаларда ўз ҳаётий стандартларини, қарашларини

зўрлик билан жорий этишга уринган жойда ва вақтда юзага келади. Истибдод мафкураси эса, ана шундай тафаккур тарзи ва амалиётининг гўё тўғри эканини ҳар томонлама асослашга, тушунтиришга, адолатли деб баҳолашга ва кенг халқ оммаси онгига сингдиришга қаратилган қараш ва ғоялар тизимидан иборат бўлади [16; 163-б].

Бундан ташқари, маънавий ривожланиш тўхтаган жойда иқтисодий- ижтимоий тараққиёт ҳақида, жамият ривожи ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Том маънода жамиятда барқарорлашув кечмайди. Агар жамият мафкураси фуқаролар манфаатига қаратилганлигига шубҳа бўлса, ўз мақсадини жамият ривожидан ташқари мақсадлар билан уйғунлаштирган бўлса, бундай мафкура вақти келиб ўз моҳиятини, кучини ва сиёсий аҳамиятини йўқотади.

Шуни ҳам таъкилаш лозимки, мафкуравий воситаларнинг таъсири сиёсий жараёнларга бевосита боғлиқ бўлиб келган. Фақат буни фуқароларга моҳиятини тўғри тушунтириш ўз самарасини беради, мафкуравий жараёнлар инсонлар манфаатидан чекга чиқмайди. Мафкура тизимини жамиятнинг мураккаб тизимининг ички муносабатлари билан ифодаланган маълум бир шакл сифатида ўз нормаларини ўзлаштириш жараёни доирасида кўриб чиқиш мумкин. Шунинг билан бирга, мафкура ўз талқинлари орқали ўзининг асл моҳиятини яширади.

Сир эмаски, ҳозирги вақтда аксарият одамлар “мафкура” деган сўзга бироз ҳадиксираб қарайди, уни демократик жамиятга бегона деб ҳисоблайди. Лекин биз мафкура деганда, аввало, фикр тарбиясини, миллий ва умуминсоний қадриятлар тарбиясини тушунамиз. Шу муносабат билан таъкидлаб айтмоқчиман: биз барпо этаётган Янги Ўзбекистон мафкураси аввало инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик мафкураси бўлади. Ўзбекистон тараққиётининг бугунги жараёнлари миллий ғоя ва маънавий янгиланиш йўналишида ҳам жамият ва давлатимиз ривожининг янги босқичи бошланганидан далолат беради [17; 356-б]. Бунга миллий тараққиётга эришиш асосий омил вазифасини ўтайди. Миллий тараққиёт мафкураси жамият фаровонлигини, фуқаролар манфаатларини тахминлашнинг кафолати бўлиб хизмат қилади.

Миллий тараққиёт мафкураси ижтимоий ҳаёт муаммоларидаги «ишонч» тизими сифатида халқимизнинг фикри, ҳис-туйғулари ва хатти-ҳаракатларининг тузилиши ва йўналишига кучли таъсир кўрсатади. Уни ижтимоий назария ва ижтимоий амалиёт ўртасидаги узатиш камарига қиёслаш мумкин. Мазкур мафкура халқимизнинг келажакдаги мақсадлар, идеаллар ва хулқ-атворнинг меъёрий стандартларини ўрнатади, бунда шахсда қайд этилган хусусиятлар тизимли инқирозни бошдан кечираётгани сифатида қабул қилинди.

Зотан, давлатимиз раҳбари Ш.А.Мирзиёев таъкидлаганларидек: “Жамиятимизда аҳоли, айниқса, ўғил-қизларнинг маънавий-маърифий савиясини мунтазам юксалтириш муҳим аҳамият касб этади”. Бундакй шароитда мафкуравий тарғиботишларини тизимли ва йўл қўйиш самарали ислоҳотларга йўл очади.

Тинчлик ва фаровонлик, жамият ва миллат манфаатларини муштакарликка, шу асосда кўра оладиган мафкуравий жараёнлар сиёсий фаолиятдан куч олади, уни тўлдириб боради, бунда мафкуравий муносабатларнинг ҳам ўзига хос аҳамияти бор. Мафкуравий сиёсат олиб бориш жамият аъзоларининг давлат ва жамият ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий фаолиятидан хабардор бўлиш, ижтимоий жараёнлардан тўғри хулоса чиқариш, ва бу ўз навбатида, жамият равнақи ва фуқаролар

фаровонлигини учун муҳим ҳисобланади. Бу омиллар инсон тафаккури ва ақл-заковати орқали ривожланиб боради.

Давлатимиз раҳбари: “Мафкура соҳасида бўшлиқ деган нарсанинг ўзи ҳеч қачон бўлмайди. Чунки инсоннинг калби, мияси, онгу тафаккури ҳеч качон ахборот олишдан, фикрлашдан, таъсирланишдан тўхтамайди. Демак, унга доимо маънавий озиқ керак. Агар шу озикни ўзи яшаётган муҳитдан олмаса ёки бу муҳит уни қониқтирмаса, нима бўлади, айтинглар? Бундай озиқни у аста-секин бошка ёкдан излайди. Шунга йўл бермаслигимиз керак. Мана, гап нима ҳакида кетяпти! Бунинг учун ўзини жамиятимиз, ёшларимиз маънавияти, ғоявий-мафкуравий тарбияси учун масъул деб билган инсонлар – бу маҳалла ёки диний ташкилотлар бўладими, ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари ёки катта таъсир кучига эга ижодкор зиёлилар бўладими – уларнинг барчаси айниқса фаол бўлишлари лозим”, дейди [18; 484-б]. Зеро, мафкуравий тарбия ва маънавий ишлар жамиятда ижтимоий фаолият ривожланиб ижтимоий давлат мақомининг ошиб боришига хизмат қилади.

Қолаверса, мафкуравий жамият ва халқ манфати учун зарур бўлган фаолиятни ривожлантириш давлат бошқарувидан муҳим чора-тадбирлар қўллашни назарга тутадики, бу ўз навбатида, жамиятда ижтимоий ислоҳотлар маънавий-маданий жараёнлар билан интеграцилашувини юзага келтиради.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча, тамойиллар ва атамалар./Қисқача изоҳли тажрибавий луғат. Ижод. гуруҳ раҳбари Х.Султонов. –Т.: “Янги аср авлоди”. 2002. –Б. 85.
2. Муаллифлар жамоаси. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. -Т.: «Akademiya» нашриёти, 2007. –Б 198.
3. Электрон манба: https://political-science.iresearchnet.com/political-ideologies/.
4. Қаранг: Политика. Политическая идеология. https://obschestvoznanie-ege.ru/.
5. Электрон манба: https://byjus.com/free-ias-prep/political-ideologies-types-definitions/.
6. Власть. Политика. Государственная служба. Словарь. -М.: Луч. В.Ф.Халипов, Е.В.Халипова. 1996. Электрон манба: https://power_politics.academic.ru/407.
7. Қаранг: https://byjus.com/free-ias-prep/political-ideologies-types-definitions/.
8. Электрон манба: https://spravochnick.ru/politologiya/politicheskaya_ ideologiya.
9. Қаранг: Электрон манба: https://www.grandars.ru/college/sociologiya/osnovnye-politicheskie-ideologii.html.
10. Сирота Н. М. Идеология и политика: Учеб. пособие для студентов вузов. -М.: Аспект Пресс, 2011. -С. 16.
11. Политология: словарь-справочник. -М.: Гардарики. М.А.Василик, М.С.Вершинин и др. 2001. Электрон манба: https://political_science.academic.ru/322.
12. Ж.Туленов. Фалсафий маданият ва маънавий камолот. -Т.: «Меҳнат» нашриёти, 2000. -Б. 130-131.
13. Алимардонов Т. Сиёсат ва ахлоқ мувозанати. -Т.: «Янги аср авлоди», 2011. -Б. 90.
14. Ж.Нарзулла. Маънавият – одам ва олам халоскори. -Т.: «Маънавият», 2018. -Б. 16.

15. Пахрутдинов Ш. Барқарор тараққиёт ва рағбар масъулияти. -Т.: Akademiya, 2011. -Б. 144.
16. Қаранг: Муаллифлар жамоаси. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. -Т.: «Akademiya», 2007. –Б. 163.
17. Б.Матчанова. Миллий юксалиш ғоясининг инсонпарвар моҳияти./ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. International Scientific Conference. 2022. -Б. 356.
18. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараккиёт йўлимизни катьият билан лавом эттириб, янги боскичга кўтарамиз. -Т.: «Ўзбекисгон" НМИУ, 2017. -Б. 484.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3SI3Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3 (3)-2023 йил*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).